

G.O. ERNAZAROVA

**YOSHLARNI MA'NAViy
TARBIYALASHDA MUSIQiy
PEDAGOGIKANING
AHAMIYATI**



340.48
E-33

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

Ertazarova Gulnora Oblaqllovna

**YOSHLARNI MA'NAVY
TARBIYALASHDA MUSIQY
PEDAGOGIKANING AHAMIYATI**

Monografiya

- 3872 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

«ZEBO PRINT»
TOSHKENT - 2022

UO'K: 82(075.10)
K BK: 321ya52

MUNDARIJA

Ernazarova Gulnora Oblagulovna
Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda musiqiy pedagogikaning
ahamiyati [Matn]: monografiya. – Toshkent: «ZEBO PRINT», 2022.
– 188 b.

Mazkur monografiyada maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi musiqa mashg'ulotlarini, darslarini tashkil etish masalalari, musiqa o'qitishining nazariy asoslari, xorijiy mamlakatlardagi musiqa o'qitish tizimi, sinfdan tashqari musiqiy tarbiyani tashkil etish shaqi va yo'llari o'z ifodasini topgan.

Monografiya "Musiqiy ta'lim" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda "Musiqi madaniyati" o'quv fani o'qituvchilari, maktabgacha ta'lim muassasalardagi musiqa rahbarlari uchun mo'ljallangan.

Mulliflar:

G.O.Ernazarova – Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Umumiy pedagogika" kafedrasi professori, p.f.d.

Taqrizchilar:

p.f.d.,prof. X.Ibratimov – Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktori

p.f.d.,prof. Ximmataliyev D.O. – CDPUning "Pedagogika va
menegment" kafedrasi professori

ISBN 978-9943-8554-8-9

KIRISH	5
I BOB. MUSIQIY PEDAGOGIKANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	6
1.1. Musiqiy pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari	6
1.2. Musiqiy pedagogikaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi	8
1.3. Xorijiy mamlakatlarda musiqiy ta'lim-tarbiya tizimi	10
1.4. Tarbiy muhbalar sharti – oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy madaniyatni shakllantirish omili sifatida.....	14
1.5. Sharoq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar, fik'oyalar	19
II BOB. MUSIQIY PEDAGOGIKA DARSILARI	28
2.1. «Musiqiy pedagogika» darslarining maqsad va vazifalari.....	28
2.2. «Musiqiy pedagogika» darslarining xususiyati va tuzilishi.....	29
III BOB. MUSIQA O'QITUVCHISI VA UNGA BO'LGAN TALABLAR	33
3.1. Musiqi o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi	33
3.2. Musiqi o'qituvchisining ijodiy faoliyati	34
3.3. Musiqi o'qituvchisining pedagogik mahorati	35
3.4. O'zbek xalq pedagogikasida musiqiy tarbiya.....	35
IV BOB. MUSIQA O'QITISH METODLARI	40
4.1. Musiqi o'qitishning asosiy metodlari.....	40
4.2. Musiqi o'qitishning xususiy metodlari	42
V BOB. MUSIQA IDROKI (MUSIQA TINGLASH)	47
5.1. Musiqiy idrok – darsdagi yetakchi faoliyat turlaridan biri.....	47
5.2. O'quvchilarda musiqa idrokini rivojlantirish xususiyatlari	48
5.3. O'quvchilarda musiqa tinglash ko'nikmalarini shakllantirish metodlari	51
5.4. Darsda musiqiy asarni o'rganish bosqichlari	53
VI BOB. JAMOA BO'LIB KUYLASH – BOLALAR MUSIQA FAOLIVATINING OMMAVIY SHAKLI	57
6.1. Faoliyatning umumiy tavsifi	57
6.2. Bolalar ovozi rivojlanishining yosh davrlari bo'yicha xususiyatlari	58

6.3. Bolalar ovozin asrash metodlari	61
6.4. O'quvchilarda vokal-xor malakalarni rivojlantirish	62
6.5. Ovoz sozlash mashqlari	66
6.6. Qo'shiq o'rgatish bosqichlari va metodlari	67
6.7. O'quvchining qo'shiq ustida mustaqil ish rejasi	71
VII BOB. DARSDA MUSIQIY-RITMIK HARA-KATLAR	73
7.1. Faoliyat tavsifi	73
7.2. Darsda musiqiy-ritmik faoliyatni tashkil etishga o'quvchining tayyorgarligi	74
7.3. Darsda harakatlarni qo'llash uslublari	75
VIII-BOB. O'QUVCHILARDA MUSIQIY TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK AHAMIYATI	81
8.1. Ta'limda pedagogik innovatsiyalar	86
8.2. O'quvchining axborot madaniyatini shakllantirish	94
IX-BOB. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA KASBIY-AXLOQIY ME'YORLARINI TARBIVYALASHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI	100
9.1. Kasbiy axloq va uning tarixiy falsafiy negizlari	106
9.2. Sharq va G'arb allomalarning kasbiy-pedagogik axloq haqidagi qarashlari	112
X-BOB. ZAMONAVIY IJTIMOY - IQTISODIY RIVOJLANISH DAVRIDA O'QITUVCHILIK KASBIGA QUYILADIGAN TALABLAR	129
10.1. O'quvchi shaxsi va unga qo'yiladigan talablar	129
10.2. Professiogramma-zamonaviy pedagog shaxsining modeli sifatida	133
X-BOB. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA KASBIY AXLOQNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	165
11.1. Kasbiy-pedagogik axloqni shakllantirishda tarbiya va o'yin texnologiyalari imkoniyatlari	165
11.2. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarda kasbiy axloq me'yorlarini shakllantirishga qaratilgan o'quv tarbiyaviy ishlar mazmuni	169
Xulosalar	180
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	184

KIRISH

Insonning shaxs sifatida shakllanishida musiqa san'atining beqiyos ahamiyatini, uning ilohiyligini, ruhiyat bilan bog'liqligini o'tmish allo-malari doimo ta'kidlab kelganlar. O'zbek she'riyatining dahosi Alisher Navoiy o'z nasriy asarlarining birida bu haqda ajoyib fikrlarni bildiradi: «Sho'hratni oshiruvchi xonanda, g'ammi targatuvchi sozanda, insonning har ikkisi-ga hissiyoti kishilar va ahli dardlar jon fido qilalar. Ular muloyim tarona bilan kuylar ekanlar, eshituvchilarning naqd hayoti kuyga fido bo'lsa ne ajab? Axir, ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ovozdan oziq oladi».

Musiqaga yosh avlodning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni o'stirishga xizmat qiladi.

Musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari o'quvchining jiddiy kasbiy tayyorgarligi, o'quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan doimiy e'tibori asosidagina yuzaga chiqadi. Shu bilan bir qatorda musiqa o'qitishning samarasini belgilovchi muhim omillardan biri musiqiy metodik masalalarning nazariy jihatdan ishlab chiqilganligi va uning amaliyot bilan bog'liqligi darajasidir.

Musiqaga o'qitish metodikasi umumta'lim maktablarida musiqiy ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari, qonuniyatlari, nazariy asoslari va uslubiy yo'nalishlarini belgilaydi.

I BOB. MUSIQIY PEDAGOGIKANING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Musiqiy pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari

Hozirgi kunda musiqiy pedagogika o'ziga xos jihatlari bilan shakllanib, takomillashib, rivojlanib kelmogda. Musiqiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishida bir qator olimlar ya'ni, B.B. Nadejdin, A.F. Kozlovskiy, G.A. Mushel, M. Ashraf, N.M. Yablonovskiy, Ya.B. Pekar, Yu.G. Kon, M.N. Semenov, V.I. Knyazyatov, A.I. Petrovskiy, A. Ye. Morozov, U.R. Rizakulov, B.I. Zeydman, M.B. Reyson, A.M. Gekkelman, V.F. Pulatov, B.F. Gienko, X.F. Azimov, F. Sadikov, I. Radiabov, N. Xashimov, S. Qabulova, T. Alimatov, F.M. Karomatli, A.A. Adilov, R.D. Vil'danov, O.Yu. Yusupova va boshqalar o'z hissalari qo'shgan.

Musiqiy pedagogika – musiqa san'ati vositasida bola shaxsini maqsadga yo'naltirgan holda musiqa madaniyatini shakllantirish yo'llarini o'rganadi. Musiqa o'qitish metodikasi didaktik va xususiy tamoyillar, usul, vosita va metodlar yordamida musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish hamda uning umumiy va xususiy vazifalarini hal etish yo'llarini belgilaydi.

Umumiy vazifalarga – musiqaning tarbiyaviy ta'sir kuchini ko'rsatish, o'quvchilarda musiqaga bo'lgan muhabbatni, ehtiyojni o'stirish, musiqa tinglash jarayonini tashkil etish, musiqa madaniyatini shakllantirish va h.k. masalalar kiradi.

Xususiy vazifalarga esa qo'shiq o'rgatish usullari, ovoz diapazonini mustahkamlash va kegapitirishga yordam beruvchi mashqlarni tavsiya etish, musiqa idrokini, tinglash qobiliyatini rivojlantirish, musiqa savodini egallash bosqichlarini belgilash va h.k. masalalar kiradi.

Musiqiy pedagogika pedagogika-psixologiya fan sohalar bilan uzviy bog'liqdir. Bu esa zamonaviy hayotimizda jamiyat oldida turgan vazifalar, umumta'lim maktablari va o'quvchilar oldiga qo'yiladigan talablar, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, maktabda musiqiy ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularning rivojlanish istiqbolini belgilash imkoniyatini beradi.

Metodika o'z oldida turgan muammolarni hal etishda ham psixologiyaga tayanadi. Masalan, musiqa idroki, ijodiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bola ruhiyati, ongi, tafakkuri, xotirasi,

harvuri qonuniyatlari, uning ko'rinishlari, rivojlanish bosqichlari haqidagi bilimlarga, musiqiy qobiliyat, inson faoliyati nima ekanligi kabi bilimlarga tushunchalarga ega bo'lishi shart.

Musiqa o'qitish metodikasi umumiy ta'limning murakkab va ko'pgirahli maqsadlarini hamda musiqa ta'lim-tarbiyasi vazifalarini samarali hal etish uchun pedagogika va psixologiya fanlari bilan bir qatorda mustaqillik bilan ilmiy va musiqa ijrochiligi sohalariga ham tayanadi.

Musiqashunoslik ilmining musiqiy tarixiy-nazariy fanlar mazmuni o'quvchilarga musiqiy san'at xususiyatlarini yetkazish yo'llarini topishga, ularni hayotning musiqiy obrazlarda aks etishi, musiqiy ifoda vositalarining ahamiyatini tushuntirishda, musiqiy asarlarni ilmiy tahlil metodlari va texnologiyalarini aniqlashda yordam beradi. Musiqa tarixi, asosiy yo'nalishlar, uslub va janrlarning rivojlanishi, yirik kompozitorlarning o'ziga xos ijod yo'li haqidagi bilimlar maktab o'quvchilarning musiqiy didini tarbiyalash, ularning dunyovarashini kengaytirishga asos bo'ladi.

Har bir ijrochilik sinfi: yakkalash, dirijyorlik, musiqa asbobi bo'yig'ul muallimida o'quvchilar bilan ishlashda ularni ovozni saqlash va rivojlantirish, xor bilan ishlash musiqiy, asarni ifodalash ijroda ko'rsatish – o'quvchilarda musiqaga ijodkorlik hissi o'stirish malakalarini shakllantirish bilan metodikaga o'z hissasini qo'shadi.

Musiqa metodikasi fanining asosiy tushunchalari "tarbiya-ta'lim" – "rivojlantirish" va ularning o'zaro bog'liqligidir.

Tarbiya – pedagogikada tarbiya deganda bolalar, o'smirlar, yoshlarning jismoniy, ma'naviy kuchlarini rivojlantirish, ularning dunyovarashini shakllantirish tushuniladi.

Musiqa hayotini aks ettirishi, hayot bilan bog'liqligi, uning musiqa ijrochisi, ijrochisi va tinglovchisining musiqani tarbiya vositasiga aylantiradi. Musiqiy tarbiya jarayonida o'quvchida axloqiy, aqliy, estetik jismoniy sifatlarni tarkib topadi.

Ta'lim – bilimlar majmuasini o'zlashtirish jarayonidir. Xususan, musiqiy ta'lim o'quvchilarni turli musiqiy faoliyatlarga o'rgatish, musiqiy tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmalar berish va bu bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishi jarayonidir.

Rivojlantirish – eng oddiy, soddalashgan ko'rinishlaridan murakkablashga qarab takomillashish. Boshqacha aytganda, musiqiy qobiliyatlarining o'sishi va shakllanishi jarayoni rivojlanishni hosil

qiladi.

O'quvchilarga musiqiy ta'lim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish ishlari yaxlitlikda olib borilishi musiqa pedagogikasining eng muhim qonuniyatlardir.

1.2. Musiqiy pedagogikaning fan sifatida yuzaga kelish tarixi

Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish - bu insonning jismonan, aqlan mamaviy tomondan kamolga yetish jarayonidir. Bu jarayonning o'ziga xos obektiv va sub'ektiv tomonlari mavjud.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o'ynaydigan san'at turidir. Erasmizdan oldingi VII asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: «Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san'atda emasmi, zero, ritm va garmoni hammadan ko'proq shu vaqtda qalbga chuqur yo'l topadi va salobat baxsh etib, uni ko'rkam qiladiki, agar tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, aks holda uning teskarisi bo'lib chiqadi.

Uning shogirdi Aristotel (Aflotun) komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi: «Musiqa kishi ruhining axloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga, ta'sir etadi.» Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr Al-Farobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga aniq ta'sirini quyidagicha bayon etadi: «Bu fan shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l atvori muvozanatli yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tananing sog'lig'i uchun ham foydalidir».

Musiqa inson ruhi va aqliy rivojiga bebaho ta'sir o'tkazadi. Ch.Darvin umrining oxirlarida quvvati xotirasi va fikrlash qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilib yozadi: «Agar menga ikkinchi bor dunyoga kelish nasib bo'lganda edi, endigi hayotimda loqal xaftada bir marta bo'lsa ham, bir necha she'r o'qishni o'zingga qo'ida qilib olardim.» Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi hisoblanadi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo'shilishiga axloqiy soflik, san'atga va hayotga estetik munosabat - shaxsning to'laqonli kamolga yetishida muhim shartlardir. Bu olijanob maqsadga erishishda

to'g'ri yo'lga qo'yilgan bolalar musiqa tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Bolalar qobiliyati faol musiqa faoliyati davomida rivojlanib boradi. Qobiliyatlar deganda insonning kerakli ko'nikma, malaka, imlarni olish va uni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llay olishga qaratilgan psixologik xususiyatlari tushuniladi.

Ma'lum bir faoliyat turiga bo'lgan qobiliyat. Nerv tizimining (tizim) analizatorlari sezgirliigi, kuchi, nerv jarayonlarining harakatlanganligi, muvozanatlashganligi kabi omillar asosida rivojlanadi. Masalan: bir sinfda o'qiyotgan ikkita o'quvchiga o'qituvchi bir xil asar sherni etyudni beradi. Lekin o'quvchilardan biri etyudni bir xaftadan keyinroq, yana biri darhol chaqon, tez o'lashtira boshlaydi. Boshqa o'quvchi esa bu ishon bir oy o'tganda ham bajara olmaydi va ko'p xatolar qiladi. Muvaffaqiyatga erishishdagi bu farqni xoxlagan bir pedagog ana shunday holatlarda o'quvchilardagi qobiliyatlar darajasiga bog'laydi.

Tag'ma qobiliyatlarining irsiy berilishi, masalan: tibbiyot ilmid va uning muvofiq pedagogikada ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ichki tibbiyot bo'limiga berilgan ayrim oilalardagi bolalarda ba'zi bir irsiy ko'chib o'tadigan ruhiy kasalliklarga chalinish hollari uchraydi.

Sog'lom kishilar farzandlarida aqliy faoliyat darajasi va sifati yuqori bo'lishi kuzatiladi. Jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lgan kishilarda ma'hamotlilik hamda bilish jarayonlarining rivojlanishi ko'p jihatdan ular qanday sharoitda o'qitilayotganligi yoki qanday sharoitga qo'yilganligi bilan belgilanadi.

Hazning talim-tarbiya tizimimiz hamma o'quvchilar uchun bir xil imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga har bir kishida mavjud bo'lgan iqtidor, qobiliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratiladi, o'quvchilarga ularning individual o'ziga xosliklarini hisobga olgan xolda tabaqalashirilgan xolda yondashuvni inkor etmaydi. Qobiliyatlar namoyon b'lishi uchun esa uning egasi ko'p mehnat qilishiga to'g'ri keladi.

Xalqimizda «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqol bor. Har bir bola birinchi tarbiyani o'z ota-onasidan, oila-a'zolaridan, o'z atrofdagi yaqin kishilardan oladi. Oiladagi ijobiy muhit, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, bir-biriga bo'lgan hurmat va e'tibor, mehnatkorlik, o'zaro yordam va ularning musiqaga bo'lgan munosabatlari bolalarda dastlabki tushuncha va ko'nikmalarining rivojlanib

borishida asosiy o'rin tutadi. Bolalar shaxsi uning

faoliyati jarayonida tarkib topdi. Zotan, o'quvchining faoliyati juda maroqli, o'ziga xos go'zal va shaqll jihatidan rang-barangdir. Bu xil fazilatlar bolalarga xos bo'lgan doimiy ehtiyojga aylanganagina ulardagi faollik yanada ortadi. Maroqli va ma'naviy zavq beruvchi ana shu go'zal tuyg'u bolalar va o'quvchilarning ayniqsa, nafosat tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Binobarin, bolada namoyon bo'ladigan ilmiy badiiy-estetik tarbiya muhim ma'naviy go'zallikka puxta, zamin hozirlaydi.

Bolalar yoshlik xususiyatlarini e'tiborga olib uni ilk yoshidan tashkil qilish va yo'naltirish - pedagog vazifasidir. Aks holda bola rivojlanishida orqada qolish seziladi. Misol uchun bolalarni ilk yoshida musiqaviy tovushlarning balandligi bo'yicha ajratib borishga o'rgatilmasa u yetti yoshida bu vazifalarni uddalay olmaydi.

Musiqaviy rivojlanishning muhim xususiyatlari quyidagilardir:

-eshitish sezgisi, musiqaviy eshitish qobiliyati;

-har xil xarakterdagi musiqalarga emosional munosabatning sifati va darajasi;

Qo'shiq kuylashda, musiqaviy ritmik harakatlar bajarishda oddiy ko'nikmalar hosil qilish.

1.3. Xorijiy mamlakatlarda musiqiy ta'lim-tarbiya tizimi

Har bir mamlakatning musiqasi tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning ijtimoiy tuzumiga xizmat qiladi. Har bir xalqning maorifida musiqasi tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu milatning musiqasi madaniyati, tili va madaniy an'analarga asoslanadi. Shu bilan birga musiqasi tarbiyasining tuzilishi, tizimi va ilmiy-metodik yutuqlari boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.



Xorijiy mamlakatlarda yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Shuningdek, AQShda yagona davlat dasturi yo'q. Musiqasi pedagogikasi "estetika" fani sifatida o'qiladi. O'qituvchilar o'z-lari xohlaganlaricha darslarni tashkil qilish-tiradilar. Unda musiqasi, tasviriy san'at va

metodik mazmunan bir-biri bilan bog'lagan. Davlat maktablari bilan birga diniy hamda shaxsiy dunyoviy maktablar ham mavjud. Shuning uchun har bir shtatda, davlat maktablari, shaxsiy va diniy maktablarda o'quv soatlarni ham bir xil emas, o'rta hisobga I-VII sinflarda haftasiga 1-2 soatdan dars o'qiladi¹.

Angliya maktablarida burjua mamlakatlari jumladan, AQSH qatoligi, yagona dastur va uslubiyotining yo'qligi sababi mamlakatdagi musulmon tarbiya ishlarining ahvoli turli saviyadadir. Ijobiy misol tariqasida 1969-1970 yillarda Britaniya radio korporatsiyasining radio orqali 6-7 yoshdagi bolalar uchun tashkil etilgan 10 minutlik musiqasi eshittirish-larini keltirish mumkin².

Bu eshittirishlardan ko'zda tutilgan maqsad - bolalarning musiqasi cholg'ulari ijrochiligiga ko'rsatishni uyg'otish bo'lgan: bolalar radio eshittirish jarayonida musiqani ijro etishlari lozim bo'lgan. Keyinchalik bu dasturlar mag'nat tasmlariga yozilib, maktablarga, ulardagi "musiqasi burchak"lariga jo'natilgan.

Hozirgi kunda Angliya maktablari ko'proq D. Kerven (1816-1880) tomonidan ishlab chiqilgan relyativ tizimiga asoslangan o'qitish usullari qo'llanilmoqda.

Yaponiya - go'zallikni ulug'laydigan mamlakat, shuning uchun bolalarda estetik didni shakllantirish va rivojlantirishga bo'lgan intilish maktab o'quv rejasidagi «musiqasi» o'quv fanida o'z ifodasini topgan.

Birinchi sinfda o'quvchilar musiqasi bilan haftada uch marta, ikkinchidan to'rtinchi sinfga qadar - ikki marta, to'qqizinchi sinfga esa haftada bir marta shug'ullanadilar.

Ma'naviyatni olib boradigan pedagoglar o'rta ma'lumotli, akademiya esa maxsus oliy ma'lumotga egadirlar.

Yaponiyalik muallimlari I-sinf bolalarining musiqiy tarbiyasiga



¹ Сонина Д. Музыка ўқитиш назарияси ва методикаси. Ўқув-методик кўрсаткич. - Т.: Ўзбекистон давлат консерваторияси, 2009.

² Сонина Д. Музыка ўқитиш назарияси ва методикаси. Ўқув-методик кўрсаткич. - Т.: Ўзбекистон давлат консерваторияси, 2009.

alohida e'tibor beradilar, chunki aynan shu yoshdagi bolalarda o'quv faniga intilish va jiddiy munosabat tarbiyalanadi.

Birinchi sinfda o'quvchilar, ko'nikma-malakalarning butun bir majmuasini, ya'ni tovuшни to'g'ri chiqara olish, nafasni rostlash, dirijorning oddiy harakatlarini tushunish, qo'shni o'rganish hamda uni ijro etish, usulni his etish kabirlarni egallashlari lozim.

Bolalarga mutloq tizim asosida nota savodini o'rgatish, keyinchalik metallofon, lab garmonchasi va figgarmoniyada kuy ijro etish o'rgatiladi, shunday qilib qo'shiq ijrochiligi cholg'ular jo'mavozligi bilan to'ldiriladi.

Maktabdagi o'quv yili uch trimestrga bo'linib, 38 hafta davom etadi. Birinchi trimestrda bolalar ritmik jo'mavozligi, ikkinchisida esa musiqaga cholg'ularida murakkab bo'lmagan ikki ovozi mashqlar bajarishadi.



Birinchi sinfda bolalar musiqani eshitib, musiqaga asarining badiiy xususiyatlarini, sur'ati, registri, dinamika, tembrni belgilaydilar, oddiy uch-qismli (AVA) shaqlni aniqlaydilar. 6-sinfga kelib, bolalar murakkab musiqaga asarlarini ijro etadilar. Shunday qilib, musiqaga darslarida asosiy o'rin musiqaga cholg'u asboblari ijro etishga ajratilib, bu narsa hamma bolalarni ijodiy jarayonda faol ishtirok etishga jalb etadi va ularda

musiqaga qiziqish va muhabbatni uyg'otadi.



Musiqaga oid o'quv rejasi va dastur shu tarzda tuzilganki, bolalarning musiqaga ijrochiligi ishtiroki ularning musiqani eshitish qobiliyatining muttasil rivojlanirib beradi, ularni yanada murakkabroq musiqaga asarlarini tinglab, idrok qilishga tayyorlaydi. Maktab o'quvchilari I.S.Bax, A. Vival'di, V. Motsart, L. Betxoven, F. Shubert, F.

Mendel'son, M. Glinka, M. Musorgskiy, P. Chaykovskiy, N. Rimskiy-Korsakov, I. Stravinskiy, D. Shos-takovich, A. Xachaturyan asarlari bilan, shuningdek, G. Karayan, E. Shvartskopf, L. Kogan, D. Oystrox, S. Rixter kabi buyuk ijrochilar va ular yaratgan asarlar bilan tanishadilar. Emil Jak-Dalkroz (1865-1950) Shveytsariyalik pedagog, kom-

pozitor, musiqachi, yozuvchi va jamoat arbobi, musiqiy-ritmik tarbiya usuli yaratuvchisidir. 1910-yilda "musiqaga va ritm" maktabini Jenevada "Jak-Dalkroz" institutini tashkil qilgan. Keyinchalik Jak-Dalkroz ishi davomchilari Stokgol'mda, Londonda, Parijda, Venada, Barselonada, Nyu-York shaharlarida "Jak-Dalkroz" maktabi, "Jak-Dalkroz" institutlarini tashkil qilganlar. Jak-Dalkroz musiqiy dinamika va emosional harakatlari hamda obrazli mazmun, musiqaga ostida plastik harakatlarni jo'rligida musiqiy faoliyatga jalb qilish tizimini yaratdi.¹



Germaniyaning yirik nemis kompozitori va buyuk pedagogi Karl Orf (1895-1982) jahonda keng tarqalgan bolalar musiqiy tarbiya uslubiyotining asoschilaridan biri hisoblanadi. Jak-Dal'krozning o'quv tizimiga asoslanib K. Orf "Oddiy musiqaga" (elementar musiqaga) g'oyasini ishlab chiqdi va bu g'oyani Myunxendagi (Gyunter maktabi) gimnastika va rags maktabidagi o'qitish uslubiga aylantirdi. 1953 - yilda Avstriyaning Zol'tsburg shahrining Motsartum deb nomlangan musiqaga dargohida Karl Orf institutini tashkil topib, u AQSH, Angliya, Germaniya, Hindiston kabi 30 dan ortiq mamlakatlarni birlashtirgan baobro' ilmiy muassisaga aylanib ketdi.²



¹ Сонина Д. Музыка ўқитиш назарияси ва методикаси. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: Ўзбекистон давлат консерваторияси, 2009.
² Сонина Д. Музыка ўқитиш назарияси ва методикаси. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: Ўзбекистон давлат консерваторияси, 2009.

1.4. Tarixiy manbalar sharhi – oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy madaniyatni shakllantirish omili sifatida

Yosh avlodning hayot va san'atdagi go'zalliklarni teran idrok etishida, ularning madaniy tuyg'u va badiiy didlarini o'stirishda adabiyot, madaniyat va san'at katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham pedagogika fani, ta'lim amaliyotida o'ziga xos maktab yaratgan mashhur allomalari, olimlari, tarbiyachilari yosh avlodga beriladigan bilimlar tizimida musiqiy mazmun va mohiyat kasb etuvchi bilimlarga alohida ahamiyat berganlar. Ular musiqiy madaniyatga daxldor har bir mas'ulot shaxsining barkamol rivojlanishiga samarali ta'sir o'tkazishda muhim vositalardan biri ekanligini ta'kidlaganlar.

Xususan, Safiuddin Urmaviy (1216-1294), Qutbiddin Sheroziy (1236-1310), Abdulqodir Marog'iy (XIV asr), Mahmud Omuliy (vafoti 1349), Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Zaynulobidin Husayniy (XV asr), Najmiddin Kavkabiy (XVI asr), Darvish Ali Changiy (XVII asr) kabi allomalari Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Xorazmiylarning musiqqa ilmi haqidagi asarlari shunga misol bo'la oladi. X-XI asrlar Sharq musiqashunosligining yozma yodgorliklarini manbashunoslik va matnshunoslik jihatidan o'rganish XX asrning o'ttizinchi yillaridan qizg'in pallaga kirdi.

Bu xayriti ishning peshqadamini buyuk frantsuz olimi baron D'Yerlanje bo'ldi. 1930-1939 yillar davomida uning Parijda nashr ettirgan "Arab musiqasi" nomli ko'p jildlik asarida o'rta asrlarda arab tilida yaratilgan musiqiy nazariy risolalardan asosiy lari frantsuzcha erkin tarjimai, tahlili va sharhi bilan berilgan edi. Biroq bu ulkan ish tarkibiga risolalarning asl matnlari kirmagan.

Hozirgi kun nuqtai nazaridan musiqqa atamalarining sharhida noaniqliklar bordek tuyuladi. Bu noaniqliklar Sharq (arab) musiqqa atama va tushunchalarini Yevropa xalqlari musiqqa atama va tushunchalariga moslashga harakat qilishida bo'lishi mumkin.

Ammo D'Yerlanjening mazkur asari o'z qiyomatini yo'qotgan emas, o'rta asrlar Sharq musiqqa ilmi tegrishli risolalarni o'rganuvchilar uchun u hamon qimmatli manbadir. X-XI asrlarda O'rta Osiyodan chiqqan olimlar tomonidan arab tilida yaratilgan musiqqa ilmi o'id uch muhim asar qo'lyozmalari XX asr arab sharqshunoslari tomonidan tadqiq etilgan, tanqidiy matnlari tuzilgan va nashr etilgan.

Uchinchi, Ibn Sinoning "Musiqqa ilmi to'plami"ning tanqidiy matni 1956 yil Qohirada nashrdan chiqdi. Tanqidiy matn va kitob muqaddimasini Zakariya Yusuf tayyorlagan. Muqaddimada "Musiqqa ilmi to'plami"ning mavjud va ma'lum qo'lyozmalari haqida gap boradi. Kitobda Mahmud Ahmad Hafniyning kirish so'zi ham bor. Kirish so'zida o'rta asrlar Sharq musiqashunosligi, Kindiy, Forobiy va Ibn Sino musiqiy-nazariy qarashlari muhokama qilinadi va tanqidiy matni tayyorlashda foydalanilgan qo'lyozmalardan iktisadiga baho beriladi.

Umuman, Ibn Sinoning "Musiqqa ilmi to'plami" asarining tanqidiy matni uchun yozilgan muqaddima ilmiy jihatdan kamtarona yozilgan. Ikkinchi, 1964 yil Zakariya Yusuf Ibn Zaylaning "Musiqqa o'id to'liq kitob"ining tanqidiy matni chop etdi. Nihoyat, 1967 yilda G'attos Abdulmalik Hashaba Forobiyning "Katta musiqqa kitobi"ning tanqidiy matni ilmiy sharhi bilan e'lon qildi.

Mazkur tadqiqotga Mahmud Ahmad Hafniy muharrirlik qildi va kirish so'zi yozdi. Bundan tashqari, tanqidiy matn oldidan tadqiqotchi G'attos Abdulmalik Hashabaning muqaddimasi bor.

Usto'z Hashaba betma-bet berib borgan sharhlar hajmi tanqidiy matnning hajmidan ancha katta. Matnning sharhi ilmiy tomondan puxta jilozlangan. Tarixiylik tamoyilini tashkil etish biz kuzatgan OTM sharhida «Musiqqa adabiyoti» kursini o'qitish jarayonida Sharq mutafakkirlarining ta'limoti hamda zamonaviy yangi uslubiy-nazariy ma'lumotlarni talabalarga yetkazishda muhim ahamiyatga egadir. Bunda eng muhim vazifalardan biri xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, buyuk ajdodlarimiz-shoirilar, olimlarning merosini xalq mulkiga aylantirishdan iborat.

Shuningdek, yoshlarda xalqning o'z tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari bilan bog'liq manbalarga ishonchni o'rnatish zarurdir. Madaniy saviyaning shakllanishi va rivojlanishi ham ana shu jarayon bilan birga kechadi. Bu o'z navbatida tarbiyaning barcha jihatlarini bilan birga chambarchas bog'liq bo'lib, yuksak insoniy dunyoqarashning shakllanishi bilan uyg'unlashib ketadi.

Tadqiqotimiz jarayonida qimmatli tarixiy manbalar hisoblangan «Avesto», Ma'mun akademiyasi olimlari asarlari va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Mas'ihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Abdulloh ibn Yusuf

al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Sa'ibiyning ma'naviy axloqiy tarbiya haqidagi qarashlaridan musiqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ma'lumotlarni to'plash, o'rganish, ularni ma'ruzalar, seminar mashg'ulotlari, mustaqil ishlar jarayonida talabalarga taqdim etishga harakat qildik.

Tadqiqot vazifalariga muvofiq talabalarining musiqiy madaniyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari pedagogik qarashlar, tarixiy manbalar, talaba musiqiy tarbiyasiga oid fikr va g'oyalar, ularning pedagogika fanini rivojidadagi ahamiyati, mutaxassislar tayyorlashdagi imkoniyatlari, bu imkoniyatlarni pedagogika fanini o'qitishda foydalanishga qaratilgan model ishlab chiqish borasida amaliy ish olib borildi va amaliyotda sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilar uchun talabalarining musiqiy madaniyatini shakllantirish, «Avesto» va Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi allomalari qarashlari orqali talabalarda madaniy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirish mazmuni quyidagilardan iborat deb topildi:

1. O'qituvchi o'rganladigan fan, har bir mavzuning talabalar musiqiy madaniyatini shakllantirish va ularni o'qitishning boy merosi bilan tanishtirish imkoniyatlarini bilishi va hisobga olishi zarur.

2. Musiqiy madaniyatni shakllantirishning ildizlari qadim o'qitishga borib taqalishini, ta'lim-tarbiya masalalarini tarixiy va nodir manbalar bilan bog'lay olishi kerak.

3. Mutafakkirlar Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Abdulloh ibn Yusuf al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Sa'ibiyning pedagogik g'oyalarining asosiy yo'nalishlari, ularning inson, uning jamiyatdagi o'rni, fan va dinning o'zaro munosabatlari, tarbiyaning maqsadi, tarkibiy qismlari, musiqa va estetik tarbiya; ularni tashkil etish shakli va usullari, ta'moyillari, ta'lim jarayonlari bo'yicha gnoseologik qarashlarini bilishi muhim.

4. Sharq allomalarning musiqiy madaniyatni shakllantirishga oid fikr va g'oyalarini yoritib beradigan materiallarni har bir mavzuga zo'rmaso'raki emas, balki ularni o'quv rejasida ko'zda tutilgan o'quv materialni mazmuniga mantiqiy va tabiiy mos holda uyg'unlashtirish zarur.

5. Tanlangan material ilmiy, asosli, izchil, ishonchli, yorqin va ob'ektlar bayon qilinishi, talabalarining alohida qiziqish va e'tiborini jalb qilishi kerak.

6. Talaba-yoshlarning musiqiy madaniyatini shakllantirishda oliy ta'lim muassasalarida uzviylikka e'tiborni qaratish va amal qilinishi lozim. Sharq musiqasi – sharq falsafasining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon madaniy merosida tug'an o'rni benihoya buyuk.

Sharq xalqlari musiqa madaniyatini tarixini o'rganishda o'rta asrlar musiqa ilmi o'rtasida asarlar asosiy manba sifatida qaralishi kerak. Bu asarlar turli shakllarda, jumladan, mustaqil risola sifatida yoki qomusiy asarning bir qismi sifatida arab, fors va turkiy tillarda Yaqin va O'rta Sharqda ko'p asrlar davomida, ya'ni VII asrdan XX asrga qadar yaratildi.

Musiqa ilmining rivojida eng muhim davrlardan biri, Sharq Uyg'onish davri yoki Musulmon Uyg'onish davri deb ta'riflangan X-XI asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrga xos musiqa ilmi quyidagi belgilar bilan ajralib turar edi:

1) beqiyos samaradorligi (musiqa ilmi o'rtasida asarlar yaratilgan, binoq ulardan ba'zilariga bizgacha saqlanib qolgan);

2) yuqori nazariy saviyasi;

3) arab tilining ilmiy tili sifatida hukmronligi (musiqa ilmi o'rtasida asarlar asosan, arab tilida yozilgan);

4) musiqa doir manbalarining to'plana boshlashi bilan O'rta Osiyodan yetishib chiqqan olim va mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla va Abu Abdulloh Xorazmiy X-XI asrlar Sharq musiqa ilmining shakllanishiga va rivojiga asosiy va hal qiluvchi hissa qo'shganlar.

Musiqa ilmining kelib chiqishini turli afsonalar, diniy rivoyatlar bilan bog'lanmagan holda ilmiy yondashuv bilan shartlagan bu zotlar musiqa ilmini matematikani tarkibiy qismi deb qaraganlar va ular yaratgan bu so'f ilmiy yo'nalish xalqlar tomonidan qabul qilingan.

Masalan, "Qobusnoma" muallifi Kaykovus shunday yozadi: "Hamma vaqt chalaverna, chunki barcha yo'lni bir xilda chalmaslik kerak, negaki, odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham birbirlariga muvofiq emas, chunki xalq xilmaxildir.

Shuning uchun musiqa ilmining ustozlari musiqa asboblari shunday tarzda beranlarki, avval podshohlar musiqa asboblari shun-

dostonlar tuzganlar, undan keyin vaznsiz bir og'ir yo'l tuzdiarki, uni maqom bilan aytisa bo'ladi, unga og'ir yo'l deb nom berdiar. Bu yo'l keksalarning va aqlli odamlarning tabiatiga mos keladi. Bu yo'l shunday qavm uchun yaratildi. So'ngra ustozlar ko'rdiarki, xalqning hammasi qari va jiddiy kishilar emas.

Shuning uchun yigirtlarga moslab bir yo'l ishlab chiqdilar.

So'ngra yengiltroq vazni she'rlar uchun yengil yo'llar tuzdilar, bularga "xaff" deb nom qo'ydilar. Og'ir yo'ldan so'ng bu xaff yo'lni chaldilar, musiqachilar bundan qarilar ham, yigitlar ham bahramand bo'lsinlar, deb o'yladilar. So'ngra yosh bolalar va yuqimni tabiatli odamlarning ba'zilar bebahra qoldilar. Bu qavm uchun taronani ishlab chiqdilar, toki bu qavm ham bahra olsinlar, rohat qilsinlar, chunki hamma vaznlarning orasida taronadan yuqimli vazn yo'qdir. Demak, bularning hammasini bir xil qilib chalmagil, bir xil qilib kuylamagin, men aytgandek chalgil. Demak, butun xalq, sening sozindan, ovozingdan bahramand bo'lsin". Kaykovusning mazkur fikrlari musiq ilmining jamiyat talablariga asosan rivojlanib borganini o'rganishda muhimdir.

Musiqiy merosi o'rganishda Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi ham diqqatga sazovor manbalardan hisoblanadi. San'atshunoslik fanlari doktori A.F.Nazarovning tadqiqotida Forobiyning g'oyasi tarixda birinchi bo'lib vujudga kelgan musiqiyvirtual vaqt ta'liloti sifatida baholalanadi. Shuningdek, Forobiy iyoqo' nazariyasining unsuriy asoslari, davr, fosila, usul, djins, zamonul-mabda'a, mkyolul-avval, zamon (azmina), intiqol va boshqa tushunchalarining ma'no doiralari yoritiladi, iyoqo' turlari, shaql va sinflarining tasnif sharhlanadi.

Tadqiqotda Forobiy ilk bor tasnif qilgan 12 asosiy iyoqo' shaqlari – usullar, ularning ikki – saql va xaff – sinflarga ajratilgan turlari batafsil bayon etilgan. Forobiyning birinchilardan bo'lib tartib bergan 16 ritmik naziralar – ma'uulot tizimi ishda alohida tushuntirilgan. Eng avvalo, Forobiyning o'zi mohir musiqachi bo'lgan. U ijro etgan kuyarning tinglovchilarga qanchalik ta'sir etganligi haqida o'sha davrdagi afsona va rivoyatlar hozirgi kungacha yetib kelgan. Forobiy shu bilan bigra mohir bastakor, musiq nazariyotchisi, shuningdek musiq cholg'usi ijodkori hamdir. U yasagan soz turlari manbalarda turlicha, ya'ni ud, g'ijak yoki qonun deb atalib kelingan.

Forobiy «Musiq haqida katta kitob» nomli ko'p jildli asari bilan

o'zining yirik musiqashunosi sifatida mashhur bo'ldi. U musiq ilmini nazariy, amaliy tarmoqlariga, kuyarning ichki tuzilishi, qonunlarini hisobga olib ilmi ta'rif va ilmi iyo'ga ajradi.

Forobiy musiq nazariyasida tovushlar vujudga kelishining tabiiy ilmiy ta'rifni beribgina qolmay, kuylar garmoniyasining matematik prinsiplarini ochdi, turli jadvallar, geometriya qoidalarini asosida ko'plab muvakkab chizmalar keltirdi. U Sharq musiqasining ritmik asosini dalillar bilan sharhlab bergan. Ritmlarni tashkil etgan zarb birliklari bo'linib naqralar, ularning birikmasidan hosil etiladigan ruknlarining turli xillari asosida yaratiladigan ritm o'lchovlari va turlarini yoritib bergan. Bu asarda faqat musiq nazariyasi emas, balki musiq tarixi ham bayon etilgan. Yosh avlodni har tamonlana yetuk qilib tarbiyalashda o'z ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlar qatori, san'atning har bir qismi bo'linib musiq darslari katta ahamiyatga ega. Musiq ilmining his-tuyg'ularini, orzu istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining hissiyotlariga faol ta'sir ko'rsatadi.

Musiq darslari talabalarning estetik va axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ulardagi go'zallikka bo'lgan his-tuyg'ularining rivojlanishiga yordam beradi, ularni barkamol shaxs bo'lib yetishiga zamin yaratadi. Jumladan, O'rta Sharq mutafakkirlarining musiqiy-pedagogik merosidan ta'lim jarayonida foydalanishning pedagogik asoslari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va mohiyatini aniqlash; sharq musiqiy merosi vositasida talabalarga musiqiy ta'lim berishning pedagogik shart-sharoitlari, shaql va metodlarini umumlashtirish va yagona tizimga keltirish masalalari hozirgi kunning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda o'zbek xalqining boy musiqiy merosi jahon xalqlari musiqiy merosi bilan bir qatorda asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tib, musiqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim mamba bo'lib xizmat qiladi.

1.5. Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar, g'oyalar

Bir qator festival va ko'rik tanlovlarning o'tkazilishi o'zbek xalqining musiq san'atiga bo'lgan e'tiborning kuchayganligidan dalolat beradi. Jumladan "Xalqaro baxshichilik san'ati" va "Buyuk ipak yo'li"

xalqaro fol'klor musiqi festivali, Samarqand shahrida muntazam o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqi festivallari bunga misol bo'ladi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2018 yil 28 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son qaroriga muvofiq, "Xalq cholg'ulari ijrochilari", Mukarrama Turg'unboeva nomidagi "Milliy rags ijrochilari", Yu.Rajabiy nomidagi "Yosh maqom ijrochilari" respublika ko'rik-tanlovlari an'anaviy tarzda o'tkazilishi bugungi kunda yetishib kelayotgan yosh sozanda va xonandalar, ya'ni, san'at ahlining nihollari uchun ochib berilayotgan keng imkoniyatlardan biridir.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro baxshichilik san'ati» festivalining ochilish marosimida muqaddas alohida to'xtalib: "Xususan, baxshichilik sohasida shakllangan ijodiy maktablari, "Ustoz – shogird" an'analarini qayta tiklash va rivojlantirish, baxshi-shoirilar, fol'klorshunos olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarining ijodiy va ilmiy faoliyatini har tomonlamma rag'batlantirish, madaniyat va san'at muassasalari qoshida baxshichilik to'garaklari tashkili etish, baxshi-shoirilar ijodiga keng yo'l ochib berish, to'y-tomoshalar, turli bayram va madaniy tadbirlarda ularning doimiy ishtirokini ta'minlash, shu yo'nalishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish, baxshichilik san'atini keng targ'ib etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, televidenie va Internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish, fol'klor asarlarining audio va video variantlarini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir" degan edilar.

Haqiqatdan ham o'tgan davr mobaynida tarixga nazar solar ekanmiz, nafaqat tibbiyot, arxitektura, madaniyat sohalarida erishilgan yutuqlarning ko'pligiga balki, xalq og'zaki ijodiga ham katta e'tibor qaratilganligining guvohi bo'lamiz. Musiqi va adabiyot inson umrining ajalmas bir qismi bo'lib, ajdodlarimiz asarlarini mutolaa qilish ko'plab musiqiy-she'riy ijod namunalari bilan tanishishga, ularni o'rganishga yordam beradi.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Najmiddin Kavkabi, Darvish Ali Changiy kabi buyuk allomalarning ko'plab risolalarida sozandalik

san'at, musiqi ilmi to'g'risida adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar bayon etilgan.

Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarining musiqi san'ati va she'riyati bir-biridan ajralmagan holda (sinkretik) yuzaga kelgan bo'lib, eramizgacha bo'lgan ming yillikka to'g'ri keladi. Bu esa o'z navbatida eng qadimiy og'zaki musiqiy-she'riy ijod namunalari keltirilgan qahramonlik va ular haqidagi xalq dostonlari, qo'shiqlar va poemalar majmui bilan saqlanib qolgan.

Jumladan, Shiroq, Rustam, Siyovush kabi afsona va qo'shiqlarni bunga misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, asrlar davomida avlodlarimiz o'tib kelayotgan "Avesto" kitobida ham ajdodlarimizning ijtimoiy hayoti, ma'naviy dunyosi haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan. Ushbu tarixiy asarning mazmun-mohiyatida yakxaxudlik, insonparvarlik, mehri-shafqat, mehnadsevarlik, yurtparvarlik g'oyalari namunam etilgan bo'lib, yosh avlodning ma'naviyatini tarbiyalashda, yaratuvechanlik va bunyodkorligini shakllantirishda xizmat qiluvchi eng muhim manbalardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Filologiya fanlari doktori, professor Q.Sodiqovning "Sharq klassik filologiyasi" deb nomlangan ilk to'plamida marosimlarda ijro etiladigan qo'shiqlar haqida quyidagicha ma'lumotlar keltirilgan. "Movarounnahr va Xurosondagi islomgacha bo'lgan dinlar qatorida Kushon (I – IV asrlar) va Eftaltilar (V – VI asr o'talari) davlatlari davrida chetdan kirib kelganbuda va xristian dinlari musiqi bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, ammo vatani Xorazm hisoblangan.

Maqaddas kitobning eng qadimiy qismlaridan "Yasna" atalmish 17-bob "Gortar" – "Gimnlar" deb nomlangan. Ular turli marosimlarda ijro etiladigan qo'shiqlarni o'z ichiga oladi. Qo'shiqlarni ijro etish, duolarni o'qish, ibodat davomida ovozi idora etish va ijroning ta'sir kuchini oshirish yo'llari Zardusht misolida ko'rsatiladi.

Masalan, "Zaratushtira (Zardusht) bola tug'ilgan zahoti she'riy duolarni to'rt marta to'xtab-to'xtab, har gal ovozi balandroq ko'tarib o'qigan". Shunisi diqqatga sazovorki, "Avesto"ning o'zi ham, uning sharhlari (Zend) ham miloddning VI asrigacha to'latilgicha og'zaki saqlanib kelgan.

Jumladan, "Avesto"ning "Gortari" musiqi jo'rligida ijro etilib, duolarni o'z vaqtida lozim mutanosiblik (garmoniya) bilan va muayyan partalarda (registr), ovozlarning zarur ohanglari va pardalarni to'la

saqlagan holda kuylanishi talab qilingan”.

Shu holda avlodidan avlodga ogʻzaki oʻtib kelgan. Ularning muayyan ovoz ohanglariga ega ekanligi, yaʼni “qoʻshiqonaliq” koʻp asrlar jarayonida ogʻzaki saqlanib qolishiga oʻziga xos katofolet boʻlib xizmat qildi va bu ohanglar asrlar osha yashab keldi”.

Turk xoqonligi (IV – IX asrlar) davrida turkiy hamda mahalliy sharqiy eroniy xalqlar aralashuvi natijasida turkiylar musiqiy hayotining ayrim elementlarini oʻzlashtirish jarayonlari yuz bergan. Jumladan, turkiy xalqlarning koʻplab epik rivojatlari Oʻrta Osiyo xalqlari eposlarining shakllanishiga taʼsir koʻrsatgan. Ehtimol, turkiy qoʻshiq oʻzanlardan oʻzbek baxshilari qoʻshiqchilik – poetik ijodda ularning taʼsirchan usullarini oʻzlashtirib olgan boʻlishlari mumkin, bu oʻzbek fol klorining xilma-xilligida, uning melodik, soz-ohangdorlik, ayniqsa, ritmik ohangdorligining boyligida koʻzga tashlanadi. VII – VIII asrlarda mahalliy musiqiy-poetik anʼanalar muhimlashadi, ogʻzaki anʼanadagi xalq hamda professional musiqi shaxtlari yuzaga keladi.

Barbad (VI – VII) ijodi xuddi shu davrlarga toʻgʻri keladi. U Oʻrta Osiyoning dastlabki bastakorlaridan biri boʻlib, uning nomi hayotligidayoq afsonaga aylanib ketgan edi. U oʻzida qoʻshiqchi, musiqaga hamda yuqori badiiyatga ega boʻlgan asarlar muallifi kabi xislatlarini mujassamlashtirgan edi.

Barbad ijodi hamda ijrochilik mahorati shu darajada yetuk ediki, uni “Oʻrta Osiyo bulbuli” deb ulugʻlangan. Ehtimol, shu sabab boʻlgan boʻlsa kerak, har qanday hukmdor oʻz saroyida Barbadning tashrifidan mamnun boʻlgan. U Eron shohi Xusrav II Parviz saroyida eng koʻp mudrat xizmat qilgan.

Yetuk ijodiy va ijrochilik qobiliyatiga ega boʻlgan musiqachi Barbad sanʼati Yaqin va Oʻrta Sharqda juda mashhur boʻlgan. Uning faoliyati Daqiqiy va Firdavsiy, Nizomiy va Alisher Navoiy tomonidan nihoyatda samimiy va lirik ohanglarda kuylangan.

Barbadning badihagoʻy sanʼatkorligi, ayniqsa, Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonida qisman boʻlsa-da maʼlumotlar berilgan. Somoniyar hukmronligi davrida (IX – X asrlar) xoʻjalik va madaniy rivoji asosida hukmdorlar saroyida adabiyot hamda musiqi sanʼati rivoj topadi. Saroy shoiri va musiqachilari ijodida hukmdorni ulugʻlovchi qasida, keng targʻiladi. Uning kirish qismi (nasib) boʻlib, musiqiy choʻlgʻu bilan, ammo alohida xos kechalarda mustaqil ravishda ham ijro etilgan.

Keyinchalik mustaqil va mashhur janrga aylangan musiqiy-sheʼriy sanʼatning goʻzal shakli – gʻazal kelib chiqishiga koʻra nasibga, yaʼni, lirik musiqachilikka bogʻlanadi. U davrda gʻazalni ijro etuvchi musiqachi “qashshoʻ” deyilgan. Madh xarakteridagi musiqiy-poetik asarlar bilan birga ilgʻor ijtimoiy qarash va kayfiyatlarini aks ettiruvchi qoʻshiqlar ham yaratilgan. Oʻrta Osiyo xalqlari hayotida musiqaning beqiyos oʻrni va ahamiyatini musiqi faniga asos qoʻygan Sharq qomusiy mualliflari chuqur anglab yetishgan.

Shoʻroiy va jamoaviy ijodning oʻrni, taʼsiri, poeziya va musiqaning bir biri bilan tabiiy omuxtalashish jarayonlariga oid muammolarni dastlab har tomonlama ishlab chiqqan olimlar Abu Nasr Forobiy (837-930) va Abu Ali ibn Sinolar (980-1037) edi.

Shu jumladan, musiqi ogʻzaki kasbiy ijod masalalari “Sharq musiqi nazariyasiga oid birmuncha jiddiy asarlar” yaratgan Forobiy ilmiy merosida muhim oʻrin tutadi. Uning asarlari orasida “Kitob fi ixso al-lyoʻgʻi” (“Kritmlar turkumlari haqida kitob”), “Kitob fin nakra muzofa haqida” (“Kritm bilan bogʻlangan ohanglar haqidagi kitob”) alohida oʻrin tutadi.

Musiqiy-ijodiy jarayon “Kitob ul-musiqi al-kabir” (“Musiqi haqida katta kitob”), “Kalom fi-l musiqiy” (“Musiqi haqida oʻylar”), fundamental tadqiqot “Kitob fi ixso al-ulum va at-taʼrif” (“Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi”) asarlarida bosh muammo sifatida oʻrganilgan. Forobiy musiqani uch turga ajratadi: lazzat yetkazadigan, his-hayajon ifodalovchi va tasavvur uygʻotuvchi. Ayni paytda Forobiy “uch xususiyatning barchasiga ega boʻlgan musiqi, shubhasiz, nisbatan yetuk boʻladi. Bunday musiqi faqat vokal boʻlishi mumkin”, degan edi D.Jamolova.

Oʻrta asr sharq allomalarining musiqiy qarashlari koʻp qirrali musiqashunos va olim vokal musiqaning uch turinigina emas, oʻzida rangbarang (musiqiy va poetik) ijod turlarini ham mujassamlashtirib, butun toʻlajigʻ bilan chuqur mazmun ifodalashiga toʻla ishongan edi. Uning asarlarida poetik nutq yaratiladigan, muayyan tartib va qurilishga ega boʻlgan yetuk ohanglar tuzilishi, poetik nutqni ohangning u yoki bu musiqachilarga muvofiq qoʻllash usullari, shu nutq tufayli maqsadga yetib, yanada taʼsirliroq va ruhga singadigan ohanglarni aniqlash haqida soʻz boradi. Unda va boshqa joylarda Forobiy poetik nutqga moʻljallangan ohanglar haqida gapiradi va shunday qilib Oʻrta Osiyoda birinchi

bo'lib musiqa va she'riyat orasida ilmiy asoslangan o'xshashliklarni qayd etib, bir xil atamalarini qo'llaydi. Bu ajablanarli emas, chunki Forobiy shoir sifatida poetik san'atlarga, Sharq poeziyasi janrlariga oid bir necha risolalar muallifi sifatida ham mashhur edi.

Forobiyning eng yaqin izdoshi Abu Ali ibn Sino bo'lgan. Yosh Sino uchun Forobiy asarlari o'zini qiziqitgan fanlar, jumladan, musiqa fanini bilishda ham kalit vazifasini o'tagan edi. Ibn Sinoning "Musiqqa fani haqidagi risola"sidagi boblardan biri ritm, she'r hamda she'riy vaznlar masalasiga bag'ishlangan edi. Forobiyga o'xshab, Ibn Sino ham she'riy janr va shakllarning urf-odalariga bevosita bog'liq ekanligini hamda ularning boyitishga intilishini ta'kidlaydi.

Bir qancha manbalar Ibn Sinoning ko'pgina asarlar muallifi ekanligidan dalolat beradi. Bu vaqtda haligacha faqat xalq og'zaki ijodida mavjud bo'lgan qadimiy epik afsona va rivoyatlarga bo'lgan qiziqish ortgan edi. Professional qahramonlik eposi vujudga keldi, uning asosida o'n bir bo'g'inli vazn-muqorib yotar va ikki misra biri biri bilan kifoyalaniib ketadi.

O'rta Osiyo xalqlari eposidan Firdavsiy o'zining mashhur "Shohnoma" dostonida unumli foydalangan edi. Unda o'sha davr musiqa san'atining keng manzarasi: musiqiy hayot, cholg'ular haqida atroflicha ma'lumotlar aks etgan.

X – XI asrlarda madaniyat, san'at va adabiyot rivojlangan va taraqqiy etgan davr bo'lib, bunda musiqachilar haqidagi ma'lumotlarni qamraydigan adabiy yodgorliklardan biri "Qobusnoma"dir. Unda saroydagi musiqachilarga oid axloq kodeksi bayon etilgan bo'lib, vazn va ritm murakkabligiga ko'ra kuyarning tavsifi berilgan. Mazkur asarda Kaykovus hayotiy va amaliy masalalardan keng foydalangan holda o'z turmushida ko'rgan, uchragan muammolarni hikoyalari, maqollar va donishmandlarning hikmati so'zlari orqali ifodalaydi.

Jumladan, o'ttiz beshinchi "Shoirlik rasmi zikrida"gi bobida shoir-larga quyidagicha maslahat berilgan. "Bir xil vazn va bir xil kifoyaga qanoat qilmag'il, san'atsiz va tartibsiz she'r aytmag'il. She'rda zarb, ya'ni ohang, yaxshi sado, mung bo'lsa va shaqida al'al bo'lsa, ya'ni vazni to'la bo'lsa, yaxshi bo'lur". Ayniqsa, asarning o'ttiz oltinchi bobida, ya'ni "Hofizlik va sozandalik zikrida" aytilganki, "hofiz bo'lsang, xushfe'l, quvnoq bo'l, hamisha pok, mutayyab va xush zabon bo'lg'il va o'z ishingga mashg'ul bo'lg'il, yaramas xulq, qo'pol

hachara bo'lmag'il.

Hamma vaqt og'ir yo'llarni chertmag'il, chunki barcha mashq va ohangni bir xilda chertish shart emasdur, nedinkim odamlarning barchasi bir xilda bo'lg'on emaslilar, ta'biati ham bir-biriga muvofiq emas, ya'ni sadiq muvaffiqdirlar" deyilgan. "Qobusnoma" asari kitobxonni o'ziga jalb etadigan darajada boy mazmunga ega bo'lib, unda san'at sohasida muhim o'z faolligini boshlayotgan yosh mutaxassislarining ta'lim va tarbiyasi uchun muhim bo'lgan jismoniy hamda aqliy fazilatlari o'ta e'tibor bilan tahlil qilinadi.

Temur va temuriylar hukmronligi davrida madaniyatning yuksak darajadagi rivoji qayd etiladi, xuddi shu davrda olim va musiqachi Abdul Qodir tomondan musiqaga oid risola yaratiladi. Unda saroy musiqasining xilma-xil shaqlari, bizgacha yetib kelgan pestrav musiqiy janrlari tasvirlangan. XV asrning ikkinchi yarmiga kelib Samarqand o'z madaniy mavqeiini Hirota bo'shatib bera boshlaydi.

Tabiiyki, bu yerdagi madaniyat rivoji, birinchi navbatda, hukmdor Bahlul Husayn Boyqaroning bosh vaziri bo'lgan Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. Navoiy musiqani nihoyatda yaxshi ko'rgan, musiqiy asarlar yaratgan. Musiqani nozik his etgan hamda uning katta emosional, ma'naviy va estetik kuchga ega ekanligini anglagan adib musiqiy asarlarning mazmunda hayot bilan bog'langan bo'lishi shart deb hisoblar edi.

Navoiyning musiqani san'at sifatida axloqiy yuksak va estetik jihatdan teran talqini, uning musiqa kompozitsiyasi va fani haqidagi qarashlari ko'pgina badiiy hamda ilmiy-falsafiy asarlarda aks etgan. O'z qahramonlarining (Farhod va Shirin, Layli va Majnun) ichki kechimmalarini tavsiflar ekan, Navoiy sevgi va go'zallikni musiqiy cholg'ularning chiqayotgan sadolarga qiyoslaydi.

Shoir sozanda, xonanda, raqqosalar ishtirokidagi bayram tantanalari taqdiriga ko'p joy ajratadi. Shoirning asarlaridagi qahramonlar qatori nomunda, raqqosa, sozandalalar, ifrochi va bastakorlar orasida, ayniqsa, "Sab'ul sayyor" dostonidagi musofir sozanda e'tiborni tortadi. Uning nutqida shunday so'zlar bor: San'atim anda soz chalmoq ishi, Bilmayin men kitbi ishimni kishi. Ilmi advoru fanni musiqiy, Mendin ul ilm ahli tabiiqi. Elga ta'lim etmoq erdim, Kimki ustoz Jomiy kabi musiqashunos ekanligi, uning asarlari orasida musiqaga doirlari ham borligini

eslaylik. Uning "Xamsa"siga, shunga ko'ra, musiqa nuqtai nazaridan ham yondashish mumkin. Bu holatda u so'zlar tili bilan berilgan hayotiy jarang kabi gavdalanadi.

Ammo shuni ham esda tutish kerakki, pentatonikadagi tovushlar qatori beshta rang-barang ohanglar orqali namoyon bo'ladi va ularning har biri tovush oralig'idagi musiqa san'ati O'rta asr sharq allomalarining musiqiy qarashlari intervallarning joylashishi, har bir ohangning o'ziga xos jarangi bilan ajralib turadi. Biri sof major, ikkinchisi sof minor, uchinchisi "minoroga yaqinlashgandek", ammo yana bir kuy borki, unda major va minor ajratib bo'lmaydi.

Alisher Navoiyning besh dostoni xuddi ana shunday jaranglaydi". Mashhur musiqashunos olim farazlari, so'zsiz, asossiz emas, zero, buyuk shoirning poetik merosidagi musiqiylik, uning musiqiy ijod mohiyati haqidagi tushunchalari o'z davridagi musiqa cholg'ulari va musiqa amaliyoti haqidagi eslatmalar doirasidan juda uzoqlarga chiqib ketgan. Alisher Navoiy musiqiy ijodga chuqur ilmiy-badiiy tavsif beradi. Xalq hamda og'zaki professional ijod muammolari shoirni, ayniqsa, umrining so'nggi paytlarida ko'proq qiziqitirgan.

Bu borada "Majolis un-nafois" (1491y), "Mezon ul-avzon" (1402 yildan so'ng), "Holati Pahlavon Muhammad" (1493 yildan so'ng), "Mahbub ul-qulub" (1500-1501) va boshqa fundamental asarlarda ma'lumotlar mavjud. Sharq fanining buyuk ikki arbobi: Forobiy va Ibn Sino kabi Alisher Navoiy ham musiqani cholg'u va ashulaga bo'ladi, tabiiyki, bunda ustunlikni keyingisiga beradi, zero, u so'z va musiqiy fikrni sinetizlashtirgan holda, yanada ta'sirliroq kuchga ega bo'ladi.

Musiqa nazariyasi va tarixidan, bastakorlar san'atidan yaxshi xabardor bo'lgan hamda o'zining vokal (naqshi) cholg'u va (peshravlar) asarlarini yaratgan. Alisher Navoiy o'z poetik ijodida musiqiy ijod ta'sirini sezmasligi mumkin emas edi.

Musiqiy ijodning nisbatan murakkab muammolarini hal qilishga uringan yirik olimlardan yana biri Mavlono Najmiddin Kavkabi Buxoriy (1532 yilda o'ldirilgan) edi. Ko'p qitrali iste'dod egasi sifatida u shoir va olim, sozanda, ijrochi va bastakor bo'lib tanildi. Fanning ko'p tarmoqlarini qamrab olgan ilmiy ishlari orasida uning musiqa nazariyasi, ritmika va qofiyaga oid tadqiqotlari ham mavjud.

Ayniqsa, uning Buxoro maqomlari asosida musiqa va so'z uyg'unligi haqidagi tadqiqoti alohida ahamiyatga egadir. Bu ko'p yillik ilmiy

ishlarining natijada uning "Musiqi haqida risola", "Kuylarining turlari" atqarilgan asarlari yaratildi. O'rta asrlardagi musiqiy risolalarda musiqiy ritm ikki qismga, ya'ni cholg'u hamda ashulaga bo'lib o'rganilgan bo'lib, uning ta'limoti she'riyat olami bilan uzviy bog'langan holda olib borilgan. Yoshlarimizning ma'naviyati qanchalar yetuk, har tomonlama jo'zal bo'lsa, kelajagi buyuk yurtimiz ham ko'rkam va o'ziga munlikatlar oldida o'z tarovatini, san'ati bilan shu qadar hurmat-e'tiborga ega bo'ladi.

O'tgan davr mobaynida Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar, g'oyalar nafaqat yoshlarning ongi va qalbiga ma'naviy osoniga beradi, balki, ularning ma'naviy-axloqiy olamini tarbiyalaydi, ertli va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Shuningdek, Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlarni, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirish usullari va vositalarini bilish hamda to'g'ri foydalanish zarur.

II BOB. MUSIQIY PEDAGOGIKA DARSLARI O'QUV FANI SIFATIDA

2.1. «Musiqiy pedagogika» darslarining maqsad va vazifalari

Umumta'lim maktablari «Musiqqa madaniyati» o'quv predmetining asosiy maqsadi, «milliy musiqqa ta'lim tarbiyaning maqsadi yosh avlodni milliy musiqqa merosiga vorislik qila oladigan hamda umumshaxariy musiqqa boyligini idrok eta oladigan madaniyati inson darajasida voyaga yetkazish», ya'ni o'quvchilarda musiqqa madaniyatini shakllantirishdir. «O'quvchining musiqiy madaniyati» tushunchasi keng qamrovli bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchining ijtimoiy-badiiy shaxsiy tajribasi – axloqiy estetik qarashlari, hissiyotlari, did va ehtiyojlari;
- o'quvchining musiqiy rivojlanganligi – musiqqa san'atiga qiziqishi, musiqqa emosional munosabati, musiqiy kuzatuvchanligi, turi xil badiiy musiqqa namunalariga bo'lgan ehtiyoji;
- o'quvchining musiqiy bilimlari – musiqani idrok va ijro etish uchun lozim bo'lgan tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmaga egaligi, san'at va hayotga hissiy munosabati, rivojlangan musiqiy-estetik didi, musiqaga bo'lgan tanqidiy saralash munosabati va h.k.

O'quvchilarda musiqqa madaniyatini shakllantirish maqsadida bir qator vazifalar belgilanadi:

- musiqiy ta'lim-tarbiyani hayot bilan bog'lab olib borish;
- o'quvchilarning musiqqa san'atiga mehr, qiziqishlarini o'stirish;
- musiqiy-badiiy didni va musiqqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;
- musiqqa haqida bilim, malakalar doirasini tarkib toptirish;
- iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun sharoit yaratib berish va ularning badiiy ehtiyojini qondirish;
- musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy-ijodkorlik his-tuyg'ularini rivojlantirish;

- musiqiy asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarda axloqiy-estetik qarashlarni tarbiyalash.

Musiqqa haqidagi bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, birinchi navbatda, bolalarda hissiy ta'sirchanlikni, musiqaga qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi

hazim. «Tarbiyaning eng oliy ko'rinishi – tuyg'ular tarbiyasi» deb yozadi qozoq shoiri M. Shoxonov.

Umumta'lim maktablari musiqqa ta'limi aniq ishlab chiqilgan tizim asosida olib boriladi. Bu tizim o'zaro bog'langan tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Tarbiyaviy vazifalarga o'quvchilarda musiqaga bo'lgan qiziqish va muhabbatni, musiqqa bilan mulqotda bo'lish ehtiyojini tarbiyalash, ularda estetik hislarni, badiiy did, axloqiy sifatlarni dunyoqarashlarni tarbiyalash kiradi.

Ta'limiy vazifalarga o'quvchilarni musiqqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, bolalar cholg'ularida chalish, musiqqa savodi, musiqqa – ritmik harakatlar bajarish kabi turi musiqiy faoliyatlarga o'rgatish; ularni o'zbek xalqi va jahon musiqqa madaniyatining nodir asarlari bilan tanishtirish, ularga musiqqa haqida, kompozitorlar va ijodkorlar, cholg'ular, qo'shiqchilik ovozlari, janr, uslub, shakllar va hokazo haqida bilim-tasavvur va malakalar berish kiradi.

Rivojlantiruvchi vazifalar o'quvchilarda musiqiy – ijodiy qobiliyatlarni, musiqiy idrok va diqqatni, tasavvur, musiqiy eshituv va ko'tiruv, kuylash ovozlari, musiqiy asar haqida ijodiy fikr yuritish va unga baho berish malakalarini hosil qilishni nazarda tutadi.

O'quvchilarga musiqiy ta'lim berish tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi bo'lishi lozim. Bu musiqiy pedagogikaning muhim talablardan biridir.

2.2. «Musiqiy pedagogika» darslarining xususiyati va tuzilishi

Musiqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari uning mazmuni va shaklini belgilaydi. Musiqqa darsi – maktabda musiqqa o'qitishni tashkil etilganing asosiy shaklidir. Maktabda musiqiy to'g'araqlar, fakul'tativ mashg'ulotlar olib boriladi, ammo dars hamma bolalarni yalpi tarzda qamrab olishi sababli o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Musiqqa darslari bir qator xususiyatlariga ko'ra boshqa fanlardan farq qiladi:

birinchiidan – musiqqa darslari boshqa maktab fanlaridan o'zining fuchliyligi, bolalarda emosional tuyg'u va kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqqa ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy his-tuyg'u insonning aqliy faoliyatini

o'stiradi. Fiziologlarning ayitishicha, bola aqliy rivojining kaliti uning hissiyoti sohasida turadi. Musiqa mashg'ulotlari bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirib, ularda ijodiy kuch, tasavvur, fantaziyani uyg'otadi. Qadimdan ma'lumki, badiiy ijodiy tasavvur bilan ilmiy fikrlash o'rtasida katta bog'liqlik bor. V.Belinskiy ayganidek: «Ilm va san'at mazmuni bir. Olim fikrlar tizimi asosida ishontiradi, ijodkor – obrazlar bilan. Ammo ikkalasi ham bir hil ishonitiradi».

Musiqiy asardan olingan emosional ta'sir o'qituvchining ifodali ijrosi, mimika, harakat, so'z orqali yanada kuchayadi. Butun dars musiqa bilan «sug'orilgan» bo'lishi lozim.

Musiqa-bolalar-o'qituvchi - darsning asosiy bo'g'inlaridir.

Ikkinchidan – u musiqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir turli namunalardan kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, musiqa tahlili va adabiyoti elementlaridan iborat;

uchinchidan – musiqa darsi o'quvchilar tomonidan bajariladigan turli musiqiy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinflarda kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, ritmik xarakterlar, bolalar cholg'ularida ijro, ijodkorlik kabi faoliyatlar qo'llanilsa, o'rta sinflarda dars asosan to'rta faoliyat: tinglash, kuylash va musiqa savodi va musiqa ijodkorligi asosida olib boriladi.

Hozirda amalga tadbir etilgan bu yangi dastur mavzuli tuzilishiga ega, ya'ni yil, chorak va dars mavzulari, musiqaning «tili», boyligi, o'ziga xos mazmuni, musiqa san'atining boshqa san'atlar – rang tasvir, adabiyot, raqs bilan bog'liqligini muayyan ketma-ketlik asosida yoritib beradi.

Darsda o'quvchilar o'zbek xalq musiqasi, o'zbek kompozitorlarining yorqin ajoyib asarlari va jahon musiqasining namunalari bilan tanishadilar. O'zbek mumtoz musiqa merosining nodir asarlari bilan tanishish va o'zlashtirish o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa dasturi bolalar bog'chasi va maktab bilan uzviylik hosil qiladi. Boshlang'ich sinflar dasturi bolalar bog'chasida musiqa mashg'ulotlari tarkibiy tuzilishini saqlab qolgan: 6-7 yoshi bog'cha bolalari musiqa tinglaydilar, qo'shiq o'rganadilar, raqslar va o'yinlar bajaradilar, murakkab bo'lmagan musiqiy parchalarni bolalar cholg'ularida ijro etadilar. Musiqiy faoliyatlarining bunday turliligi bolalar musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish omilidir.

Bir musiqa asarini idrok etish (tinglash) qo'shiq, ritmik harakatlarni o'rganish uchun bir necha darslar talab etiladiki, bir darsning o'zida ham yangi asar bilan tanishuv, ham oldingi darsda o'rganilgan qo'shiq, asar ushida ish olib borishni davom ettirish sodir bo'ladi. Masalan, I sinf o'quvchilari darsda I.Akbarovning «Onajonlar» qo'shiqini ijro etadilar, N.Norxo'jaevning «Kakligim» qo'shiqini o'rganishni davom ettiradilar, oldingi darsdan tanish bo'lgan «Alla» ko'yini (I.Akbarov) tinglaydilar, «topishmoq» musiqiy-didaktik o'yimida ishtirok etadilar va notalar cho'zinini o'rganadilar.

Dars mazmuniga xarakteri, kayfiyati, turlicha bo'lgan asarlar kiradi, shuning uchun darsning mantiqan yaxlitligiga erishishda darsning tuzilishini, ya'ni faoliyat turlarining ketma-ketligi, darsda «basiy sozni» ushlab turish maqsadida bir asardan ikkinchisiga o'tish yo'llarini topish, aniqlash muhimdir. Dars tuzilishini rejalashtirishda o'quvchilarning jismoniy, emosional, aqliy holatlarini hisobga olish lozim. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarning diqqatlari turg'un bo'lmashligi sababli, faoliyat turlarini almashitirib turish, darsga qiziqishni oltiradi; murakkab qo'shiq, asarni o'rganishda bir dars davomida hadeb qaytarishdan ko'ra, bir necha dars davomida o'rganish maqsadga muvofiq; qiyin musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishdan so'ng to'g'ridan-to'g'ri qo'shiq kuylashga o'tish yaxshi emas, chunki kuylash uchun sokin nafas va diqqatni jamlash talab etiladi va h.k.

Dars asosan oldindan tayyorlangan reja asosida o'tishi kerak. Darslanga tayyorgarlik ko'rish o'qituvchining bilimi, mahoratiga bog'liq bo'lib, musiqiy materialning tarbiyaviy ta'limiy va rivojlantiruvchi tarriflari hamda ularni amalga oshirish yo'llari, imkoniyatlari, metodlarini aniqlashda o'z ifodasini topadi. Har bir musiqiy asarni chuqur o'rganish, bolalar yosh xususiyatlari, ularning musiqiy tayyorgarligini hisobga olgan holda asar tanlash musiqiy ta'lim-tarbiyani muvaffaqiyatini belgilaydi.

Rejalashtirishda darsning maqsadi, vazifalari, mazmuni (musiqiy repertuari) va tuzilishi (faoliyat turlarining ketma-ketligi), vositalari, ta'lim metodlari va texnologiyalari aniqlanadi.

Zamonaviy musiqa darsini maxsus jilozlarsiz tasavvur etish qiyin. Musiqa xonasining estetik bezatilishi turlicha bo'lishi mumkin, ammo u san'at darsi muhitini yuzaga keltirishi lozim. Darsga turli cholg'ular, audio va video texnikalari, bolalar cholg'ulari, kompozitorlar portretlari,

fonoxrestomativalar, ranglasvir asarlari reproduktiviyalari nota jadvallari talab etiladi. Bu vositalar o'quvchilarga turli musiqiy asarlarni bir necha ijroda ko'rsatish, ularning musiqaga cholg'ulari tembr xususiyatlarini o'rganishlarida, musiqaga asarlarini to'laqonli idrok etishlarida, ularda ijrochilik va ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirishda (o'quvchilar ijrosi va musiqiy ijodkorlik elementlarini magnitofonga yozish va eshittirish), katta imkoniyat hosil qiladi.

Shunday qilib, darsga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish musiqaga o'quvchisidan ijodiy yondoshuv, kasbiy bilim, tajriba va mahorat talab etadi.



III BOB. MUSIQA O'QITUVCHISI VA UNGA BO'LGAN TALABLAR

3.1. Musiqaga o'quvchisining kasbiy tayyorgarligi

Pedagogik faoliyat – insonlar mehnatining eng murakkab, ma'suliyatli sohalardan biridir. O'quvchi yuqori malakali, g'oyaviy, ma'naviy, ma'rifiy jihatdan yetuk, axloqan sof bo'lishi jamiyat talabidir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni mazmunida umumta'lim maktablarda ta'lim tarbiya ishlariga alohida e'tibor berish va bu ishga ijodkorlik bilan yondashish talab etiladi.

Shuq allomalardan Ruzoudin ibn Faxriddin o'zining «Odob ta'lim» kitobida shunday deb aytadi:

«G'ar usuli tarbiyat olgan muallim bersa dars, Elgusi shogirdlarin olim va dono – tarbiyat».

Musiqaga o'quvchisi kasbi insondan doimo o'z shaxsini takomillashtirish, o'zining musiqiy qiziqishlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etadi. Musiqaga o'quvchisi nafaqat o'z mutaxassisligi «sirlarini» a'lo darajada bilishi lozim, balki maktabda o'quvchilarning ma'kuraviy dunyoqarashlarini, tushuncha va tasavvurlarini shakllantirishda lozim bo'lgan bilimlarga ega bo'lishi shart.

Musiqaga o'quvchisi:

- musiqaga asbobini yaxshi chatalishi, yoqimli ovoza kuyilashi (darsda gram yozuvlardan foydalanishga to'g'ri keladi, ammo o'quvchining jonli ijrosi bolalarda katta hissiyot hosil qiladi);
- nozik musiqiy did va rivojlangan musiqiy eshituv qobiliyatiga ega bo'lishi;
- musiqiy-nazariy bilimlar doirasiga ega bo'lishi;
- musiqiy asarlarni badiiy-pedagogik tahlil qila olishi;
- dirijyorlik malakalarini ko'rsata olishi;
- musiqani boshqa badiiy fanlar bilan uzviy bog'lay olishi;
- musiqaga ta'lim va tarbiyasidagi yangi usul, vositalarni, zamonaviy texnologiyalarni egallashi va ulardan oqilona foydalana olishi katta ahamiyat kasb etadi.

3.2. Musiqi o'qituvchisining ijodiy faoliyati

Hozirgi davrda musiqi muallimi kasbi, faoliyati, professional tayyorgarligiga bo'lgan talablar ilmiy-pedagogik izlanishlarga asos bo'lmog'ida. Bu borada tanqidiy musiqachi-pedagoglar, haqidagi esdaliklar, ularning pedagogik faoliyatlari natijalarini o'rganishga qaratilgan bir qator izlanishlar ahamiyat kasb etadi.

Musiqi o'qituvchisining kasbi o'z xususiyatiga ko'ra ijodiy faoliyatining ko'p qirralarini hosil qiladi:

- tadqiqotchilik faoliyati: o'qituvchi darsga lozim bo'lgan musiqiy asarlarni tanlash va tahlil qilishi, ularning emosional ta'sirchanligini aniqlash; yosh va individual xususiyatlardan kelib chiqqan holda bolalarda musiqi idroki xususiyatlarini o'rganishi, yetakchi o'qituvchilarning ish metodlarini o'rganishi; o'z ishining natijalarini tahlil qilishi hamda musiqiy va metodik adabiyotlar bilan ishlashi, unda ilmiy izlanish malakalari bo'lishi tadqiqotchilik faoliyatiga kiradi.
- loyihalashtiruv faoliyati: bolalarda musiqi ijodkorligini shakllantirishga qaratilgan o'quv-tarbiya vazifalar, malaka va ko'nikmalarning o'qituvchi tomonidan rejalashtirilishi loyihalashtiruv faoliyatini tashkil etadi.

Ijodiy rejalashtirish borasida o'z ishlari, tajribalarini o'rta borib, o'qituvchi o'zida o'quv-tarbiya vazifalarini belgilash, ta'lim jarayonida qo'llanilishi lozim bo'lgan usul va yo'llar, metodlar, pedagogik texnologiyalarni oldindan ko'ra bilish malakalarini rivojlantiradi.

- konstruktiv faoliyati: bunga musiqi darslari ishlanmasini tayyorlash, sinfdan tashqari ommaviy tadbirlar sisenariysi va to'garak mashg'ulotlarini tuzish kiradi.

• kommunikativ faoliyati: o'qituvchi o'quvchilar, pedagogik jamoa bilan maqsadga muvofiq munosabat o'rnatish, o'quvchilarni o'ziga moyil qilishi, ular orasida yaxshi munosabat o'rnatish lozim, ya'ni yana bir san'at, mulokat san'atini egallashi kerakdir. Musiqi o'qituvchisining shaxsiy mashg'ulotlarda to'laigicha namoyon bo'ladi. Musiqiy asarni ijro etish va bu asar haqida so'zlash, asarga o'zining emosional munosabatini bildirib borib, bolalarda taassurotni kuchaytirish, o'quvchilarning hissiyotlariga, taassurotlariga doimiy e'tibor berish orqali ularda o'qituvchiga nisbatan hurmat va ishonchni o'rnatish o'qituvchining kommunikativ qobiliyatini ko'rsatadi.

- tashkilotchilik faoliyati: o'qituvchi tarbiyalanuvchilar orasidan iqtidorlarni tanlab oladi va ular bilan alohida ishlar olib boradi, o'zi rahbarlik qilayotgan sinfda pedagogik ishlarni amalga oshiradi. Ota-onalar va keng jamoatchilik o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni to'g'ri tashkil etadi.

3.3. Musiqi o'qituvchisining pedagogik mahorati

O'quvchilarning aqliy va axloqiy kamolotida musiqi o'qituvchisi shaxsi alohida o'rin tutadi. Uning dunyogarashi keng, qalbi pok, shirin so'z, bolajon bo'lmog'i lozim. Bunday fazilatlar har qanday shaxsda ham tarbiyalab bo'lmaydi. U ma'lum ma'noda tug'ma bo'ladi. Pedagogik mahorat yoki san'at – bu qandaydir qo'l bilan olib bo'lmaydigan, fahm-farosat bilan amalga oshiriladigan jarayon, izlanishlar, kechinmalar, ko'pdan-ko'p kundalik ishlar, bolalar bilan olib boriladigan daqiqalar demakdir. Bu – bilimlarning ilmiyligi, tarbiyadagi muammolarni yechishga qodirlik, bola shaxsiga e'tibor bilan yondashish, rivojlangan tasavvur va hokazolar yig'indisidir.

Hozirgi zamon musiqi o'qituvchisining ijodiy faoliyatida pedagogik mahorat quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- musiqi tarbiyasida yangi usul va vositalarni izlashda, ularni ma'naviy usullar bilan mohirona bog'lab olib borishda;
- hayot va musiqi san'ati o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsata olish va o'rganishda;

- musiqaning mazmuni va ma'nosini bolalarga yetkazishda, faullararo aloqani amalga oshirishda;

- musiqi o'qituvchisining o'z ustida doimo ishlashi va ijodiy izlanishda.

O'qituvchining yuqori professional tayyorgarligi musiqi darslarining takomillashuvida hamda musiqi san'atining tarbiyaviy potensialni amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

3.4. O'zbek xalq pedagogikasida musiqiy tarbiya

O'zbek musiqi pedagogikasi iborasi keng qamrovli bo'lib, u shu xalq puyvdo bo'lgan butun davrni o'z ichiga oladi. Xalq donishmandligining va Tarbiyasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotning

barcha tomonlarini – xalq og'zaki ijodi, udumlari va marosimlari, diniy-axloqiy ta'limotini o'ziga jo qilgan.

Dostonlar, ertaqlar, mehnat-mavsum marosim qo'shiqlari, asotirlar, naqlar, rivoiyatlar, afsonalar, maqollar, matallar, hikmatlar, qayrovi so'zlar, aforizmlar, topishmoqlar, erkalamalar, ovutmachog'lar, qiziq-machog'lar, yalinchog'lar, guldur-guplar, sanamalar, o'yin-kulg'ilar bilan bog'liq lapar, aytishuv, o'lan, termalar, bolalar qo'shiqlari, ramazon, boychechak, yomg'ir, quyosh, yulduz suv aytimlari, tegishmachog'lar, "Navro'z", "Mehrijon" bahor, kuz, qish, yoz ayim-qo'shiq ashulalari, dehqonchilik, chorvadorlik, kasb-hunarmandchilik bilan bog'liq nasriy va nazmiy asarlar xalq musiqasi pedagogikasining asosini tashkil etadi.

Ma'lumki, Sharq falsafasining eng muhim masalalaridan biri komil inson tarbiyasi bo'lib qolgan. Binobarin, musiqaga falsafiy nuqtai nazardan yondashish jarayonida ham avvalo uning inson ruhini takomillashtirishdagi o'rni ahamiyat berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalq nazdida inson ona qornidan yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydiku, birday tug'iladi. Yaxshiyomonga aylanishi tarbiyasidan, dastavval ota-ona, oila, mahalla, qishloq-ovul, qolaversa, jamiyat – tuzumdandir.

Bunda ajdodlar qoldingan ota meros – oilaviy pedagogika, xalq pedagogikasi, udumlar, an'analar hal qiluvchi o'rin tutadi. "Ko'chat boshdan, bola yoshdan" maqoliga amal qilish xalq an'anaviy pedagogikasining bosh yo'nalishidir. Xalq tarbiyasida kecha, bugun va ertani o'ylab ish tutish, ya'ni tarbiyani, o'tmishni unutmaslik, bugunning qadriga yetishlik, kelajakka umid asnosida olib borishning muhimligi ta'kidlanadi.

Insonparvarlik, baynalminalik, hushyorlik, zukkolik, bilimdonlikni o'ziga e'tiqod qilib olgan o'zbek xalq pedagogikasi, jumladan musiqasi pedagogikasi, ayni chog'da Sharq Tarbiyasidan doimiy ravishda bahramand bo'lgan, shargona xalq pedagogikasi boyliklaridan oziqlangan.

Xalq pedagogikasi (uning tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy pedagogika) asrlar davomida yashab kelgan. Ajdod-avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida, jismoniy barkamolligida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning ta'sir kuchi, ahamiyati boisi nimada?

1. Uning hayotiyliigi, serqirra, serma'noligi.
2. Bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida, jonli an'analarda yaratilishi, yashashi, inson muammolarini qamrab olishi,

tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal etishga qaratilganligi.

3. Umuminsoniy y'qnalishga, umumbashariy g'oya-maqsadlarga qaratilgan bo'lganligidir.

Shu bois boshqa dunyogarash, mafkura ma'naviyat omillari kabi, xalq musiqasi pedagogikasi, tarix to'fonlariga dosh berib, toblanib, mayqallashib, qanchalik og'ir murakkab bo'lmasin, avlodlar tarbiyasi, kamoloti borasida hal qiluvchi rolni o'ynab keldi.



O'zbek musiqasi pedagogikasi bami-soli jonli organizm, doimo boyib, ko'payib boruvchi tarbiya sohasidir. Xalq orzu-umidi, quvonch-tashvishlari, g'am-g'ussasi-yu armonlari shodlik, baxtiyorlik onlari-yu qadr-qimmatlari, ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, dunyogarashi, falsafiy-axloqiy tushunchalari, ta'lim-tarbiyaviy xulosalari xalq pedagogikasida o'z aksini topadi.

Mustaqillikka erishib, umuminsoniy va o'zbekona qadriyatni har tomonlana chuqurroq anglay boshladik. Vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelgusi boshqaruvchisi – yangi avlod tarbiyasi birinchi o'ringa chiqdi.

O'zbek xalq pedagogikasi an'analarida farzandlarni estetik idroki (estetik-hissiy idroki) hissiyoti va tasavvurlarini rivojlantirish hamda mukammallashtirish bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va kamol toptirish, estetik did asoslarini shakllantirish, estetik tarbiyada bolalar o'yin folklorining o'rni va ahamiyatiga



katta e'tibor qaratilgan (ustoz-shogirdlik an'analari, xalq ommaviy tomosha san'ati – dorbozlik, askiya, baxshi-shoirchilik, dostonchilik, qit'oxkonlik, yetuklik, voizlik kabi san'atlar).

Sanab o'tilgan ko'plab udum, rasm-rusumlar, odat-marosimlar, an'analar o'zbek musiqasi pedagogikasining qirralari naqadar ko'pligini ko'rsatadi.

Shuni aytilish kerakki, o'zbek xalq og'zaki ijodidagi har bir janr bir

olam, odob, ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos darsligi deysiz mumkin.

Chunonchi, epik ijod namunasi – qahramonlik, ishqiy-romantik, tarixiy dostonlar ko'proq ishq-muhabbat va vafodanday bo'lishligi, o'zligini tanish, or-nomus burchini anglash, iymon-e'tiqodli bo'lish, qiyinchiliklarni, to'siqlar va mushkul axvollarini, mardona malonatlarni o'rgatadi.

Qo'shiqlar (lirik, marosim, mavsum qo'shiqlari, yor-yorlar, allalar, yig'i yo'qlovlar, sog'im, o'rim, bayram-sayl qo'shiqlari, bolalar folklorining namunalari) go'zallik, samimiyat, mehr-shafqat, orzu, umid tuyg'ularini tarannum etish orqali har qanday kishida chuqur insoniy tuyg'ularni o'stiradi, hayotga, tabiatga, insonga cheksiz muhabbatni kamol toptiradi.



Abu Nasr Farobiy

Qadim-qadimlarda yaratilib, xalq ta'lim-tarbiyasi, odob-axloqida muhim o'rin tutgan xalq an'anaviy pedagogikasining katta bir qismi unutildi, qolganlari xalq orasida sochilgan holda yashab keldi. Oqibat – natijada zamonaviy Tarbiyada xalq yo'li cheklab o'tildi.

Bugungi dolzarb vazifa maktab, maxsus o'rta va oliy ta'limda bu an'analardan muvofiq tarzda foydalana bilmog'dir.

Al-Kindiy islom falsafasi asosida ilk musiqa nazariyasi haqida risolalar yozgan hamda bu san'atning badiiy-estetik va tarbiyaviy ishlari, ma'naviy barkamol ishonchni tarbiyalashdagi o'rni - yuqoridagilarni dalillab bergan.

Farobiy "Musiqaga haqida risola" asarida musiqani uch turga ajratadi. Ulardan birinchisi insonga huzur-halovat baxsh etar ekan; ikkinchisi ehtiros uyg'otib, qalbni jumbushga keltirar ekan; uchinchisi esa kishini uyg'a toldirib, fikrlashga undar ekan.

Alloma "Ixxo ul-ulum" asarida musiqa ilmi qondan zaruriyat va ehtiyoj tuyayli paydo bo'lgani xususida yozar ekan, uning axloqiy-tarbiyaviy jihatlari alohida to'xtaladi. "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, nomukammal xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi.

Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal

bo'lsa, ruh ham ohanglar vositasida ruhni sog'aytirish asnosida tana sog'aytiriladi, ruh esa bag'ridagi quvvatning tartibga solinishi va o'z mohiyatiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi".

"Har bir inson – deb yozadi Ibn Sino – ko'nglidagini boshqaga bildirish, boshqalarning ko'nglidagini esa o'zi bilishga muhtojdir. Shuning uchun ham inson bir-biri bilan o'roq bo'lib hayot kechirishga majburdir".

Inson – madaniy tabiat, uning ma'nosi ham go'zallikka, jozibaga, madaniyatga, tashnatlikda namoyon bo'ladi. Yolg'izlikda madaniyat va maishatga na xojat, na imkon qoladi.

IV BOB. MUSIQA O'QITISH METODLARI

4.1. Musiqi o'qitishning asosiy metodlari

Metodika o'qilayotgan fan xususiyatlarini, o'qitishning maqsad va vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda didaktikaning tamoyillari asosida o'quv-musiqiy materialning o'zlashtirilishi yo'llarini amalga tatbiq etadi.

Metod yunon tilidan olingan bo'lib, «izlanish yo'li», «o'rganish vositasi» ma'nosini anglatadi.

Fan va san'atning yirik namoyondalari o'z risolalarida musiqi darslari san'at darsi sifatida juda katta tarbiyaviy potentsialga ega ekanligini ta'kidlab kelganlar.

XX asr musiqiy pedagogika amaliyotida, metodik risolalar, maxsus izlanishlarda maktab musiqi sharoitida faoliyat turlari bo'yicha qo'llaniladigan ko'plab metod va usullar to'plangan. B.Asaf'ev, V. Shchatskaya, N. Grodzenskaya, V. Beloborodov, M. Rumet, Yu. Aliev, V. Sokolov, R. Rigina, D. Kabalevskiy, N. Veltugina, E. Abdulin va ko'plab boshqa mualliflarni keltirish mumkin.

Musiqi o'qitish metodlari «Musiqi madaniyati» darslarida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro birgalikdagi faoliyatlari asosini tashkil etadi. O'qituvchi – bu faoliyatni boshqaradi.

O'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan barcha metodlar o'quvchilarda axloqiy, badiiy didni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarni shakllantirish, musiqiy idrokni boshqarish, ijodiy faollikka undashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Musiqi darslarida qo'llaniladigan asosiy metodlar quyidagilar: og'zaqi, ko'rgazmali-informativ, badiiy-amaliy.

Og'zaki metod (hikoya, suhbat, tushuntirish, izohlash, ilova) – asarning mazmunini ochishga yordam beradi, asarni ongli ijrosiga erishishga tayyorlaydi, o'quvchilarning hissiy kechinmalariga yo'nalish beradi. Og'zaki metodlarni qo'llash o'quvchilarning yoshiga, musiqiy tayyorgarligiga hamda musiqiy asar xususiyatiga bog'liq.

Hikoya – o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni musiqi tinglashga «tayyorlash», «sozlash» maqsadida qo'llaniladigan jonli, yorqin bayon. Asosan uch holatda qo'llanishi mumkin:

- kompozitorming hayoti va ijod yo'lida hikoyabop voqea va lavhalar

muayyad bo'lsa (V. Motsart, L. Beethoven, YU. Rajabiy, Hoji Abdulaziz Abduraximovlar ijodlarida);

- musiqiy asarning yaratilishi tarixi bayonida;

- bolalarni yirik cholg'u va sahna asarlari obrazlariga olib kirishda (U. Musseverning «To'maris» baleti, A. Mansurovning «Hayvonlar so'loni», N. Yudaikovning «Maysaraning ishi», M. Ashrafyning «Dilorom», T. Jallilovning «To'xir va Zuhra» musiqali dramasi va h.k.).

Suhbat – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, musiqani faol va qiziqish bilan idrok etishga undaydi. Tinglangan asar yuzasidan bo'ladigan bu fikr almashinuv jarayonida mahoratli o'qituvchi muammoli holatlar, ta'biy, taqqoslashlarni qo'llagan holda bolalarning e'tiborini musiqiy asarning o'ziga xosligiga, boy ifoda vositalariga qaratadi, musiqiy obrazlarga aniq poetik tavsifat berishlarida, hayotiy qiyoslashlarga erishishlarida yordam beradi. D. Kabalevskiy suhbat metodiga musiqi darsini o'tkazish shakli sifatida katta ahamiyat beradi.

Tushuntirish, izohlashlar – musiqi savodi elementlari bilan bolalarni tanishtirishda, cholg'ularda ijroga o'rgatishda, qo'shiq aytirish, ritmik harakatlarni bajarishda qo'llaniladi.

Ko'rgazmali-informativ metodlar: Musiqiy asarni ijroda ko'rsatish, asarni qisman ko'rsatish, musiqali ixtibos (sitata), illyustratsiya (ilova), vokal, cholg'u, dirijyorlik ko'rsatib berishlari, audio, video, harakatlari ko'rgazmali, reproduksiya, portret, nota yozuvlari va h.k.dan iborat.

Musiqiy ta'lim-tarbiyada ko'rgazmalilikning eshituv ko'rgazmaliligi, harakatlanuvchi va ko'rib idrok etish ko'rgazmaliligi turlari mavjud. Eshituv ko'rgazmaliligi – bu musiqaning ifodali ijrosidir. Jaranglayotgan musiqi darsning barcha qismlari asosi bo'lib xizmat qiladi.

«Musiqaning jonli yangrashi darsda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi», deb yozadi N.L. Grodzenskaya. Musiqani tinglash, eshitish, idrok etish murakkab ish, chunki har bir musiqiy asarning mazmunini doimo harakatda va o'zaro bog'liqlikda bo'lgan ifoda vositalari majmuasi bilan beriladi. Shuning uchun o'quvchilarda avvalo tinglovchilik malakalarini rivojlantirish lozim, ya'ni musiqani doimo hisobdan oxirigi tovushigacha tinglash, «kuzatish»ga o'rgatib boriladi. Iltij jarayonida o'qituvchining so'zi musiqiy obrazlar olamini tushunish, his etishga yordam beradi.

Harakatlanuvchi va ko'rib idrok etish ko'rgazmaliligi. O'quvchi-

larni kuyning grafik tasviri, nota yozuvlari, tovush balandligi, metro-ritm, lad munosabatlari, shakllar, janr, intervallar va h.k. bilan tanishtirishda ishlatiladi. Bundan tashqari, vokal-xor va musiqa savodxonligi ishlarida dirijyorlik, musiqani taktilash, chalib ko'rsatish, dirijyorlik ifodalari, registr, ritmni grafik ifodalash kabi ko'rgazmalilik qo'llaniladi.

Badiiy-amaliy metodlar deb, o'quvchilarda malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodlarga aytiladi.

Badiiy-amaliy metodlar vositasida o'quvchilarda vokal-xor malakalari, musiqaning tuzilishi, musiqa ifoda vositalarini tahlil qilish, uning janr, shakllarini aniqlash, nota-yozuvini o'rganish, cholg'ularda ijrochilik, badiiy ijodkorlik malaka va ko'nikmalari shakllantiriladi.

Masalan, cholg'u ijrochiligiga o'rgatishda ijroni birga boshlash, birga tugatish, bir-birini eshitish malakalari ustida ishlaganda chalib ko'rsatish, tushuntirish, eslatish, qaytarish usullaridan foydalaniladi. Vokal-xor ishlarida qo'shiqchilik nafari, sof unison talaffuz, soz malaka va ko'nikmalarini o'stirishda mashqlarni kuylash, taktilash, dirijyorlik ifodalariga e'tiborni qaratish, ritmik chapaklardan foydalaniladi. Vokal, ritmik va raqs improvizatsiyasida ijodkorlik malakalarini o'stirish uchun mustaqil harakat, rag'batlantirish, taqqoslash, undash kabi vositalar qo'llaniladi.

4.2. Musiqaga o'qitishning xususiy metodlari

Maktabda musiqa darslarini olib borish amaliyoti jarayonida bir necha xususiy, ya'ni musiqa san'atini o'qitishga xos bo'lgan metodlar yuzaga keldi. Shulardan bir qanchasini ko'rib chiqamiz.

Kontrast (tafovut) – taqqoslash metodi. Akademik B.Asaf'ev tomonidan taqtil etilgan va musiqani idrok etish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Badiiy-pedagogik tahlil jarayonida o'qituvchi qo'ygan vazifalarga javob berish uchun bolalar asarni diqqat bilan tinglashlari, musiqiy obrazning o'zgarishi va rivojlanishini kuzatishlari, o'zlarining taassurotlarini anglashlari va xulosalar qila olishlarini taqozo etadi.

Musiqiy tajribasi kam bo'lgan kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun tafovutli (kontrast) asarlarni taqqoslash ularda qiziqish uyg'otadi. Masalan, «Andijon pol'kasi» bilan «Dilxiroj» asarlarini taqqoslagan

bolalar bolalar bu asardagi umumiylik taraflarini ayitishga qiyinaladilar. Lekin «Dilxiroj» asari bilan M.Mirzaevning «Bahor val'si»ni taqqoslaydigan bo'lsak, bolalar bu asardagi tafovutni va umumiylikni tez anglaydilar. «Bahor vals» asardagi mayinlik, kuychanlik borligi, kuyning «aylanma» harakatiga ega ekanligi, «Dilxiroj» esa sho'x, shaxdam, quvnoq harakatchanligini his etadilar. Bu asarlar raqs janriga mansabligi ulardagi umumiylikni hosil qilishini bilib oladilar.

«Musiqiy tasavvurni buzish» metodi. Musiqaga emosional ta'sirchanlikni, musiqa «nutqi» elementlarining ifodaviyligi haqidagi tasavvurni shakllantirish metodidan boshqacha yo'l bilan ham foydalanish mumkin. O'qituvchi bolalarga yaxshi tanish bo'lgan asarning ma'lum bir ifoda vositasini o'zgartirgan holda ijro etadi va bolalarga musiqaning xarakterini o'zgartirgan yoki o'zgarimchanligini aniqlashni taklif etadi. Vazifani hal etilishi jarayonida bolalar musiqa ifoda vositalarining ahmiyatini to'laroq tushunadilar, asarlarni yanada diqqat bilan tinglashga harakat qiladilar. Masalan, o'qituvchi N. Norxo'jaevning «Halkalar» qo'shig'ini o'zgartirib (ritmini soddalashtirib, sur'atini ayoklanishtirib) ijro etsa, bolalar qo'shiqdagi o'yniq, hazil, quvnoq xarakter yo'qolgan, asar mazmuni kuyga mos kelmasligini yaqqol his etadilar. Ritm va sur'at bu asarda yetakchi ifoda vositalari ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lalilar.

O'yosiy tahlil. Musiqiy tajriba o'ttirish natijasida o'smirlar katta, jiddiy asarlarni qiyosiy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lalilar. Masalan, 6-sinf o'quvchilari 1-chorak davomida mumtoz musiqa, mumtoz kuy va ashulalar, shashmaqom haqida umumiy tushunchalarga ega bo'lalilar va mavzu yuzasidan «Soqiynomai Savti kalon», «Hayot I», «Mushkiloti Dugoh», «Suvora» kabi asarlarni tinglaydilar. 3-chorakda esa Sharq xalqlari mumtoz musiqasining qadimdan biri, biri bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlanganligini o'rganadilar, xususan, turk, o'zbek, tojik va afg'on xalqlari musiqasi namunalari bilan tanishadilar va qiyosiy tahlil jarayonida ularda o'zbek musiqasiga ko'p jihatdan «maqom» janri orqali, musiqa ladiari, usullar, nola va bezaklarda, cholg'ularda umumiylik mavjud ekanligini bilib oladilar.

Taqqoslash, qiyoslash metodlari vokal-xor ishlarida, musiqa savodxonligini o'zlashtirishda ham yaxshi samara beradi.

Emosional ta'sir etish metodi – o'qituvchining musiqiy asarga obrazli so'z, mimika, jestlar orqali o'z munosabatini ko'rsata olishida

namoen bo'ladi. Asar kayfiyati, xarakteriga mos ravishda uning ovozi hissiy «turflanadi». Ona allasi haqida mayin, iliq, yoqimli tovushda gapirsa, vatandarparlik, jasorat ifodalangan asarlar haqida – tantanavor, ko'tarinki ohangda so'zlaydi. Bunday ifodaviy usullarni o'quvchi musiqaning emosional ta'sirini kuchaytirish va o'quvchilar taassurotni boyitish uchun qo'llaydi.

Muammoli o'qitish metodi. O'smirlarda mustaqillikka, o'zligini anglashga bo'lgan intilish ularning musiqiy qiziqishlari, ehtiyojlariga ham ta'sir etadi. Zamonaviy estrada yo'nalishtari, tanikli ijrochilar va guruhlarni bilish ularga o'z do'stlari orasida obro' olishga, o'zlarini kattalardak his etishga yordam beradi. Shuning uchun o'quvchining «Bizga mumtoz musiqaga kerakmi?», yoki «Ovro'pa musiqasini bilish zarurmi?», yoki «Zamonaviy estrada musiqasini jiddiy san'at deb atash mumkinmi?» kabi savollari bahslarga sabab bo'ladi.

Turtli qarashlarning yuzaga kelishi muammoli holatlarni keltirib chiqaradi va ular «bahs-munozara»larda o'z yechimini topadi. Bu jarayonda biron-bir o'quvchi chekda qolmaydi. Munozara jarayoni o'quvchilarning musiqiy tajribasini faollashtiradi, o'z fikrini himoyalashga undaydi. Mohirona tashkil etilgan bahslarda o'quvchi o'quvchilarga turtli fikr-mulohazalarni, ular dagi ziddiyatlarni xolisona ko'rsata olishga yordam beradi. Har qaysi taraf ma'lum bir xulosalar chiqaradi, musiqiy namunalarini keltiradi, ya'ni faol munozara o'quvchilarda dunyoqarashlar, ishonchlarni shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgandan tashqari musiqiy ta'lim-tarbiyada yana bir qator xususiy va innovatsion metodlar qo'llaniladi.

Bular:

- «Oldinga yugurib, orqaga qaytish» (D.Kabalevskiy) yoki «perspektiv va retrospektiv» metodi (E.Abdullin) – dastur mavzulari asosida uzviylik aloqalarini tashkil qilishga, o'quvchilarda musiqaga yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan. Uzviy aloqalar 3 holatda hosil qilinadi:

1. O'quv yillari bo'yicha.
 2. Chorak mavzulari asosida.
 3. Musiqiy asarlar asosida.
- musiqiy umulashtiruv metodi (E.B.Abdullin) – o'quvchilar tomonidan musiqaga chorak chorak mavzulari asosida tayanch bilimlar o'zlashtirishiga hamda darsda mavzu asosida yaxlitlikka erishishga

qaratilgan;

- musiqiy dramaturgiya metodi (E.B.Abdullin) – musiqaga emosional munosabatni faollashtirishga qaratilgan. Dars tuzilishida konkret sharoit, o'quvchilarning musiqiy rivoji darajasi, faoliyat turlari va mashg'ulot shakllarining eng muqobil ketma-ketligini sinf sharoitida hisobga oladi;

- badiiy kontekst yaratish metodi (M.Krasif'nikova) – o'quvchilar musiqaga madaniyatni rivojlantirishda ma'lum bir davr musiqasi «beganalaridan chiqish» ga, ya'ni boshqa san'atlar, tarix, tabiat, badiiy holat va obrazlarga murojaat qilishga asoslangan, boy badiiy-psixologik muhit yaratishga qaratilgan. Masalan, M.Bafeyevning 4-chi simfoniyasi «Movarounnaxr»ni o'rganishda Navoiy davri madaniyati, adabiy-ijtimoiy holati va h.k.larga murojaat qilish;

- bayotiy assotsiatsiyalar metodi (S.Portugalov) – yuqoridagi metodga yaqin turadi. Bu metod o'quvchilarda musiqiy asar qaxramonining holatiga yaqin bo'lgan alohida emosional tuyg'ular uyg'otishga qaratilgan. Bunday holat subhat yerdamida, boshqa san'atlarga murojaat qilish orqali, hamda dars o'tkazishda alohida muhit yaratish orqali amalga oshiriladi. (Masalan, S.Yudakovning «Maysaraning ishi» operasi asosiy qaxramonlari – Oyxon, Cho'ponali va h.k. larning musiqiy obrazlarini idrok etishda bu metoddan foydalanish mumkin);

- polifonik metod (D.Depesheva) – musiqiy diqqatni uzoq vaqt ushlab turishga qaratilgan. Bunda ijrochilik tahlili va hissiy-ma'naviy dramaturgiya vazifalari baravar hal etiladi. Bir asarni turtli talqin va ijro uslublarida ketma-ket tinglash, ijrochilik talqinlarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Musiqiy ta'lim-tarbiya metodlarining turlicha ekanligi musiqaga o'qituvchining o'ziga xosligi hamda o'quvchilar musiqiy faoliyatining xususiyatlari bilan aniqlanadi. Bu metodlarning har biri alohida qo'llanilmasdan, balki bir-biri bilan bog'liq holda, bir-birini to'ldirgan holda uzviy amalga oshiriladi. Masalan, o'smirlarning musiqiy asar bilan tanishuvini o'quvchi subhat orqali boshlab, ularga oldin o'tilganlar yuzasidan kompozitor va uning asarlari haqida savollar beradi (og'zaki metod); subhat davomida tanish fragmentlarni ijro qiladi (musiqiy ilova, eshituv ko'rgazmaligi); asarning yaratilishi tarixi yoki ijro tarixi, tinglovchilarda goldirgan taassuroti haqida qiziq ma'lumotlar beradi (og'zaki, undovchi metodlar); o'quvchilar asarni gramyozuvda to'liq

eshitadilar (eshituv ko'rgazmaligi metodi), o'quvchi savollariga javob beradilar. asarga o'z munosabatlarini ko'rsatadilar: tinglab, asarni alohida fragment-parчалarini taqqoslaydilar, tahlil qiladilar, asarning asosiy g'oyasini aniqlaydilar (umumlashtiruv metodi).

Shunday qilib, musiqa darsining maqsadiga ko'ra belgilangan vazifalarni amalga oshirishda eng muqobil metodlarni tanlashi, bir asar ustida har gal yangicha shaklda ishlashi, darsda nafaqat faol bolalarni, balki passiv o'quvchilarni ham ishga jalb eta olishi, o'quvchi va o'quvchilar hamkorligi holatini yuzaga keltirish - musiqa o'quvchisining ijodkorligini, mahoratini namoyon etadi.

V BOB. MUSIQA IDROKI (MUSIQA TINGLASH)

5.1. Musiqiy idrok - darsdagi yetakchi faoliyat turlaridan biri

Umumta'lim maktablarida musiqiy ta'limning muhim vazifalaridan biri - o'quvchilarda musiqani idrok etish malakalarini o'stirish, unga emosional munosabatni shakllantirishga erishishdir. Bu jarayon darsdagi musiqiy faoliyatlarning barcha turlari asosida amalga oshiriladi. Masalan, qo'shig'ni o'rganish uchun uni, avvalo, eshitish, kuyning sof ohangiga, musiqiy rivojiga quloq solish; musiqa cholg'ularda ritmik jo'e bo'lishda, raqs harakatlarini bajarishda uning o'zgarishini his etib, asarga o'z munosabatini ko'rsata olish muhimdir.

Shu bilan bir qatorda musiqa idroki darsdagi faoliyatlarning mustaqil turlaridan biridir. Metodik adabiyotlarda musiqa idroki musiqa tinglash deb yuritiladi. Bunda o'quvchilar o'zlari jiro eta oladigan nisbatan ancha murakkab asarlar bilan tanishadilar. Bunday asarlarni tinglash jarayoni faqatgina musiqa bilan tanishuvdan iborat bo'lmastigi lozim. Musiqa idroki - musiqa mazmunini (musiqiy obrazni) eshita bilish va hissiy kechimmalari asosida o'zlashtirishdir.

O'quvchilarda musiqiy idroknii rivojlantirish - ularni musiqani, insonning hissiyotlari, kechimmalari, fikrlari, hayotiy g'oya va obrazlarini aks ettiruvchi san'at sifatida qabul qilishga o'rgatish demakdir. Buning uchun esa ularda musiqa hissiy ta'sirchanlik, qiziqishini o'stirish, musiqiy ijodiy qobiliyatlar, didni rivojlantirishga qaratilgan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish talab etiladi. Mazkur malaka va ko'nikmalarning shakllanishi bola ongingning uzoq rivojlanish jarayonini talab etadi. Badiiy qiymatga ega asarlar hamda musiqa tinglash jarayonining faol bo'lishi o'quvchilarda musiqiy didni tarbiyalashning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Musiqiy idrok - murakkab psixologik jarayon bo'lib, uning asosida real birligining obrazlar orqali musiqiy tovushlarda aks etishini eshita olish va undan ta'sirlanish qobiliyati yotadi.

Musiqiy asar olamiga «kirib borish», musiqa kayfiyatini his etish, g'oyasini tushunib yetish tinglovchining o'ziga xos ijodiy faoliyati tufayli ro'y beradi.

Musiqa insonga o'zining ifoda vositalari - ohang, lad, metro-ritm, temp, dinamika, registr, faktura, ko'povozlik, shakl, garmoniya va h.z.

kabi «bo'yoqlari» uyg'unligida ta'sir etadi. Bu ifoda vositalari asarning kayfiyati, go'zalligi, mazmuni va g'oyasini tinglovchiga yetkazib beradi. Ammo musiqani tushunish, ya'ni uni nafaqat hissiy qabul qilish, balki ong bilan ham tushunish, musiqa nimani ifodalayotganligi va qanday ifodalayotganligini his etish, musiqa bilan mulokada bo'lishga ehtiyoj sezish insondan badiiy saviya, musiqiy, hayotiy tajriba talab etadi. Shuning uchun musiqashunoslar musiqa tinglash aqlning kuchli faoliyati va o'ziga xos ijoddir deb ta'kidlaydilar.

Idrok masalalari, xususan musiqa vositasida uni rivojlantirish muammolari ko'plab bolalar bilan ish olib borgan musiqashunoslar, psixologlar va pedagog olimlarning izlanishlari asosini tashkil etadi. Musiqashunos B.L. Yavorskiy «Musiqani idrok qilish asosida fikrlash, musiqani «ma'noga ega nutq» sifatida qabul qilish malakasi yotadi», deb ta'kidlaydi.

5.2. O'quvchilarda musiqa idrokini rivojlantirish xususiyatlari

Musiqa insonga ta'sir etar ekan, uni quvontradi, hayajonlantiradi, o'ziga qiziqish uyg'otadi. Inson tuyg'ularining barcha ko'rinishlari – quvonch va qayg'u, baxt va dard-alam musiqada aks etishini bolalar eshitishlari, anglashlari va his etishlari uchun o'qituvchi barcha shart-sharoitlarni hosil qiladi, bolalarning musiqa bilan mulqoti quvonchli bo'lishi uchun turli vositalar qo'llaydi. Bu esa ko'proq darsda qo'llaniladigan musiqiy asarlarga bog'liq. Asarlar badiiy qiymatga ega bo'lishi, obrazli, qiziqarli, mazmunan bolalarga yaqin, tili jihatdan mos bo'lishi, bolalar ehtiyojlariga javob berishi kerak. Shu bilan birga, o'quvchilarga tinglash uchun musiqiy material havola etilayotganda ularning tinglash diqqati hajmi e'tiborga olinishi lozim. 6-7 yoshli bolalar 1-1,5 minut musiqani turg'un diqqat bilan tinglaydilar, uchinchi to'rtinchi sinf o'quvchilari 4-4,5 minut jaranglaydigan musiqiy obrazni idrok etishlari, o'smirlar esa 15-17 minut diqqat bilan asar tinglay oladilar.

Har bir bolaning qiziqishi uning ichki dunyosiga mos bo'ladi. Ma'lum bir yoshdagi bolalarni alohida qiziqishlari birlashtiradi.

7-8 yoshdagi kichik maktab o'quvchilari quvnoq, sho'x musiqani qahramonlik, o'yin mavzusiga bag'ishlangan asarlarni qiziqish bilan

eshitadilar. Ularni aniq, yorqin obrazli, poetik mazmunga, sho'x usulga, oddiy til va shaklga ega bo'lgan asarlar qiziqitiradi. Masalan, «Oq terakmi, ko'k terak», «Asp bo'lamani», «Dilxiroj», «Chitti gul», «Chamanda gul», «Choriy chambar», «Kovushim» (xazil qo'shiq), «Aylak keldi» kabi ko'plab xalq ijodi namunalari.

«Kupalgim», «Archa bayrami» (N. Norxo'jaev), «Bolalar va g'ozlar» (D. Najmiddinov), «Yomg'irjon» (S. Abramova), «quvnoq doira» (B. Gienko), «qo'g'irchoq soldatchalar marshi» (P. Chaykovskiy) kabi asarlar shu yoshdagi o'quvchilarga yaqin.

Bolalar asarning janr xususiyatlarini – marsh, qo'shiq-rags yengil o'zlashtiradilar.

Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarni musiqa janri namunalarini bilan tanishtirishda janrning faqatgina xarakterini aniqlamasdan, janr xususiyatlarini ham ko'rsatib berishga harakat qilishi lozim. Buning uchun bolalarga p'esalarni taqqoslash va ulardagi umumiylikni topish vazifalari beriladi. Masalan, «Yurish marshi» (F. Nazarov), «Bayram marshi» (D. Zokirov), «Usoniya» (xalq kuyi), «Futbol marshi» (M. Hantey), «Yog'och soldatchalar marshi» (P. Chaykovskiy) namunalarida bolalar marsh musiqasining hayoldagi o'rni hamda ularning xilma-xilligini bilib oladilar. Ko'rsatilgan marshlarning hammasi o'z kayfiyatiga ega va ularni umumlashtirib turuvchi xususiyat – hammasida qadam harakati, aniq usul (pul'satsiya) borligi, qadamlar harakati tez, yengil, chaqqon yoki og'ir, shaxdam, ulug'vor, tantanavor bo'lishi marshning kayfiyatidan kelib chiqishini bilib oladilar.

Xuddi shu yo'sinda rags va qo'shiq janr xususiyatlarini ko'rsatib berish mumkin. Asarning janr xususiyatlarini o'rganandan so'ng bolalarni musiqadagi ifodaviylik va tasviriylik tushunchalariga olib kelish mumkin.

Avvalo o'quvchilarga musiqiy obrazning ifodaviyligi ko'rsatiladi. Musiqaga sho'x, quvnoq, g'amgin, mayin, nozik, tantanavor, hazil, bog'amlik, ma'yuslik, dard kabi turli kayfiyatlarni ifodalashi ko'plab asarlar misolida ko'rsatilishi mumkin (I. Akbarov «Alla»si, A. Mansurov «qo'zichog'im-o'yinchoqi», P. Chaykovskiyning «Kasal qo'g'irchoq» asari, «Lazgi», «Paxtaoyning bayrami» va boshqalar).

Shundan so'ng bolalarda tabiat manzaralari va harakat aks etgan asarlar yordamida musiqaning tasviriyligi haqidagi tushunchalar shakllantiriladi (S. Abramova «Yomg'irjon», R. Shuman «quvnoq chavandoz»).

B. Gienko «quvnoq do'ira», G. Mushel' «Ertak», I. Akbarov «Karvon», A. Rouli «Vesolyiy gnom» va h.k.) 9-11 yoshli o'quvchilarni ko'proq musiqada o'tgan davr va hozirgi zamon qahramonliklari mavzusi, xalq ijodi, turli xalqlar musiqasi qiziqitiradi, kompozitorlar ijodi, xalq qahramonlari aks etgan asarlar kasb etadi. Musiqaning ifoda vositalari - sur'at, dinamika, registr, lad haqida tushunchalarga ega bo'ladi. Oddiy musiqi shakllari bilan tanishadilar.

Asla-syekin musiqi takrorlanish, tafovut, variantli o'zgarish asosida rivojlanishi haqida tasavvur hosil qiladilar. O'quvchilarga musiqiy obrazning rivojlanishini tushuntirish maqsadida uning grafik yozuvidan foydalanish mumkin. Masalan:

- oddiy uch qismli shaklda musiqiy obrazning rivojlanish yo'li shunday ifodalanadi: $\triangle$ $\bigcirc$ $\triangle$

Oddiy musiqi shakllarini o'zlashtirgandan so'ng bolalar variatsiya, rondo, syuita kabi musiqi janrlari bilan tanishadilar. Bunda ham chizma yaxshi yordam beradi. Variantlik asosida musiqaning rivojlanishini ifodalash uchun bir turdagi shakllarning turli rangdagi ko'rinishini keltirish mumkin:



O'smirlarda insonning ichki murakkab dunyosi his-tuyg'u, kechinmalari, sevgi-muhabbat obrazlari, qahramonlik va satira kabi jiddiy muammolar aks etgan asarlar, buyuk musiqi ijodkorlari hayoti qiziqish uyg'otadi. Uslubi, janri, shakl-hajmida qat'iy nazar muhim ijimoiy mavzularda, masalan, chuqur falsafiy g'oyalar, orzu va baxt-saodat uchun kurash, ilk muhabbat dardi, sog'inch kabi insoniy his-tuyg'ular ifodalangan musiqi o'smirlarga katta hissiy ta'sir o'tkazadi va ularni jiddiy fikrlashga undaydi. Musiqiy idrokni rivojlantirishning muhim bosqichlaridan biri - o'smirlarda musiqiy dramaturgiya haqida tushunchalar, tasavvurlar hosil qilish. Bu tasavvurlar asosan yirik shaklli musiqi asarlari bilan tanishish jarayonida hosil qilinadi. Dasturga kirgan T.Qurbonovning «Shiroq» baleti, Ulug'bek Musayevning «To'maris» baleti, T.Jalilovning «Tohir va Zuhra» operasi, S.Yudakovning «Mirzacho'l» vokal-simfonik syuitasi, Betxovenning «Qahramonlik», V.A.Motsartning «40» simfoniyalarini tinglab o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar bu asarlarda aniq ifodalangan musiqiy obrazlar va ularning to'qnashuvlari, ziddiyatlari, kurashlari orqali ijodkorlar murakkab hayot

janrlari, insonlar xarakteri, dramalari, katta g'oyalarni aks ettirganlarini bilib oladilar.

Mazmuni murakkab bo'lgan yirik musiqi asarlarini diqqat bilan tinglash, asarning g'oyasini tushunishga o'rgatish o'qituvchidan mahorat kasb etadi. Shu bilan birga har bir o'quvchi o'zining shaxsiy va musiqiy tajribasidan kelib chiqqan holda, musiqiy-ijodiy qobiliyatlariga qarab musiqani idrok etadi.

O'quvchilarda musiqi tinglash, musiqi idroki, malakalarini rivojlantirish bir qancha qonuniyatlarga asoslanadi:

1. O'quvchilarni musiqani diqqat bilan tinglashga, musiqi «oqimini» kuzatishga o'rgatish lozim.

Tinglash faol bo'lishi uchun uni tashkil etish va boshqarish talab etiladi.

2. Musiqi tinglash maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

3. Bolalarda musiqaga nisbatan hissiy munosabatlarni shakllantirish. Huning uchun darsda qo'llaniladigan asarlar badiiy jihatdan yetuk bo'lishi, yorqin obrazli, qiziqarli, mazmunan bolalarga yaqin, bolalar ehtiyojlariga javob berishi lozim.

4. Berlayotgan material bolalar yoshiga mos bo'lishi va puxta o'zlashtirish kerak. Puxta o'zlashtirilgan asargina musiqiy dunyoqarashni kengaytiradi, didni shakllantiradi, idrokni rivojlantiradi.

5.3. O'quvchilarda musiqi tinglash ko'nikmalarini shakllantirish metodlari

O'quvchilarda, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda, musiqi idrokini rivojlantirish murakkab vazifa. O'quvchi musiqani butunligicha umumiy xarakter, kayfiyat sifatida idrok etadi. Ular «g'amgin-quvnoq», «chuqon-syekin», «baland-past», marsh, qo'shiq, raqs kabi kontrast obrazlarni yengil farqlaydilar, ammo shu bilan bir qatorda asarni doimo ham boshidan oxirigacha hayollarini buzmasdan tingla olmaydilar. Ko'pincha asarning boshlang'ich taktlarining tinglab, davomini eshitmaydilar. Shuning uchun asarni boshidan oxirigacha tinglash va idrok etishga o'rgatish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.

Musiqada har daqiqada o'zgarish sodir bo'ladi, tovushlar qaytariladi, o'zgaradi, tovushlar turli kayfiyatlarga birlashadi" degan fikrni bolalar tushunishlari lozim. Bunda musiqi ifoda vositalarining bolalar

tomondan o'zlashtirilishi katta yordam beradi: asar qanday jaranglayapti, bu kayfiyat qanday vositalar orqali berilgan? degan savollarga javob berish uchun o'quvchilar kuyning harakatiga, xarakteriga, ritmik ko'rinishi tempi, dinamikasiga (keyinchalik ladiga) quloq solishlari lozim.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar asosan xalq musiqasining omaviy janrlariga kiruvchi «Dilxiroj», «Do'lomcha», «Chertmak», «Ufor», «Asp bo'laman», «Gulnoraxon», «Qashqarcha», «Qo'shtor», «Oromijon», «Qora soch», «Norim-norim», «Lazgi» kabi ko'plab asarlarni yakkanaovoz, cholg'u dastalari va orkestr, hamda xor jamoasi ijrosidagi variantlarda tinglaydilar.

Musiqiy asarlarni tinglash, idrok etish, mazmuni va kayfiyatini anglash jarayonida o'quvchi o'quvchilarga yordam berishi lozim. Buning uchun o'quvchi:

- o'quvchilarni tinglanayotgan asarga hissiy tayyorlaydi;
- o'quvchida madaniyati tinglovchi malakalarini shakllantiradi;
- musiqaning mazmuni, ifoda vositalarini oddiy tahlil qilishga o'rgatadi;
- musiqa haqida fikr yuritish, asarga estetik baho berish ko'nikmalarini hosil qiladi;
- o'tilgan asarlarni jaranglashidan tanib eslashni, asarning nomi va kompozitorlarining nomlarini bilishni.

Tinglashdan oldin bolalar diqqatini jamlash, faollashtirish uchun o'quvchi o'quvchilar oldiga ularning musiqiy tayyorgarligi darajasidan kelib chiqqan holda turli vazifalar qo'yishi mumkin. Masalan:

- 1.«Hozir siz uncha katta bo'lmagan musiqiy asar, musiqiy p'esa tinglaysiz. Siz bu asarga nima deb nom bergan bo'lardingiz?»
- 2.«Siz M.Mirzaevning «Bahor val'si» asarini tinglaysiz. Musiqani eshitng va o'ylab ko'ring – nima uchun asar shunday nomlanadi?»
- 3.«Musiqani diqqat bilan eshitng va ayting – asarda bir kayfiyat aks etadimi yoki bir necha kayfiyat berilganmi?»

Bunday vazifa – savollar bolalarda musiqani tinglash hohishini uyg'otadi, musiqiy idrokni faollashtiradi. Bolalar asar mazmuni, musiqiy nutq vositalarining ifodaviyligini anglashga harakat qiladilar.

Musiqa idrokini hissiy jihaddan faollashtiruvchi va boyituvchi metodlar quyidagilar:

- bolalarga tanish bo'lgan asarni yangi ijroda, yangi talqinda berish;

- turli talqin va ijro usullarida berilgan bir asarning o'zini taqqoslash (masalan, «Chamanda gul» asarining duorochilar ansambli hamda xor ijrosidagi talqini, o'zbek xalq kuyi «Chertmak» ning yakka duor hamda duorochilar ijrosida va h.z.);

- o'quvchining jonli ijrosi;
- o'quvchining kirish so'zi;
- yuqori sifatli audio va CD yozuvlaridan foydalanish;
- cholg'u asarlarining musiqiy mavzularini lokalizatsiya qilib kuylash.

5.4. Darsda musiqiy asarni o'rganish bosqichlari

Musiqa idroki musiqiy asarni o'rganish jarayonida rivojlanadi va bu jarayon to'rt bosqichda amalga oshiriladi: o'quvchining kirish so'zi, musiqiy asarni birinchi bor tinglash, musiqa tahlili, qayta tinglash. Bu bosqichlarni alohida ko'rib chiqamiz.

O'quvchining kirish so'zi – qisqa, emosional, qiziqarli bo'lib, asosiy maqsad – bolalarning diqqatini tinglanadigan asarga jalb etish, unga qiziqish uyg'otish. Kirish so'zi bolalar yoshi, dars mavzui va dastur vazifalariga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda o'quvchi o'z kirish so'zida bolalarga kompozitor haqida, asar mazmuni haqida qisqacha so'zlab berishi mumkin. Ba'zida esa kirish so'zi bir necha savollardan iborat bo'lib, bolalar idrokini faollashtirish, ularda musiqani tinglash koinatini hosil qilishi lozim (yuqoridagi matnga qaralsin).

Balet yoki operalardan namunalar tinglanar ekan, syujetni to'liq so'zlash shart emas, chunki, birinchidan, ko'p vaqt talab etiladi, ikkinchidan, bolalarga syujet vogalari har doim ham ohirigacha tushunari bo'lavermaydi (masalan, «Maysaraning ishi», «Ruslan va Lyudmila»). Shuning uchun syujetning asosiy g'oyasini keltirish bilan chegaralanish mumkin. Operadan tinglanadigan qo'shiq yoki ariya matnini oldindan o'qib berish ham maqsadga muvofiq.

Agar baletdan raqslar tinglanadigan bo'lsa, (masalan T.Qurbonovning «Shitrop», U.Musayevning «o'maris» baletidan) o'quvchi raqslar sahna qanday holatda ijro etilishi haqida so'zlab beradi.

Gramyozuv orqali tinglanadigan yirik cholg'u asarlariga bolalar o'qib berish talab etilish maqsadida o'quvchi avval shu asardagi asosiy mavzularni echanib ko'rsatib berishi asarning yaxshi o'zlashtirilishiga

yordam beradi (V.A.Motsarling 40-simfoniyasi, M.Maxmudovning «Muhammas va ufor» asari).

Asar kompozitori, bastakori haqidagi bayon mazmuni aniq o'ylab chiqilgan bo'lishi lozim. Ko'pincha o'qituvchi ijodkorning hayoti bilan bog'liq bo'lgan ko'plab sanalar haqida ma'lumot beradi. Bu sanalarning hammasini bolalar eslab qolmaydilar. Va bu unchalik muhim emas. Muhimi bolalarga, masalan, Xoji Abdulaziz Abdurasulovning bir necha bor sharq mamlakatlari bo'ylab qilgan sayohatlaridan olgan tasvirlari natijasida «Cho'li lroq», «Jazo'r» kabi xalq sevgan asarlarni yaratganligi. Yu.Rajabiyning O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi darajasiga o'sib yetgan yagona san'atkor ekanligi kabi ijodkor hayotidagi yorqin lavhalarni yetkazishdir.

Musiqiy asarni tinglash – bolalarni musiqani tinch, gaplashmasdan tinglashga o'rgatish birinchi galdagi vazifa. Asar boshidan oxirigacha ifodali, badiiy ijroda gramyozuv orgali yoki o'qituvchi ijrosida ko'rsatiladi. Musiqi jaranglayotgan paytda o'qituvchining o'zi ham musiqani berilib tinglashi, ko'rsatmalar bermasligi, yozuv-chizuv ishlari bilan shug'ullanmasligi lozim, ya'ni musiqiy asarni o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda tinglaydi.

Musiqi tahlili – musiqi tinglashdan olingan hissiy ta'sirni chuqurlashtirish vazifasiga qaratilgan. Bu murakkab va o'qituvchidan mahorat talab etadigan bosqich. Asarni tushunish va his etish bir narsa emas. Tahlil ko'pincha hissiy idrokka xalal ham berishi, tinglashni susaytirishi mumkin. Asar ifoda vositalari mazmundan ajralgan holda ko'rib chiqilsa, shunday bo'ladi.

Musiqi mazmunini so'z bilan ifodalash qiyin. Shunga qaramasdan musiqiy obrazning umumiy xislatlarni aks ettiruvchi so'zlarni topish mumkin. Bunday so'zlarni topish zaruriyati (vazifasi), bolalarni nafaqat asarni diqqat bilan tinglashga, balki uni tushunishga undaydi.

Bolalarning musiqiy tajribasi, so'z boyligi ortib borgan sari, ular musiqiy asarga nozikroq, aniqroq tavsif bera oladilar. O'quvchilarda so'z boyligini oshirish maqsadida o'qituvchi bir qator usullardan foydalanishi mumkin. Masalan, doskaga yozilgan tavsiflar ichidan tinglangan asarga mos keluvchi so'zlarni tanlab olish; asarning shaklini yoki janrini kartochkalar yordamida aniqlash va h.k. Musiqi savodini egallab olgan sari o'quvchilar musiqi tahlili jarayonida o'z bilimlarini qo'llay boshlaydilar.

Shuni aytish lozimki, tahlil turli sinflarda turlicha savollarni yoritishga qaratilgan.

1-2 sinflarda tahlil jarayonida quyidagilar yoritiladi:

- 1) musiqaning mazmuni, kayfiyati, xarakteri;
- 2) musiqi janri.

3-4 sinflarda subhat quyidagi savollar yuzasidan o'tkaziladi:

- 1) mazmun va xarakter;
- 2) musiqiy janr;
- 3) musiqi qanday o'zgaradi;
- 4) musiqiy shakl.

5-7 sinflarda tahlil chuqurlashtadi:

- 1) xarakter mazmunga bog'liqligi;
- 2) musiqiy janrlar; vokal-simfonik syuitalar, operalar, oratoriya, simfoniya, balet, mumtoz musiqi janrlari va h.z.

Musiqi tahlili asosida o'quvchilarning musiqaga kirib borishi, asosiy musiqiy qonuniyatlarni tushunib yetishlari bosqichma-bosqich, tizimli ravishda hosil bo'ladi.

Qayta tinglash – o'quvchilar musiqani to'laroq idrok etishlari, asarni eslab qolishlari, asarni yozitib qolishlari uchun bir necha bor qayta tinglash maqsadga muvofiq, chunki bir marta tinglangan asar darrov bolalarga yozgadi, hamma bolalar tomonidan yetarli darajada emosional qabul qilinadi, deb ayta olmaymiz. Birinchi taassurot ko'pincha noaniq bo'ladi. Musiqiy asar o'quvchi bolaning musiqiy tajribasiga aylanishi uchun uni bir necha bor qayta tinglash (uch-to'rt marotaba, bir necha darslar davomida) lozim bo'ladi. Har bir qayta tinglash jarayoni idrokni boyitishi, musiqiy obraz tasavvurini chuqurlashtirishi va asarning esda qolishini ta'minlashi lozim.



Musiqiy obrazlarni taqqoslash – qiyoslash metodi bolalarda musiqa idrokini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu metoddan oqilona foydalanish bolalarning musiqiy-eshitiv qobiliyatlarini o'stiradi. Avval kontrast asarlarda farqlarni anglash, keyinchalik kayfiyati bir xil bo'lgan asarlarda nozik o'xshashliklarni his etishlariga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'quvchilarda musiqa idrokini rivojlantirish o'qituvchidan turli metod va usullardan oqilona foydalanishni talab etadi. Musiqa qonuniyatlari, musiqa san'ati xususiyatlari oddiy janrlardan murakkablariga qarab bosqichma-bosqich o'zlashtirilishi ta'minlanishi musiqaning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi.

VI BOB. JAMOA BO'LIB KUYLASH – BOLALAR MUSIQA FAOLIVATINING OMMAVIY SHAKLI

6.1. Faoliyatning umumiy tavsifi

Jamoa bo'lib kuylash - o'quvchilarni musiqa san'atiga musiqa san'atiga faol jalb etishning eng ommaviy shaklidir. Har bir sog'lom bola kuylay oladi. Kuylash bola uchun estetik ehtiyoj, hissiyat va kayfiyatni ifodalashning eng tabiiy va qulay vositasidir. Bola qo'shiq ijro etar ekan, unda his-hayajon, zavq-shavq, ko'tarimlik, quvnoqlik, harakatchanlik kabi ijobiy tuyg'ular hosil bo'ladi. Qo'shiqda ikkita estetik vosita – musiqa va badiiy so'z birlashadi.

Shuning uchun tajribali o'qituvchining qo'lida jamoa bo'lib kuylash – o'quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Qo'shiq kuylash faoliyati o'quvchilarda melodik, garmonik eshituv, ladni his etish, sof intonatsiya kabi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Ijro jarayonida ovozi va musiqiy eshituvi turlicha bo'lgan bolalar jamoa bo'lib birlashadilar, ularda o'z ijrolarini va o'z ritoqlari ijrolarini eshitib kuzatish, birgalikda kuylashdan zavqlanish, diqqat, kuzatuvchanlik, intizom kabi sifatlarni tarbiyalanadi. Kuylash jarayonida o'quvchilarda ovoz apparati rivojlanadi, nafas chuqurlashadi, qon aylanishi yaxshilanadi, qomat iyokislanadi, ya'ni jismonan ham bola rivojlanishi kuzatiladi.

Kuylash faoliyati bir qator vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- bolalarda jamoa bo'lib kuylashga qiziqish va muhabbatni o'stirish;
- musiqa hissiy ta'sirchanlikni tarbiyalash;
- badiiy didni tarbiyalash;
- qo'shiqchilik ovozini, ya'ni chiroyli, tabiiy tovushda kuylashni shakllantirish, diapazonni o'stirish;
- badiiy ijroga erishish uchun vokal-xor malakalarini rivojlantirish;
- musiqiy qobiliyatlarni o'stirish.

6.2. Bolalar ovozi rivojlanishining yosh davrlari bo'yicha xususiyatlari

Insomning kavyatiga qarab ovoz yuqimli, quvnoq, jarangdor, sho'x yoki bo'g'i, «shirasiz», «yoqimsiz» bo'lishi mumkin. Ovoz manbai bo'lib tebranuvchi ovoz pardalari xizmat qiladi. Ovoz pardalari tor misol hiqildoqda tortilgan bo'lib, old qismi qalqonsimon tog'ayga, orqa qismi esa ikkita shoxsimon tog'aylarning o'simtalari mustahkamlangan. Biz jim turganimizda ovoz pardalari ochilib turadi. Gapirish yoki kuylash paytida ovoz pardalari birikadilar va o'pkadagi olingan nafas chiqish paytida bu pardalarga bosim bilan ta'sir qilib, ularni tebratiradi. Ovoz pardalarining tebranishi va ularning o'rtasidan o'tuvchi havo tovush to'liqlarini hosil qiladi.

Tovush balandligi shu tovush to'liqlariga bog'liq: tebranish soni qanchalik ko'p bo'lsa, tebranish to'liqlari shunchalik qisqa bo'ladi va tovush baland bo'ladi; va aksincha, tebranishlar soni kam bo'lsa, tovush to'liqlari uzun bo'ladi va tovush past bo'ladi. Ovoz pardalari sekundiga 80 dan 10000 gacha tebranishi mumkin. Ovoz pardalari tebranish paytida butunligicha yoki ma'lum qismlari bilan harakatga kelishi mumkin. Tovush kuchi tebranish kengligiga, ovoz pardalarining tarangligiga va olinadigan nafas kuchiga bog'liq. O'z navbatida nafas kuchi – o'pka va nafas muskullarining hayotiy hajmiga bog'liq.

Inson ovoz apparati juda murakkab tizimdan tashkil topgan. Uning asosiy qismlari – nafas organlari (o'pka, nafas yo'llari, nafas muskullari), hiqildoq va ovoz bog'lamlari – tovush tug'iladigan joy, artikulyatsion apparatlarning hamma qismlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq.

Kuylash jarayoni paytida ovoz apparatining hamma bo'laqlari bir butunlikda ishlaydi. Ovoz apparatining faoliyati bosh miya, markaziy nerv tizimining boshqaruvi ta'siri ostida bo'ladi.

Tovush apparatining fiziologik tuzilishi masalalarini P. Ch. Chesnokov, Sh. Ro'ziev, D. Xalabuzar, N. Dmitriev o'z ilmiy risolalarida keng va atroflicha yoritib berganlar.

Tovush – ovoz apparatining mahsulidir. Tovush hosil qilishni fonatsiya (yunoncha «fono» - tovush) deb ham yuritiladi. Balandligi, kuchi va go'zalligi jihatidan xilma xil bo'lgan bu tovushlar hiqildoqda (yuqori nafas tizimida) hosil bo'ladi. Hiqildoq – tovush hosil qiluvchi organdir. Qo'shiq aytishga monand tovush ovoz pardalarining

tebranishi hamda rezonatorlar tovushni kuchlantirishi natijasida paydo bo'ladi. P. Ch. Chesnokovning ta'rificha, «ovoz boylamlari bizning ovoz asbobimizning torlaridir, havo oqimi esa kamoncha bo'lib, bu torlarni kuylashga majbur qiladi».

Hosil bo'lgan tovushni rezonatorlar kuchlantiradi va har xil tembr bo'yoqlari beradi.

Rezonatorlar ikki xil bo'ladi: yuqori va pastki.

Yuqori – bosh rezonatorlarga ovoz pardalarining yuqorisida joylashgan hiqildoq, burun va og'iz bo'shliqlari kiradi.

Pastki – ko'krak rezonatorlarga – ko'krak qafasi (traxeya, bronxlar) kiradi.

Rezonatorlar tovush hosil qilish paytida o'z shaklini, hajmini artikulyatsion apparati orqali o'zgartirib turadi. Til, lablar, jag'lar, hiqildoq, ovoz pardalari bilan birgalikda artikulyatsion apparat deb ataladi. Artikulyatsion apparatning aniq, chiroyli talaffusga erishishdagi ishi artikulyatsiya deb ataladi.

Ovozni to'g'ri yo'lga qo'yish qiyin jarayon hisoblanadi. U ovoz apparatining to'g'ri holda bo'lishi va ovoz chiqarishi, tovushni cho'zib turib tishishi, nafas tayanchiga erishish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Tovush hosil qiluvchi tovush fiziologiyasining asosiy holatlari kattalarda qanday bo'lsa, bolalarda ham shunday. Biroq shuni unutmash kerakki, bolalar ovoz apparati juda nozik. U o'ziga juda ehtiyotlik va e'tibor bilan muomala qilishni talab etadi. Ko'pincha ovoz apparati kasalliklari va undagi nuqsonlar bolalik chog'ida unga vokal tarbiyaning noto'g'ri berilganligi natijasida asorat beradi.

Bolalar ovoz apparati (bunda biz 1-7 sinf o'quvchilari yoshini (7-13) hisobga olamiz, chunki musiqa madaniyati darslari umumta'lim maktablarida faqatgina shu sinflarda o'tiladi) kattalar ovoz apparatidan o'z hajmi va shakli bilan farq qiladi. U doimo o'sish va rivojlanish holatida bo'ladi. Bolalar ovozi o'z rivojida bir necha etaplarni bosib o'tadi.

Hiqildoqning rivojlanishi 3 yoshdan 12 yoshgacha syokin-asta, ravon kechadi. Shuning uchun bolalar katta bo'lgan sari tovush xarakteri va kuchi o'zgaradi. Bola ovozi rivoji davrlari uning umumiy jismoniy va asab-ruhiy rivojlanishiga bog'liq bo'ladi.

Bola ovozinin shakllanishidagi asosiy davrlarni ko'rib chiqamiz: I davr. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari (7-9 yoshgacha) ovozi

bolalar ovozi jaranglashi xususiyatiga ega. Bolaning o'sishi ravon ketadi, ovozi ham o'zgarish sezilmaydi. Ovoz juda mayin, yengil bo'ladi. «Fal'tseb» jaranglashi deyiladi. Ovoz apparati bu yoshda nozik, mo't bo'lishini o'qituvchi yaxshi bilishi kerak. O'z tuzilishiga ko'ra bu mexanizm (ovoz apparati) hali sodda bo'ladi, ya'ni ovoz hiqildogda hosil bo'lib, ovoz pardalarining chekka qismlarining tebranishidan hosil bo'ladi. Bu pardalar to'liq holda jipslashmaydi. Tovush hosil bo'lgan paytda ovoz pardalari orasida «yoriq» qoladi. Qiz va o'g'il bolalar ovozi bu paytda farq bo'lmaydi.

II davr. Bolaning yoshi o'sishi bilan birga ovoz apparati mexanizmi ham o'sib boradi. Uning tuzilishi murakkablashadi. Hiqildogda muhim paylardan – ovoz paylari rivojlana boshlaydi. 10-11 yoshi bolalarining ovozi ancha kuchli va quyuqroq eshitiladi. 12-13 yoshlarga borib, bu naylar ovoz pardalarining faoliyatini to'la boshqaradi, ovoz tarangligi kuchayadi. Bu yoshda qo'shiqchilik ovozi shakllana boshlaydi. Muayyan tembrdagi ohang paydo bo'ladi. Shu tufayli o'g'il bolalar ovozi diskant va al'tga bo'linadi. Diskantlar (baland ovozlari) o'zining yengilligi, jaranglab chiqishi, yorqinligi bilan xususiyatlanadi. Al'tlar (past tovushlar) esa o'zining zichligi, quyuqligi va kuchligi bilan farq qiladi. Bu yoshda ovoz pardalarining tebranishi faqat chekka qismlarda bo'lmagan, balki to'liqicha hosil bo'ladi, ovoz kuchli, to'liq jaranglay boshlaydi.

10-12 yoshi bolalar bilan xor mashg'ulotlari, kuylash faoliyati yaxshi tashkil etilsa, bu yoshda chiroyli ovoz shakllana boshlanadi. Bu davr bolalar ovozi «gullash» davri deyiladi.

III davr. 12-13 yoshlarga borib o'smirlilik davri boshlanadi. Ovoz apparati o'smir organizmida kechayotgan jarayonlar tufayli o'zgaradi. Jismoniy o'sish ham, ovoz apparatining o'sishi ham ravonligini yo'qotib, noyokis, sakrama rivojlana boshlaydi. Ovoz o'z «jarangdorligini» yo'qotib, «xunuk» xiralashadi. Hamma diapazonda erkin kuylayotgan o'quvchi endi yuqori tovushlarni o'lmaydi. Bu davr zo'rliq bilan, shish bilan o'tadi. Bunday holatlar o'qituvchi va o'quvchi uchun juda mas'uliyatli davrdir. Bu mutatsiyaning boshlanish davridir.

Mutatsiya o'smirlarda individual tarzda sodir bo'lgani uchun (11 yoshdan ham boshlanadi) ba'zida sezish qiyinroq bo'ladi. Mutatsiya 12-13 yoshlardan boshlanib, 15-18 yoshgacha davom etishi mumkin. O'g'il bolalarda hiqildog tez o'sa boshlaydi. Hiqildog 2-3 qismga

bo'ladi. 12-13 yoshda 13-14 mm bo'lsa, mutatsiya davrida 6-8 mm o'sib, 25 yoshda 22-25 mm ni tashkil etadi. Ovoz pardalari yo'g'onlashadi. Ovoz kichik oktava diapazoniga o'tadi. Bu o'sish noyokislik va og'riq bilan kechishi mumkin. Ba'zida kuylash mashg'ulotlarini to'xtatish talab etiladi. Qizlarda mutatsiyaning bunday keskin shakllari juda kam kuzatiladi.

Mutatsiyaning turi va davom etishi turlichadir. O'g'il bolalarda mutatsiya boshlangan davrni o'z vaqtida ilg'ash va unga vokal rejimini to'g'ri belgilash eng muhim ishlardandir. Mutatsiya turlicha o'tadi. Ba'zida ovoz asta-syokin bolalarining o'ziga ham, uning atrofidagilariga ham bilinmay o'zgaradi; bunday paytda qo'shiq aytayotganda ovoz xirillab, tez charchash sodir bo'ladi. Kuylash paytida ham, gapirishda ham ovoz bo'ysunmay qoladi, uziladi, «sakraydi». O'qituvchi mutatsiyaning dastlabki belgilari namoyon bo'la boshlangan bolalarni diqqat bilan kuzatib borishi, ovozni ehtiyoq qilish lozimligini tushuntirish kerak.

6.3. Bolalar ovozi asrash metodlari

Bolalar ovoz apparatining tuzilishi va rivojlanish xususiyatlarini bilish bolalar ovozi saqlash va to'g'ri tarbiyalash imkonini beradi. Har bir o'qituvchi bolalarni qo'shiq aytishga o'rgatar ekan, u qo'shigini bolalarga xos go'zal, jaranglagan, tinq tovush bilan zo'rliqmasdan, tezda charchab qolmasdan, erkin aytdigan qilib tarbiyalashga harakat etishi lozim.

O'qituvchi bolalarga o'z ovozlarni ayashlari, darsdan tashqari paytda ham qattiq bag'irmasliklari, kuylashda zo'rliqmasdan ayitish lozimligini muntazam eslatib boradi. Chunki yuqorida aytilganlarga hoo'tibor bo'lish ovoz paylarga chandiq tushishiga olib keladi. Bu esa nafaqat kuylay olmaslik, balki gapira olmaslik holatiga ham olib kelishi mumkin. Ana shunday zararli holatlarga sovuqda muzqaymoq yeyish, qattiq gapirish, tez-tez shamollash ham olib keladi.

Bolalar tomonidan radio, televizor, audio-video yozuvlarda beriladigan kattalar diapazoni uchun yozilgan qo'shiqlarni kuylash (ayniqsa baland tovushlarda) ularning hali yetilmagan, mo't ovoz apparatiga salbiy ta'sir etadi. Boshlang'ich sinflarda qo'shiqchilik ovozi muntazamlash uchun sog'lomlashtiruvchi mashqlardan foydalanish

zarur: nafas mashqlari, kuylash va dam olishni almashirib turish, matni cho'zib o'qish, ritimli o'qish, ya'ni o'qituvchining qo'liga qarab qisqa va uzun bo'g'inlarni aytish («qo'g'ircho-o-o-g'im, qo'g'irchoq, sensan me-ye-ye-yenga-a-a-o'yinchoq»), nutq va musiqiy intonatsiyani almashirish va b.q. Bunday ishlar nutqi bo'sh bolalarga ham yordam berdi.

Bolalar ovozi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kuylash faoliyatini albatta tayyorlarik, ya'ni ovoz sozlash mashqlarini aytirishdan boshlash lozim. Bu mashqlar albatta kichik diapazonga ega bo'lib, ularni transpozitsiya qilish imkoniyati ham qo'laydir (keyingi betdagi «Sumaycha», «Aks-sado» mashq misollariga qarasin).

Ovoz sozlash mashqlarini primar tovushlardan boshlab aslasiyokin pastga va yuqoriga aytirish ovozni qizitish imkonini bersa, transpozitsiyada kuylash bolalarda musiqiy eshituvni o'stiradi.

Bolalar ovozini asrash uchun repertuari to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Shu narsani esda tutish lozimki, haddan tashqari baland yoki past tessiturali qo'shiqlar bolalar ovozigina zarardir. Ayniqsa, diapazonning chekki tovushlarida kuylash xavfidir. Bunda ovoz apparati toliqadi.

Ota-onalar o'rtasida ham tushuntirish ishlarini olib borish katta ahamiyatga ega. Ko'pincha qobiliyati bolalarning ota-onalarni o'z bolalari bilan faxrlanib, o'z tanishlari oldida ularga ovoz diapazoniga mos kelmaydigan qo'shiqlarni aytiradilar, natijada bolaning ovozini ishdan chiqaradilar. Shuning uchun musiqaga o'qituvchisiga «Bolalar ovozini asrang» mavzusida tashviqot ishlarini olib borish biroz malol kelsa ham, farzandlarimizning ovozlari asrash ma'suliyati ishdir.

6.4. O'quvchilarda vokal-xor malakalarni rivojlantirish

Qo'shiqning badiiy, chiroyli, ifodali ijrosiga erishishning muhim vositasi – o'quvchilarda vokal-xor malakalarini rivojlantirishdir.

Vokal – xor malakalariga quyidagilar kiradi:

1. Qo'shiq aytishdagi holat.
2. Kuylash nafari.
3. Tovush hosil qilish.
4. Talaffuz.
5. Soz.

6. Ansamb.

Qo'shiq aytishdagi holat.

Darsda qo'shiq kuylashda tik turib yoki o'tirib kuylash holati qo'llaniladi. Qo'shiqni tikka turgan holda ijro etish eng qulay, ma'qul va foydali hisoblanadi. Bunda gavdani erkin, yelkani kerib, uni biroz orqaga tashlab ko'krak qafasini to'g'ri tutib turish lozim. Boshni biroz o'ziga qulay bo'lgan tabiiy holatda, bolalar tik turib qo'shiq kuylayotganlarida gavdani bukmadan, qo'llarini erkin holda tushirgan holda, oyoqlarini yelka kengligida kichikroq holatda tutib turishlariga e'tibor berish kerak. O'qituvchi bu holatlarni kuzatishi, o'quvchilarga eslatib turishi zarur, ya'ni bu bilan qo'shiq kuylashdagi holat ko'nikmaga aylanishiga o'rishiladi.

Musiqaga darslarida o'tirib kuylash holati ko'p qo'llaniladi. Bunda ham gavda va boshning holati tik turib kuylash holatiga o'xshaydi. Shuning chekkarog'iga o'tirish, qo'llari esa tizzaga erkin qo'yishiga e'tibor qaratiladi.

O'rganish davrida qo'shiqni o'tirib kuylash holati, o'rganib bo'lingan qo'shiq ijrosida tik turib kuylash qo'llaniladi.

Qo'shiqchilik nafari.

Qo'shiq aytishda nafasni to'g'ri olish asosiy malakadir. «Qo'shiqchilik san'ati – nafas olish san'ati», deb aytishgan allomalar.

Kuylash nafasini rivojlantirishning ahamiyati katta. Bolalarda nafas malakalarini rivojlantirishda fiziologik tarafdari ur'u berish shart emas. Nafas qo'shiqlar, mashqlarni o'rgatish sharoitida rivojlantirib boriladi. O'pkaga me'yorida havo olib, so'ng bir zum to'xtatib, keyin uni musiqaviy jumlaning oxirigacha ravon va osoyishta sarflash – chiroyli tovushda kuylashga olib kelishini o'qituvchining o'zi ko'rsatib beradi. Dirijyorlik ishorasida ham bu o'z ifodasini topadi. Qo'shiqlarni kuylash jarayonida o'quvchilar to'g'ri nafasning chiroyli tovush shakllanishida va ifodali kuylashdagi ahamiyatini tushunib yetadilar. To'g'ri nafas olganda bolalar bel kenglayotganligini sezishlari kerak. Keyinchalik o'quvchilar havo o'pkadan ketmasdan «turib» qolayotganidek bo'layotganligini his etadilar. Bu tovush tayanchi hosil bo'lishiga asos bo'ladi.

Tovush tayanchi – nafas va higidogning o'zaro harakati, to'la ekanligi. Asar qanday sur'atda ijro etilishidan qat'iy nazar, nafasni har vaqt shovqinsiz, osoyishta, yelkalarni ko'tarmagan holda olish kerak.

Tovush hosil qilish – ovoz pardalarining birikishi va ochilishi tufayli hosil bo'luvchi qo'shichilik tovushi qo'shichilik nafasi bilan uzviy bog'liq. Badiiy vokal ijroning asosiy talabi – to'g'ri va chiroyli kuylash ovozidir. Bunday tovush yumshoq tanglayning yetarli harakatchanligi, ovoz pardalarining bir tyokis tebranishi, sokin va ravon nafas natijasida hosil bo'ladi. Qo'shichilik ovozi diapazonning hamma qismlarida bir tyokis jaranglashi lozim.

Pastki tovushlarni ayganda ovoz pardalarining tarangligi kamroq bo'ladi. Bu tovushlar ko'krak qafasi sohasidagi rezonatorlar yordamida jaranglaydi. Yuqori tovushlarda ovoz pardalari tarangligi oshadi. Ovoz bosh rezonatorlar sohasida hosil bo'ladi.

Ovoz tarbiyasini primar tovushlardan (diapazonning eng tabiiy, erkin va qulay bo'lgan tovushlar) boshlash lozim (fa(1)-Iya(2)).

Bolalar tembrining rivojlanishi jarayonida tovush «hujumi» - atakasi katta ahamiyatga ega. Tovush atakasi – tovushning eng birinchi paydo bo'lish payti. Amaliyotda uch turi – qattiq, yumshoq, nafasdan oldingi uchraydi.

Qattiq ataka – olingan nafas bir oz ushlanib tutiladi, ovoz pardalari tovushdan oldin tez va zich birlashadi.

Yumshoq ataka – ovoz pardalari tovush hosil bo'lishi bilan bir paytida birlashadi. Bu ataka mayin, tinch, tyokis tovush boshlanishini hosil qiladi.

Qo'shichilik tovushi hosil qilishda asosan yumshoq ataka qo'llaniladi. Ammo bolalarda ovoz apparatining sustligini nazarda tutgan ba'zi hollar faol tovushni hosil qilish uchun qattiq atakani qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Talaffuz.

Diksiyani (to'g'ri aniq talaffuzni) rivojlantirish usullari adabiy matn va qo'shig'ning badiiy obrazi xususiyatlari bilan aniqlanadi va so'zlarni ma'noviy ahamiyatini tushuntirishni talab etadi. Bunda matni qo'shig' ritimida aytish hamda ifodali o'qish metodlaridan foydalanish mumkin.

Ma'lum bir jumalarni alohida ta'kidlash yoki obrazning xarakteri xususiyatlarini ifodalashdan ham foydalanish mumkin.

Qo'shig' kuylash jarayonida artikulyatsion apparat – pastki jag', lablar, tishlar, til maksimal darajada faol ishlashi kerak. Yosh ijrochilarda ko'pincha artikulyatsiya bo'sh yoki siqilgan bo'ladi.

Bunday muqsonlarni yuz muskullarining osoyishtaligini saqlagan holda pastki jag'ni erkin holda pastga tushirish orqali bartaraf etiladi. Bunga bir tovushda kuylanuvchi «da-de-di-do-du» mashqi yaxshi yordam beradi. Matni shivirlab aytish metodidan ham foydalanish mumkin. Bunday metod artikulyatsion apparatining harakati aktivligini hosil qiladi va shu holati kuylashga ko'chirish mumkin.

Kuylashning asosi – unliar talaffuzidir. Ularda tovushning vokal alifbani tarbiyalanadi. Unliarni to'g'ri talaffuz etish bir tomondan, kuylayotganda tovushning chiroyli chiqishini ta'minlash, ikkinchi tomondan, qo'shig'dagi so'zlarning ohangdor bo'lishiga yordam beradi. A, O, U, E, I unliarini to'g'ri (cho'ziq) shakllantirish mayin, kuychan tovushga yordam beradi.

Unliarning bir tyokisda jaranglashi uchun bolalar kuylash diapazonining hamma tovushlarida yuqori pozitsiyani saqlab turishlari lozim. Buning uchun «u, yu, a» unliariga turli masqalar hamda kuyi pastga qarab harakat qiladigan qo'shiqlar qo'llaniladi.

Uqli tovush qo'shig'ning asosi bo'lib, cho'zib kuylansa, undoshlarning qisqa, tez, aniq, harakatchan talaffuzi qo'shig' matnini tinglovchiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. So'z talaffuzi quvnoq, chaqqon, marshona hamda raqsona qo'shiqlarni kuylash jarayonida shakllanadi (D.Omonullaevaning «Buvijonim», «Nisholda», A.Berlanning «Yeng'ir yog'aqol» va boshqalar). Vokal talaffuz nutq talaffuzidan farq qilishiga e'tibor berish lozim. Masalan, nutqda «osmonning yul-du-zi-miz» jumlasini kuylashda «o-smo-nning yu-l-du-zi-miz» deb talaffuz qilinadi. Ya'ni, yopiq bo'g'inlardagi oxirgi undosh tovush keyingi bo'g'inga o'tkazib kuylanadi: «maktab» emas «maktab»; «lay-lak qor» esa «la-yla-kqor» shaklida aytiladi. nga o'qituvchi doimo e'tibor berib borishi zarur.

Soz va ansambl...

Eng muhim malaka – xor bo'lib kuylashda kuyning to'g'ri va sof intonatsiyasi, ya'ni sozdir. Bu malakani rivojlantirishga qaratilgan usullar musiqiy-eshtiv tasavvurini shakllantirish bilan juda uzviy bog'langan. Quyidagi metodlarni qo'llash mumkin:

- kuylashdan oldin «sozlanish» - o'qituvchi birinchi tovushni cho'zib kuylaydi va bolalar qaytaradilar;

- qo'shig' kuydagi ma'lum bir tovushda (ko'pincha oxirgi tovushda)

o'qituvchining ko'rsatmasiga binoan «ushlanib qolish» va uning jaranglashini eshitish;

- qo'shiqni o'rganishdan oldin turli tonalliklarda mashqlarni, qo'shiqning murakkab intervallarni sof kuylashga erishgan holda jiro etish;

- ancha kengroq diapazonga ega bo'lgan bolalar bilan qo'shiqni balandroq tonallikda jiro etish;

- bolalarda musiqiy-eshtituv tasavvurini o'stirishga qaratilgan mashqlarni (kuyning harakati, baland-past tovushlarga e'tiborini tortish), o'rgatish;

- eshtituv tasavvurini chuqurlashtirish maqsadida qo'l harakatlari, kuyning grafik tasviri, nota yozuvlari, dirijyorlik ifodalardan foydalanish;

- jo'rsiz kuylash metodidan foydalanish.

Ansamb (frantsuzcha « » - birgalikda ma'nosini bildiradi) jamoa ijrosidagi intonatsion, bir uslubda tovush hosil qilish, ritmik, dinamik, temp uyg'unlik birligi, qo'shiqni bir vaqtda boshlab, bir vaqtda tugatish malakalaridan iboratdir. Ansamb ustida ishlaganda bolalarda mas'uliyat hissin, kuylash jaracida o'zini va o'rtog'larining ovozi e'shita olish, nazorat qilish, tovush sifatini tahlil qilishga odatlantirib borish lozim.

Soz malakasi ansamblning vujudga kelishida asosiy omildir. Qo'shiqlarning badiiy ijrosida soz va ansamblning uyg'unligi vositasida erishish mumkin. Sozning sifatiga o'quvchilarning umumiy emosional holati ta'sir etadi. O'qituvchi o'quvchilardan vokal-xor malakalarini rivojlantirish ustida ishlar ekan, musiqa darslariga muntazam qiziqishni o'stirishi, ularda ovoz gigiyenasi, hamda qo'shiqlarning ijroviy darajasi va xarakteri berilgan sinf uchun mosligiga doimo e'tibor berishi lozim.

6.5. Ovoz sozlash mashqlari

Ovoz sozlash mashqlari – bolalarni jamoa bo'lib kuylashga o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ovoz sozlash mashqlarining maqsadi – qo'shiqchilik malakalarini shakllantirish, bolalar ovozini, diapazonni, musiqiy eshtituvni rivojlantirish.

Ovoz saqlash mashqlarini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga aniq bir qo'shiq asari bilan bog'liq bo'lmagan mashqlar kiradi. Bunday mashqlar bolalarga davomiy ravishda vokal-xor ijrochiligi

malakalari, badiiy ijrochilik mahoratini egallashga yordam beradi. Bu guruhdagi ovoz sozlash mashqlari har bir darsda butun o'quv yili davomida qo'shiq o'rgatishga o'tishdan oldin qo'llaniladi.

Ikkinchi guruhdagi mashqlar konkret qo'shiq asarini o'rganishda ulanaydigan qiyinchiliklarni (intonatsion, ritmik, diktatsion, temp) bartaraf etishga qaratilgan. Tabiiyki, qo'shiqdagi murakkab joylar ovoz sozlash mashqi sifatida bir necha bor qaytarishlar asosida yaxshi o'zlashtiriladi.

Mashqlarni kuylashda o'quv vazifalari oddiydan murakkabga qarab o'zgarib boradi.

Boshlang'ich sinflarda ovoz sozlash mashqlari sifatida xalq bolalar qo'shiqlari («Ofob chiqdi olamga», «Oq terakmi, ko'k terak»), mashq uchun mo'ljallangan kuchalar («Jarangli kuylaymiz», «Du-du-du – qanday gul bu?»), musiqiy tovushlar qo'llansa, 4-sinfdan boshlab bolalarda mashqlarga ongli munosabati tarbiyalash muhimdir. Ularga ovoz sozlashning muhimligi, ya'ni ovozlarni ish holatiga keltirish lozimligi tushuntirib boriladi. Bolalarga yopadigan, qiziqish uyg'otadigan mashqlar qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunday mashqlar sifatida tinglash uchun

olinadigan asarlardan fragmentlar («Hayvonlar so'lloni» operasidan «Ho'ri hargoyisi», S.Yudakovning «Terimchilar qo'shiqi» dan parcha, V. Moisarining 40-simfoniyasidan bosh mavzu va h.z.), o'rganish uchun olinadigan qo'shiqlardan parchalar kuyatish mumkin.

Darsda qo'llaniladigan ovoz sozlash mashqlari kuylash uchun qulay bo'lishi, davomli ravishda o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq.

6.6. Qo'shiq o'rgatish bosqichlari va metodlari

Umumta'lim maktablari «Musiqiya madaniyati» dasturidan Vatan, mustaqillik, diyorimiz tabiati, mehnatkash o'zbek xalqi hayotini, baxti bo'lakining go'zal orzularini madh etuvchi qo'shiqlar joy olgan. Bu qo'shiqlar o'quvchilarda Vatanga muhabbat, uning kelajagiga sodiqlik, mehnatsevarlik, go'zallikka intilish hisslarini tarbiyalashga muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shiq repertuariga kirgan asarlar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini tarbiyalash va rivojlantirishning negizi bo'lib xizmat qiladi. Chunki maktab dasturi nafaqat o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojlarini, balki ularning muntazam ravishda rivojlanishlari

xususiyatlarini ham hisobga olgan holda tuzilgan. Musiqqa o'qituvchisi qo'shiq o'rgatish jarayonida o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari xususiyatlarini doimo esda tutgan holda ish olib borishi samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Musiqqa madaniyati darslarida qo'shiq o'rgatish jarayonida qo'shiqqa emosional munosabati rivojlantirish, tasavvurni, musiqiy eshituv va xotirani o'stirish, musiqaning ifoda vositalarining ahamiyatini tushunish, jarangli, kuychan, yengil, chaqqon tovushlarda kuylash, o'zini va o'rtog'larini tinglash, qo'shiqni jo'rsiz yoki jo'rlikda ifodalash kuylash, yoki uch ovozi kuylash asosida garmonik eshituvni tarbiyalash kabi vazifalar amalga oshiriladi. O'qituvchi kuylash uchun qo'shiq tanlab olar ekan, avvalo asarning badiiy qiymati, mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati, obrazlar va kayfiyat doirasini sinchiklab tahlil qiladi, o'rgatish metodlarini tanlaydi.

Qo'shiq o'rgatish bosqichlari:

1. Qo'shiq bilan o'quvchilarni tanishtirishdan oldin, odatda, o'qituvchi qo'shiqning kayfiyati, mazmuni, muallifi haqida so'z yuritadi. (Vatan, tabiat, maktab, do'stlik haqida kuylovchi bir qator asarlar boshlang'ich sinflar musiqqa repertuaridan o'rin olgan). Kiritish so'zi 1-2 minutdan oshmasligi zarur. Masalan, bolalarga xalq qo'shiqlari haqida ma'lumot berilganda o'qituvchi ularga qadimgi qo'shiqlarni xalqning o'zi ijod etgan, ya'ni har bir qishloq, shaxarda tanig'li qo'shiqchilar, musiqachilar bo'lib, ular yil fasllari va turli bayramlarga bag'ishlab qo'shiqlar yaratganliklari, doira, dutor, g'ijjak kabi cholg'u asboblari yasaganliklari, ular yaratgan qo'shiq va kuylar avloddan-avlodga o'tib, yashab kelayotganligini so'zlab beradi.

Yana bir misol, 2-sinf repertuaridan A. Mansurovning Qambar ota she'riga bastalagan «Piyoda askarlar qo'shiqi» joy olgan. Bu qo'shiqni o'rgatish oldidan o'qituvchi Vatan himoyachilarning qahramonona kasblari haqida gapirib, bolalarda O'zbekistonimiz bilan g'ururlanish, fahrlanish tuyg'ularini hosil qiladi. O'qituvchi ularda qo'shiqqa nisbatan ijodiy yondashuvini yuzaga keltirish maqsadida qo'shiqning mazmuniga mos keladigan rasm, she'r, ko'rgazmali materiallardan samarali foydalanishi o'quvchilarda qiziqish va faollik uyg'otadi. Odatda subhatlarni bolalarning hayotiy tajribalariga asoslangan holda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Navbatdagi bosqich — qo'shiqni shaxsiy ijroda ko'rsatish.

O'qituvchi yangi qo'shiqni o'z ijrosida ifodalay, badiiy tarzda ko'rsatishi lozim. Chunki faqat badiiy ijro yosh tinglovchilarda qiziqish uyg'otadi. O'qituvchi birinchi bor ko'rsatishda qo'shiqning 1-bandini kuylash bilan chegaralanishi maqsadga muvofiq emas, chunki bunday ijro qo'shiq haqida to'la tushuncha bermaydi, o'quvchilarda yetarli qiziqish uyg'otmaydi.

3. Qo'shiq tinglangandan so'ng o'qituvchi o'quvchilar bilan qo'shiq haqida subhatlashadi, fikr almashadi, savollarga javob beradi, o'quvchilarning qo'shiqqa bo'lgan munosabatini shakllantirishga harakat qiladi.

4. Qo'shiq o'rgatish badiiy-musiqiy jarayon bo'lib, uning birinchi ohangidan oq

emosionallik va onglik, badiiylik va mahorat uyg'unlashadi. Qo'shiq ustida ishlash metodlari turlicha bo'lishi, bunda bolalar oldiga har gal aniq vazifalar qo'yilishi va ular bunga erishishlari lozim («tovushni cho'zish», «diqqat bilan tinglash», «so'zlarni burro aytish», «ifodalay kuylash»). Masalan, 1-sinfning 1-choragida N. Norxo'jaevning «Nevaralar qo'shiqi»ni o'rgatishda bolalarga birinchi tovushni diqqat bilan eshitish, «Bog'im bor, gulzorim bor. Bosh bog'bonim bobomlar» jumlasini aniq kuylab berish vazifasi beriladi. Keyin shu jumalani bir necha guruhlariga bo'lib qaytariladi. Oldin band, keyin naqorat o'rgatiladi. Bunda o'qituvchi bilan o'quvchilar navbatma-navbat kuylashlari mumkin. O'qituvchi band qismini, o'quvchilar naqoratini aytadilar, agar ma'lum joyda intonatsion qiyinchilik uchrasa, o'qituvchi «aks-sando» usulini qo'llash lozim. Qo'shiq juda yengil, kuychan ijro etiladi. Birinchi darsda qo'shiqning 1-kuplet band-naqoratini mustaqil tinglab, biron bir bo'g'inda aytib ko'rish taqlif qilinadi («la», «du»). «Band», «naqorat» tushunchalarini mustahkamlash maqsadida bir guruhga yoki bir o'quvchiga bandni, xorga esa naqoratni kuylatish mumkin. Bunda bolalar «yakkaxon», «xor» tushunchalarini ham o'zlashtirib boradilar.

Qo'shiq o'rgatish uslublarini almashtirib turish sinfda bolalar zerikishining oldini oladi.

Buning uchun yakkalarni, guruh va umumiy xor bo'lib kuylash, bir guruh kuylasa, ikkinchisi chapak va ritmik harakatlari bajarishi na'fatat yaxshi natija beradi, balki ularda ritm tuyg'usi, ijodiylik qobiliyatlarining o'sishiga olib keladi.

Ba'zan o'yin metodidan foydalanish bolalarni zavqlantiradi. Masalan, J. Najmiddinov «Bolalar va g'ozlar» qo'shiqini o'rganishda asarni savol-javob («rolli o'yin») tarqasida kuylovchi guruhlarga ajratib ijro etish o'quvchilarda musiqa orqali hazil kayfiyatini ko'rsatib bera olish o'quvini o'stiradi. Bu esa musiqa nutqi elementlarining ifodaviylik xususiyatini bolalar tomonidan chuqurroq idrok etishini ta'minlaydi.

Sekin, mayin, kuychan aytiladigan «Aziz ustozlar» (S. Boboev), «Diyor madhi» (N. Norxo'jaev), «Bulbulcham» (M. Nasimov) kabi qo'shiqlar o'quvchilarda qo'shiqchilik nafasini rivojlantirishga yordam beradi, chunki bunda bolalar bir nafasda ancha keng musiqiy jumalarni aytishga o'rganadilar. Bu qo'shiqlarni kuylash jarayonida o'qituvchi bolalar oldiga jumlaning boshidan – oxirigacha nafasni uzmasdan kuylash, tovushni cho'zish vazifasini qo'yadi. Kuyini bir necha bora qaytargach, bolalar nafasni ma'lum joylarda olishga, kerakli xarakterda kuylashga o'rganadilar. Kuyning mayinligini hosil qilishda du, gu, lyu bo'g'inlarida kuylash, bolalarni o'z ijrolarining sifatini kuzatishga o'rgatish foydali. O'quvchilar e'tiborini fortepianoda garmonik jo'rlikka, u orqali qo'shiq yanada to'liqroq, chiroyli chiqishiga qaratishtirishda ikki ovozi kuylash malakalarini o'stirishga zamin yaratadi.

Tez ijro etiladigan qo'shiqlar ovoznining harakatchanligini, ijroning yengil bo'lishini talab etadi. Bunday qo'shiqlarga A. Mansurovning «Kim epchilu, kim chaqon?», Sh. Yormatovning «Sog'lom avlod qo'shiqi», D. Omonullaevaning «Chaqon bolalar» kabi asarlarni ko'rsatish mumkin.

Tez sur'atdagi qo'shiqlar ustida ishlashning asosiy vazifalari – yengil jarangli tovush, aniq talaffuz, jumalar orasida nafasni tez o'zgartirish. Bularga erishish uchun quyidagi metodlar tavsiya etiladi:

- qo'shiqni syokin tempda kuylab o'rganish;
- do major tonalligida notaga qarab kuylatish;
- bo'g'inlarda kuylash;
- matnini asar tempi va ritmida kuylash.

Musiqa darslarida ish samaradorligini oshiradigan usullardan biri bolalarni kuylashga o'rgatish jarayonida individual (yakka tartibda) ishlashdir. Individual yondashuv quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Yaxshi o'zlashtirilgan qo'shiq ijrosida o'quvchilarni bir necha guruhlarga bo'lib tekshirib, kuylatib turish;
2. Passiv o'quvchilarga quyidagi individual vazifalarni berish:

qo'shiqning ko'yini eshitib, kuy harakatini qo'l bilan «cho'zib berish»;

- berilgan usulga qarab qo'shiq nomini topish;
- kuyini tinglab, ikki jumalani bir-biriga taqqoslagan holda qaysi jumla qisqa tovushda tugallanishini aytib berish.

Har bir sinfda ohangni noaniq kuylovchi o'quvchilar bor. O'quvchilar birinchi navbatda musiqiy eshituv va ovoz o'rtaqidagi koordinatsiyaning yo'qligi sababli hamda musiqiy eshituv o'quvchining bo'sh rivojlanishi natijasida noto'g'ri kuylaydilar. Ammo ma'lumki, musiqiy faoliyat jarayonida intonatsiya yaxshilanadi. Bolalar bilan ishlashda quyidagilar foydali:

- primar zonani hisobga olgan holda kuylash vazifalarini berish;
- pastki nutq ovozi kuylashga ko'chirmaslik uchun yuqori registrlar atakasi bilan kuylash;
- ayrim tovushlarni dilda, keyingi tovushni ovoz chiqarib kuylash;
- legato, yumshoq ataka, erkin artikulyatsiya malakalarini egallash ustida ishlash;
- differentsiyali (alohida) kuylatish.

6.7. O'qituvchining qo'shiq ustida mustaqil ish rejasi

Musiqa repertuaridagi qo'shiqlarning bolalar ongiga, yuragiga singib borishi, ularda bu asarlarga qiziqish, muhabbatning o'rishi o'qituvchiga bog'liq. Chunki, o'qituvchi bevosita bastakor bilan bolalar o'rtaqidagi bog'lovchi «zanjir» deb aytisak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday mas'uliyatli vazifani amalga oshirish uchun o'qituvchi har bir darsga tay-yorlanishda, ayniqsa qo'shiq ijrosi ustida jiddiy ish olib borishi lozimligi zaruriy holdir. Buning uchun o'qituvchi:

- qo'shiqning yaratilish tarixi, muallifning hayoti va ijodini o'rganishi;
- qo'shiqning badiiy mazmuni, matn va musiqa orasidagi o'zaro bog'liqlik, uyg'unlikni chuqur anglashi;
- musiqa ifoda vositalarini tahlil qilishi (janri, shakli, jumalari, lad, tonalligi, sur'ati, ritmi va hokazo);
- asardagi ijro uchun murakkab bo'lgan joylarni, ya'ni intonatsion, tovush hosil qilish, artikulyatsion, talaffuz, nafas, jumalar, soz va an-motl, ikki ovozlardagi qiyinchiliklarni aniqlashi va ular ustida ishlash

rejasini tuzish;

- qo'shiq mazmuniga qarab har bir qo'shiqning o'z yo'nalishida aytilishi;

- qo'shiq ijrosi ustida ishlashi, ya'ni o'z jo'rliqi, fonogramma yoki minusovka ostida ifodali kuylashi, ovoz partiyalarini jo'rsiz kuylay olishi, 1-ovozni chalib, 2-ovozni aytishi va dirijyorlik qilishi (baravar), hamda fonogramma yoki minusovka ostida dirijyorlik qilishi;

- qo'shiqning dars, chorak mavzulari bilan bog'liqligini yuzaga keltirishi; shu bog'liqlik asosida metodlar, ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarini belgilashi;

- 2-3 darsga mo'ljallangan (15 minutdan) qo'shiq o'rgatish rejasini tuzishi;

- vokal-xor ishlarining maqsad va vazifalarini belgilashi lozim.

Qo'shiq o'rgatish bo'yicha yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, bu ish o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi ijodiy faoliyatining eng qiziqarli, mas'uliyatli turlaridandir. Ish samaradorligi o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan og'zaki, ko'rgazmali, amaliy usullar, emosional ta'sir etish, kontrast-taqqoslash, individual yondashuv metodlarining o'z o'rnida ishtatlashiga, bir so'z bilan aytganda, o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

VII BOB. DARSDA MUSIQIY-RITMIK HARAKATLAR

7.1. Faoliyat tavsifi

O'quvchilarning har tomonlama musiqiy rivojida musiqiy-ritmik harakatlar boshqa faoliyat turlari kabi muhim ahamiyatga ega. Ularda musiqiylik, ijodiylik qobiliyatlari rivojlanadi, jamoa bo'lib harakat qilish malakalari shakllanadi. Musiqaga mos harakat bajarishning tarbiyaviy ahamiyati – ritm hissi faollashadi, musiqiy materialning o'zlashtirishi chuqurlashadi. Harakatlar bajarish musiqiy obraz rivojini kuzatishga yordam beradi.

Musiqani diqqat bilan tinglab o'z hissiyotlarini harakatlarda ifodalash imkoniyati o'quvchining o'z harakatlarini nazorat qilish qobiliyatiga ham ta'sir etadi.

Musiqi va harakat uyg'unligi insonning ma'naviy va jismoniy rivojini o'zaro bog'laydi va barkamollikka yo'naltiradi deb aytish mumkin. Musiqi va harakatning o'zaro bog'liqligi masalalari ko'p marotaba psixologiya, pedagogika, fiziologiya, musiqashunoslikda ko'rib chiqilgan. Organizmning umumiy funksional faoliyatiga musiqaning ijobiy ta'sirini I. Sechenov, B. Teplov isbotlab berishgan. Musiqiy-ritmik tarbiya tizimini rivojlantirish masalalari bilan N. Aleksandrova, M. Rumer, YE. Kononova, N. Vetlugina, M. Palavandishvili kabilar shug'ullanib kelganlar. Shu o'rinda XX asrning boshlarida ko'p mamlakatlarda shveysariyalik musiqachi, pedagog E. Dal'kroz tomonidan asos solingan ritmik tarbiya tizimining keng tarqalganini aytish joiz.

E. Jak Dal'kroz metodi – maxsus tanlab olingan mashqlar asosida bolalarda musiqiy eshituv, xotira, diqqat, ritm tuyg'usi, plastik ifodali harakatlarni rivojlantirishga asoslangan.

Musiqiy-ritmik harakat faoliyati o'zaro bog'langan uch yo'nalishni o'z ichiga oladi:

Birinchi, bolaning musiqiy rivojlanishini, ya'ni musiqiy eshituvni o'zlashtirish, harakatni musiqaga moslash ko'nikmalarini shakllantirish, musiqiy bilimlarning o'zlashtirishini ta'minlaydi;

Ikkinchi yo'nalish o'quvchida to'g'ri harakat ko'nikmalarini hosil qiladi: yurish (marshona, shaxdam, tantanavor, keskin va h.k.); qadam tashlash (baland, oyoq uchida, yumshoq, prujinali va h.k.);

sakrashlar (yengil, harakatchan); aylanishlar; qo'l harakatlari (mayin,

oxista, harakatchan);

chapaklar (syokin, qatig, kaftlarni yaqin tutgan holda sirpanma harakatlari); rags elementlari (o'zbek xalq raqslaridan «oyna», «arqon», «yelka uchirish», val'sona va h.k.);

Uchinchi yo'nalish o'quvchilarda tana harakatlarini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan (aniq va tez to'xtash, harakatni o'zgartirish va h.k.).

7.2. Darsda musiqiy-ritmik faoliyatni tashkil etishga o'quvchining tayyorgarligi

Darsga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchi musiqiy materialni dars mavzusiga mos holda tanlaydi. Mavzu, harakat ko'nikmalari konkret musiqiy eshituv tasavvurini (masalan, tembr yoki registr va h.k.) va musiqiy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi lozim. O'quvchilar tomonidan bajariladigan harakatlarning ifodali ifodasi asarning idroki darajasi hamda o'quvchining ifodali ifodasi bog'liq. Ijro qilinayotgan asarni o'quvchi yoddan chalishi kerak, chunki harakatlari bajarilishi vaqtida o'quvchi o'quvchilarni kuzatib turishi, xatolarini tuzatishi lozim. Hamma harakatlarni avval o'quvchi ko'rsatib beradi, ayniqsa, 1-2 sinflarda. Faqatgina og'zaki tushuntirish bilan ijodiy natijalarga erishish qiyin. Harakatlarni ko'rsatib berish o'quvchilarda musiqa bo'lgan hissiy munosabatlarni faollashtiradi.

O'quvchi barcha harakatlarni o'rgatish jarayonida obrazli so'z, tushuntirish, she'riy matndan foydalanishi maqsadga muvofiq. Harakatlarni tushuntirishda yorqin taqdoslashlar o'quvchilarga harakatlarni to'g'ri va ifodali bajarishga yordam beradi. Masalan, «Uchkurikda yeldan tez, Mening jaji toychoq'im» so'zlari bolalarga tez, yengil, harakatchan, baland qadam tashlash va sakrama harakatlarining ifodaviy ligini anglashda yordam beradi. Bu esa M. Otajonovning

«Toychoq» p'esasi mazmunini, undagi musiqiy obrazning rivojlanishi xususiyatlari, asarning shaklini his etish va ongli tushunish imkonini beradi.

Musiqa harakatlari bajarishda o'quvning texnik vositalaridan – audio, CD kablardan keng foydalanish lozim. Bu o'quvchilarni ularga tanish bo'lgan asarni yangi talqinda, jaranglashda ko'rsatib berish,

o'quvchiga o'quvchilar bajarayotgan harakatlarning sifatini kuzatish, lozim bo'lgan joylarda o'zgartirishlar kiritishga imkon yaratadi.

7.3. Darsda harakatlarni qo'llash uslublari

Musiqiy-ritmik harakatlari bolalarning badiiy tajribasiga aylanishi, badiiy rivojlanishini boyitishi uchun o'quvchilarni bu faoliyatga tayyorlash, eng avvalo, harakat malakalari haqida tasavvurga ega qilish lozim. O'quvchilar xonada musiqa ostida qadam tashlash, yengil yugurish, har tomonga tarqalish kabi boshlang'ich malakalarini egallaydilar. Musiqiy signal – belgilarga (harakatni boshlash, o'zgartirish va h.k.) javoban harakatlanishni o'rganadilar. Masalan, barabanning jaranglashi o'rinlardan turib saflanishga signal bo'lsa, D. Nazarovning «Yurish marshi» ko'yining boshlanishi qadam tashlab turgan joyda harakatlanishga, kuyga uchburchakning jo'rliqi qo'shilgan joyda esa sakrashga o'tishni ko'rsatishi lozim.

Bunday boshlang'ich - mo'ljall olish mashqalaridan so'ng dars jarayonida o'quvchilarga harakatlarda musiqiy obrazning xarakteri xususiyatlarini ko'rsatib berish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan vazifalar beriladi. Masalan, marshlar turiga qarab harakat qilish:

sport marshiga – shaxdam, bayram marshiga – tantanavor, soldatchalar marshiga – baland qadamlar tashlab harakatlanish; rags musiqalarini ohang xarakteri va tempiga qarab turlash orqali qo'l, bilak va yelka harakatlarini asarga mos holda («o'ynatish»); yengil rags («Bahor keldi»), o'ynogi rags («Ufor»), jadal rags («Pol'ka»), oxista, ravon, mayin rags («Bahor val'si») va h.k.

Chapaklar, qarsaqlar, oyog do'pilatishlar harakat elementlarining eng oddiy laridandir. Ular o'quvchiga kuy rimlari, nota cho'zimlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, o'zbek xalq kuyilari «Do'loncha» va «Chertmak» asarlariga chapkada jo'r bo'lish orqali bolalar «Do'loncha» quyidagi tovushlar cho'zimi «Chertmak» quyidagi cho'zimlarga nisbatan qisqaroq ekanligi hamda qisqa tovushlar yugurish uchun, uzunroq tovushlar qadam tashlashga qulayligini his etadilar. Bu kuyilarning ritmik xususiyatlarini taqdoslab, o'quvchilar musiqa xarakteri va uning ifoda vositalari o'zaro bog'liqligini aniqlaydilar.

Harakatlar yordamida o'quvchilarda bir qator musiqiy-eshtuv tasavvurlarini shakllantirish mumkin.

Ikki yoki uch hissali o'lov haqidagi tasavvurni shakllantirishga qaratilgan mashqlar:

bunda o'quvchilar turgan holda o'lovdagi musiqaga oyoq uchida ko'tarilib va pastlab harakat bajaradilar, yoki

2) o'lovdagi musiqaga kift va yelkalarini boshga qarab ko'taradilar va o'z holiga tushiradilar;

3) o'lovdagi musiqaga esa-birinchi hissaga yengil yarim o'tiradilar va «uch» ga turadilar va h.k.

(Barcha harakatlarni bolalar o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan musiqaga o'stida bajaradilar).

Tovush balandligi eshtuvini shakllantirishga qaratilgan harakatlari mashqlar:

1) bolalar ko'zlarini yumib o'tiradilar va tovushlar balandligi yoki cholg'ular tembrlarini aniqlashga harakat qiladilar. Javoblarni bolalar harakatlari belgilar yordamida ko'rsatadilar.

Masalan, past tovushlarga oyoqlar «raqs tushadi», baland tovushlarga — qo'l bilaqlari, doira jarangiga bolalar doirada ifroga taqlid qilib ko'rsatadilar.

2) o'ta registrdagi tovush eshitilsa, bolalar ko'krak balandligida chapak chaladilar, baland registrdagi tovush chalinsa — boshlari uzra chapak chaladilar.

3) ijodkorlikka qaratilgan mashq: 3 qismlı asardagi registrlarni taqqoslashda qo'llar yuqori registrga «raqs tushadilar», o'ta registrdagi esa — tanani harakatlantiradilar va h.k.

Bunda bir o'quvchining harakatlari ikkinchi o'quvchi oddiy cholg'uda ritmik jo'r bo'lishi ham mumkin. Sinfga esa bu ijodiy vazifaning bajarilishini baholash topshirildi.

Musiqaga tempi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan musiqiy-ritmik harakatlari:

1) o'quvchi chalayotgan yoki kuylayotgan turli tempdagi musiqaga o'stida yurish yoki chopish (sakrash);

2) hayvonlar harakatiga taqlid: syokin harakatlantuvchi — fil, toshbaqa, tez

harakatlantuvchi — quyon, it va h.z.

Bunday va bunga o'xshash musiqiy-ritmik harakatlar yordamida

o'quvchi bir kator musiqiy tasavvurlar va bilimlar doirasini (dinamika, musiqaga shakli, musiqiy jumla, tovush yo'nalishi va h.k.) tarkib toptirishi bo'shang'ich sinflarda musiqaga o'qitish ishlarining samaradorligini oshiradi.

O'quvchilarga ular tinglanayotgan va kuylayotgan musiqalari mazmuni va harakteriga mos keladigan raqs va musiqiy-ritmik harakatlarni tanlash, topish va mustaqil ifro etish taqlif etilsa, bunday vazifalar ularda ijodkorlik qobiliyatlarini faollashtiradi, badiiy didni rivojlantiradi. Bu vazifalarni osonlashtirish maqsadida mazmuni va harakat ketma-ketligini namoyon qiluvchi qo'shik va dasturiy musiqaga asari qo'llaniladi.

Sh.Najmiddinovning «Bolalar va g'ozlar», T.Toshmatovning «Ayiq polvonlar bog'chasi», o'zbek xalq qo'shig'i «Boychechak», T.Xusayning «Jo'jalarim», A.Mansurovning «Piyoda askarlar qo'shig'i», P.Chaykovskiyning «Yog'och soldatchalar marshi» va h.k. asarlarini keltirish mumkin. O'quvchilar o'quvchi bilan birgalikda mos harakatlarni topadilar. Ifro paytida o'quvchi bolalarga harakatlarda ifodaviylikka erishish, ularni yaxshirok bajarish yo'llarni ko'rsatib boradi.

Musiqiy material tanlar ekan, musiqaga o'quvchisi qaysi asarda tayyor kompozitsiyasini qo'llash mumkin, qaysi asarni esa bolalarning o'zları ifod qilib, harakat va raqs elementlarini topishlari uchun mo'ljallash kerakligini aniqlaydi. Bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida ularda tashabbuskorlikni, qiziquvchanlikni qo'llab-quvvatlab, rag'balantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.



XULOSA VA TAVSIYALAR

Barkamol shaxs tarbiyasi barcha zamonlarda inson aql-zakovati, tarbiyashunoslik ilmi xulosalari yo'natirilgan eng muhim soha hisoblangan. Ilm-fan, madaniyat vasan'at sohasida jahonshumul e'tirof qozongan allomalar (Abu Nasr Forobiy, Abdulqodir Marog'iy, Al Kindiy, Abdurahmon Jomiy, Ibn Sino, Darvesh AliChangiy, Alisher Navoiy) musiqaga ham ilm sohasi, ham san'at, ham tarbiyavositasi sifatida alohida ehtirom bilan qarashgan, uning turliumamolariga oid yirik asarlar, risolalar yaratganlar. Bu asarlar musiqiy-nazariy bilimlarning tarixiy negizi sifatida bugungi kunda ham o'z ilmiy, tarbiyaviy nufuzini yo'qotgan emas. Biroq har qanday sohada bo'lgani kabi, musiqiy ta'limda ham shaxsni shakllantirishning zamonaviy talablarimayjud bo'lib, u har bir ijtimoiy davrning ta'limga buyurtmasi, ehtiyojisifatida kun tartibiga chiqadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi shaxsini shakllantirishda musiqiy bilimlarni o'zlashtirishning o'rni mazkur risola natijalarida yana bir bor o'z tasdiqini topdi.

«Musiqaga madaniyati» darslari o'quvchilarga ijobiy ta'sir etibgina qolmay, ularning musiqiy didi va musiqiy dunyoqarashi shakllanishiga ham samarali ta'sir qiladi. Shu bois maqbul mazmun va metodikada berilgan musiqiy bilimlar majmuasi o'quvchilarda musiqaga barqaror qiziqishnitarbiyalaydi, muhim ular yaxshi musiqani, janrlarni, xalq va mumtozmusiqasini ajratishga o'rganadilar. Tadqiqot natijalari bolalarningqiziqish bilan qo'shiq kuylab, musiqaga tinglab, kompozitorlar hayoti bilan tanisha boshlaganliklarini ko'rsatdi. Hatto avvaliga musiqaga madaniyatdarslariga e'tiborsizlik bilan qaragan o'quvchilar ham, ohir-oqibatda musiqamadananiyati darslariga ko'tarinki ruhda, biror bir yangilikdan xabardorbo'lish niyatida kela boshladilar.

O'quvchilarda «Musiqaga madaniyati» o'quv fani tarkibidagi turli xilfaoliyatlariga bo'lgan qiziqish va intilish kuchaydi. Ko'pchilik o'quvchilardamusiqaga tinglash, qo'shiq kuylash, ritmik harakatlar bajarish jarayonlarigasavodli, ya'ni ongli ravishda yondashish malakalari shakllandi.

O'quvchilarda musiqiy asarning ifoda vositalari va shaklini tahlil qilish malakasini shakllantirish ular o'z fikrlarini bemalol bayon qilishko'nikmalarini shakllantirdi.

«Musiqaga madaniyati» darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni

qo'llashbo'quvchilarning musiqiy bilimlarga, jumladan musiqaga savodiga qiziqishlarini kuchaytirdi. O'quvchilar endilikda musiqiy boshqotirmalarni bemalol yechadigan, notalarni yaxshi biladigan, tovush va uning xususiyatlarini anglaydigan, musiqaga ifoda vositalari haqida aniq tushunchalarga ega bo'ldilar.

Tajribalar darslarning samaradorligi ularning to'g'ri uyushtirishlagibog'liq ekanligini ko'rsatdi. Musiqaga «til»i hamma va barchaga tushunarli vazaqin. Shuning uchun u insonlarning ruhiyatini ko'tarish, quvonch va rohat baxshetish bilan birga, o'sib kelayotgan yosh avlodni shaxs sifatida shakllantirishda benazir yordamchidir.

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilarda nafaqat musiqiy savodxonlikni, balki musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur vashu kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi amalda o'z isbotini topdi. O'quvchilar maktabga kelgan ilk kunlaridan, san'atga, ayniqsa, musiqagaintilish va qiziqishlari yuqori bo'ladi. Shuning uchun musiqaga madaniyatdarslarida o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga alohida e'tiborqaratish lozim. Bu o'quvchining mutaxassis, o'z sohasining ustasi sifatidabilimdonligi va ijodiy barkamolligiga bog'liqdir.

Musiqaga madaniyati darslari – o'quvchilarda musiqiy did va musiqiy dunyoqarashni shakllantiruvchi eng muhim vositadir. U o'quvchilarning aqliy, jismoniy, g'oyaviy shakllanishiga ta'sir etadi.

Musiqaga o'quvchilarda borliqhaqida o'ziga xos «shaxsiy nuqtai nazar»ni, voqea va hodisalarga faol vajodiy munosabatni shakllantiradi. Musiqaga alohida shaxsga va keng jamoagaham birdak ta'sir qiladi (emotional, ijodiy, estetik, g'oyaviy, pedagogik, fiziologik va hokazo). Aynan shuning uchun ham «Musiqaga madaniyati» o'quv fanining xususiyatlaridan kelib chiqib, nazariy va amaliy yo'nalishdagi materiallarning maqbul nisbatini saqlagan holda, musiqaning barcha mavjud imkoniyatlarini ochib bera olishi kerak.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib quyidagi tavsiyalarni keltiramiz:

1. Darslarni tashkil etishda, jumladan, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida tizimlilikka rioya qilish. Shunda o'quvchilarning shaxsiy sifatlari bir maromda shakllanadi.

2. Chorak mavzularidan kelib chiqqan holda musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlar bilan uzviy olib borish.

1. Musiqiy pedagogika darslarida, xususan, musiqiy-nazariy bilim-

larni o'zlashtirish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

2. Ilg'or pedagogik tajribalardan ibrat olish va darslarni o'yin tarzida qiziqarli qilib uyushtirish.

3. O'z pedagogik mahoratini, malakasini muntazam ravishda takomillashtirib borish.

4. Ota-onalar bilan doimo muloqotda bo'lish orqali o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish yo'llarini izlash (maxsus musiqa maktablari, musiqiy to'g'araqlarga jalb etish).

5. O'quvchilarning umumiy musiqiy bilim darajalarining qiziqish va moyilliklarini aniqlashda sinfning va har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

6. Dars mobaynida ijodiy ko'tarinkilikka erishish hamda o'quvchilarning erkin fikrlashi, dars materiallariga nisbatan o'z fikr-mulohazalarini bema'lol aytib olishiga imkon yaratish.

7. O'quvchilarning ijodiy shakllanishini doimiy nazorat ostiga olish. Lozim topilsa, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilarga birlashtirish.

8. O'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda darslarni tabaqalashtirib o'tish.

9. O'rganiladigan har bir mavzuning ta'lim va tarbiyaviy mohiyatini ochib berish orqali dars o'tish maqsadga muvofiqdir.

10. Sinf-dars sharoitidan kelib chiqqan holda, musiqa savodi, qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, raqsga tushish, bolalar cholg'u asboblari chalish faoliyatlarini qo'llagan holda, konsert-darslarni uyushtirish. Bu o'quvchilarda jamoa oldida, sahnada o'zini tutish, hayotiy vaziyatlarni oson idrok etish, yanada yuqori bosqichlarga intilish hissinii shakllantiradi.

11. Musiqiy asarlarning g'oyaviy mazmunini ochish jarayonida o'quvchilarning subbatlar o'tkazish, olgan taassurotlarini rasm chizish orqali aksettirish, keraqli rivojot, maqol va matallarni qo'llash, asarning musiqiy-nazariy va badiiy qirralarini ochib berishga o'rgatish. O'quvchilarni tahlil qilish va umumlashtirish, bilimlarni to'plash orqali keraqli xulosalar chiqarishga o'rgatish.

Musiqa madaniyati o'qituvchisi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich amalga oshirsa, yuqoridagi vazifalarni natijalar yanada samaraliroq bo'ladi.

VIII-BOB. O'QUVCHILARDA MUSIQIY TASAVVURLAR SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Musiqiy tasavvurlarni shakllantirish jarayoni pedagogika va psixologiya fanining muhim vazifalaridan biridir. "Tasavvur voqelik predmetlari va hodisalarning hissiy - yaqqol, umumlashtirilgan obrazi bo'lib, bu predmet va hodisalarning sezgi organlariga bevosita ta'sir etish ham ongda saqlanib qoladi va takror hosil bo'ladi, tasavvur ongning zarur elementidir.

Chunki, u tushunchalarning ma'no va mazmunini doimo narsalarning obrazi bilan bog'laydi va ayni vaqtda ongga predmetlarning hissiy obrazlari bilan erkin ravishda ish ko'rish imkoniyatini beradi" - deyiladi. Musiqiy tasavvur tushunchasi orqali shaxsda xalq musiqasi haqida oldingi tajriba asosida shakllanadigan ko'rgazmali obrazlar tushuniladi.

Musiqiy mazmun ohanglar obrazlari bilan ifodalanadi va uni anglash, kechinnmalar tarzida idrok etish orqali ushbu musiqa haqida ma'lum tasavvurlar shakllanadi. Musiqiy tasavvurlar tizimi o'quvchi shaxsining xalq musiqasi haqidagi umumiy tushunchalari, mumtoz musiqa, xalq musiqasining ommaviy janrlari (musiqi folklori), milliy cholg'u sozlari, xalq cholg'u kuyi, qo'shiqlarining rivojlanish qonuniyatlari va asarlarining shakl tuzilishi, milliy musiqiy bezaglar va milliy zarb usullari haqidagi tasavvurlardan tashkil topadi. Ushbu tizimning har bir sohasi (psixologik, ijtimoiy-psixologik, musiqiy-psixologik, ijtimoiy, estetik, badiiy, tarbiyaviy, yo'naltiruvchi va h.k.) o'zaro uzviy bog'liqdir.

Musiqiy tasavvurlar hajmi shaxsning musiqa nisbatan munosabatini belgilaydi, ya'ni, tasavvurlar mavjud tushunchalar xarakterida namoyon bo'ladi. Xalq musiqasidagi o'ziga xos milliy va tarbiyaviy xususiyatlarining emosional-psixologik kechinma sifatida individ, guruh yoki yaxlit holda olingan millat ongida aks etadigan ko'rgazmali obrazlari majmuasini musiqiy tasavvurlar sifatida ta'riflash mumkin. Xalq musiqa asarlarining o'ziga xos xususiyatlari:

milliy usul - ritmlar, milliy musiqiy bezaglar, milliy cholg'u sozlarining tovush hosil qilish va tembr xususiyatlari orqali milliy xarakter xislatlarini ifodalashi, ijroviy imkoniyatlari, asarlar shaklining tuzilishi, milliy kuy rivojlanishi qonuniyatlarining shaxs ongidagi

in'ikosi, qo'shiqlar matni orqali milliy, etnik turmush tarzi va milliy qadriyatlarining yorqin tasvirlanishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bizningcha, musiqiy tasavvurlar shakllanishi aytim ijtimoiy-psixologik omillarga, jumladan:

- 1) kichik maktab yoshidagi bolalar va o'smirlarning musiqaga nisbatan shakllangan munosabati me'yoriga;
- 2) xalq musiqasiga nisbatan qiziqishlar mavjudligi;
- 3) xalq musiqasi targ'ibotiga;
- 4) ijtimoiy muhitda xalq musiqasiga nisbatan mavjud munosabat xususiyatlariga;
- 5) ma'naviy tarbiya mazmuni va saviyasiga;

b) oilaning ijtimoiy nufuzi va xalq musiqasiga nisbatan munosabati me'yoriga bog'liqligidir.

Shubhasiz, yuqoridagi omillar yaxlit surarda turli yosh, individual va hududiy xususiyatlarga mansub o'quvchilarning musiqiy idroki sifatiga ta'sir etib, aytish joizki, ularda musiqiy tasavvurlar shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

Demak, musiqiy tasavvurlar shakllanishi o'quvchilarda, avvalo, milliy qadriyatlarimiz namunasi sifatidagi xalq musiqasining badiiy, tarbiyaviy imkoniyatlarini anglash va milliy cholg'u sozlarimizga nisbatan ijobiy munosabat yaratilishi jarayoni bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy rivojlanish natijasi ularoq, milliy musiqaga madaniyatda yangi zamonaviy yunalishlar (teatrlashtirilgan qo'shiq, videokliplar, fonogramma bilan ko'ylash), janrlar (bir necha yuz kishi ijro etadigan ommaviy bayram kompozitsiyalari, raqslar, milliy balet) va uslublar (milliy estrada umumjahon amaliyotidagi hamda milliy cholg'u sozlarini omixta holda kuylash, dostonxonlik, shuningdek, Xorazmcha, Buxoro va Surxondaryo ijro uslublarining milliy estradadagi o'ziga xos talqini yaratilishi va boshqalar)ning shakllanishi kuzatilmog'da. Bu esa shaxsda xalq musiqaga asarlaridagi ijtimoiy-badiiy mazmuni hamda zamonaviy (elektron) cholg'ularniig tovush imkoniyatlari borasida shakllanadigan tasavvurlarning yangi, o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini namoyon etmog'da:

1. O'quvchi muomalada bo'ladigan (tinglaydigan va kuylaydigan) musiqaga asarlarining janr, uslub va yo'nalishlari o'zgarishi bilan uning musiqiy tasavvurlarida ham o'zgarishlar ro'y berishi mumkin.

2. Yangicha uslub talqinida, ya'ni umumjahon amaliyotidagi

cholg'u sozlari va milliy cholg'ularni omixta holda qo'llash orqali shakllanayotgan tasavvurlar asarlar ijrosidagi tovushlar majmuasi va tembrining tinglovchilar turli guruhlari va har bir shaxsda o'ziga xos ruhiy-hissiy ta'sir ko'lamini namoyon bo'ladi.

3. Ijtimoiy hayotdagi voqea va hodisalarning yangi musiqiy yo'nalish, janr va uslublarda ifodalanishi orqali shakllanadigan tasavvurlar o'zining ijrochilari soni, tovushlar diapazoni, o'ziga xos ijro maromi bilan ifodalanadigan, sof milliy cholg'ular jo'rigida ijro etiladigan asarlar orqali shakllanadigan tasavvurlardan farq qiladi.

4. Musiqiy tasavvurlar shaxs musiqiy tajribasi va xalq musiqasiga nisbatan munosabatlari mahsulidir.

5. Ular xalq musiqasiga nisbatan jamiyatda mavjud turli ijtimoiy qarashlar, fikrlar, baholarning shaxs ongida aks ettirilishini ta'minlaydi.

b. Har bir shaxs, ijtimoiy guruh va millat ongida musiqiy tasavvurlar shakllanishi - ularda milliy g'urur, milliy ong va milliy o'zlikni anglash kususiyatlarini qaror topirishiga ko'maklashishi mumkin. Musiqiy tasavvurlar funksiyalari haqida so'z yuritganda, avvalo ularning bilish funksiyasini ta'kidlash lozim. Chunki individ ongida turli darajada shakllanadigan har qanday musiqiy tasavvur asar mazmunini bilishga qaratilgandir.

Ikkinchi funksiyasi - tahlil etish bo'lib, idrok etilgan xalq musiqasi namunalari hayotiy tajriba (appertsepsiya) orqali ongda ma'lum asarlar bilan taqqoslanadi va unda ifodalangan badiiy voqelikka ijtimoiy bahol beriladi. Baholash sub'ektiv qarashlar asosida amalga oshirilsa-da, unda ijtimoiy munosabat me'yori aks etadi.

Uchinchi funksiyasi esa yo'naltirish bo'lib, asarda shaxsiy mazmunni anglashga ko'maklashadi hamda ijtimoiy faoliyatda ma'lum rol o'ynaydi. Musiqiy tasavvurlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi, rivojlanishi va milliy musiqiy tasavvurlar sifatida qayta shakllanishida takrorlash usuli ham muhim rol o'ynaydi. Biroq, qayta-qayta idrok qilinayotgan musiqaga asarlari tinglovchi yoki tinglovchilar guruhi uchun ham emotsional, ham intellektual ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Ma'anani, bugungi kunda musiqiy tasavvurlar shakllanishi motivlari sifatida o'zbek milliy estrada faqatgina hissiy ahamiyatga ega.

Ushbu asarlar haqida keng va to'laonli emotsional tasavvurlar mavjudligini esa takrorlash natijasi sifatida baholash mumkin, chunki

milliy estrada namunalari radio va televidenie orqali keng targ'ib etiladi. Xalq musiqasining o'quvchi-yoshlarda tinglash faoliyati motivlari sifatida namoyon bo'lishi va ularda musiqiy tasavvurlar shakllanishi uchun ushbu takrorlash, qaytarish usulidan foydalanish ijobiy ahamiyatga ega. Shuningdek, musiqiy tasavvurlar shakllanishida yosh, individual va xududiy xususiyatlar muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, yosh xususiyatlari o'quvchilarning musiqiy bilim va tajribasi bilan bog'liq bo'lganligi uchun turli yosh guruhlarida tasavvurlar shakllanishi me'yori farqli xususiyatlarga ega bo'ladi.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda emosionallik asosida, ya'ni asarning hissiy ta'siriga berilish, hissiy idrok etish orqali unga baho berish tarzida amalga oshiriladi.

O'smirlar yoshida esa musiqiy tasavvurlar shakllanishi asarning ichki tuzilishi, uning mazmun-mohiyatiga kirib borish orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, musiqiy tasavvurlar shakllanishi bosqichlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Musiqi asarini emosional idrok etish va asar xarakteri (kayfiyati) asosida individ uchun muhimlarning tanlanishi.

2. Asarning ichki strukturalari, badiiy va ijtimoiy mohiyati borasida ma'lumotlar to'planishi.

3. Asarning shaxs ongida ideal sifatida qabul qilingan asarlar bilan taqqoslanishi va ahamiyatsiz deb topilganlarining xotiradan chiqarilishi hamda asar obraziga adekvat tarzda kechimmalar paydo bo'lishi.

4. Ijtimoiy baho, sub'ektiv munosabat va appetsepsiya asosida musiqiy tasavvurlarning yaxlit holda ongda shakllanishi. Musiqiy tasavvurlar shakllanishida birinchidan, xalq musiqasi namunalarning ijro xarakteri anglanadi. Chunki, asar xarakterini anglash orqali uning dastlabki tasviri va ifodaviy xususiyatlari shaxs ongida paydo bo'ladi va keyingi bosqichga axborotlar to'plash uchun qulay psixologik vaziyat yaratiladi, xarakter emosionallik bilan bog'liq bo'lgani sababli turli emosional-psixologik holatlarni ifodalovchi kayfiyatlar (quvnoq, g'amgin, tantanali, yengil, mumli, sho'x va hokazo.) asarning badiiy va ijtimoiy xarakterini belgilovchi omillar sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, o'quvchilar tinglayotgan asarlarga dastlabki soniyalardayiq munosabat bildirishlari (musiqi yoqdi yoki yoqmad) ham tasavvurlar asosidagi asar xarakteri bilan bog'liq baho hisoblanadi. Ikkinchidan, asarning ichki tuzilishi, shakli, musiqiy obraz

ifodalanishi jarayoni, badiiy-musiqiy va ma'naviy-ijtimoiy mazmuni haqida ma'lumotlar yig'itiladi. Uchinchidan, asar ongidagi ideal nus'ha (asarlari) bilan taqqoslanib, saralanib, asar obraziga xos kechimmalar paydo bo'lishi mumkin. Nihoyat oxirgi bosqichda ushbu asar borasidagi ijtimoiy baho, musiqiy tajriba (appetsepsiya) va sub'ektiv munosabat asosida yaxlit tasavvurlar shakllanadi. Musiqiy tasavvurlar idrok jarayoni fenomeni sifatida quyidagi ijtimoiy psixologik xususiyatlar bilan ifodalanishi mumkin. Tasavvurlarning yakka holda olingan va umumiy ko'rinishlari mavjud.

Yakka holda olingan musiqiy tasavvurlar bizningcha, ushbu musiqaning alohida janrlariga nisbatan shaxsda tinglash ehtiyoji sezilishi, tinglash faoliyati motivlari sifatida boshqa janrlardan afzal ko'rinishida namoyon bo'ladi. Umumiy tasavvurlar esa xalq musiqasining turli janrlarini qiziqib tinglash va faol ijobiy munosabat bildirishda ko'rinadi. Musiqiy tasavvurlar idrok singari aniqlikka ega bo'lmasda, ular umumlashirilgan musiqiy obrazlar sifatida shaxsning musiqani tushunishi va unga nisbatan baholash mezonlariga egaligi bilan muhimdir. Musiqiy tasavvurlar psixologik jihatdan anglangan xarakterga ega. Ushbu tasavvurlar bizningcha, individ, guruh yoki millatning etnopsixologik xususiyatlari asosida, jumladan, o'zbek xalq musiqasi haqidagi tasavvurlar turli yosh guruhlardagi shaxslarda individual, xududiy xususiyatlar, milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar, munosabatlar ta'siri ostida shakllanadi.

Musiqiy tasavvurlar ko'lam va sifati shaxsning xalq musiqasi borasidagi bilimlari, ushbu musiqaga nisbatan munosabati darajasi va faoliyat motivlari sifatidagi ahamiyati me'yorini aks ettiradi. Ushbu xususiyatlarni chuqur anglash orqali musiqaniing emosionalpsixologik va tarbiyaviy imkoniyatlarini o'zida his etish shaxsning musiqiy qiziqishlari va ijtimoiy muhitidagi musiqi madaniyatiga nisbatan shakllangan munosabatlarga beradigan bahosi aks etishi mumkin.

Ma'lum uslub, janr, yunalishlar va alohida musiqi asarlari haqida individ yoki turli yosh guruhlari tasavvurlar shakllanishi mazkur asarlar borasidagi reklama - targ'ibot hamda tinglash intensivligiga bog'liqdir. Chunki badiiy saviyasidan qat'iy nazar keng targ'ib qilinadigan har qanday janr, shakl va uslubdagi musiqi asarlari turli tinglovchilar guruhlarida ijobiy tasavvurlar uyg'otishi mumkin.

8.1. Ta'limda pedagogik innovatsiyalar

Pedagogik kadrlarni tayyorlashni mukammallashtirish yo'llarini izlashga bo'lgan ehtiyoj mamlakatimiz rivojlanishidagi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va ta'limdagi islohotlar qo'ygan talabdan kelib chiqmoqda. Mehnat bozoridagi pedagogik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar bo'lgan talab bo'lajak o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashni tashkil etishni talab qiladi. Bu esa ta'lim sohasidagi bo'lajak kadrlarni yanada yuqori darajadagi bilimlarni egallashlariga va innovatsion potentsialining shakllanishiga imkon beradi.

Bo'lajak o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorgartilgini shakllantirish muamolari ko'pgirralidir, ammo uning yechimini asosan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy buyurtma bilan uni amalga oshirish imkoniyati o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal etish bilan bog'langandir.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining alohida va umumiy jihatlarni o'rganish borasida ko'plab pedagog-olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Masalan: N.N.Azizxojaeva, B.L.Farberman, N.Saidaxmedov, M.Ochilov, B.R.Adizov, M.H.Maxmudov, S.Ziyamuxamedova, B.Ziyamuxamedov, U.Nishonaliyev, R.Jo'raev, O.Tolipov, rossiyalik olimlar V.P.Bespal'ko, M.T.Gromkova, V.A.Slastenin, L.S.Podimova, M.V.Klarin, Ye.P.Morozov, P.I.Pidkasiy, N.V.Konoplina, A.Ya.Nayn, M.M.Potashnik, Xutorskiy A.V., N.R.Yusufbekova, V.I.Andreev, P.G.Shedroviiskiy va boshqalar.

Yuqoridagi tadqiqotlar mualliflari aniq dalillaridan kelib chiqib, pedagogika oliy o'quv yurtini tugatgan talabalarning kelajakda o'qitadigan maxsus fanlarni chuqur o'zlashtirganliklarini, ular pedagogik vaziyatlar, o'qitish metodlari bilan yaxshi tanish ekanliklarini, ayni paytda amaliyotni to'liq egallab olmagaliklarini e'tirof etganlar.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish bilimlarni yodlashni ko'zda tutuvchi maqsadli emas, balki har doim har bir talabaning shaxsini ijodiy tajriba bilan boyitishni, bo'lajak professional sifatida amalga oshirish mexanizmini shakllantiruvchi dasturlarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Ehtimol, biz innovatsion jarayon yuzaga keluvchi mexanizm va bu mexanizm ishlaydigan sharoitni odatdagi kasbiy vazifalarni amalga

o'tkiritish usullaridan, faoliyatni amalga oshirish usullari haqidagi ma'ruzalarni chegarasidan tashqarida o'zga nuqtai nazardan ko'z oldini o'tkazib qolmaslik kerak. Bunday o'zga qarashga o'tish juda muvofiqdir.

Individual va ommaviy ongda stereotiplarning mavjudligiga hamda ularni hissiyotlarning yuzaga kelishiga ko'ra insonlarning turmush tarziga, qiziqishlariga va odatlariga ta'sir qiluvchi innovatsiyalar ularda og'irliq bo'larni yuzaga keltirishi mumkin.

Innovatsiyaga qarshi to'siq – ijtimoiy va psixologik adabiyotlarda qo'llaniluvchi an'anaviy iboradir. Psixologik, shaxs ichidagi to'siq o'qituvchining individual xususiyati hamda u kiradigan jamiyat ijtimoiy-psixologik belgilari bilan shartlangandir.

Biroq, jamiyatning rivojlanishi o'qituvchidan innovatsion axloqni, ya'ni pedagogik faoliyatda faol tizimni ijodni talab etadi. Innovatsion axloq – bu moslama emas, balki o'z individualligini, o'zini namoyon etishning maksimal rivojlanishidir.

Jamiyatda insonni innovatsion faoliyatni to'xtatishga majbur qiluvchi bir necha maxsus usullar "mavjud". O'qituvchi innovatsion faoliyatni amalga oshirishda xalaqit beruvchi psixologik to'siqlarni, "komplekslarni" anglashi, boshdan kechirishi va ulardan qutulishi lozim.

Pedagogning axloqini va ichki olamini standartlashtirish uning faoliyatida ko'proq konstruktiv yozmalarining ustunlik qilishiga olib keladi. Uning ongida ko'proq turli xil pedagogik faoliyatning tayyor namunalarini to'planadi. Bu esa o'qituvchini pedagogik hamkorlikka qo'shishiga olib keladi, ammo uning kreativligi darajasini pasaytiradi. (Kreativlik – insonning fikrlashida, hissiyotida, mulohazada, faoliyatining alohida turlarida namoyon bo'luvchi ijodiy imkoniyati, qobiliyati, shaxsni bir butunlikda yoki uning alohida tomonlarini, faoliyati hosilasini, uni yaratish jarayonini xarakterlaydi. Individualning original xarakterini yaratuvchi, nstandart qarorni qabul qiluvchi ichki xususiyatini aks ettiruvchi qobiliyat. Kreativlik iste'dodning muhim va nisbatan mustaqil faktori sifatida qabul qilinadi, u ba'zan intellekt matnida akademik yutuqlarda namoyon bo'ladi).

Innovatsiya tushunchasi ilmiy pedagogik adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. V.I.Andreev innovatsiya so'zi ostida maktabdagi o'quv-tarbiya jarayoniga kiritiladigan yangilikni, originallikni tushunadi. A.Ya.

Nayn esa: "innovatsiya deganda umuman yangicha ta'limni (o'zgarish yondoshuv), mavjud ta'lim texnologiyasi mohiyatini o'zgartiruvchi yangi g'oyani, yangi tipdagi o'quv yurtini yoki ta'limni boshqarishni tushunamiz" deydi. M.M. Potashnik innovatsiya deb yangilikni egallash jarayonini tushunadi. P.G. Shchedrovitskiy bu – qandaydir uyushtirilgan faoliyatni bir sohadan boshqasiga o'tkazish harakatidir deb aytdi.

A.F. Balakirev o'z ishida ushbu tushunchaning lotinchadan kelib chiqqaniga tayanib (in- ichida, novus- yangi), innovatsiya terminini yangilik, yangilikni tatbiq etish deb talqin etish lozimligi ta'kidlaydi. Bizning fikrimizcha, innovatsiya – bu subektiv yangilik bo'lib, u ma'lum konkret odam yoki bilim yurti uchun yangilik bo'lgani holda, boshqalar esa undan ilgariroq yetarlicha xabardor bo'lgan bo'lishadi.

N.I. Lapin, "yangilikni tatbiq etish" (innovatsion) so'zini etimologiya nuqtai nazaridan talqin etadi va uni tatbiq etish, ya'ni qandaydir yangilikni yaratish va foydalanish ma'nosini bildiradi deb hisoblaydi. Bu yerda ma'lum ijtimoiy talabga javoban yuzaga kelgan va bu talabni qondiradigan amaliy vositani ifodalovchi yangilik haqida gap bormoqda. Shuningdek, ta'limda pedagogik amaliyotda yangilikni yaratish, egallash, foydalanish va tarqatish bo'yicha faoliyatlar majmuini ham innovatsion jarayon deb atashadi. Ta'lim sohasida yuzaga keladigan novatsiyalar har doim ham nazariy asosga ega bo'lmaydi, chunki novator o'qituvchilar odatda o'z avtorlik maktablarini, kontseptsiyalarini, yangi dasturlarini, uslublarini va h.k. amaliy ish davomida ishlab chiqadilar.

K. Angelovskining aytishicha, jahon miqyosidagi ta'lim sohasidagi asosiy tatbiq etiladigan yangiliklarga quyidagi o'zgarishlar tegishlidir:

- Ta'limning ijtimoiy holatidagi (moliyaviy va boshqaruv);
- Ta'lim va tarbiya strukturasiidagi yoki uning alohida qismlaridagi;
- ta'lim mazmunidagi, ya'ni barcha yoki alohida predmetlar bo'yicha o'quv rejalari va programmlaridagi;
- maktab va dars berishni tashkil qilishdagi;
- o'qituvchi va o'quvchi munosabatida;
- ta'lim texnologiyalari va b.

Frantsuz olimi E. Bransuik ehtimoli bo'lgan pedagogik yangiliklarning uch turini aytadi:

1. Yangilik sifatida to'liq yangi va ilgari noma'lum bo'lgan ta'lim g'oyalari va harakatlari yuzaga chiqadi.
2. Eng ko'p miqdordagi yangiliklar moslashtirilgan, kengaytirilgan

yoki qayta tuzilgan g'oya va harakatlardan iborat bo'lib, ma'lum soha va davrda alohida ahamiyat kasb etadi.

3. Pedagogik yangiliklar yangi holatlarda, o'zgartirilgan sharoitlarda yuzaga keladi va bu sharoitlar ma'lum ijobiy g'oyalarning samarasini ko'rsatmaydi.

A. Ya. Nayn o'quv jarayonini uzluksiz innovatsiyalikka o'zgarishini ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, ta'limdagi innovatsiyalar faqat pedagogik jarayon barcha ishtirokchilarining (o'qituvchi va o'quvchilar) uni anglash va amalga oshirishga tayyor bo'lganlaridagina mumkindir va yangilikni o'zini, uning printsiplarini, yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha, yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar tayyorlash bo'yicha oldindan katta hozirlik ko'rish talab etiladi.

Pedagogik faoliyat ko'p holda boshqaruvchining faoliyati va tafakkuriga mos keladi.

Jamiatimizdagi qayta qurishlar bilan, ijtimoiy ishlab chiqarishni baholash me'zonlarining o'zgarishi bilan bog'liq hamkorlikdagi faoliyat qurilish usullari, faoliyat tizimini boshqarish ham o'zgarimoqda. Yangi boshqarish talablariga, demak pedagogik faoliyatga ham o'tish o'z kettidan ta'lim mazmuni va jarayonini o'zgartirish bo'yicha boshqarish qarorlarini qabul qiladigan insonning shaxsi va tafakkuriga, boshqarish qobiliyatiga bo'lgan talablarni o'zgarishiga olib keldi.

O'qituvchining ijodiy tafakkuri va innovatsion faoliyati o'zgarayotgan jamiyat talablariga mos o'quv jarayonini qayta qurishni ta'minlovchi va har qanday maqsadni samarali egallashda hal qiluvchi omillardan biri bo'lib yuzaga chiqmoqda.

Pedagogikdagi innovatsion jarayonlar innovatsiyalarning ta'siri o'quvchi shaxsini rivojlantirish jarayonini mukammallashtirishga yo'naltirilganligi bilan boshqa sohadagi analogik jarayonlardan ajralib turadi. Ta'limning yangi mazmuni, shakli, uslubi, texnologiyalari o'quvchi shaxsi xususiyatlari va pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

Mazmunan pedagogik innovatsiyalar ta'lim tizimini mukammallashtirishdagi turlicha aspekt va strategiyalarda namoyon bo'ladi:

- 1) bilim yurtining rivojlanish va o'zini rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqishda;
- 2) ta'lim mazmunini yangilashda;

3) yangi uslub, uslubiyot, ta'lim, tarbiya, shaxsni va jamoani rivojlantirish pedagogik texnologiyalari ishlab chiqish yoki o'zgartirishda;

4) ta'lim, tarbiya, shaxs va jamoani rivojlantirishning tashkiliy shakllarini mukammallashtirishda;

5) ta'lim muassasasini boshqarish va o'zini boshqarishni mukammallashtirishda va b. Bundan tashqari innovatsion faoliyat davomida o'z va o'zga yurtlar pedagogik tajribasini tatbiq etish holatlari ham tasvirlanadi.

An'anaviy innovatsion pedagogik loyihalarga avtorlik maktablarining dasturlari (V.A.Kravkovskiy, Ye.A.Yamburg, A.A.Tubel'skiy); ta'limning original texnologiyalari (L.V.Zankov, V.F.Shatalov, P.Ya.Galperin, N.F.Talizina); alternativ turdagi ta'lim muassasalarining (litseylar, uzluksiz ta'lim tizimlar, kompleks-maktablar va h.k.) o'quv-me'yoriy hujjatlari; ta'lim muassasalari amaliyotiغا diagnostik texnologiyalarni (monitoring, test, anketa, reyting, pedagogik konkurslar va h.k.) tatbiq etish taalluqidir. Barcha innovatsion pedagogik loyihalarining turlari tegishli nazariy asoslashsiz boshqaruv organlari yoki o'qituvchi-novatorlarning tashabbusi bilan vujudga kelgan.

Innovatsiyalar – inson faoliyatining asosiy turlaridan biridir. Bu faoliyat qat'iy chegara va bo'linishlarga ega emasligi sababli uni turkumlashtirish qiyindir. Tizimli yondoshish nuqtai nazaridan innovatsiyalar – bu ilg'or ahamiyatli va tizimli o'zi yuzaga keladigan yangi hosila bo'lib, turli xil tashabbus va yangiliklar asosida yuzaga keladi. Ular o'z navbatida ta'lim evolutsiyasida istiqbolga ega bo'ladi va uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiyalarning amalga oshirish usuliga ko'ra ular tajribali tekshirilgan va tekshirilmagan bo'linadi. Yangilikning hajmiga ko'ra nuqtai va tizimli, innovatsion jarayonning uzozligiga qarab – uzoq, o'rta va qisqa muddatiga ajratiladi. Ular ijtimoiy ustunlikka yoki chiqingga ega bo'lishi, tatbiq qilinib yaxshi yoki zaif samara berishi yoki talabsiz qolishi mumkin.

Ta'limga innovatsion yondoshishni ikki asosiy turga ajratish mumkin:

1. Innovatsiya – modernizatsiyalar, an'anaviy reproduktiv yo'naltirish qolpidagi kafolatlangan samaraga erishishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini modernizatsiyalovchilar. Ular asosida yotuvchi ta'limga texnologik yondoshish avvalo o'quvchilarga bilim berishni va namuna

bo'yicha faoliyat usullarini shakllantirishni ko'zda tutadi, yuqori natijali reproduktiv ta'limga yo'nalgan.

2. Innovatsiya – transformatsiyalar, an'anaviy o'quv jarayonini o'zgartiradi, uning tadqiqot xarakterida bo'lishini ta'minlaydi, izlanish o'quv-bilish faoliyatini tashkil etadi.

Ta'lim sohasidagi yangiliklarni mazmuni, ahamiyati va oqibati bo'yicha ajratish mumkin. Yangiliklar global yoki qisman, tashkil etilgan yoki spontan (ba'zi o'qituvchilarda) bo'lishi mumkin. Odatda innovatsion pedagogik faoliyatning tahlili ilg'or pedagogik tajriba tahliliga kelib taqaladi (mualliflik kurslarining bayoni, mualliflik maktablari, original ta'lim texnologiyalari kontsepsiyasi, pedagogik diagnostika uslublari va h.k.).

A.Ya.Nayn o'z monografiyasida ko'rsatishicha, o'qituvchi-novatorlar tajribasi tatbiq etilib amalga oshirilganda unga yangi pedagogik madaniyat namunasi sifatida qaralgandagina muvaffaqiyatga erishiladi. Ammo, ko'pincha shaxsiy tajribaning mualliflik bayoni qabul qilingan talablarga va ilmiy hisobotlarga to'g'ri kelmaydi. Shu bilan bog'liq o'qituvchi-novatorlarni tadqiqot faoliyatiga tayyorlash vazifalari yuzaga chiqadi.

An'anaviy ta'lim amaliyoti o'z vazifasini o'qitayotganlarni jam'iyatning umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan ijtimoiy amaliy tajribasidan bahramand etishda deb biladi. Ana shundan nazariy bilimlarning yetakchi rolini tasdiqlash, fanlar asosini egallashga yo'naltirish kelib chiqadi. Talabning o'quv faoliyati hayotdan ajralib qolgandek bo'ladi – unga to'plangan axborotlarni egallash maqsadi yuklanadi. Shu bilan ko'pchilik talabalarning ta'lim va kasbga bo'lgan qiziqishlarining susayishi izohlanadi. Shunday qilib, diqqat, idrok va xotira jarayoniga tayyanuvchi an'anaviy ta'lim bilan kasbiy faoliyadagi ijodiy dialogik tafakkur va ijtimoiy faollik darajasidagi bilish jarayoniga talaba shaxsini jalb etishni ta'minlash zarurligi o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi.

Zamonaviy an'anaviy ta'lim rivojlanishidagi o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish tamoyillarini qayta ko'rib chiqish, ta'lim sub'ekti bilish faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimini tashkil etishga, ijodga o'rgatishga, shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tish lozimdir.

Oltiy ta'limdagi pedagoglarning ijodiy tafakkursiz va innovatsion faoliyatsiz bunday o'tish mumkin emasdir. Oltiy ta'limdagi o'qituv-

chilarning ko'pchiligi an'anaviy ta'lim tizimida ishlayotganiga va yangiliklarga e'tiborsiz bo'lishlariga qaramay, pedagogik hamkorlik innovatsiyalar tizimini qabul etishga tayyordir.

Pedagogning innovatsion faoliyatini shaxsning sifati, yaratish jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi deb izohlash mumkin. Pedagogning ijodiy umumli shaxsi keng qiziqishlarga, pedagogik yangiliklarni tez oqishga ega bo'ladi.

O'qituvchi ta'lim mazmunini tushunishi va tafakkurni rivojlantiruvchi, nazariyaga, kasbiy va ijtimoiy tajribaga izlanuvchan yondoshuvchi ta'limning yangi texnologiyalaridan foydalana bilishi lozim.

Pedagog kiritayotgan har qanday tushuncha talabning oldingi tajribasi tuzilishini o'zgartirmoqchi lozim. Ta'limning predmet-mazmunli o'quv natijasi bilan bir qatorda izlanish faoliyati tajribasini refleksiv anglash ham alohida natija bo'lishi lozim. Bunda yangi tajribani egallash motivlari, bilish imkoniyatlarining kengayishi, bo'lajak kasbiy holatlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

Bitiruvchilarga bo'lgan zamonaviy talab – bu oliy mahorat, mulogotga kirisha bilishlik, ko'nikuvchanlik, rivojlangan tafakkur asosida murakkab muammolarni hal eta bilishdir.

Taffakur esa faqat eslab qolish yetarli bo'lgan o'qituvchi oldindan aytilgan misol bo'yicha vazifalarni hal etish yo'lida emas, balki muammoli holatlarda yuzaga keladi.

Talabning tafakkurini rivojlantira turib, avallam bor faol bo'lgan ta'lim uslublari – muammoli ma'ruzalar, roli o'yinlar, seminar-munozaralar, ringlar, debatlar tayanish lozim.

Bular muammoli holatni nostandart hal etishni va undan chiqishni ta'minlaydi. Shubhasiz, talabalarning turli xil ta'lim shakllari va o'quv-tadqiqot ishlari, kurs ishlari, diplom loyihalari yangi axborot texnologiyalari faol ta'limning tarkibi bo'lib hisoblanadi.

N.Azizxo'jaeva, U.Nishonaliyev, R.Jo'raev, X.Ibragimov, M.V.Klarin, V.A.Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchi innovatsion faoliyatiga qo'yiladigan bir qator talablar ko'rib chiqilgan. Bu avtorlarning tadqiqotlariga tayanib, biz innovatsion faoliyatga tayyorlashni tashkil etishdagi bir qator shartlarni aniqladik:

- Talabning o'z shaxsini namoyon qila olish qobiliyati, o'quv-bilish jarayonini talabning shaxsiga yo'nalganligi innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni tashkil etishda ustunlik qilishi;

- Professional bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonida talabning o'zini ijodiy namoyon etish xuquqi sifatida tanlash ekanligini kengaytirishni;

- Refleksiv jarayonlarni rivojlantirishni;

- Bo'lajak o'qituvchi-innovatorning metodologik madaniyatini shakllantirish.

Talabalarni innovatsion pedagogik faoliyatga jalb etishda pedagogika faoli yetakchi rol o'ynaydi. Talabalar innovatsion jarayonlar haqidagi dastlabki tasavvurlarini "Pedagogik texnologiya" kursini o'rganishda egallashadi. Bunda pedagog-novatorlar pedagogik faoliyatining mohiyati ochib beriladi, pedagogik ijodiyot xususiyati haqidagi ilk tasavvurlar shakllanadi.

Pedagogika tarixi bo'yicha mashg'ulotlarda innovatsion pedagogik faoliyat tarix nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi, konkret yangilikning ta'lim va jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati tadqiq etiladi, O'zbekiston va jahondagi ta'lim rivojlanishi zamonaviy an'analari o'rganiladi. Shunda u yoki bu g'oyalarning zamonaviy ta'limdagi ahamiyati va ishtiroki haqida xulosalar chiqariladi.

Bo'lajak o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashning turli shakllarini izlash oliy o'quv yurtlaridagi hal qilinmagan muammolardan ibridir. Bu muammo yangi pedagogik muammolarni aniqlash va anglash, nazariya va amaliyot tahlilida tanqid va o'z-o'zini tanqid, ta'lim, tarbiya va o'quvchi shaxsini rivojlantirishda nostandart yo'llarni tanlash, uslub va uslubiyotdagi dogmalardan voz kechish bilan xarakterlanadi.

Shunday qilib, innovatsion ta'lim jarayoni nazariy va amaliy tafakkurni shakllantirishga, bo'lajak muhr o'qituvchi shaxsini rivojlantirishga yo'nalgan faol shaxslararo, o'qituvchi va talaba, shuningdek talabalarining o'zaro dialogik munosabati sifatida qurilishi lozim.

Innovatsion pedagogikaning printsiplari shaxsiga yo'naltirilgan yondoshish bilan, ya'ni turlichani yonma-yon yaratish potentsial imkoniyati bilan bizni qanoatlantiradi. Turtilik qancha ko'p bo'lsa, tanlash imkoniyati ham ko'payadi. Hozirda o'rta statistika maktab o'quvchisida u unchalik katta emas. Shu sababli hozirgi kunda pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimida kelajakda ta'limdagi samaradorlik garovi sifatida innovatsiyalar bilan shug'ullanish muhimdir.

8.2. O'qituvchining axborot madaniyatini shakllantirish

Oliy o'quv yurtlarida tahsil ko'rayotgan bo'lajak o'qituvchilarning hozirgi zamon talablari asosida puxta kasbiy tayyorgarlikka ega, o'z kasbining mohir ustasi bo'lib yetishishlariga asosiy e'tiborni qaratmoq bugungi kunning muhim vazifasidir. O'qituvchi qanchalik ma'lumoti, mahorat egasi bo'lsa, u kelajak avlodni ham shunchalik bilimdon, har tomonlana barkamol inson qilib tarbiyalay oladi.

Bo'lajak pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga o'rgatish Bugungi kunda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topmoqda. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv – tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotda sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi o'zgarimoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o'rnatilmoqda.

Ta'lim tizimi yangi axborotlar bilan ishlash qobiliyati ijodiy yechimining ta'lim dasturini individuallashirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda. Ta'lim – pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib, o'quvchi – talaba bilan o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi:

Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda. Pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llashda hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lgan ayrim pedagogik hamda psixologik tajribalarni foydali ma'lumotlar sifatida eslatib o'tishni lozim topdik.

Ta'lim oluvchilarni o'zlashtirmasliklarining bosh sababi – ularning savodlari (o'qish, yozishlari) yomonligi bo'lib, buning pedagogik sababi ularlarda tezkor xotiraning yetarli emasligi hisoblanadi. O'quvchitalabalarining umumiy o'quv qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasining asosi diagnostika va o'z-o'zini diagnostika qilishdir. O'qituvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismi ekanligi shubhasizdir. Komp'yuterda ishlashning oddiy ko'nikmalari o'qituvchining kasbiy axborot faoliyatini takomilashtirishdagi birinchi qadamdur.

O'qituvchining axborot madaniyatini shakllantirish, rivojlantirish ta'lim muassasasi ma'muriyati, malaka oshirish institutlari zimmasiga

yuklatiladi. O'qituvchining ma'lum bir fan asosida darsga tayyorgarlik ko'rishida quyidagi uchta bosqich muhim ahamiyatga ega:

tanlash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish), tashxislash o'qituvchi didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtiradi, uning natijalarini belgilaydi.

bashoratlash o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsni samarali tashkil etilishining turli variantlarini tanlab olib baholash va qabul qilingan mezonlarga muvofiq darsni tashkil etishning eng ma'qul variantini tanlab olish va qo'llashdir.

loyihalashtirish (rejalashtirish) o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tay'lanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

Hozirda ta'lim berish tamoyillari ma'lum, lekin qonunlari ma'lum emas. Shu sababli ta'lim berish hamda o'qib, o'zlashtirish qonunlarini aniqlash yo'nalishida, avvalo, insonni, uning psixologik, fiziologik va boshqa xususiyatlarini o'rganish davom etmoqda. Bu sohadagi ayrim natijalar quyidagilardan iborat: mashg'ulot turlarining imkoniyatlari har xil.

O'quvchitalabaning faolligi. Faollik ortiq yoki past darajalarda bo'ladi. Ortiq daraja aslida hayajonlanish bo'lib, o'zlashtirish sifatini pasaytiradi. Faollik darajasi bilan o'zlashtirish orasida bevosita daxldorlik yo'q. Past faollik, albatta, past, yuqori faollik esa, albatta, mustahkam bilim beradi, deb ta'kidlash mumkin emas.

Motivatsiya ta'lim natijalari uchun katta ahamiyatga ega.

Motivatsiya – odamni o'qishga yoki biror harakatni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi. Salbiy motiv - majburlab o'qitish, lekin bunda o'quvchitalabaning o'qishga nisbatan befarqligi barcha harakatimizni yo'qqa chiqaradi. Dars o'tishda bahsning samarali bo'lishi, eng avvalo o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning bir-birlariga bo'lgan ijobiy munosabati, hurmate'tiboriga bog'liq.

Demak, dars mobaynida o'qituvchi mavzuning xarakteri va shakllanishi, lozim bo'lgan bilim, malaka va fazilatlariga mos tarzda munozara sharoitini tanlashi va shundan keyingina mashg'ulotni boshlashi kerak. Bunda pedagog uchun asosiy masala talabalarni dars jarayonida faollashtirish asosida amalga oshirilishi kerak. O'qitishning faol uslublari, asosan, ikki xil vazifalarni bajarishga yo'nalgan bo'ladi: O'quv-amaliy (o'quv qiyinchiliklarni bartaraf etish, ko'nikmalarni

shakllantirish): Psixodiagnostika (o'zi va boshqalarning ruhiyatini o'rganish, aniqlash). Dars jarayonini rejalashtirish va loyihalashtirishda avvalo samaradorlikka erishishning asosi sifatida pedagog

Kimni o'qitish?

Nimani o'qitish?

Qanday qilib o'qitish? degan savollarga aniq javob bera olishi shart. Keyingina pedagog ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishda mashg'ulotning maqsad va uning vazifalarini rejalashtirish, dolzarb mavzuni aniqlash, oliy maktab amaliyotida novator o'quvchilarning yutuqlarini o'rganish, materiallarni to'plash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi vositalardan foydalanadilar.

Shuningdek, ta'kidlamoghimizki, pedagogik tashxislash qayd qiluvchi emas, balki maqsad hosil qilishni belgilovchi (prognostik) xarakterga ega bo'lganligida samarali bo'ladi, bu o'quvchining kasbiy refleksiyasi rivojlanishi asosida amalga oshiriladi. Ayni paytda, aynan ta'lim-tarbiya jarayonida maqsad hosil qiluvchi tashxislash uning rivojlanish qobiliyatini ta'minlaydi. Fikrimizcha, bo'lajak iqtisodchi-pedagoglarda boshqaruv qobiliyatlarining shakllanishi, eng avvalo, shaxsiy xislatlarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, ular o'zaro munosabatlarda rivojlanish tizimini tashkil etadi.

Xalqimizning milliy an'analari, udumlari, turmush tarzining tahlillariga asoslanib, manbalarda keltirilgan umuminsoniy xislatlardan foydalanib, bo'lg'usi iqtisodchi-pedagoglarda shakllangan quyidagi boshqaruv xususiyatlari va ijobiy xislatlarni rivojlantirish zarur, deb hisoblaymiz: ya'ni umumiy, axloqiy, ishbiarmonlik, ischanlik, ud-daburoni, zakovatlilik, irodalilik, zukkolik, emosional xislatlar. Pedagogda mustaqillik bo'lsa, unda o'ziga ishonch ham bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan rahbarlik sifatleri ichida eng muhimi, ta-biyyi, psixologik mahoratni talab etuvchi — bo'lg'usi pedagogning inson resurslari (o'quvchilarni) boshqarish mahoratidir.

Chunki bunda pedagog har bir o'quvchisining psixologik xususiyatlari va guruh psixologiyasini yaxshi bilishi zarur, bu zaruratni ingliz olimlari «o'zgalat psixologiyasini bilish ular ustidan hukm-ronlikning yagona yo'lidir» deb ta'riflashgan. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun bo'lg'usi pedagogga quyidagi boshqaruvchilik mahorati funktsiyalari shakllangan bo'lmog'i lozim.

Yuqorida zikr etilganlardan quyidagicha xulosalarga kelish mum-kin:

Birinchidan, iqtisodchi-pedagogga xos boshqaruvchilik mahorati ularning ilmiy, siyosiy, huquqiy, ta'lim-tarbiyaviy tajribalari asosidagina shakllanadi.

Ikkinchidan, buning uchun ular qaydagi pedagogik qobiliyatlarini shakllantirish oliy o'quv yurti professor-o'quvchilari zimmasidadir. pedagoglarning ta'lim-tarbiya jara'fida avvalo o'z-o'zini hamda auditoriyani boshqarish qobiliyatini shakllantirish; tashkilotchilik mahoratini takomillashtirish; bo'lajak pedagoglarda o'zini idora etish qobiliyatini tarbiyalash; pedagogik orientasiya xislatini shakllantirish; pedagogik irodaviy sifatlarini tarbiyalash; ishbiarmonlik qobiliyatini rivojlantirish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning psixologik — pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

- o'quvchi-talabning yodlashdan eslab qolish funktsiyasiga o'tishi, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jara'figa o'tishi;

- bilimning assosiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish;

- o'rtacha o'quvchi-talabga yo'naltirilganlikdan o'qitishning tabaqalashgan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;

- o'quvchi-talabning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali harfaga solinishga o'tish.

Ta'limda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblari samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishiga o'tilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtasida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lim tizimining yangi shakllarining aprobatitsiyasi, hozirgi zamon sharoitida o'qitishning pedagogik tizimlarini qo'llash muhim hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga so'zsiz erishish o'quv jarayonida loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzaklilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsamali sxemada o'z ifodasini topadi.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilan-

gan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab oladi. O'qituvchi (pedagog) o'z oldiga o'quvchi – talabalar o'quv materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib olin, ma'lum bilimlarni egallab, amaliyotga qo'llashga o'rgatsin degan maqsadni qo'yadi. Biroq, o'zlashtirish, tushunish, qo'llash nimani anglatadi?

O'qituvchi (pedagog) o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishganligini qanday biladi? Pedagogik maqsadga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, o'qituvchi (pedagog) o'zining mehnati samarali ekanligi va tanlagan metodlari maqsadga muvofiqligi yoki aksincha samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida o'qituvchi bosh omil. U rejalashtirilgan ma'lumotlarni talabaga tezroq berishga harakat qiladi, lekin ta'limning asosiy ikki jihatiga e'tibor beradimi?

Ta'limning tashqi jihati - o'qituvchi harakatlarning izchilligi va talabalar harakatiga mos kelishidir. Ichki jihati talabaning holati, uning bilim olishdagi faolligi, ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini ifodalaydiki, bu holat o'qituvchining ish uslubiga to'liq mos kelavermaydi. Ilmiy manba. Uslubning ommabopligi deganda o'quvchi – talabalarning rivojlanishi va ruhiy-pedagogik imkoniyatlariga ushbu uslubning muvofiq kelishi tushuniladi. Bu uslub asosan uchta qoidani o'z ichiga oladi:

1. Yangi ma'lumotlarni ilgari o'rganilgan ma'lumotlar bilan boshlash. Bu yerda, ya'ni talabaning mustaqil ravishda ishlashi, o'tilgan ma'lumotlarni mustaqil takrorlashi, mustaqil ravishda fikrlardan xulosalar chiqarilishi talab qilinadi.

2. Ta'lim metodining samaradorligi, uning o'quv materialini mustahkam egallashga qaratilganligi. Bu yerda ham o'zlashtirilishi kerak bo'lgan ta'lim metodining samarasi talabaning mustaqil harakati, uning oldindan ushbu metod haqida ma'lumotga ega bo'lishiga bog'liqdir.

3. Ilg'or metodlarni muntazam o'rganib borish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni loyihalash, tanlash va amalda qo'llash. Bo'lajak iqtisodchi - pedagoglarni zamonaviy ta'lim-tarbiyaning muhim metodikalarini ishlab chiqishga o'rgatish bilan bir qatorda pedagogik texnologiyalar elementlarini ko'llash natijasida ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, tuzatish kiritish imkoniyatlari

yaratiladi kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejaladi va ta'lim jara'ni samaradorligi oshadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar elementlarini boshqa pedagoglar qo'llanganda ham yuqori natija beradi va ta'lim samarasi yangicha bosqichga ko'tarilib, ta'limning yangi modeli amalga oshadi: talabaning ishtak – xohishi, qiziqishi va harakatlari ularning imkoniyati darajasida qondiriladi; talabaning o'quv mehnatiga va ilmiy dunyoqarashini o'rnatishga mas'uliyati, javobgarligi, burchi oshadi; bilimlarni mustaqil egallash, erkin fikrlash va xulosalar chiqarish qobiliyatlari oshadi; nihoyat, o'qituvchi sifatida jamiyatda o'z o'rmini topib olishga muhim sharoit yaratiladi.

Demak, pirovard maqsad bo'lajak iqtisodchi-o'qituvchilarga darslarni zamonaviy ko'rinishlarda tashkil etishlari uchun ta'lim texnologiyalari, o'qitishning samarador uslublarini tashkil etishlari uchun nazariy bilimlar berish va mutaxassisliklari bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun ma'ruza darslarini qisqartirib, ular bilan yakka holda shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning mustaqil ishlashi, mustaqil bilim olishlari uchun keng yo'l ochib berishda zamonaviy pedagogik texnologiya elementlarini qo'llashga o'rgatish shu kunning zaruratiga aylanishi kerak.

IX-BOB. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA KASBIY-AXLOQIY ME'YORLARINI TARBIVALLASHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Respublikamizda o'qituvchilik kasbining ahamiyati va nufuzini yuqori ko'tarish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar izchillik bilan ro'yobga chiqarilmogda, pedagoglarning moddiy turmush sharoitini yaxshilashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Keyingi yillarda xalq ta'limi tizimi xodimlarining ish xaqi miqdorlari bir necha marta oshirildi. O'qituvchilarga alohida ustama haqlar joriy etilishi va ta'lim standartlari talablariga muvofiq pedagoglarning ish yuklamalari maqbullashirilgani, shuningdek 2005 yil 25 noyabrda "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori o'qituvchilarning mas'uliyati mehnati va ularga g'amxo'rlik ko'rsatish hamisha davlatning diqqat markazida turishini yana bir bor isbotlab berdi.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik barcha o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berishi bilan bir qatorda, xalq ta'limi sohasiga yosh mutaxassislar kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmogda, bu esa o'z navbatida, maktab rahbarlari oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi.

Ma'lumki, inson har doim o'sishda va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to'g'ri tushunishlari lozim. Har bir yosh pedagog o'z faoliyatini turli xil sharoitlarda va yangi jamoa tashkilotchilari bo'lgan insonlar ta'sirida boshlaydi. Yosh pedagogning kelajagiga ta'lim muassasasidagi bugungi sharoit, jamiyat uchun foydali va zarur maqsadlarni amalga oshirishda shaxs rivojiga va shakllanishiga kuchli ta'sir qiladigan odamlar guruhi bo'lgan pedagogik jamoadagi ruhiy muhit o'z hukmini o'tkazadi. Jamoa jamiyatning bir bo'laki sifatida uning barcha xususiyatlarini qamrab oladi. G'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy-ma'naviy va boshqa jabhalar shular jumlasidandir. Bugungi kunda ixtiyoriy pedagogik jamoani ma'lum bir

maylab qo'yilgan yoki tayinlangan rahbar boshqaradi.

Rahbarlik – odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning xulqini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan boshqaruvning tashkiliy qismidir. Shunday qilib, "boshqaruv" tushunchasi "rahbarlik" tushunchasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Rahbar boshqaruv faoliyatida qator funksiyalarni bajaradi: pedagogik jamoaning ilmiy – pedagogik faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag'batlantirish vositalarini va usullarini belgilaydi, uni nazorat qilishni amalga oshiradi va hokazo.

Shuning uchun ham rahbar yosh pedagogni o'zi tanlagan kasbga mehr qo'yishiga, o'qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o'rganishiga va unda o'z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg'ulari rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sir qiladi deyishimiz mumkin. O'z navbatida rahbar jamoada o'z o'rniga ega bo'lib, u bilimi, muomalasi, ilmiy dunyogorashi, pedagogik xodimlar bilan o'zaro munosabatlari, maqsadga intilishi, ijtimoiy xulq va boshqalarda namuna bo'lishi mumkin, bundan jamoaning har bir a'zosi o'ziga xos ta'sirlanadi. Rahbar boshqaruv faoliyatida o'zaro ta'sirning ikki yo'nalishini, yosh pedagogning jamoaga va jamoaning yosh pedagogga ta'sirini va bu o'zaro ta'sir ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

Yosh pedagogning jamoaga ta'siri uning obro'si, bilimi, dunyogorashi, o'zi tanlagan kasbga qiziqishi va qobiliyati, o'z fanini puxta bilishi, o'quvchilar bilan munosabati, o'z ustida ishlashi, tashkilotchilik qobiliyati, peshqadamlik qilishi va tashabbuskorligi kabi sifatlarini namoyon qiladi. Uning obro'si deganda jamoa yosh o'qituvchini mutaxassis sifatida tan olishi, sub'ektiv sifatlarini jamoa faoliyatining ob'ektiv talablariga mos kelishi tushuniladi. Bunda mutaxassisning bilim, ko'nikma va malaka va tajribasi, kasb mahorati uddaburonligi, tadbirkorligi, ijodkorligi uning boshqalardan ko'ra ko'proq ko'zga tushlanishiga va obro' o'rttirishiga sabab bo'ladi.

Obro'ga ega bo'lgan mutaxassis shaxslararo munosabatlarda yuqori mavqega ega bo'ladi, jamoada uning fikr-mulohazalariga quchoq soladilar, undan maslahat so'raydilar, uning nuqtai nazarini bilan hisoblashadilar. Ammo obro' o'rttirishda shaxsiy sifatlarining o'ziga xos ta'siri bo'lmay, bunga u yoki bu mutaxassis haqidagi jamoachilik fikri ham sabab bo'ladi. Shuning uchun ham yosh mutaxassisning

jamoatchilik fikri bilan hisoblashmay iloji yo'q, bu esa jamoaning yosh pedagogga bo'lgan ta'siridir. Ya'ni, jamoa yosh pedagogning ayrim sa'ii - harakatlarini rad etishi, qabul qilmasligi mumkin.

Yugorida aytib o'tganimizdek, jamoa bilan yosh mutaxassisning o'zaro ta'siri ikki xil, ya'ni ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin, bunda rahbarning roli yaqqol namoyon bo'ladi. Ijobiy ta'sirni vujudga keltirishda rahbar pedagogik jamoa va ta'lim muassasasining manfaatlari bir-biriga mos kelishini istagani holda, qo'l ostidagi xodimlarning muvaffaqiyat hamda kayfiyatlari bilan qiziqishi, tabassum bilan muomala qilishi, xodimlarning ismini hurmat bilan aytib murojaat qilishi (har kimga o'z nomini boshliq og'zidan eshitish yoqimli bo'lishini esda tutishi), mutaxassislarga nisbatan diqqat-e'tiborli bo'lishi, subbardoshini o'zi haqida gapirishga ruhlanitirishi, oshkora axborot almashishdan cho'chimasiligi, xodimga uning ish uchun kerakli ekanligini sezdirishi, har bir xodimning kamchiliklarini qayd qilganda, albatta, uning muvaffaqiyatlarini ham e'tirof etishi, ya'ni rahbarlikning eng maqbul uslublarini o'z faoliyatiga tatbiq etishi zarur.

Jamoa turli dunyoqarash va madaniyatga ega, fe'l-atvori, aqlu zakovati har xil, ishga layoqati alohida namoyon bo'ladigan kishilar mehnat qiladi. Bu hol ularning mehnati va ish vazifasiga bo'lgan munosabatida ham ifodalanadi. Ta'lim muassasasiga yangi kelgan yosh pedagoglar jamoadagi mutaxassislarning faoliyatini, ularning o'z vazifasiga bo'lgan munosabatini va u yerdagi sharoitini to'la o'rganishgunga qadar turlicha tasavvurga ega bo'ladi. "Qush inida ko'rganini qiladi" deganlaridek, yosh mutaxassis jamoadagi sharoitini, o'sha yerda mutaxassisga qo'yilayotgan talablarni bajarish uchun qay darajada bilim, ko'nikma va malakalar zarurligini, kadrlar salohiyati va ularning o'z ishlari bo'lgan munosabatlarini, rahbarlarning mavqei handa qo'l ostidagilar bilan munosabatlarini o'rganib, tahlil qilib, xulosa chiqargani holda o'z ustida ishlashi, izlanishi, ilg'or tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarga ergashib, faol ish olib borishi yoki aksincha, loqayd bo'lib qolishi mumkin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'pgina yosh pedagoglar ancha vaqtgacha ta'lim muassasasi sharoitiga psixologik jihatdan moslashishga qiyinaladilar, ayrim moslasha olmaganlari qobiliyatli bo'lishlariga qaramay, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishdan voz kechib, boshqa turli sohalarida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Buning

sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim ta'lim muassasalarida jamoaning yosh pedagoglar bilan o'zaro ta'siri salbiy xarakterga ega bo'lib, rahbar va uning qo'l ostidagi xodimlar yosh pedagogga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lmagligida namoyon bo'ladi. Yosh mutaxassislarning izlanishi, bilimi, o'z faniga bo'lgan qiziqishi tufayli jamoa va o'quvchilar o'rtasida tez obro' topayotganidan xursand bo'lish va uni rag'batlantirish o'rniga yoshligini ro'kach qilib, turli asiz arizmas sabablarni bahona qilib yig'ilishlarda uyaltirish, obro'sini tushirish uchun qilingan harakatlar ularning ta'lim muassasasidan ketib qolishlariga sabab bo'ladi.

Yana bir sababi, ta'lim muassasasiga yangi kelgan yosh mutaxassis yetarli tajriba, ko'nikma va malakaga ega bo'lmaganligi uchun jamoaga tez kirishib ketishga qiyinaladi. Rahbar yoki o'quvchilar tomonidan o'z vaqtida metodik yordam ko'rsatilmagligi, unga berilgan o'quv yuklamlarining kamaytirilishi yoki olib qo'yilishi hamda berilishi zarur bo'lgan metodik yordamlar o'rniga tez-tez berilgan tanbehlar yosh pedagogning o'z fani bo'yicha yetarli bilimiga ega bo'lsa-da, o'zi tanlagan kasbga nisbatan ko'ngli soviq ketishiga olib keladi. Har bir yosh pedagog ma'lum kasbiy ijodiy imkoniyatlar potensialiga ega bo'lib, u yoki bu aniq bir mehnat jamoasi sharoitida pedagogik faoliyatini boshlaydi. Shuning uchun ham rahbarlar har bir xodimning shaxsiy fazilati, kasbiy layoqati, ishga munosabatini hisobga olib turlicha yondashishi, jamoa bilan yosh mutaxassislarning o'zaro munosabatlarini to'g'ri tahlil qilgani holda, yosh pedagoglar bilan ishlashning mukammal tuzilgan rejasiga ega bo'lishlari va shu reja asosida muntazam faoliyat olib borishlari shart. Buni boshqaruvchilik printsipli ham taqozo etadi. Bir qator tadqiqotlarga asoslangan holda, rahbarlarning yosh pedagoglar bilan ishlash rejalarini tuzishlarida quyidagilarni inobatga olishlarini tavsiya etamiz:

- olib o'quv yurtlarining bitiruvchilari bilan uchrashuvlar tashkil etish;

- yosh mutaxassislarning ta'lim muassasasi sharoitiga psixologik moslashuvini tezlashtirish uchun seminar va uchrashuvlar tashkil etish;

- o'z mutaxassisliklari bo'yicha o'quv yuklamlari bilan ta'minlashga erishish;

- yo'natishlari bo'yicha ilg'or pedagogik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarga birtiktirish;

- ilmiy-amaliy konferentsiya va o'quv seminarlariga muntazam ravishda ishtirok etishlarini nazoratga olish;
- yosh pedagoglarning oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish institutlarining professor-o'qituvchilari bilan muntazam aloqalarini yo'lga qo'yish;
- ularning darslarga tayyorgarligi va dars o'tish metodlarini kuzatib, alohida tahlil qilib borish;
- darslarni ilmiy asosda tashkil etishlari uchun dars jarayonida zarur bo'ladigan texnik vositalar bilan ta'minlash;
- ilmiy-metodik jurnal va gazetalarda maqolalar bilan ishtirok etishlarini nazoratga olish va rag'batlantirib borish;
- ochiq darslarga muntazam ravishda jalb etish;
- o'z ustida ishlashi va boshqa ta'lim muassasalari bilan tajriba almashinishlari uchun sharoitlar yaratish;
- fanlar bo'yicha olimpiadalar va turli xil tanlovlarda doimiy ishtirok etishlariga erishish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarga qiziqitirish, ijodiy faoliyat olib borishlari uchun zaruriy sharoitlar yaratib berish;
- fanlar bo'yicha yaratgan yangiliklarini ommalashtirish va rag'batlantirib borish.

Bugungi kunda ta'lim muassasalaridagi mutaxassislarining salohiyati mazkur muassasa rahbarlarining reytingini belgilovchi eng asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, bilimni, yetarli tajriba va ko'nikmaga ega bo'lgan, o'z fanini yaxshi biladigan, ijodkor va tashkilotchi yosh pedagoglarni qo'llash, ularga yetarli sharoitlar yaratib berish, ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun yaqindan yordam berish, ularni ko'p yillik ilg'or pedagogik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarga birlashtirib qo'yish va hamkorlik faoliyatlarini "Ustoz - shogird" tamoyillari asosida tashkil etish, unda o'zi tanlagan kasbga muhabbat va kelajakka ishonch tuyg'ularini tarkib topirish ushbu kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan xalq ta'limi muassasalarini mutaxassislar bilan ta'minlashda o'z samarasini beradi.

Uzluksiz ta'lim tizimida talabalarini o'qitish jarayonida kasbiy axloq me'yorlarini o'quvchilarda shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. O'qituvchi avvalo o'zi tarbiyalangan va axloq-odob me'yorlarini uzida shakllantirgan bulishi va bu xislatlarni kelgusi avlodga yetkazib berishi lozimdir. O'qituvchi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilat-

larni o'zlashtirib olishi, tajribada ko'llashi, o'zining dunegarashi, muallimlari va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, me'yorlar o'qituvchining o'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyogarashi, fikr va mulohazalari bilan ko'shilib, bozor iktisodiyotiga asoslangan jamiyat kurtish sharoitida uning o'rni va rolini belgilaydi.

O'qituvchi odobining me'yorlari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatlar o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, o'quvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarda, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashlanadi. Pedagogik takt o'qituvchi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Muallim xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi odobining asosiy sifatleri umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda bir-kadar oydinlashtiradi. Insonparvarlik, vatansparvarlik, milliy g'urur, baynalmilatchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, xalollik, rost-go'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o'qituvchi odobida pedagogik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, qadr-qimmat, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchan, va adolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi, xalolligi, pokligi, rost-go'yligi kabi o'qituvchi axloqining muhim fazilatlarini hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida ravnaq topishiga ishonadigan, vatansparvar, fuqarolik burchini angalgan, ixtisosga doir bilim, ko'nikmalarni, ijtimoiy-gumanitar, umumnazariy fanlarni, psixologo-pedagogik, metodik bilim va ko'nikmalarni mukammal egallagan;

o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, insonparvar, talabchan, adolatli, pedagogik odobli;

erkin va ijodiy fikrlay oladigan, har bir o'quvchisi ulg'ayib yaxshi odam bo'lishiga ishonadigan, ularni barkamol shaxs, ishbiarmon bo'lib

yetishishlariga ko'maklasha oladigan kadrlarni yetishib chiqishiga kumaglashish zarur.

9.1. Kasbiy axloq va uning tarixiy falsafiy negizlari

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida inson turmushining barcha sohalarida kishining xulqi, xatti-harakatlarini tartibga solib, boshqarib turuvchi qoidalar, tamoyillar, yo'l-yo'riklar, mezonlar, me'yorlar, pand-nasihatlar majmuidan iborat. Axloq umuminsoniy va milliy xarakterga ega bo'lib, kishilarning tarixan karor topgan va har bir odam egallashi lozim bo'lgan axloqiy idealari, orzu-umidlari to'g'risidagi tasavvurlar, tushunchalar, bilimlar, qarashlarni o'z ichiga oladi.

Odob deganda rasm-taomil, xulqi-odatlar, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum taqozosi tufayli odamlar o'rtasida paydo bo'lgan muomala-munosabatlarining xususiyatlari tushuniladi. Odob kishilarning amaliy xatti-harakatlari, muomala-munosabatlari deb ham qaraladi. Axloq esa mazkur rasm-taomil, xulqi-odatlarining bir qadar umumlashgan shakli bo'lib, ularni pand-nasihatlar, qoidalar, me'yorlar, talablar shaklida ifodalab berilganidir.

Etika deganda axloq haqidagi fan, nazariyalar tushuniladi. Umuminsoniy axloq deganda turli davrlarda barcha xalqlarda kishilarning turmushi, hayot tarzida shakllanib, insonlarning o'zaro muomala-munosabatlarini tartibga solib turuvchi umumiy tushunchalar, me'yorlar va talablar, umumiy axloqiy sifatlar tushuniladi. Milliy axloq esa umuminsoniy axloqqa xos asosiy xususiyatlarni saqlagan xolda ayni millat va elat kishilari-gagina xos bo'lgan ayrim axloqiy xususiyatlarni ham o'zida mujassamlantiradi.

Kishilarga yaxshilik qilish, rost gapirish, botirlik, kamtarlik, xalollik, mehribonlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlarini hamma xalqlar doimo e'zozlaganlar.

Aldash, qo'rquvlik, shafqatsizlik, o'g'irlik qilish kabi hamma vaqt, hamma odamlar qoralaganlar, axloqsizlik, odobsizlik deb hisoblaganlar. Bunday axloqiy qarashlar barcha xalqlar, millatlarga xosdir. Shu bilan birga har bir millatning o'zigagina ko'proq xos bo'lgan axloqiy qarashlari, axloqiy tushunchalari, axloqiy fazilatlarini ham mavjud.

Inson mehnati va faoliyatining ma'lum bir sohasi bilan shug'ul-

lanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy me'yorlar, talablar xam bor. Bunday axloq kasb axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda mavjud axloq kasb axloqi bilan ma'lum bir munosabarda bo'ladi. Bu umumiylik bilan xususiylik o'rtasidagi munosabattir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalarini, tamoyillari va tushunchalarini, afzalliklari va kamchiliklarini o'zida mujassamlantiradi, oydinlashtiradi va rivojlantradi. Bundan tashqari, kasb axloqi faqat shu soha kishilari uchun xos bo'lgan ayrim odob, axloq me'yorlari va qoidalarini ham o'z ichiga oladi.

Ayrim kasblar — o'qituvchi, vrach, tijoratchi, xuquqshunos, artist, rahbar xodimlar uchun inson — mehnat objekti hisoblanadi. Bu kasblarda mehnat objekting shaxsning takdiri ko'p jihatdan shu kasb egasining axloqiy faoliyatiga bog'liq. Bunday kasb egalaridan faoliyat objekti bo'lgan odamlar bilan o'zaro muomala-munosabatlarini tartibga soluvchi axloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilish talab etiladi. Bu esa shu kasb egalarining axloqiy mas'uliyatini oshiradi.

Muallimlik ana shunday kasblardan bo'lgani uchun o'qituvchi odobi kasb axloqining boshqa turlaridan farq qiladi, bu — pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatimiz fuqarolariga ilim olish xuquqini va buning uchun zarur sharoitlar yaratishni kafolatlaydi. Davlatimiz o'z siyosatini izchi amalga oshirmoqda. Uzbeksiz ta'lim tizimlaridagi ta'lim-tarbiya ishlarining barchasi yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan. Ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi, tarbiyalanuvchilar va ta'lim oluvchilarni hurmatlash O'zbekistonda ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. «Ta'lim to'g'risida» gi qonun (2020) da pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish uchun «tegishli ma'lumot, kasb tayyorgarligi bilan bir katorida yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lish» talab etiladi.

Shuning uchun ham pedagogik xodimlar o'zlarining kasbi shahni va qad-qimmatlarini himoya qilishlari, odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, bola, o'quvchi va talaba shaxsining qad-qimmatini hurmatlashlari, ularni mehnatga, qonunlarga, ota-onalar va xotin-qizlarga, ma'naviy, tarixiy, madaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida, atrof muhitiga ehtiyotkorlik bilan munosabada bo'lish ruhida tarbiyalashlari, o'zlarining butun faoliyatlarini va shaxsiy namunalari

bilan umuminsoniy axloq qoidalariga: haqiqat, adolat, vatanparvarlik, insonparvarlik, yaxshilik va boshqa xislatlarga nisbatan hurmatni qaror toptirishlari; o'zib-ulg'ayib kelayotgan avlodni bir-birini tushunish, xalqlar o'rtasida, shuningdek, barcha elatlar, millatlar va diniy guruhlar o'rtasida tinchlik, ahil-inoqlik ruhida tarbiyalashlari lozim.

Ko'ina tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, xislatlarni ko'paytirib, yomonlardan xalos bo'lishga chorlagan. Har bir insonga, oila, jamoa, xalqqa rahnamo bo'lgan. Uni og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishonitgan. Bunday da'vat o'z navbatida odamlarga kuch-quvvat bag'ishlagan, irodasini mustakamlagan, bir-biriga mehr-oqibatini oshirgan.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida yigit qizlarimiz ilm-ma'rifati, diyonati, yuksak axloqli bo'lishlari bilan biga, zamonaviy texnika va texnologiyalarni puxta o'zlashtirib olishlari lozim. Yoshlarimiz islomiy qadriyatlar bilan bir qatorda koinot siru asrorlarigacha bo'lgan dunyoviy bilimlarni ham mukammal o'zlashtirishlari zarur. Muallim butun o'qitish jarayonida, shuningdek, avvalo, o'zi dars berayotgan fanning mazmuniga umuminsoniy va milliy-axloqiy tarbiya vazifalarini singdirish yo'li bilan o'quvchilarga muntazam tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi. O'zbekiston Davlati fuqarosining ma'naviy qiyofasini belgilovchi fazilatlar vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g'urur, mehnatsevarlik, baynalmilatchilik kabilar maktab va o'quvchining faol ishtiroki va, ta'siri ostida shakllanadi.

O'quvchining maqsadi bo'lajak pedagoglarni kasb axloqiga doir bilimlar bilan qurollantirish, pedagogik mahorat, axloqiy ko'nikma va malakalarni egallab olish, amaliy faoliyatta o'quvchining obro'ini oshirishga ko'maklashishdan iborat.

Pedagogik axloqning paydo bo'lishi insoniyat tarixining eng kadim zamonlariga borib takaladi. U o'quvchilik kasbi bilan birga tarbiyachilik faoliyatining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan. Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablarda, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi mutaxassisi o'quvchi, muallim, pedagog, ustoz, mudarris, domla deb yuritiladi.

O'quvchilik eng kadimiy kasblardan hisoblanadi. O'quvchilik kasbining, u bilan birga pedagogik axloqning vujudga kelishi xam kishilik jamiyati tarixida tarbiyaning paydo bo'lishi, ya'ni insonlar to'plagan

yashash-turish, xatti-harakatlar, mehnat sohasidagi dastlabki tajribalarni, urf-odatlarini, aqliy, axloqiy, ilohiy bilimlarni yoshlarga o'rgatish; yozuv ixtiro qilingach, o'qish, yozishni o'rgatish uchun tashkil etilgan dastlabki maktablarning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq.

Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish, ularni hayotga, mehnat faoliyatiga tayyorlash ehtiyoji natijasida kadim zamonlardan buyog ta'lim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ldi.

Materialistik ta'limotga ko'ra, ibtidoiy tuzum davrida tarbiya mehnat jarayonida vujudga kelgan, jamoada amalga oshirilgan, yoshlarga mehnat ko'nikmalari, jamoaning urf-odatlari, marosimlarini bajarish o'rgatilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumining urug'chilik bosqichida tarbiya ijtimoiy vazifa sifatida ajralib chiqqan, ya'ni keksa yoshdagi kishilar bolalarni tarbiyalash ishi bilan shug'ullangan. Bolalarning tanasini shug'ullatish, chidamlilikka o'rgatish, harbiy-jismoniy mashqlarni bajarishga ko'prok e'tibor berilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish davrida bola tarbiyasi oilada amalga oshiriladi. Ayrim kishilar tajriba natijasida dekonchilik, chorvachilik, tabibchilik, kasb-hunar sohalarida to'plagan aqliy, axloqiy bilimlarni o'z bolalariga, yaqin kishilari va kukundorlarning bolalariga o'rgata boshlaganlar.

Ilohiy ta'limotga ko'ra, tarbiya, bu — o'zligini anglash, o'z-o'zini boshqarish, tevarak-atrofdagi olamni bilib olish, yer yuzida va jannatda yashash uchun xozirlik ko'rish, Tangri dargoxiga intilishdan iborat. Dinlar paydo bo'lgach, diniy tarbiya qutlug' kitoblardagi g'oyalar asosida ota-onalar yoki maxsus tayyorlangan kishilar tomonidan amalga oshirilgan.

Mashhur chex pedagogi Yan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida ko'rsatishicha, kadim zamonlarda ota-onalar: odatda, o'z bolalarini oilada o'zlari tarbiyalaganlar. Lekin ota-onalar har xil bo'ladi: bolaga ta'lim, tarbiya berish bir xilining qo'llidan kelsa, bir xilining qo'llidan kelmaydi bola tarbiyasi uchun ba'zilarining vaqi bo'lsa, ba'zilarining vaqi bo'lmaydi. Shu sababdan, ko'p oilalar o'z bolalarini boliml, og'ir tabiatli maxsus kishilarga berib o'qitganlar. Yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi bunday kishilarni pedagog, professor deb, bolalarni to'plab o'qitadigan joyi — maktab, gimnaziya, akademiya, universitet deb ataganlar. Uning fikricha, eng kadimgi maktablar Sharq mamlakatlarida, jumladan, Xoldey,

Vavil'on, Misrda, Isroil shaharlarida ochilgan. Maktab ochishni misrliklardan greklar, greklardan rimliklar o'rganib olganlar.

Bizning ota-bobolarimiz — turkiy xalqlar qadim zamonlardan beri O'rta Osiyoda Turon zaminida yashab keladilar. Boysun tog'idagi Teshiktosh goridan, Farg'ona vodiysidagi Selungur g'oridan topilgan yodgorliklar (odamning suyak qoldirlari) bu yerlarda eng kadimgi odamlar bundan yuz ming yil va bir million yillar avval yashaganidan dalolat beradi. O'rta Osiyoda eramizdan avvalgi ming yillikda ham katta-katta qo'rg'onlar, shaharlar, davlatlar mavjud bo'lgan. Ularda madaniyat elementlari, din, yozuv, maktablar vujudga kelgan. Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Zarautsoy gorida saqlangan suratlar ham bundan dalolat beradi.

Turkiy xalqlar qadim zamonlardayok o'z yozuviga ega bo'lgan. Ota-bobolarimiz o'timishda uyg'ur, runik yozuvlaridan, shuningdek, Sug'd, Xorazm yozuvlaridan foydalanishgan. Arablar istilosidan so'ng arab alifbosi qabul qilingan. Arab yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga ming yildan ko'proq muddatda amal qilindi. O'zbekistonda 1929 yilda lotin, 1939 yilda rus alifbosiga o'tildi. 1993 yilda O'zbekiston Respublikasi lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga o'tish haqida qaror chiqardi.

Qadimgi Turon zaminida yashagan xalqlar sug'orma dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Odamlar tabiat hodisalarini kuzatib boringanlar, olam sirlari haqida payg'ambarlarga g'oyib ilmi ham kelib turgan. Ayrim kishilar karomat ko'rsatib, bo'lajak voqealarni oldindan aytib bilganlar.

Dunyoviy ilmlardan astronomiya, geometriya, arifmetika, tibbiyot tarqiqiy etgan.

Ilm olish — nina bilan quduq qazish, deb bejiz aytilmagan. Mutafakkir olimlar o'qitishning yengilroq usulini topish ustida bosh qotirganlar. Sharq mamlakatlarida qadimda yaratilgan ayrim qo'lyozma asarlarda tarbiyaning maqsadi, o'qituvchi qanday bo'lishi haqida, shuningdek, ilm oluvchining ma'naviy qiyofasi, xislatlari to'g'risida fikr-mulohaza-zalar bayon etilgan, maslahatlar berilgan.

O'zbek xalq pedagogikasining shaxs va jamiyat uchun foydali, ilg'or, axloqiy g'oyalari og'izdan-og'izga, avlodlardan-avlodga o'tib, fol'klor asarlari, milliy, oilaviy urf-odatlar, an'analarda bizgacha yetib kelgan.

O'zbek xalq pedagogikasi asarlarida murabbiy, ustoz eng hurmatli, mo'tabar inson sifatida ulug'lanadi. «O'rang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l» «Ustoz — otadek ulug'». «O'ta-ona bolani dunyoga keltiradi, ustoz esa uni yuksalikka, ma'naviy kamolotga yetkazadi», kabi xikmatlarda murabbiy, ustozlarning mehnati, qadr-qimmat ulug'langan.

«Aql ko'pga yetkazar, hunar — ko'kka», «Ustozsiz shogird — jonsez kesak», «Ustoz ko'magan shogird — har maqomga yo'rg'alar» kabi maqollarning ahamiyati katta bo'lgan.

O'ta-onalar o'z bolalarini aqlli, odobli, go'zal fazilatli inson bo'lib kamol topishini orzu qilishgan. Bunday orzu-istaqlar Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» asarida quyidagicha tasvirlanadi:

Aql yo'l ko'rsatib, dini etar shod,

Har ikki olamda aqlli obod.

Hamisha aqlingni rahnamo etgil,

Noloyiq ishlardan olisroq ketgil.

Hikoyat. Naql qilishlaricha, podsho o'z a'yonlari bilan ovdan qaytayotganida yo'lda kelaётgan bir bolani ko'rib qoladi. Otidan tushib, bolaga salom beradi. Vazir bundan taajjublanib, «Shohim, nega bunday qildingiz?» — deganda u: «Bu ustozimning nabirasi. Ustozga hurmatim tufayli unga salom berdim» — degan ekan. Bu naqlda xalqimizning ustozga, muallimga bo'lgan hurmat-extromi ifodalangan. «Har kimki hayotdan olmasa ta'lim, unga o'rgatolmas hech bir muallim»,

«Hayot ustoz, xalq—muallim» kabi xikmatlar juda o'rinni aytilgan. Zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi — «Avesto» da

Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining diniy, axloqiy, tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Bu ta'limotning asoschisi Spitama Zaradusht eramizdan oldingi oltinchi asrda yashagan. Ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, zardushtiylik dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadigan xalqlar dini bo'lib, Xorazm va So'g'diyonada shakllangan, keyinchalik Eron podshohligining rasmiy diniga aylangan. O'sha davrlarda otashparasitlik Eronu Turon zaminida keng yoyilgan. Yettinchi asrga kelib O'rta Osiyo arablar tomonidan fatx etiladi va zardushtiylikning ta'siri ancha kamayadi.

«Avesto»ning pedagogik qimmat shundaki, u ko'p asrlar davomida yoshlarga ilmu ma'rifatni o'rgatish, axloq-odob fazilatlarini tarbiyalashda dasturlamal vazifasini bajargan. «Har bir kishini shunday tarbiyalash zarurki, — deyiladi «Avesto»da, — u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngira

yozishni o'rganib, eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin» «Avesto» dan ezigulik va yaxshilik ma'budasiga madadkor kuchlarni ulug'lovchi duolarni ayitishgan.

«Men zardushtiylik diniga sodiq bo'lishga va'da beraman, men yaxshi fikrlar, yaxshi so'zlar, yaxshi ishlarga ishonaman...» Bunday mashg'ulotlar bir kunda besh marta takrorlangan. Undan maqsad bolalar qalbida dunyodagi barcha yaxshilik va eziguliklarning buniyodkori ilohiy Axura Mazdaga e'tiqodni mustaxkamlash; insonlar boshiga yovuzlik va yomonliklar olib keladigan Anxura Mannudan esa nafratlanish hissinii tarbiyalashdan iborat bo'lgan.

Bu davrda ulamo-kohinlar bolalarga saboq berganlar. Ular jamiyat ma'naviy hayotida muhim mavqega ega edilar. Maktabda kichik yoshdagi bolalarni o'qitish jarayonida ko'rgazmati qurollardan, hikoya qilish va suhbat usullaridan keng foydalanilardi. Darsda o'quvchilardan o'tigan mavzuni shovqinsiz takrorlash talab qilinardi. Bolalarda yoshlikdan mehnatsevarlik va kasb-hunar ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor berilgan. Ular yosh paytidanoq ko'chat o'tkazish, uy-ro'zg'or buyumlari yasash, yerga ishlov berish, mol boqishga o'rgatilgan. Xullas, zardushtiylik ta'limoti O'rta Osiyo xalqlari tarixida islomgacha davrda karyb bir

yarim — ikki ming yil mobaynida umuminsoniy va milliy-axloqiy qadriyatlar qaror topishida, shuningdek, tarbiyashunoslik, o'qituvchi odobining nazariyasi va amaliyoti shakllanishida muhim tarixiy manbalardan biri bo'lgan.

9.2 Sharq va G'arb allomalarining kasbiy-pedagogik axloq haqidagi qarashlari

Eramizdan oldingi oltinchi asrdan milodiy beshinchi asrgacha o'tgan davrda Yunonistondagi quldorlik davlatlari va Rim imperiyasida bir qadar demokratik tartiblar, respublika boshqaruvi o'rnatildi. Bu yerda o'ziga xos ta'lim-tarbiya tizimlari va pedagogik ta'limotlar yaratildi.

Yunonistonlik olimlar Demokrit, Sugrot, Aftotun, Arastu, shuningdek mashhur Rim pedagogi Kvintilianlar o'z asarlarida ta'lim-tarbiya, o'qituvchi axloqiga doir pedagogik nazariyalar yaratdilar.

Masalan, Demokrit tarbiyaning tabiatga mosligi g'oyasini o'rta ko'rgan. O'qitish jarayonida bolalarning qiziquvchanligini hisobga olish

zarurligini uqitgan. Ta'limning kishi tabiatini o'zgartiruvchi qudratli kuch ekanligini, o'qitishda majburlash usulidan ko'ra, ishonitirish usulidan foydalanish afzalligini, salbiy namunalarning zarurligini ta'kidlagan edi. U tarbiyada mehnatning roli muhimligini ko'rsatib pedagoglar, ota-onalar bolada yaxshi xulqi hosil qilish uchun ularga foydali xatti-harakatlarni ko'proq mashq qildirishlari lozim, degan edi.

Aftotun bola tarbiyasiga itoat qilishi zarurligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surardi. U bolani muttasil nazorat qilib borish; uning yaxshi xulqi, itoatkorchiligini rag'batlantirish, itoatsizlik qilsa qo'rqitish va urib bo'lsa ham to'g'ri yo'lga solish lozimligini ta'kidlaydi. «Agar pedagog yoki ota-onal, — degan edi u — bolaga: mana bu — adolati, bu esa — adolatsiz, bu ishni qilish yaxshi, bu esa — uyat, bu narsa — muqaddas, bu esa — nopoklik; bu ishni qilish kerak, buni qilmaslik lozim, deb aytmasa va tushuntirib bermasa bolani tarbiyalay olmaydi».

Arastuning «Iskandarga nashati» (qarang: «O'zbek pedagogikasi antologiyasi». Toshkent, «O'qituvchi», 1995, 39—46-betlar)da bayon etilgan pedagogik g'oyalar yoshlarni axloqiy tarbiyalash nuqtai nazaridan hamon o'z qimmatini yo'qotmagan. Shuningdek, Arastuning «Afina siyosati» asarida tasvirlangan (qarang: Pisarinko V. I., Pisarinko I. Y. Pedagogicheskaya etika. Minsk, 1987, 10—11-betlar) Afinaliklarning o'qituvchilarni saylash taomili ham odobi xususida diqqatga sazovordir. Negaki, saylab qo'yish taomili o'qituvchi-tarbiyachilar zimmasiga katta majburiyatlar yuklagan. Bu taomil Afina davlatida pedagoglik ishining ommaviyligini, unga alohida e'tibor berilganini ko'rsatadi. O'qituvchi unga davlatning kelajagi yoshlarni tarbiyalashdek ulug' vazifa ishonib topshirilganidan faxrlangan. Davlat va tarbiyalanuvchilar bilan o'qituvchi o'rtasidagi muomala munosabatlari tartibga soluvchi qoidalariga amal qilish talab etilgan.

Rim pedagoglaridan eng mashhuri — Mark, Fabiy, Kvintilian «Notiqni tarbiyalash to'g'risida» nomli asarida pedagogik muammolarni, o'qituvchi odobiga doir masalalarni bayon etadi.

Kvintilian o'z zamonidagi Grek va Rim pedagogik g'oyalarini yaxshi o'rganib, notiqlar maktabida ko'p yillar o'qituvchilik qilib o'tirgan tajribasini umumlashtiradi. Uning fikricha, bola maktabda ta'lim-tarbiya olishi lozim. O'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyohtorlik bilan muomala qilishi kerak. O'qituvchining o'zi o'qimishi bo'lishi, bolalarni sevisishi, o'zini yaxshi tuta bilishi, bolalarni

bo'lar-bo'lmasga maqdayvermasligi yoki jazolayvermasligi dardkor. Yuvori ifodadagi o'qituvchi avvalo, boshlang'ich sinfda muallimlik qilishi maqsadga muvofiq. Muallim va tarbiyachilarning talaffuzi yaxshi bo'lishi kerak.

O'qituvchi odobining mohiyati haqida gap borar ekan, qadimgi Yunoniston va Rim pedagoglarining yuvorida keltirilgan g'oyalarini tilga olish o'rini deb hisoblaymiz. Chunki, O'rta Osiyoda yashagan mutafakkirlar Xindiston, Xitoy kabi sharq mamlakatlari madaniyati, ilm-fani, tarbiyashunosligi bilan bir qatorda qadimgi Yunoniston, Rim madaniyati, falsafasi, pedagogikasiga ham e'tibor berganlar. Jahon allomalarning ilmiy aloqalari, ma'rifa-parvarlik, pedagogik axloqiy talimotlari O'rta Osiyoda tarbiyashunoslik sohasidagi fikrlar taraqqiyotining asosiy manbai hisoblanadi.

Islom ta'limoti o'timishda yaratilgan barcha ilohiy ilmlarni, insoniy tajriba va fazilatlarini umuminsoniy qadriyat sifatida o'zida jamladi. Kur'oni Karim va Xadislarda bayon etilgan axloqiy g'oyalar insoniyat madaniyati xazinasiga qo'shilgan ulkan hissa ekanligi jahon miqyosida allagachon tan olingan. Qur'on — falsafiy, xuquqiy bilimlar majmuidigina bo'lib qolmay, kishilarni halollik, poklik, axloq-odob, insof-diyonatga da'vat etuvchi muqaddas kitob sifatida qadrlidir. Qur'on suralarida ezgulikka, halollikka, poklikka da'vat etiladi.

Bunga amal qilganlarga jannat huzur-halovati va'da qilinadi. Yovuzlik qilganlar uchun do'zax azobi muqarrarligi eslatiladi.

Xadislarda odamlar amal qilishi lozim bo'lgan shar'iy talablar bayon etilgan. Ular insonning ma'naviy va axloqiy kamolotiga asos bo'ladi. Xadislarda axloqiy yo'l-yo'riqlar talqin etiladi, inson sha'niga dog' tushiradigan illatlar qoralanadi. Ilm egallash, halollik, to'g'ri-so'zlik, adolatlilik, mehr-oqibat, ota-onani hurmat qilish, yetimlarga, kambag'allarga g'amxo'rlik, saxiylik, poklik, omonatga xiyonat qilmaslik, diyonat kabi axloqiy sifatlarni ulug'lanadi. Masalan, Xadisi Sharifda ilm to'g'risida bunday deyilgan: «Ilm egallang. Ilm sahrada do'st, hayot yo'llarida — tayanch, yolg'izlik damlarida — yo'lidosh, baxtiyor daqiqalarda — rahbar, qayg'uli damlar-da — madadkor, odamlar orasida — zebu ziynat, dushmanlarga qarshi

kurashda quroldir». Mo'minlarning afzali xulq-atvori yaxshilardir. Sadaganing afzali mo'min kishi ilm o'rganib so'ng boshga mo'min birodarlariga o'rgatishidir. Farzandaringizni izzat-ikrom qilish bilan

birga axloq-odobini ham yaxshilanglar». Shuningdek, Xadislarda yomon xulq, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg'onchilik, munofiqlik, poraxo'rlik, buzug'lik kabi illatlar qoralanadi.

Islom ta'limotida yaxshilik qilish insonning muqaddas burchi ekanligi ta'kidlanadi. «Alloh senga yaxshilik qilganidek, sen ham o'zgalarga yaxshilik qil» (Qasos surasi, 77-oyat). «Agar chiroyli amallarni qilsangizlar o'zingizga yaxshilik qilgan bo'lasizlar. Agar yomon, gunoh amallarni qilsangiz ham o'zingiz uchundir (Isro surasi 7-oyat). «Kim biron chiroyli amal qilsa, unga o'n barobar qilib qaytarilur» (An'om surasi, 160-oyat). Qur'oni Karimda ota-onaga ko'proq yaxshilik qilish vojibligi ko'rsatiladi. Shu bilan birga boshqa kishilarga, qarindoshlarga, qo'shnilarga, musofirlarga, xizmatkorlarga, do'st birodarlarga yaxshilik qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Islom ta'limotida sabr-qanoatli bo'lish yuksak axloqiy fazilat sifatida ulug'lanadi. Sabr hamma fazilatlarining onasi, har bir fazilarning asosidir, insonga xos olijanoq axloqiy sifatlardan biri kechirimi bo'lishidir. Bu sifat bag'ri keng, birovlarining adovati va aziyatiga toqat qila oladigan kishilarda bo'ladi.

Imom Buxoriyning «Al-jomi' as-sahiz» asarining «Ilm kitobi» bo'limida (Xadis. Birinchi kitob. Toshkent, 1991, 28—51-betlar) ilm egallash fazilati va xosiyatlari, ilm o'rganish va o'rgatish odobi to'g'risida fikr yuritiladi. Bu yerda ilm egallash alayxislatomining ilm o'rgatish va o'rganishga doir pand-nasihatlari o'z ifodasini topgan. Islom dini qabul qilingan mamlakatlardagi maktab va madrasalarda saboq bergan mulalar, mudarrislar va tolibi ilmlar bir necha asrlar davomida bu pand-nasihatlarga amal qilganlar. Shu mezon asosida ilm o'rgatuvchi va o'rganuvchilarga quyidagi didaktik talablar ko'yiladi:

— ilm beruvchining ovozi tinglovchilarning hammasiga eshittiriladi, me'yorida bo'lishi;

— ilm mazmunini «aytgan edilar, xabar beradilar, guvohlik beradilar» kabi samimiy, yokiimlil so'zlar bilan ifodalash;

— birov ta'limiy yoki tarbiyaviy masalani o'rta tashlab, muho-kama, munozara yo'li bilan o'rgatish;

— ilm o'rganish va o'rgatish uchun ma'lum kunlarni qat'iy belgilab ko'yish;

— ilmini fahmlab, teran tushunib, anglab o'rganish, esda mustahkam saqlash;

— teran tushunilgan, yaxshi anglab olingan ilmlarni yod olish;
— ilm o'rgatish jarayonida bolaga, lozim hollarda, tanbeh berish mumkinligi;

— kishi ilmi o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatishi, ilmiga o'zi amal qilishi zarurligi;

— ilmining susaymog'i, ilmga e'tiborsizlik jamiyatni muqarrar inqirozga yetaqilishini tushunishi;

— ilmi oson, yengil qilib, odatlarni bezdirmay o'rgatish;

— ilmi so'rab bilib olish, ilm o'rganishda uyalmalik, o'zi uyalga, boshqa birov orgali so'rab bilib olish lozimligi;

— ilmga doir savol bergan odamga so'raganidan ko'ra ko'proq javob qaytarish;

— bilim tinglovchiga tushunarli bo'lsin uchun har bir gapni bir necha marta (uch bor) qaytarishning afzalligi;

— ilmi ishitiyoq bilan o'rganishning afzalligi;

— ayollarga ham ilm o'rgatish lozimligi;

— eshitganni yaxshiroq bilib olish, mukammal tushunish uchun qayta so'rash jozilligi;

— ilmi bilgan kishi bilmaganga, eshitganlar eshitmagangalarga yetkazish lozimligi;

— ilm berayotgan ulamoning so'zlariga jim turib, diqqat bilan quloq solishning ma'qulligi;

— odamlarga juda oz bilishlarini anglatish;

— ilmi tushunishni, ilm olishni istamagan kishi o'miga ilmi tushunadigan qavimga o'rgatish jozilligi.

O'ra Osiyo mamlakatlarida Islom dini qabul qilingandan so'ng ming yildan ortiq davr mobaynida shu ta'limot ta'sirida tarbiyat-shunoslik ilmi shakllandi va rivojlandi. Ma'lumki, Islom dinida har bir musulmondan avvalo, iymoni bo'lish talab etiladi. Iymon deganda Allohning birligiga, Muhammad Paygamberimiz Allohning elchisi ekanligiga til va dil bilan ishonishni nazarda tutiladi. Bu qoida musulmon maktablarining muallimlariga qo'yiladigan axloqiy talablardan eng birinchisi va muhimidir. Shu bilan birga O'ra Osiyoda yashagan allomalar yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, o'qituvchilik odobiga doir ta'limotlarni ham yaratganlar.

Abu Nasr al-Forobiy (873—930) o'z asarlarida har bir kishi munosib fuqaro bo'lishi uchun muayyan darajada ta'lim va tarbiya olishi lozim

deb hisoblaydi. Ustoz shogirdiga zug'um qilishga, shuningdek, ko'p hollarda yon berishga intilmasligi dardkor. Chunki ortiqcha zug'um shogirda ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi. Agarda shogird ustozning ko'ngli yumshoqligini payqab qolsa, bu holda ustozni mensimashligi, oxir-oqibatda u beradigan bilimdan soviq ketishga olib keladi.

Forobiyning ta'kidlashicha, har bir kishining fe'l-atvoriga qarab tarbiya ikki xil usul ixtiyoriy va majburiy usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Tarbiyalanuvchilar fan va hunar o'rganishga moyillik bildirmasalar, ularga nisbatan rag'batlantirish usuli qo'llaniladi; aksincha, mabodo ular o'zboshimcha va itoatsiz bo'lsalar, majburiy usulni qo'llash mumkin.

Musulmon maktabida ishlaydigan kishilardan ziyarak, aqli va axloqli odam bo'lishi talab etilgan. Xalq aqli kishilarni dono deb ataydi. Forobiyning ko'rsatishicha, aqli kishi o'kir zehn-idrokli, fazilatli bo'lishi, o'zining qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarga yo'naltirishi, yomon ishlardan o'zini saqlashi lozim. Forobiy «Aql to'g'risida» nomli risolasida axloqli odam o'zida o'n ikki xislatni birlashtirgan bo'lishi lozim deb hisoblaydi. Uning fikricha, odamda barcha a'zolar mukammal tarqiqiy etgan bo'lishi dardkor. Barcha masalalar mohiyatini to'g'ri tushuna oladigan, xotirasi baquvvat, zehni o'tkir, so'zlari aniq, fikrni ravon bayon etadigan, haqiqatparvar, vatandparvar, g'urur va vijdonini qudratlaydigan, mol-dunyoga mukkasidan ketmagan, saxovatpesha kishilar axloqli odam hisoblanadi. Forobiy ta'lim beruvchilar o'z bilimlari va axloqiy darajalari jihatidan o'zaro farq qiladilar, deydi.

Abu Ali ibn Sino (980—1037)ning fikricha, tarbiya yagona jarayon. Ibu jarayonda yoshlarga aqliy, jismoniy, axloqiy tarbiya berish va xunar o'rgatish nazarda tutiladi. Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarida bolani olti yoshdan boshlab muallimga topshirish xususida fikr yuritadi. Ulug' xakim ta'lim jarayonida o'qitishda oddiydan murakkabga qarab borish qoidasiga amal qilish lozimligini uqtiradi. Ayniksa, bolaga kuchi yetadigan mashqlarni bajartirish amali bu jarayonda katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Ibn Sino bolalarni yakka-yakka o'qitishdan ko'ra jamoada ta'lim berish afzal ekanligini e'tirof etadi. U jamoada o'qitilganda bolada ilimga intiluvchanlik kuchayishini dalillar orgali isbotlaydi. Uning fikricha jamoada boshqalardan orgada qolishga bolaning g'ururi yo'l qo'ymaydi;

biga o'qiganda bolalar bir-birlari bilan gaplashib nutqi o'sadi, xotirasi mustahkamlanadi;

ta'lim jarayonida o'quvchilar bir-birlari bilan inoqlashadi, bir-birlarini hurmat qilishga odatlanadi, munozara qilishni o'rganadi, o'zaro musobaqalashishadi, o'zlarining xulqi va burchlari haqida fikr almashadilar. Bu esa bolalarning xulqini yaxshilashga, axloq me'yorlarini egallab olishlariga ko'maklashadi.

Kaykovus (XI asr) «Kobusnoma»da bolalarga xunar o'rgatmoq to'g'risida to'xtalib, farzandiga qilgan nasihatida ota-onaning va muallimlarning bolaga muomala madaniyati masalasiga xam to'xtaladi. Chunonchi, u ota-ona o'z bolasiqa ilm va axloqiy fazilatlarini singdirish uchun bolaga muallim orqali ta'sir o'tkazish mumkinligini uktirib shunday deydi: har ilmi o'rgatuvchi muallimlar ta'lim uchun (bolani) ursalar, sen (ota) shafqat ko'rgazgil, mayli ursunlar, nedinkim yosh o'g'lon ilm va adabni tayovq bilan o'rganur va o'z ixtiyori bila o'rganmas.

Ammo farzand becadab bo'lsa va sening ul sababdin kahting kelsa, o'z qo'ling bila urmagil, muallimlarning tayog'i bila qo'rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendan o'g'lingning ko'nglida gina qolmasun.¹

Burxoniddin Zamrudiy XII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan. Marg'ilonidagi madrasada ta'lim olgan va shu yerda musulmon qonunshunosligidan talabalarga dars bergan. O'zining ko'p yillik tajribasini umumlashtirib, «O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma» nomli asar yaratgan. Bu asar Sharq mamlakatlarida ko'p marta nasir etilib, keng tarqalgan.

Unda pedagoglik kasbi, o'qituvchilik odobiga doir bir qancha axloqiy talablar o'z ifadasini topgan. Quyidagilar shular jumlasiga kiradi:

— o'rganish uchun fanlar orasida eng muhimlarini tanlash. Bola nimaga qiziqishi, nimaga o'rganmoki ekanligi va kelgusida hayotda qaysisiga ehtiyoj tug'ilishini hisobga olish;

— eng avvalo bilimli, olijanob muallim tanlash;

— har bir kishi muruvvatpeshaik fazilatlarini egallashga intilishi;

— o'quvchi muallimdan, o'rganayotgan fanidan, tanlagan kasbidan to'la qanoat hosil qilishi;

— o'quvchining sherigi (o'rtog'i, do'sti) sof dil, pok fe'l-atvorli bo'lishi, yalkov, ishyoqmas, ezma bo'lmashligi, jinoyatchi va qo'lli egritlardan uzoqroq yurish;

— o'quvchining muallimga, ustoziga hurmati undan oldin yurmaslik, uning o'rniga borib o'tirmaslik, mashg'ulotlar paytida unga yakindroq joyda o'tirishda bilinadi.

Sa'diy Sheroziyning asarlari O'rta Osiyoda, jumladan, o'zbeklar orasida ham keng tarqalgan.

«Guliston», «Bo'ston» kabi pedagogik-axloqiy kitoblari o'zbek maktablarida darslik sifatida o'qitilgan.

«Guliston» asarining «Tarbiyaning ta'siri bayonida» deb nomlangan yettinchi bobida tarbiyashunoslik ilmi, o'qituvchi odobining muhim qonun-qoidalarini qiziqarli xikoyalar shaklida bayon etiladi. Quyidagilar shular jumlasidandir:

— ta'lim-tarbiyani egallash uchun bolada avvalo qobiliyat bo'lishi lozim;

Qobiliyat bo'lsa aslida,

Tarbiyat unga qiliadi asar.

Qancha urinma bo'lmas sayqali,

Temir aslida bo'lmasa javhar?

— kishi yoshligidan ilm-hunar o'rganishi kerak. Hunar qaynar bo'loq, tuganmas davlatdir.

— Istar esang otangdan meros, qo'ygil otang ilmiga ixlos.

— muallim bolalarni odobli qilib tarbiyalashi, ularga andisha bilan gapirishi, maqbul harakat qilishni o'rgatishi lozim.

Muallimning so'ziga amal qilmagan shahzodalarga jazo ko'proq berilishi joiz, chunki ularning gapirgan gaplari, qilgan ishlari tillarda do'ston bo'ladi.

— muallim tili achchiq, badjabl, fosiq, xaddan tashqari qattiq qo'l bo'lmashligi, shuningdek, o'ta soddada, muloyim tabiati kishi ham bo'lmashligi joiz:

Agarda muallim bo'lsa beozor,

Bolalar sinfini qilishar bozor.

Kumush ul taxtaga zardin bitib yod

«Ota mehridin afzal jabri ustod»

— mabodo tarbiyalanuvchi muallimning to'g'ri nasihatiga quloq solishni istamasa ham tarbiyachi

bilganini unga aytishi joiz:

Bahorda bargi mo'l daraxtlar nochor

Yalangon qolar qish izg'irinishda.

Past, nodon mastlikda o'yamas aslo,
Ne kechar ahvoli yo'qlik kunida?

— tarbiyaning natijasi, samarasi bolaning tabiatiga bog'liq.

Tilla-kumush bari chiqsa ham toshdan, Barcha toshda oltin bo'lmog'i gumon

Alisher Navoiy (1441—1501) o'zbek adabiyotining asoschisidir. Shu bilan birga u tarbiyashunos xamdird. A.Navoiy «Mabub-ul-qulub» asarida kasb axloqi, turli guruh kishilarning odobi masalasini makolalar shaklida ifoda etadi. U ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, axloq-odob talablarini ko'rsatadi. Ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi tamoyillarni asos qilib oladi.

O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, maktabdorlar to'g'risida gapirar ekan, muallim o'z shogirdlarini sevishi zarur, deydi. O'ziga ham, o'quvchiga ham talabchan bo'lishi lozimligi uqitiradi. O'qituvchini jamiyatta obro'li va hurmatga loyik insondir, deb hisoblaydi. Shogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e'zozlashlari zarurligini uqitiradi.

Alisher Navoiy o'z zamonasidagi maktabdorlar haqida gapirib, ular bolalarga jaf o'qitish, azob berish, kaltaqlashga o'rganib qolishganini tanqid qiladi. Ular sababsiz achchiqlanishga odatlanishgan. Muallimlardagi bu illatlar tarbiya jarayonining qiyinchiliklaridan, bolalarning tabiati, fe'l-atvori, fahm-farosati turli-tumanligi ta'sirida vujudga keladi, deb hisoblaydi.

Navoiyning fikricha, gohida bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga o'zlik qiladi, muallim esa bir guruh bolalarga ilmu adab o'rgatadi. Bu jarayonda muallim ko'p aziyat chekadi, mashaqqatlarni o'z boshidan kechiradi. Shu bois shogirdlar ustoz oldida umrbod qardor ekanliklarini his etishlari dardkor. Shogird podshohlik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi:

Hak yo'lida kim sanga bir xarf o'qimish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning hakin yuz ganj ila.

Navoiyning «Mabub-ul-qulub» asarida o'qituvchi odobiga doir quyidagi mulohazalar bayon etilgan:

— mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim;

— muallim bolalarga biladigan narsalarini o'rgatishi, bilimagan

ilmlarini o'rgatishga urinmasligi kerak;

— gerdayish, ma'manlik, ta'magirlik, nodonlik kabi illatlar o'qituvchi axloqiga yot sifatlardir.

— muallim yaramas ishlardan, nopoklikdan yirok bo'lishi kerak;

— xalq nazarida olim hisoblanadigan mudarrislar yomon ishlardan, haqu fasoddan o'zlarini tiya bilishlari zarur.

Abdulkosim Firdavsiy nomi jahonga mashhur. Uning Yevropa kitobxonlari kalbini maftun etganiga ham ikki asr bo'ldi. Sharkda esa u ming yildan beri kishilar zavk-shavqini qo'zg'ab, fikru-o'yi, orzu-umidlarga madad berib kelmoqda. Shoiriga boqiy umr, nomiga bezovtlik baxsh etgan asar uning birgina dostonidir. Bu asar "Shohnoma" "Shohlar kitobi" deb ataladi.

Rivoyatlarga kura, u o'z asari ustida 30-35 yil mehnat qilgan. Bu azim doston 60 000 baytdan iboratdir. Bu asar yozilgan vaqtdan boshlab kitobxon tomonidan "Shohlar haqidagi kitob" sifatida emas, balki xalqning orzu-umidlari, uning ideali haqidagi "Shoh kitob" sifatida qabul qildi.

"Shohnoma"ni urganuvchi olimlar uni uch katta qismga bo'lib qaraydilar. Birinchi bo'limda kadimiy afsonalar qayta ishlanib badiiy ifoda etildi. Ikkinchi bo'limda xalq bahodirlari haqida rivoyatlar haqida so'z boradi. Uchinchi bo'limda esa tarixiy podshohlar hayoti tavsif etiladi.

"Shohnomaning" yetakchi g'oyasi-Vatanni ulug'lash, xalq qudratini ko'z-ko'z qilish, xalq bahodirlarini vaf etishdir.

Shuning uchun ham bu ajoyib asar o'sha davrdagi jahongir sulton Maxmud G'aznaviy tomonidan rad etilib, asar muallifi quvg'inga uchratildi.

"Shohnoma" istiqbolga imitilgan asar. Uni o'qigan kishida odamzod yomonlik, qorong'ulik, zulmat panjasida uzoq qolmasligiga, inson aql-zakovati g'alaba qilishga ishonch hissi uyg'onadi.

Mualliflarning ma'lumotlarini qaraganda "Shohnoma" axloqiy-ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlardan bittasidir. Uni o'qigan inson o'zini boshqa bir dunyoda tasavvur qiladi. "Shohnoma" o'z o'quvchilarini haksevar, odob-axloq yuzasidan barkamol inson, go'zal xulq, nafis tabiat egasi qilib voyaga yetkazishga xuquqli, desak muholag'a bulmaydi.

Bugungi mustaqil yurtimiz yoshlari, kelajaklari uchun ta'lim

maskanlarida shunday maqsadga muvofiq asarlardan foydalanish dastkor. Ularni ham Firdavsiy bog'idan bahra olishga undash lozimdir.

Agar shunday insoniy hislari, g'oyalari fikr va tuyg'ulari uchun uning asari asrlar buyi sevilib o'qilib keilmogda, tildan-tilga tarjima qilimogda.

"Shohnoma"ni o'quvchi inson kecha orqasidan kunduz kelishi yorug'likning qorong'ulik ustidan tantana qilishiga ishonadi. Necha ming yillardan buyon o'zining mavqei, lutfi-tarafatini yuqotmagan "Shohnoma" bugungi kunning asosiy talablaridan biri bo'lganligi aniq. Vatanning ertasi-yoshlar ham Firdavsiy ortida qolmasliklari unga intilishlari zarur. Shunda hayotimiz juda go'zal serfayz o'tadi.

I.G.Pestalotitsi Shveysariyada Syurixda, vrach oilasida tug'ildi. Pestalotitsining otasi u kichikligida o'lgan edi, shuning uchun ham uni onasi hamda oddiy dehqon ayol ularning sobiq xizmatchisi tarbiyalab ustirdi.

Pestalotitsi o'rta maktabni tamomladi. Kuproq gumanitar fanlar o'qitiladigan oliy o'quv yurtiga - kollegiumga, uning filologiya va falsafa bo'limlariga kirib o'qidi.

U 1974 yilda "Naygofda" "Kambag'allar muassasi ochib yetim va bokuvcshiz bolalardan 50 ga yaqin kishini muassasaga tupladi. Pestalotitsining fikricha, bolalarning o'zlari ishlab topgan pullari shu yetimxonaning xarajatini qoplash kerak edi. Yetimxonada tarbiyalanayotgan bolalar dalada ishlar, shuningdek, to'quv va yigiruv dastgohlarida ip yigirib, mato to'qir edilar. Pestalotitsining o'zi bolalarga o'qish yozish va hisobni o'rgatar, ularni tarbiyalash bilan shug'ullanar edi. Hunarmand ustalar esa bolalarga ip yigirish va to'qishni o'rgatardilar. Shu tariqa Pestalotitsi o'z muassasasida bolalarni o'qitishni ularni umumiy mehnatga o'rgatish bilan qo'shib olib borishga urindi.

Pestalotitsining fikricha, tarbiyaning maqsadi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini ustirish, ustirganda ham har tomonlana va bir-biriga uyg'un ravishda ustirishdir.

Tarbiyaning bolaga kursatayotgan ta'siri, uning tabiatiga uyg'un bo'lish lozim.

Pestalotitsi tarbiyaning mohiyati to'g'risidagi tasavvuriga asoslanib, tarbiyaning yangi metodlarini - insonning kuchini, inson tabiati bilan muvofiqlashtirib, ustirishga yordam beradigan metodlarni yaratishga

intildi.

Bolani tarbiyalashni - deydi u uning tug'ilgan kunidanog boshlash lozim.

Bola tug'ilgan soat-unga ta'lim berishning birinchi soatidir". Shu sababli chinakam pedagogika onani to'g'ri tarbiyalash metodlari bilan qurollantirish kerak.

Pedagogika san'ati esa shu metodikani har bir ona jumladan oddiy deg'qon ayol ham egallab oladigan qilib, soddalashtirib berish lozim. Oltiada tabiatga muvofiq qilib boshlangan tarbiya maktabda ham davom ettirilishi lozim.

Barcha ijtimoiy kuchlar va imkoniyatlar eng oddiy narsalardan rivojlanma boshlaydi va sekin asta murakkabroq darajaga kutarila beradi. Tarbiya ham ana shu yo'ldan borishi lozim.

Har bir bolaga xos bo'lgan tug'ma kuch va qobiliyatlar kurtaklarini tabiiy tartibga muvofiq odam kamolotining adabiy va o'zgarmas qonunlariga muvofiq xolda muntazamlik bilan mashq qildirib, ustirish kerak. Pestalotitsi zerikari va bir xildagi mashqlar qildirish bilan bolalarda kuzatish narsa yoki hodisaning belgilarini aniqlay olish malakasini hosil qilishga intildi.

Bolalarga yozuv malakasini hosil qilmoq uchun Pestalotitsi yozuv usulini narsalarni ulchash va suratini chiasb bilan shuningdek, nutqni ustirish bilan boglab olib borishni taqlif qildi.

Abu Rayxon Muhammad ibn Axmad Al-Beruniy Xorazm poytaxtida hijriy 362 yilda, milodiy 973 yilda tug'ilgan. Uning tarbiyasi bolani Abu Nasr Iroqiy shug'ullanadi.

Beruniy boshlang'ich ta'limni qishloqdagi maktabda olgan, sungra yirik munajjim va matematik Abu Nasr ibn Iroq ta'lim-tarbiyasida ulg'aygan. U 17 yoshda yosh munajjim olim sifatida tanildi. Beruniy Xorazm, fors, arab, yunon, sanskrit va yaxudiy tillarini puxta o'rgangan. Ibrojlon hokimi Qobus ibn Vishmigiir saroyida ilmiy ijod qilish uchun qulay sharoitga ega bo'lib, yoshligida tuplagan materiallari asosida kitob yoza boshladi. 1000 yilda esa Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli kitobni yozib tugatadi 1004 chi yilning boshlarida Beruniy Ma'mun2 tomonidan Xorazmga chaqirib olinadi va saroyda shohning yaqin maslahatchisi sifatida faoliyat olib boradi. Beruniy arabcha she'rilar yozadi. Beruniy "O'timish yodgorliklari", "Xorazmning mashhur aodlari", "Geodeaziya", "Mineralogiya",

"Hindiston", "Farmokologiya", "Qonuni Ma'sudiy" va boshqa asarlarni yaratgan. 1010-1017 chi yillarda A.R. Beruniy Akalik va uzunlik ju'g'rofik nuqtalarni hisoblab chiqdi. 1016 yilda "Quyosh harakatini aniqlash yo'li" degan kitobni yozib tugatdi. "Ma'mun akademiyasi" Beruniy uchun fan chuqqlarini zabt etishga yordam berdi. 1029-1034 yillarda bo'lmish-Raxonga atab "Kitob at-tavhim", ya'ni "Falakkiyot san'ati" muqaddimmasi tushintirish kitobi asarini 1048 yil oxirida "Kitob as-Saydoni" singari asarlarini yaratdi. Al-Beruniy 150 dan ortiq noyob durdona kitoblar yozib qoldirdi. Shulardan bizgacha 30 dan ortiq kitobi yetib kelgan.

Beruniy eng sunggi nafasigacha dunyo sirlarini ochish bilan birga insoniyat yaratgan bilimlarni urganish, umumlashtirish va bayon etishga o'z umrini sarflagan, Beruniy umrining sunggi kunlarida bunday deb yozgan edi: "Birgina narsa uchun uzog'roq yashashim kerak edi, u ham bo'lsa qo'limdagi notamom asarlarni tamomlash va oqqa kuchitmay qolganlarni kuchitish edi".

Ammo, dahshatli o'lim, rahmsiz ajal buyuk olimning maqsadiga yetishishga imkon bermadi. U 2 dekabr 1048 yilda 75 yoshida Gazna shahrida vafot etdi.

Beruniyda xalqparvarlik, vatanparvarlik, izchil insoniylik, haqiqiy ilmiy qarash va xulosalash uzviy ravishda chambarchas bog'liq. Abu Rayxon Beruniyning ijtimoiylik, axloq va odobning asosiy masalalari buyicha qarashlari insoniylik tuyg'usi bilan yug'rilgan. U xalqlar o'rtasidagi dustlikni yoklab, xukmdorlarning o'zaro urushlariga qarshi chiqadi. Uning ijtimoiy qarashlari markazida inson, insoniy jamiyat turadi.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy o'rta asrda juda og'ir mashbaqatli hayot kechirishga qaramasdan o'zining ilm fan va ma'rifat sohasidagi ulkan xizmatlari bilan butun dunyoga o'z zamonasining buyuk faylasufi, munajjim matematigi, dori-shunosi, jug'rafiyachisi, tarixchisi, adabiyotchisi, mashhur pedagogi va boshqa fanlarni chuqur bilgan qomuschi olim sifatida tanildi.

Olimning ilmiy merosi hali o'rta asr sharoitida jaholardan kutilmagan g'arbiy Yevropaga ilm nurini targ'atdi. Jumladan, uning "At-Tavxim", "Mas'ud qonuni" nomli asarlari o'sha davrda va keyingi davrlarda ham maktablarda o'qilib kelgan ekan.

Beruniyning ilmiy faoliyati o'zidan keyingi avlodga ham juda katta

ta'sir kursatmoqda. Umar Xayyom, Ulug'bek Ali Kuschchi va boshqalar Beruniy o'zlarining ustozlari deb hisoblangan ekanlar. Birinchi Beruniy shunos nemis olimi E.Zaxau Beruniyga "Fan okeanidan yuklay-u-yagona qoyadir" deb yuksak baho bergan. Demak, Beruniyning ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti tarixida tugagan o'rni kattadir.

Uning ta'lim-tarbiya to'g'risida bayon qilingan fikrlari O'rta Osiyo xalqlarining pedagogika faniga oid fikrlar tarixini o'rganishda yuksak ahamiyatga egadir. Buyuk alloma Beruniy asarlarining mazkur va mohiyatidan, uning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi olam shumul fikrlari madaniyat va tarix xazinasiga bitmas tuganmas hissa bo'lib qo'shilgan. Shunday qilib, buyuk olim Beruniyning ilmiy merosi tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari jamiyat va inson haqidagi qimmatli, fikrlari mehnatkashlarning, o'quvchi yoshlarning ilmiy dunyoqarashini boyitish va kengaytirishda muhim ahamiyatga kasb etadi.

Beruniy jamiyatda, ijtimoiy turmushda adolat masalasiga katta hamiyat beradi. Jamiyatdagi juda kup muassasa, tashkilotlar Beruniy fikricha, zaruriy ehtiyojlar orgasida kelib chiqqan bo'lib, odamlarning o'zaro kelishuvlarining hosilasidir. Olim pulning paydo bulishini shahar, hunarmandchilikni vujudga kelishi, mehnat va mehnat mahsulotlarini taqsimlanish kabi masalalar inson aql zakovatiga, uning mash'ulot turiga, kasbkoriga asoslanganligini ta'kidlaydi. Beruniy uchun insondan ahaliqiroq va qimmatlirog'i yuk. U kishilarning kundalik turmushdagi yurish turishlari, o'zlarining tutishi, odamlarning so'zi, qalbi, kiyim, bajorgan mehnati hamma-hammasining go'zal bo'lishini talab etgan. Beruniyning maqsadi inson qiyofasi, uning yurish turishi, xatti-harakati, o'z ifodasi bilan yuzaga kelishini takror aytib, o'quvchiga go'zallik qonunini yetkazadi. Beruniy tabiiy go'zallik bilan birga inson axloqida fe'l-atvorida go'zallik borligini tushinadi hamda birinchidan ikkinchisining tub farqini kuradi. Ulug' olim va pedagog A.R. Beruniy o'zining buyuk xizmatlari bilan o'zbek xalqiningina emas, balki butun O'rta osiyo xalqlarining faxri, butun jahon ilg'or kishilarining iftixori sifatida yashab keldi va yashamoqda.

Yuqorida biz buyuk matafakkir, olim va pedagog Beruniy asarlarini sanab o'tdik. Beruniyning asarlarida ulug' olimlarga xos ikki xususiyat bor:

1. hur va betaraf muomalada bo'lish.
2. Musbat bilimga nomuvofik va aqlga uyg'un bo'lmagan bo'sh

va asossiz fikrlarga bog'lanib qolmaslik, mavzuni tanqidiy zehin bilan tadqiq etmoq, yetarli dalillar topilgandan keyin haqiqatni tasdiklamog' lozim. U insonning qadr qimmatini ulug'lagan, insonlarning ishonch va ma'murlari bir-biridan farq qilishiga diqqatni tortgan, ammo dunyo madaniyati takomil va shu rang-baranglik natijasida bunyod bo'lganini tasdiqlagan. Uning fikricha, insonlar uch sabab bilan baxtsizlikka duchor bo'ladi:

1. Inson yer yuzida yaratilganlar orasida eng mumtozidir. Ammo insonlar qizg'anchilik sababi bir-birlarining qo'llarida bo'lgan narsalarga ko'z tikadilar. Bu ham jijoimoy huzursizlikka sabab bo'ladi.

2. O'z ishonchini, mashabini va qablasini boshqalardan ustun quyimoq insonlar orasida nifoqlarga yo'l ochadi.

3. Xurofotlar va bush ishonchsizlik insonlikning takomilini orkaga surmoqda va tushumovchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Beruniy "Hindiston" asarida baholashish va tortishish kitobi emas, shuning uchun bu kitobda dushmanlar isbotini keltirmayman va haqiqatdan chetga chiqqanlarga qarshilik kursatmayman. Bu faqatgina bayon qilish kitobigina xolos.

.... Ilm esa jasad tabiyatini o'z holiga quyib, quyosh tukunidan yoki bulutdan tozalanganidek, nafs qorong'ulikdan tozalaydi.

.... Aql esa hech qachon vaqt va zamonga boylamay, narsalarni haqiqatini bila oladi, o'timish va kelajakdagi narsalar ham unga barobardir. Aqlning eng yaqin yordamchisi fikr va tabiat, eng uzoq yordamchisi beshita sezgidir. Sezgililar bilinganlardan bir bulagini fikrga yetkizsa, fikr uni sezgi yangilashlaridan tozalab, aqlga topshiradi. Aql uning umumiy (ilm)ga aylantiradi va buni nafoga bildiradi, nafs shu yo'l bilan olimlikga aylanadi.

.... Yana boshqa quvvatlarni quyib amalga mos keladigan quvvatini egallash bilan ham ilm hosil buladi.

.... Yaxshi xulqi, din talab etadigan xulqlilar bo'lib, shoxobchalari ko'p bo'lsa ham, ularning fikricha, asl va asosi ko'p ma'nolarni o'z ichiga olgan bir muncha ishlardan iboratdir.

Ular : 1) o'ldirmaslik; 2) yolg'gon gapirmaslik; 3) o'g'irlik qilmaslik; 4) Zino qilmaslik; 5) Mol yig'maslik; 6) Keyin doimo pok va toza bo'lish; 7) hamisha ruza tutib, o'zini qiyinlash; 8) Tangini poklab va ulug'lab, uning ibodatiga yopishish.

Beruniy insonni har tomonlama kamol topishishini eng avvalo

mehnat bilan, o'qib ma'lumot va hunar egasi bo'lishi bilan bog'liq deb bilgan. Uning fikricha, inson aqli va ma'rifatliligi bilan barkamol va rnasodir.

Ma'lumki, kishi kamolotida uch narsa (irsyat, muhit, tarbiya) mosiy va yetakchi rol o'ynaydi. A.R.Beruniy inson kamoloti haqida gapirganda, uni go'zallik, kurkamlik, oliy janoblik martlikda deb bildi. Hoz deb yozadi, olim, -ertalab nonushasini qilib, kechqurun shomligini yeb-ichib yurganni mard kishi demaymiz. Mard kishi shunday odamki, ertayu-kech dushmanga zarar, dustlarga foyda yetkazgan kishidir.

4. Beruniy pedagogika tarixi va ta'lim-tarbiya masalalariga ijodiy yondashdi.

Olimning ta'lim-tarbiya haqida, o'qish-o'qitish sohasidagi qarashlarining tiklash va har tomonlamaligi bilan qimmatlidir.

Beruniy o'zining ta'lim-tarbiya ishlari va qarashlarida aniq fanlarni, e'lumonchi, eng avvalo, matematika, tarbiyatshunoslik, fizika, kimyo va boshqalarni o'rganish, qolaversa, o'quvchi, albatta, falsafa, mantiq va til ilmini bilish zarurligini alohida uqtiradi. Buyuk mutafakkirning ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Aqliy va axloqiy tarbiya

2. Nafosat va mehnat tarbiyasi

3. Oltaviy tarbiya

4. Do'stlik va baynalminal tarbiya.

1. Beruniy fanlarni yaratgan bilimlarni o'rganishda ularga ongli va tanqidiy yondoshgan.

2. Olim qaysi fan bilim mashhur bulmasin, u usha fanni sinchiklab urganagan, aniq ma'lumotlarni tuplagan va uz qarashlarini ishlab chikib, yangi usul va xulosalar bayonida umumlashirgan.

3. Sehrgar-jodugarlar uchun tekin daromad manbai bo'lgan soxta fanlarni fosh qilib, bilimda haqiqiy fanlarni rolini o'z tajriba va kuzatish metodlari orqali isbotlaydi.

4. Beruniy xalqlar tarixini bayon qilishda diniy, irqiy va milliy qarashlardan xolis bo'lib, ta'lim olish va bu ishda qiyosiy tahlil metodidan foydalanishni ko'rsatadi.

5. O'qitishda yodlatish emas, balki tushining, mantikiy fikrlash, xulosalar chikarish yo'liga amal qilish lozimligini aytadi.

6. O'qitishda o'quvchining qiziqishi va intilish hisobga olinish va muallim o'z shogirdiga xushmuomilali bo'lishni ta'kidlaydi.

7. O'qitishda turli usul va metodlarni qo'llash, ya'ni qarab chiqish, o'qilmagan mavzularni o'qib olish, keraqli joylarni qayta o'qib olish va umuman yana, yana o'qib chiqish va tushunib olish lozimligini qayta-qayta uqtiradi.

8. O'quv qurollarini, kitoblarni e'tibor bilan avaylab-asrab tutish, bu kitoblar insoniyatning boyligi ekanligini ko'rsatadi.

9. Beruniyning fan o'z yo'li bilan, din o'z yo'li bilan yashashini uqtirgan, fanni dindan ajratish yo'lida birinchi bor haqiqatni himoya qilgan mutaffakkir deb bilimiz.

X-BOB. ZAMONAVIY IJTIMOY - IQTISODIY RIVOJLANISH DAVRIDA O'QITUVCHILIK KASBIGA QUVILADIGAN TALABLAR

10.1. O'qituvchi shaxsi va unga qo'yiladigan talablar

O'qituvchi shaxsining kasb faoliyatida kasbiy uz-uzini tarbiyalashi ustuvor ahamiyatga ega bo'lganligi uchun uning kasb faoliyati strukturasiida birinchi urinda tarbiyachilik qobiliyati turadi. Olib borilayotgan tadqiqotlar o'qituvchining kasb faoliyati strukturasiini quyidagi algartim tartibidakeltirishni ifoda etadi.

1. Tarbiyachilik.
2. tashkilotchilik.
3. kommunikativ.
4. pertseptiv.
5. informatson.
6. didaktik.
7. yunaltiruvchi
8. safarbar etuvchi.
9. rivojlantiruvchi.
- 10.kreativ.
- 11.gnostik (tadqiqotchilik)

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda o'qituvchining kasb faoliyat strukturasi uning kasbiy sifatlari va ayni paytda kasb qobiliyatlari ham deyiladi

O'qituvchining kasb faoliyati strukturasiini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tarbiyachilik qobiliyati.Tarbiyachilik-bu yuksak darajadagi bilim'at bo'lib,shaxsni ijtimoiy hayot talablariga javob bera olish qobiliyatini bildiradi.Tarbiyachilik qobiliyati shaxsni tarbiyalashgagina emas,uz-uzini tarbiyalay olishga yunaltira bilishga karor topadi. Bugungi tarbiyaning maqsadi ham mustaqil fikrlay oladigan va o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslarni shakllantirishga qaratilgan.Tarbiya milliy xususiyatga ega bo'lganligi bois, shaxsning tarbiyachilik qobiliyati milliy an'ana,urf-odatlar va milliy qadriyatlarni turmush va voqeyilik bilan bog'lay olishida ko'rinadi.Ana shunday tarbiyachi ta'lim va tarbiya jarayonini bola shaxsiga muvofiklashitira

oladi. Komil shaxsni shakllantirish vositalari va yo'l-yurqlarini izlab topadi. Ta'lim tarbiyaning izchilligi va uyg'unligini ta'minlaydi. O'qituvchi o'zidagi barcha yaxshi xislatlar va fazilatlarini ko'rsatib, ibrat namuna bo'la o'lsagina undagi qobiliyatlar tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shaxsning tarbiyachilik qobiliyati milliy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Tarbiyachining tarbiyachilik qobiliyati asosida milliy tarbiya yanada rivojlanadi.

2. Tashkilotchilik qobiliyati. Ta'lim tarbiya ishini samarali yo'lga quyishda o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyati alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda sinf yoki guruh jamoasining uyushтира olish, har bir o'quvchi yoki talaba bilan individual shug'ullanish uchun ularni yosh, jins hamda yakka tartibdagi xususiyatlarini bilish, o'quvchi-talabalarining xohish-istaklari, muammolarini eshitish hamda ularning yechimini topishda kumaylashish, qo'shimchadarslar, tugaraklar, tarbiyaviy darslar o'tkazishga oid tegishli shart-sharoitlar yaratish, tug'ilgan kunlar, bayramlar, har-xil tadbirlar, o'quvchi va talabalarini ta'tillari hamda madaniy dam olishlarini uyushtirish kabi ishlar kiradi.

3. Kommunikativ qobiliyat. «O'qituvchi-o'quvchi», ota-onalar, jamoatchilik, mahalla va boshqa tashkilotlar bilan to'g'ri munosabat hamda kasbiy-madaniy aloqalar o'rnatishga qaratilgan. O'qituvchilik ishi ijtimoiy xarakterga ega bo'lganligi bois, har bir o'quvchining individual xususiyati, odobi, ijtimoiy ahvoli, rejalari, orzu istaqlarini bilish ta'lim va tarbiya ishlida samaradorlikka erishish garovi hisoblanadi. O'qituvchi shaxslararo munosabatlarda vujudga keladigan muammolarni hal etishda to'g'ri muomila va mulqotni yo'lga qo'yishi muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Pertseptiv qobiliyat. O'quvchi va talabaning qalbiga yo'l topa olish, o'z navbatida, uni qalban his etib, o'zining o'rninga qo'yib kura bilish, yoshlarning ruhiy ma'naviy olamini urganish, unga ob'ektiv baho berish, bolaning psixologik xususiyatlarini bilgan holda uning kayfiyati, hissiyoti va boshqa psixik jarayonlarini o'rganib borish o'qituvchining pertseptiv qobiliyatini tashkil etadi. Shu bilan birga tez xayojlanadigan, yosh, tajribasiz, o'qituvchilarning chegaradan chiqib ketish holllari ham kuzatiladi. Bunda kutilgan natijaga erishib bo'lmastigini unutmastik lozim. Ba'zan o'qituvchining jahl yoki serzardalik bilan ish yuritishi talaba ongidan kura hissiyotiiga kuproq ta'sir etadi. Qiziqqon o'qituvchining o'quvchilari odob va etikodlari

bilan emas, aksariyat xolda o'qituvchidan qo'rqqanlaridan «imtizomli» bo'lishadi. Bunday o'quvchilar o'qituvchi yo'lida kamdan-kam holllarda o'zlarini to'g'ri tutishadi. Tajang o'qituvchilar arzimagan ish uchun o'quvchilarini asablarini tarang qilishadi. Bu hol «o'qituvchi-o'quvchi» munosabatiga putir yetkazadi. Shuning uchun o'qituvchi doimo o'zining ehtirosini boshqara olishi lozim.

5. Infarmatsion qobiliyat. Bu qobiliyat o'quv tarbiya jarayonining boshi, ya'ni boshlanishi hisoblanib, o'qituvchini qanchalik axborot ola bilish qobiliyati, uni atrofficha o'rganib, tahlil etib, o'quvchi va talabaning yoshi, ongi, dunyoqarashiga mos ravishda yetkazib bera olishda o'z ifodasini topa oladi. Bu jarayonda o'quv materialining qanchalik chuqur va atrofficha bilishi bilan birga, uni mustaqil o'z ongi shuuridan o'tkazib, bugungi talablar darajasida o'quvchi va talabaga yetkazib bera olishida ko'rinadi. Bu yerda o'qituvchining og'zaki nutq mahorati va uni qanday an'anaviy hamda interfaol metodlar asosida yetkazib bera olish san'ati hal qituvchi ahamiyatga ega xisoblanadi. Bunda qaytar aloqa va uning samaradorligi o'qituvchining infarmatsion qobiliyati darajasini belgilaydi.

6. Didaktiv qobiliyat. O'quvchi va talabaning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, mustakil fikri, mantiyiy va analitik tafakkuri asosida egallayotgan bilim, kunikma va malakalarini o'rganib borib, bu jarayonda egallayotgan bilimlar qay darajada kunikma va malakalarga aylanayotganligi muhimdir. O'qituvchining xam, o'quvchining ham qobiliyatlari muayyan faoliyat jarayonida yuzaga chiqadi va rivojlanadi. Bugungi o'qituvchi o'quvchini o'qitish emas, balki mustakil fikr rivoji asosida bilimlarni egallashi sari yunatirishi va buning uchun tegishli sharoitlar yaratib berishi lozim. Har bir dars sifati va samaradorligiga erishish uchun o'qituvchi avvalo, o'quvchining o'z faniga qiziqitira olishi, uning «sub'ekt-sub'ekt»munosabatlari doirasida faol shaxsga aylanishiga erishmogi lozim. Buning uchun esa o'qituvchi kasb faoliyati natijasini oldindan kura bilish qobiliyatiga ega bulmogi zarur. O'qituvchining yana bir didaktiv qobiliyatiga uning dars jarayonini kuzata bilish va tahlil qila olishi kiradi. Didaktik qobiliyatning yana bir o'ziga xos xususiyati o'qituvchining bilimdonligi, zehning o'ktriligi, ijodkorligida ko'rinadi. Didaktik qobiliyat o'qituvchining infarmatsion qobiliyati asosida rivojlanib boradi va kasb mahoratida o'z yechimini topadi.

7. Yunalituvchi qobiliyat. Bu motivlar va motivatsiya bilan bog'liq bo'lib, erkin fikr, qiziqish, havas, intilish va orzu bilan ifodalanadi. Shaxs faoliyatini boshqaruvchi, uni yunalituvchi asosiy g'oya uning maqsadi va vazifalarini belgilab beradi. Shaxsning ma'naviy-axloqiy va kasbiy dunyoqarashining rivojlanishiga undovchi motivlar yetakchilik qiladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy faolligini ta'minlaydi.

8. Safarbar etuvchi qobiliyat. Bu bugungi davr rivoji va talabdan kelib chikib, o'qituvchining iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy va kasbiy madaniy munosabatlarning nakadar dolzarbligini, yechimini kutayotgan muammolarni xal etishning zarurligini, nazariy-metadologik bilimlarni amaliyot darajasiga olib chiqishning uza muhimligini anglab yetishi bilan bog'liq ravishda xal etiladi. Uza navbatida, o'qituvchi o'quvchilarni o'quv-biluv, ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni uza vaqtda bajarishga ongli va asosli ravishda safarbar eta olishida ko'rinadi.

9. Rivojlantiruvchi qobiliyat. Bu qobiliyat ta'lim-tarbiya rivojining uyunligida amalga oshib, bunda o'qituvchi o'quvchini xissiy-ifodaviy, didaktik, yunalituvchi, safarbar etuvchi, yangilikka intiluvchan va ilmiy-ijodkorlik qobiliyatlarini aniq tizimida maqsadli ravishda rivojlantira olish qobiliyati bilan ifodalanadi. «O'qituvchi-o'qituvchi» munosabatiga xos rivojlantiruvchi qobiliyat asosida o'quvchi voqea-hodisalarni muayyan bilim va kunikmalar asosida tahlil eta olish, ahmiyatiga karab saralash, sabab va okibatini chuqur urganish, yangi tushuncha va ilmiy bilimlar bilan o'z ongi va dunyoqarashini boyitish imkoniyatiga yo'l ochib beradi.

10. Kreativ qobiliyat. Bu o'qituvchining alohida o'ziga xos qobiliyati bo'lib, o'z ongida yangi tushunchalarni o'rganish, uni tahlil etishdan boshlanib, yangilikka intilish, o'z sohasi buyicha yangi axborotlarni tuplash, uni alohida dastur xoliga keltirib, ta'lim va tarbiya jarayoniga tadbik eta olish bilan belgilanadi. Pedagogik innovatsiya faoliyati muloka yangi kashfiyotlar qilish, bor yangiliklarni urganib, umumlashtirib, amalga tadbik etish va pedagogik jarayonda muammoli vaziyatlar yechimini topish, sifat va miqdor tahlilini o'rganish, model-lashtirish kabi ijodiy ishlarni o'qituvchining kreativ qobiliyatini kursatadi. Bu qobiliyatning eng yukori chegarasi akmealogik tizimni yo'lga qo'yishda o'z ifodasini topadi.

11. Gnostik (tadqiqotchilik) qobiliyat. Bu qobiliyat o'qituvchini izlanishga, ijodiy mehnatga, ilm-fanga qiziqishga, muammolar yechimida

maqsad va vazifalar kuya bilishga, ahmiyatiga qarab ilmiy-amaliy faktlarni to'plab olishga, muayyan ilmiy faraz yechimini topishga, ilmiy tadqiqotchilik ishi bilan shug'ullanishga, ilm orqali bilim egallash printsipli asosida faoliyat yuritishga undaydi. O'qituvchining kasb faoliyati strukturasi uning kasbiy pedagogik mahoratini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Ayrim mutaxassislar o'qituvchining didaktik va tashkilotchilik qobiliyati uning asosiy pedagogik mahorati tuzilmasini tashkil etadi deb hisoblashadi. Vaholanki, kasbiy mahorat o'qituvchi faoliyatining eng oliy namunasidir. Shunday ekan, to'laonli kasbiy pedagogik mahoratda yuqorida kurb o'tilgan algoritn tartibi to'laonli o'z ifodasini topmog'i lozim. O'qituvchi shaxsining kasb faoliyati strukturasi asosida zamonaviy pedagog shaxsining modeli, ya'ni milliy g'oya talablariga muvofiq keluvchi professiogramma ishlab chiqildi. Ushbu professiogrammada keltirilgan eng muhim shaxsiy va kasbiy sifatlar yuqorida kurb o'tilgan kasb tarbiyasi tizimi asosida berildi.

10.2. Professogramma-zamonaviy pedagog shaxsining modeli sifatida

Pedagog shaxsining professiogrammasi muammoli buyicha daslab urinishlar utgan asrning 20-30 yillaridan boshlangan. Ammo haqiqiy ilmiy asoslangan professiogramma xozirgacha yaratilgan emas.

Bu borada pedagog olimlardan F.N.Gonobolin, N.V.Kuz'mina, A.I.Sherbakov, Yu.S.Alferov, Ye.G.Osovskiy va boshqalarning izlanishlari ularak, o'tgan asrning 70-yillari o'talarida V.A.Slastenin tamonidan yaratilgan professiogramma birmuncha ilmiy va metodik jihatdan asoslanganlini bilan farq qiladi.

Ammo V.A.Slastenin tamonidan ishlab chiqilgan va o'z davrida ilmiy jamoatchilik tamonidan e'tirof etilgan professiogramma kommunistik makura talablariga mos ravishda ishlangan bo'lib, milliy g'oya talablariga to'g'ri kelmaydi. Shunday bo'lsada, akademik V.A.Slastenin professiogrammasini asos sifatida tanqidiy tahlil etib, bu borada ko'p yillik tadqiqiy izlanishlarimiz hamda «Ta'lim to'g'risidagi» Qonun talablariga muvofiq milliy xarakterdagi professiogrammani, ya'ni zamonaviy pedagog shaxsi modelini yaratishga muassar bo'ldik. Ma'lumki, sifat falsafiy tushuncha bo'lib, biror predmet yoki ob'ekti xos bo'lgan muhim belgilar yig'indisini ifodalaydi. Bu belgilar

birmuncha barqaror xususiyatga ega bo'lib, sifatga xos tavsifi beradi. Xususiyatlar esa, nisbiy xarakterga ega bo'lib, predmetning o'ziga xos tamonlarini ifodalash bilan birga, boshqa predmetlarga nisbatan uxshashlik va farqli tamonlarni xam ajratib beradi. Odamni yaxshi amallarni bajarishga va go'zal xulqi sooxibi bo'lishga da'vat etuvchi ichki axloqiy sifatlar fazilatlardir.

Professiorafik yondashuvga asoslanib, «sifat», «xususiyat» va «fazilat» tushunchalari barkamol shaxs tarbiyasida va ijtimoiy faol hamda malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda keng qamrovda qo'llaniladi. Shunga kura, pedagogik kasbiga bo'lgan talablar tizimisi loyihalasini ishlab chiqishda talaba bo'lajak o'qituvchi sifatida, o'qituvchi esa uz sohasining mutaxassisi sifatida kasb faoliyatiga fikran murojat etib, uning maqsadi va tuliq anglab yetmug'i lozim.

Bo'lajak o'qituvchi shaxsi uz oldida turgan vazifalarni oldindan bashorat qila bilishi, bakalav va magistrlik darajasiga erishishi uchun har bir o'quv yilida nimalarni uzlashtirishi lozimligini professiogramma asosida modellashtira bilimog'i lozim.

Professiogramma Davlat ta'li standartlari asosida o'qituvchi kadrlarni tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari dastur, darslik va o'quv qo'llanmalariga qo'yiladigan talab va vazifalarni yanada oydinlashtiradi. O'qituvchi professiogrammasi o'ziga xos mutaxassslik pasporti va kvalifikatsion xarakteristikasining asosi hisoblanib, bo'lajak o'qituvchi egallashi lozim bo'lgan pedagogik g'oyalar, ijtimoiy, psixologik-pedagogik va metodik bilimlar, kunikma hamda qobiliyatlar majmuini o'z ichiga oladi.

1. Pedagog shaxsining xususiyatlari va tavsifnomasi.

Matkuraviy yunalganlik: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlaro totuvlik, dinlaro bag'rikenglik (tolerantlik), ijtimoiy va fuqarolik burchini his etish, ijtimoiy va kasbiy faollik.

Kasbiy- pedagogik yunalganlik: bolani sevisish va hurmat qilish, o'z kasbiga qiziqish, pedagogik va psixologik xushyorlik va kuzatuvchanlik, pedagogik odob, pedagogik xayol va tasavvur, tashkilotchilik, adolatlilik, talabchanlik, maqsadga intiluvchanlik, kasbiy ishchanlik, ilmiy izlanuvchanlik, aqliy va jismoniy faollik, kreativlik, uzluksiz pedagogik ta'limga tayyorlik.

2. Pedagog shaxsini psixologik-pedagogik jihardan tayyorlashga

qo'yiladigan talablar :

Bilim. Milliy pedagogika fanining metodologik asoslarini bilish, shaxsning ijtimoiy qonuniyatlariga oid bilimlarni hayotga tadbik eta olish, bola ruhivati, uning anatomik-fiziologik xususiyatlari, gigenasi, har bir yosh davrga xos individual hamda jinsiy rivojlanish qonuniyatlarini bilish, bolaning layoqati asosida shakllanadigan qobiliyatlarining usib borishi, o'quvchining erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirish shart-sharoitlarini bilishga oid ilmiy bilimlar tizimi talab etiladi. Innovatsion texnologiyalarni bilish va u asosida grantlar tayyorlash.

Kunikma va malakalar. Ta'lim va tarbiyaviy muammoli vaziyatlarni tahlil eta olish, o'quvchi va talabalarning tarbiyalanganlik va ma'naviy shakllanganlik darajasini aniqlay olish, ta'lim va tarbiyaga oid darslar samaradorligini oldindan bashorat qila olish, axborot olish, yangiliklarni tizimlashtira bilish va komp'yuter texnologiyasi hamda boshqa ta'lim tarbiyaviy vositalar asosida yangi pedagogik texnologiyalarni tadbik eta olish, pedagogik vazifalarni aniq kuya bilish, kasb faoliyatiga oid ishlarni to'g'ri rejalashtira olish, an'anaviy metodlar asosida interfaol metodlarni to'g'ri kullay olish, uzluksiz ta'lim tizimiga oid nazariy bilimlarni amaliyot darajasiga olib chika olish, ilmiy asoslangan materiallarni didaktik tahlilini bilish, o'quvchi va talaba faoliyatiga individual va differentsial yondasha olish, ta'lim tarbiya jarayoniga xos induktiv va deduktiv xulosalar chikarish, yakuniy xulosalar asosida ilmiy amaliy va o'quv metodik tavsiyalar ishlab chika olish, menjmentlik va menejerlik ilmiga oid qonuniyatlarni bilish, rahbarlik san'ati va qobiliyatiga ega bo'lish, bola kabiga yo'l topa olish, uning o'miga o'zini qo'yib kura bilish, bolaning qiziqishlari doirasida uning yetakchi motivlarini aniqlash, talab va ijro, rag'batlantirish va jazo qo'llash omillarini o'rganib borish, o'quvchilar jamoasining «sub'ekt-sub'ekt» munosabatlari asosida ta'lim va tarbiyaviy faolligiga erishish, jamoada ijodiy, o'zaro dustlik, ahillik muhitini yaratish, har bir shaxsning shaxslaro munosabatidagi o'rmini aniqlash.

O'quvchi va talabalarning yangi sharoitga moslasha olishi hamda ijtimoiy adaptatsiyani urganish, ularga tegishli shart-sharoitlar yaratib berish, har bir ish natijasini obektiv ravishda b' aholay bilish, ta'lim tarbiya texnikasi va texnologiyasi asosida pedagogik mahoratni takomillashtirib borish, kasbiy komillikka erishish yo'lida samarali mehnat qilish, ilmiy ijodiy izlanishlar olib borish.

3. O'qituvchi «insof-tavfiqli, o'ylab ish qiladigan, yuvosh-qobil, kamtar, qanoatli bo'lmog'i lozim. Aroqxo'r, sayoq, badi'axl, xasadchi, maynavoz, og'zi yomon, firibgar, safsataboz va daxrilyikni yoqlovchi bo'lmashligi dardkor».

O'qituvchi bolalarni qattiq ushlamog'i, lekin ularga muhabbat bilan qaramog'i kerak.

O'quvchilarga axloqiy ta'lim-tarbiya berish bilan birga, o'qituvchi ularning sog'lig'i haqida qayg'urmog'i, o'yinlar, musobaqalar vositasida, ularda jismoniy ko'nikmalar hosil qilmog'i lozim.

Chech pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592—1670) ning asarlarida o'z davrining ilg'or g'oyalari aks etadi. Komenskiy o'qituvchilikni yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq darajada turadigan faxrli kasb hisoblaydi. Komenskiy bir tomondan, aholining o'qituvchiga hurmat bilan qarashi lozimligini talab qiladi, ikkinchi tomondan esa, o'qituvchining o'zi ham jamiyada qanday muhim vazifani bajarayotganini tushunib olishi va o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olishi lozimligini uqtirib o'tadi. Uning fikricha, o'qituvchi sof vijdonli, ishechan, sabotli, o'quvchilarga o'zi singdirishi lozim bo'lgan fazilatlarining jonli namunasi bo'lishi, keng ma'lumotli va mehnatsevar kishi bo'lishi shart. O'qituvchi o'z ishini behad sevishi, o'quvchilarga bamsoli otalardak muomala qilishi, ularda bilimga havas tug'dirishi zarur. O'zi namuna ko'rsatib, o'quvchilarni o'ziga ergashtirish o'qituvchining eng birinchi vazifasidir.

Komenskiy dindorlik o'qituvchining eng muhim fazilatlaridan biridir, deb hisoblaydi.

Nemis pedagogi Adol'f Disterveg (1790—1866) demokratik pedagogikaning ilg'or namoyandasidir.

Uning pedagogik asarlarida o'qituvchilik odobiga oid qonun qoidalar bayon etilgan.

Distervegning fikricha, o'qitish chog'ida bolalarning tashabbus-korligini bosqichma bosqich o'stirish, ularni zarur bilim malakalari bilan qurollantirish amali o'qituvchidan tashkilotchilik faoliyatini talab qiladi. Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lish darajasi darslik mazmuni yoki o'qitish usuliga emas, balki o'qituvchining o'ziga bog'liq, deb ta'kidlaydi. Yaxshi o'qituvchi o'z fanini puxta egallab olgan bo'lishi, kasbini va bolalarni sevishi kerak. Dars chog'ida hamma bolalar teitik bo'lib turishi, o'qituvchi g'ayrat bilan dars berib, o'quvchilarning aqliq

kuchini uyg'otishi, ularning irodasini mustakamlashi, xarakterini tarkib topirishi dardkor.

Distervegning ko'rsatishicha, yaxshi o'qituvchi o'zining tarbiya tamoyillarini qat'iyat bilan amalda joriy qiladi. Bu tamoyillardan xech qachon voz kechmaydi. O'qituvchi o'z ustida muttasil ishlashi lozim. Shundaygina u o'quvchilarni bilim egallasda matonatli bo'lishga o'rgatadi va ularni o'z yo'llarida uchraydigan qiyinchiliklarni yengga oladigan etib tarbiyalaydi. Disterveg o'qituvchining mustakam xarakteri va o'tkir iroda kuchi ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. O'qituvchi qattiqgo'l va talabchan bo'lish bilan birga adolati bo'lishi ham kerak, faqat shundaygina o'z o'quvchilari orasida obro' qozonishi mumkin.

Mamlakatimiz o'z istiqlolini qo'lga kiritgach iqtisodiy va ma'naviy sohada mustaqillikka erishish vazifasi kun tartibiga qo'yildi. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida umumiy ta'lim maktablarida har bir bolaning qobiliyat va layoqatlarini erkin rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi.

O'qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o'qituvchi-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir.

Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi qoidalar, me'yorlar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq me'yorlari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan xuquq me'yorlaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq me'yorlari, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq me'yorlari, talablari, mezonlarini belgilaydi.

O'qituvchi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarini o'zlashtirib olishi, tajribada ko'llashi, o'zining dunegarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslashi lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlari, qoidalar, me'yorlar o'qituvchining o'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyogarashi, fikr va mulohazalari bilan qo'shilib, hozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o'rni

va roli ni belgilaydi.

O'qituvchi odobining me'yori lari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatl ar o'qituvchining dars berish jarayonida, t arbiyaviy ishlarida, o'quvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashlanadi.

Pedagogik takt o'qituvchi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Muallim xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy t arbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatl ar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urrur, baynalmilatchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, xalollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatl ar o'qituvchi odobida pedagogik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, qadr-qimmat, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchan, va adolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi, halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuminsoniy axloqiy qadriyatlar orasida yaxshilik qilish fazilati muhim o'rin egallaydi. O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi yodgorligi — «Avesto»da ezgu fikr, yaxshi so'z va yaxshi ishlar insoniy fazilatl ar sifatida ulug'lanadi. Islom ta'limotida boshqalarga yaxshilik qilish insonning tabiiy ehtiyoji bo'lishi kerakligi tushuntirildi, ayniqsa, ota-onaga, ayollar, yosh bolalarga yaxshilik qilish juda qadrlanadi. Ota-bobolarimiz doimo yaxshi niyat, yaxshi orzu-istaklar bilan yashaganlar. O'zlaridan yaxshi nom qoldirishga intilganlar. «Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim.

Kishilarning fe'l-atvori, yurish turishi, xatti-harakati, gap-so'zi ularning xulqiga bog'liq.

Yaxshi xulq egasi bo'lgan kishi odamlarga yaxshilik qila oladi. Abdulla Avloniy yaxshi xulqlar qatoriga: matonat, diyonat, islomiyat,

hazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, ilm, intizom, vijdon, vatanni suyrmog, xaqoniyat, nazari ibrat, iffat, xayo, idrok va zakovat, vqor, i'coat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadqat, muhabbat, avf kabilar ni kiritadi. «Endi bu yaxshi xulqlarni qo'lga olmog uchun ota-onaga, muallim, ustozlarimiz fazrlarining hikmatli nasihatlarini jon qulog'i birla tinglab, doim xotirada tutmog, axloqi yaxshi kishilar birla ulfat bo'lmog, axloqi buzug, yomon kishilardan qochmog lozimdur».

Yaxshilik ijobiy axloqiy fazilat bo'lib, xulqiy sifatlarning majmumi, inson faoliyati yoki biror xatti-harakatiga ijobiy munosabatning yig'indisini aks ettiradi. Yaxshilik kishining axloqiy ongi va axloqiy tajribasida jamiyat va shaxs manfaatlarining birligini aks ettirib, shaxsga va jamiyatga manfaat keytiradigan ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan fazilatdir.

O'qituvchi odobida yaxshilik fazilatiga pedagogik faoliyat bilan bog'liq holda, o'qituvchining yaxshiligi shaklida aniqlik kiritiladi.

Unda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi manfaatlarining birligi, muallim va o'quvchi maqsadining birligi, ta'lim va t arbiyaning samarasi uchun kurashning birligi aks etadi. Yaxshilik fazilati muallimning ham, o'quvchilarning ham, ota-onalarining ham yaxshi niyatli, xayrixoh, mehribon bo'lishini taqozo qiladi. Yaxshilik qaror topishi uchun pedagogik jarayonda yomonlikka murosasiz bo'lish, yaxshi istak bilan xushmuomala qilish, yaxshi qiliq, yaxshi xatti-harakatlarning birligi zarur.

Umuminsoniy va milliy axloqda burch tushunchasi har bir kishining o'z vazifasini to'liq bajarishi, boshqalarga to'g'ri munosabatda bo'lishini ifodalaydi. Burchda shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi. O'z burchiga sodiqlik har bir kishiga obro', shon-sharaf keltiradi. Kishining o'z burchiga sodiqligi jamiyatga, Vatanga, mehnatga, oilaga, farzandlariga bo'lgan munosabatida bilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning xuquqlari bilan bir qatorda burchlari ham belgilangan. Qonunlarga rivoj etish, boshqa kishilarning xuquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish; O'zbekiston xalqining tarixiy, madaniy va ma'naviy metrosini avaylab asrash; atrof-tabiiy muhitga ehtiyoakorona munosabatda bo'lish kabilar har bir fuqaroning burchidir.

Burchga sodiqlik har bir kishining odobi, axloqini ko'rsatadi. Katta yoshdagi kishilarni hurmatlash yoshlarning burchidir.

Itimoiy burchni yuksak darajada anglash o'qituvchining axloqiy fazilati hisoblanadi. Muallim bolalarga o'rgatadigan g'oyalar uning qalbidan joy olib, dunyogarashining asosi bo'lishi zarur.

Har bir ishda, har bir masalada muallim o'z burchiga sodiq bo'lishi zarur. Muallimning mafkurasi fuqarolik ruhi bilan sug'orilgan bo'lsa, itimoiy burchni vijdonan his qilishga, intizomlilik, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila bilish, kam-tarlik, insonparvarlik, o'z qadrgimmati to'g'ri baholay olishga imkon beradi.

O'qituvchi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish sohasidagi o'z burchini zo'rlik tufayli yuklatilgan majburiyat emas, balki o'z hayotining ma'nosi, ishonch va vijdon da'vati deb hisoblaydi.

Fuqarolik burchini his etish butun xalq va O'zbekiston davlatining buyuk kelajagi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni taqozo etadi. Davlat oldidagi burchni yuksak anglagan, mafkuraviy barkamol muallim insonga izzat-hurmatli, yoshlarga g'amxo'r, mehribon, boshqalarga yordam qo'lini cho'zishga doimo tayyor turadigan kishidir. O'qituvchi axloqida burch xissi Vatanni sevis, uning porloq kelajagi uchun g'amxo'rlik qilishni talab etadi. O'qituvchi o'dobida vatandashlik burchi baynalmilalchilik tuyg'usi bilan chambarchas bog'liqdir.

Pedagogik amaliyotda muallimlar o'z pedagogik burchlarini bajarishga xalol intisalar ham ish sharoitlari turlicha bo'lgani uchun bir xil natijaga erishavermaydilar. Buning oqibatida shaxs bilan jamiyat o'rtasida ma'lum darajada qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Bu konfliktlar turlicha bo'lishi mumkin.

Kishi o'qituvchilik burchini anglasa ham biror shaxsiy mulohazaga ko'ra burchini bajarishni istamasligi mumkin. Bunday hollar kamroq uchrasa ham umumiy ishga o'quvchilar tarbiyasiga zarar yetkazadi. Jamoatchilik ta'siri va ma'muriy yo'llar bilan uni bartaraf etish lozim.

Ba'zan muallim burchi nima ekanligini va uni bajarish zarurligini tushunadi, lekin uni amalga oshirishga — masalan, har kuni o'z bilimini oshirish ustida ishlashga, boshlagan ishini oxirigacha yetkazishga irodasi chidamaydi yoki o'zini safarbar etolmaydi. Natijada jamiyatning muallimga qo'yan axloqiy talabiga putur yetadi. Maktab jamoasi bunday hollarda o'qituvchiga nisbatan talabchanlikni oshirmog'i zarur.

O'qituvchilik burchi aql bilan hissiyotning birligidan iborat. Muallim kasbiga nisbatan qo'yiladigan talablarning moxiyati va mazmunini bilisa, uning shaxs va jamiyat uchun muhimligini anglasa, bu vazifalarni

bajarish uchun o'zida qobiliyat borligini sezsa, pedagog uchun zarur fazilatlarini tarbiyalash yo'llarini belgilab olsa shundagina unda kasbiy burch shakllana boshlaydi. Shundagina muallim belgilangan xatti-harakatlarini o'z ixtiyori bilan amalga oshira boshlaydi. Demak unda burch xissi shakllangan deysiz mumkin.

O'qituvchining eng muhim burchlaridan biri o'z bilimlarini mustamkam oshira borishdir. Buning uchun esa yukoridagilar bilan birga moddiy imkoniyat va sharoitlar ham bo'lishi zarur.

O'zbekiston davlati o'qituvchilar, maorif, madaniyat xodimlarining uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ularga xar xil yengilliklar yaratish, muoshirlarini oshirishga e'tibor berib kelmog'da.

Toshkentda, viloyat markazlarida pedagogik xodimlar malakasini oshirish institutlari ishlab turibdi, tumanlarda tashkil etilayotgan kurslarda muallimlar malaka oshirmog'dalar.

O'qituvchilar mustaqil o'qib, o'z bilimlarini oshirishlari uchun davlat tilida o'zbek tilida ko'plab metodik adabiyotlar, qo'llanmalar, tavsiyanomalar chop etilmog'da.

Shaxs axloqini tavsiflaydigan belgilardan biri mas'uliyatdir. Boshqa kishilar oldidagi o'z burchini anglash va uni kishi xulqining omiliga aylantirish, odam o'z faoliyatini boshqalarga ko'proq yaxshilik qilishga og'li va ixtiyoriy ravishda yo'naltirishi mas'uliyat tushunchasining mazmunini tashkil etadi.

O'qituvchining mas'uliyati mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan xolda muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zim-masiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklanadi. Muallim o'quvchilarga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi darkor. Shu bilan birga u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab unda mavjud bo'lgan ijodiy axloqiy fazilatlarini avaylab o'stirishi lozim.

Muallim sinfda jamiyatning, xalqning, davlatning vakili sifatida o'quvchilar jamoasi bilan yolg'iz o'zi ish olib boradi. Bunday sharoitda o'qituvchining mas'uliyati uning xulqini tarbiyaga solib turadigan, boshqaradigan kuch, o'quvchilarga ta'sir o'tkazish darajasining asosiy mezonini hisoblanadi. Jamiyatning kelajagi, ota-onaning umidi, nuri dilyasi farzandining takdiri, kelajagi uning qo'lga ishonib topshirigan. Muallim o'quvchilarning bilimiga baho qo'yadi, baho esa jamiyatning,

kattalarning, ota-onaning bolaga munosabatini belgilovchi mezon, omillardan biridir. Yaxshilik, adolat, sha'n, qadr-qimmat, insoniylik kabilarning mavjudligiga bolada ishonchni vujudga keltirish ham o'qituvchining mas'uliyatiga bog'liq. Shuni ham borki, buni ko'pincha nazorat qilib ham bo'lmaydi. Bu muallimning vijdoniga havola qilinadi.

O'qituvchilik qilayotgan yoki muallimlik kasbini tanlagan kishilar o'z zimmlariga qanchalik yuksak, sharafi mas'uliyat olayotganliklarini tasavvur etishlari lozim. Oliy yoki o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtini bitirib, muallimlik faoliyatini boshlagan kishi barcha o'quvchilarga o'zini yaqin tutishi, odobi, odilligi bilan bolalarga ijobiy-axloqiy namuna ko'rsatishi zarurligini yoddan chiqarmasligi kerak.

Umuminsoniy va milliy axloqning muhim belgilaridan biri insonlik sha'ni, qadr-qimmatidir. Kishining qadr-qimmati, avvalo, umumiy ishga ko'shayotgan xissasining qo'shmog'i va sifati bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda inson o'z mehnatining salmog'i va sifati bilan, aqli va jismoniy mehnatning samarasi bilan, ishbarimlonligi bilan qadrlanadi. Halol mehnat kishining qadri, izzat-hurmatini oshiradi. Kishi o'z mehnatining qadriga yetishi, u bajarayotgan ish jamiyatda ahamiyati ekanligini tushunishi lozim. Kishining umumiy ishga qo'shayotgan hissasining salmog'i, u qaysi vazifani bajarayotganligida emas, balki o'z ishini qanchalik yaxshi, sidqidildan bajarishiga bog'liq. Insonning qadr-qimmati uning mansabi, kasbi-koridan ko'ra xam ko'proq o'z kasbini qanday bajarishiga, uning odobi va xulqi-atvoriga bog'liq.

Bu fazilat o'qituvchi odobida muallimning qadr-qimmati, sha'ni deb ataladi. U, avvalo, o'qituvchidan o'z ishining ustasi, kamtar bo'lishni, shu bilan birga pedagoglar va o'quvchilar jamoasida o'zini tuta bilishni talab etadi. Sinfga maktab direktori, nazoratchi yoki boshqa kishilar darsni kuzatishga, tekshirishga kirgan paytlarida muallim «gafllarda» qolmasligi lozim. Bunday paytlarda o'qituvchi, avvalo, o'z o'quvchilari oldida sinovdan o'tadi. O'sha chog'da o'qituvchi xovliqib, shoshilib qolsa, yaxshi chiqsa, o'z xulqini o'zgartirsa, o'quvchilar oldida uning qadri ketadi. Aksincha, muallim bunday hollarda o'zini mag'rur tutsa, darsni odatdagidek o'taversa, bolalarning hurmatini qozonadi. O'quvchilar bunday voqealarni uzoq esda qoldiradilar, gaplashib, o'roqlariga aytib yuradilar. U katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Muallim maktab rahbarlari, hamkasblari va boshqalar bilan muo-

mula, munosabatlarda kibr-xavo, mammanlik qilmasa yoki o'rinsiz honto'g'oylik, hokisorlik, lagambarlorlik qilmasa, uning o'quvchilar oldida obro'si, qadr-qimmati ortadi.

O'quvchilar bilan muomalada ularni insoniy qadr-qimmatlarini hurmatlash, talabchanlikni insonparvarlik bilan uzviy bog'lay bilish, bolalarning qobiliyati va kuchiga ishonch bilan qarash, o'quvchilarga ular bajara oladigan va asta-sekin murakkablashib boradigan vazifalar berish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu bolani shaxs sifatida va axloqiy jihatdan shakllantira boradi, yaramas xatti-harakatlardan, egri yo'lga kirib ketishdan asraydi, bola o'z kuchiga ishonib harakat qiladigan bo'ladi, yomon qiliqlardan o'zini tiyadi.

Kishining sha'ni — yuksak insoniy fazilat bo'lib, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, unga atrofda kishilar va jamiyatning munosabatini ham bildiradi. Kishining sha'ni shaxsning xizmatlarini jamiyat tomonidan tan olinishidir. Sha'n, kishining sha'ni deganda odamning yoki u mansub bo'lgan sotsial guruhning qadr-qimmatini, yaxshi nomi, obro'si, shuxrati, dong chikarishi kabilar ham nazarda tutiladi.

Sha'n tushunchasi bilan qadr-qimmat uzviy bog'liqdir. Qadr-qimmat kishining xalq hurmatiga sazovor bo'lganini tan olinishidir. Kishining sha'ni va qadr-qimmatini oyokosti qilish aslo mumkin emas. U bizning mamlatimizda, davlatimizda qonun bilan xam, jamoatchilik fikri bilan xam ximoyalanaadi. Jamoaning sha'ni va qadr-qimmati, kasbning sha'ni va qadr-qimmati kabi tushunchalar odamlar ongida mustaxkam karor topsa, ayrim kishilarning sha'ni va qadr-qimmati ham tan olinadi.

O'qituvchi odobida muallimning shuxratparastligi va mammanligi qoralanadi. Buning ibosi shundaki, o'qituvchilik faoliyati avvalo, umum-xalq baxt-saodati uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan. O'qituvchilik sha'ni jamoatchilik tan olgan bo'lishi kerak, aks xolda uning ma'nosi qolmaydi. Muallimning sha'ni va qadr-qimmatini uning xizmatlari va axloqiy fazilatlarini jamoatchilik tomonidan tan olinishi hamdir.

Pedagoglik ishida boshqa kasblarga nisbatan subektiv faktlar har bir kishining sha'ni va shaxsiy qadr-qimmatini e'tiborga olish ko'prok talab etiladi. O'qituvchi, avvalo, o'z qadr-qimmatini o'zi saqlay bilmog'i kerak, pedagoglar jamoasidagi urf-odatlar, an'analar, axloqiy munosabatlari ham o'qituvchilik sha'ni va qadr-qimmatini asrashga qaratilmog'i lozim.

Pedagoglik sha'ni va qadr-qimmatini noto'g'ri tushunish ta'lim-

tarbiya ishidida salbiy okibatlarga olib kelishi mumkinligini unutmaslik dardkor. Masalan, ko'ra bila turib o'quvchining bahosini oshirib qo'yish, maktabga nazoratchilar kelganda o'qituvchilarning faoliyati aktivlashib qolgani yoki hisobot uchun nomigagina tarbiyaviy tadbirlarning sonini ko'paytirish kabilar o'quvchilar tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi, bu bolalarni qalbakiylikka o'rgatadi. O'quvchilar oldida o'qituvchining va jamoaning obro'siga ta'sir etadi. O'qituvchining pedagoglar jamoasi sha'nini yoki o'quv yurti sha'nini saqlab qolaman deb sha'n, qadrigimnat tushunchalarini noto'g'ri anglab qilgan xatti-harakatlari pedagogik odob me'yorlarining buzilishiga olib keladi va o'quvchilar tarbiyasiga zarar yetkazadi. Afsuski, bunday hodisalar ayrim hollarda uchrab turadi.

O'qituvchi odobida sha'n, qadr-qimmat tushunchasi o'qituvchining pedagoglar jamoasida egallagan hurmatini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilar va ota-onalar orasidagi hurmatini ham ifodalaydi. Muallim o'quvchilar qadr-qimmatini hurmat qilishi o'quvchilar orasida muallimning hurmati va qadr-qimmatini oshirish shartlaridan biridir. Pedagogik burchi muallimdan o'quvchilarda sha'n va qadr-qimmat hisssini o'stirishni talab etadi. Bu o'z navbatida bolalarga bo'lgan hurmatni ularga nisbatan ishonch va talabchanlik bilan olib borishni taqozo qiladi.

Vijdon kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat tuyg'usidir. U diyonat, insof, xalollik, softillik degan ma'nolarni ham bildiradi.

Abdulla Avloniy: «Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan hissiyot, ya'ni sezuv — tuymoqdan iborat ma'naviy quvvatni aytiladur» deb ta'rif bergan edi.

Uning fikricha, vijdon kishining fe'l-atvori va harakatlarning yaxshi va yomonligini, foydali va zararliğini ko'rsatadi. Vijdon inson aqli va fikrining haqiqiy mezonidir. Uning yordamida har bir kishi o'z kamchiliklarini va boshqalarning fe'l-atvorini o'chaydi. «Agar ishlagan ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa, muhabbat qilor, qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilor».

Vijdon yaxshi xulqlarning manbai bo'lgani uchun xam vijdonli kishilar har bir ishini begariz va xolis niyat bilan bajaradilar va bundaylar boshqalar nazarida suyuqli kishilar hisoblanadi.

Vijdonsiz kishilar esa o'z qilgan amallari oqibatida xasrat va

namomat yokib, vijdon azobiga giriftor bo'ladi. Vijdoni salomat kishilar imonli va e'tiqodli bo'ladi, shod va xurramlikda umr kechiradilar.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchining vijdoni ta'lim-tarbiya jarayonida aniqroq yo'l-yo'riqlarni va kasbiy burchni qanday bajarayotganini nazorat qiluvchi ma'naviy kuchdir. O'qituvchi faoliyatida, axloqida, xulqida vijdon o'z-o'zini nazorat vositasidir. O'qituvchilik boshqa kasblardan o'zining shu jihati bilan keskin ajralib turadi. O'qituvchilik vijdoni muallimning o'z bilimi, tajribasi va qobiliyatini to'la ishga solib, boshqalarni o'qitish, tarbiyalash va ma'rifatli qilishga da'vat etadi. Vijdonli o'qituvchi ta'lim-tarbiya ishlarni yuksak darajada amalga oshirish uchun qo'lidan kelgan ishlarni qiladi.

Agar kishida o'qituvchilik qilishga qobiliyat, pedagogik faoliyatga qiziqish, iste'dod bo'lmasa, jamiyat talab qiladigan darajada bolalarni o'qita olmasa, agar u kun o'tkazish uchunгина muallimlik qilayotgan bo'lsa, bu o'qituvchilik vijdonining yo'qligini ko'rsatadi. Vijdonli o'qituvchi kechirimli bo'ladi. Agar u ta'lim berayotgan bolalarning bilimni past, xulqida qusurlar, kamchiliklar uchrayotgan bo'lsa, bundan o'qituvchi vijdondan qiyinaladi. O'qituvchining vijdonini faqat uning o'ziga nazorat qiladi. Muallim nazoratchilar ishtirok etayotganda o'quvchilar bilan oldindan tayyorlab, mashq qilib qo'ygan darsini qayta o'tishi kuzatuvchilar uni payqamastligi ham mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchining halolligi, pedagogik vijdonining mezonini hisoblanadi.

O'qituvchilik vijdoni muallimni bolalar bilan muomala-munosabatda oqilona ish yuritishga undaydi, pedagoglikka to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlardan tiyadi, bola o'qitishni bo'shashtirib yuborsa, yoki xulqida biror salbiy o'zgarish ro'y bersa, beorom qilib qo'yadi; zarur bo'lib qolsa, uy-ro'zg'or ishlarni ham yig'ishtirib qo'yib, darsdan tashqari vaqtlarda ham maktabga borib sinfdan tashqari ishlar bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Pedagogik vijdoni o'qituvchining mezigirligi, xushyorligini oshiradi. Pedagog uchun o'z xato va kamchiliklarini aql ko'zi bilan ham, qalb ko'zi bilan ham seza olish xislati juda muhimdir.

Ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi faqat o'qituvchining o'zigaagina emas, balki ota-onalar, kasbdoshlari bilan hamkorligiga ham bog'liqdir. O'qituvchilik vijdoni muallimni axloq qoidalariga o'zi amal

qilishi bilan birga boshqalardan ham axloq me'yorlarini bajarishni talab qilishga undaydi. Vijdoni muallim o'zi yoki kasbdoshlari xato qilib qo'yganidan xijolat tortadi, or-nomus qiladi. O'qituvchi odobida bu tuyg'u ayniqsa ko'zga yaqqol tashlanadi. Haqiqiy pedagog kasbdoshi yoki o'quvchisi sodir etgan qo'pollikdan ham afsuslanadi, xijolat chekadi.

Bunday xissiy holat bolaga kuchli tarbiyaviy ta'sir etadi. Or-nomus vijdoniylikning mezonidir.

O'qituvchilik vijdoni axloqiy madaniyatlikning ifodasidir. U faol ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega bo'lib, bolalarda vijdon, sha'n, qad-qimmat haqidagi tasavvurlarni hosil qiladi. Shuning uchun ham o'qituvchining vijdoni doimo pok bo'lmog'i kerak. Muallim hamma vaqt o'z-o'zini, o'z hatti - harakatlarini o'quvchilar va ota-onalar ko'zi bilan nazorat qilib borishi darkor. Muallim bolaning ko'z oldida kelajakning timoli sifatida namoyon bo'lmog'i lozim.

Chunki bugun undan saboq olayotgan o'quvchilar o'n besh-yigirma yildan so'ng jamiyat hayotida, ijtimoiy mehnatda faol qatnashadi. Muallim bugun qanday yashab, qanday ishlab, o'quvchilarni qanday o'qigan bo'lsa, uning timoli o'quvchilar uchun ularning hayot yo'lini yorituvchi axloqiy nur bo'lib xizmat qiladi. Muallimning o'z vijdoniga qilgan har bir xilof ishi, nafaqat bugun uning atrofidagi kishilar uchun, balki jamiyatning kelajagi uchun xam zararlidir. Pedagoglik vijdoni o'qituvchidan faqat buguni emas, balki o'z o'quvchilarining kelajagini ham o'ziylab qadam bosishni talab etadi.

O'qituvchining kasbiy-axloqiy fazilatlaridan biri talabchan va adolati bo'lishdir. Muallimning talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi ifodalanadi. Bu haqiqiy insonparvarlikning namoyon bo'lishi, ya'ni rivojlanayotgan bola shaxsi to'g'risida, jamiyat uchun foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to'g'risida g'amxo'rlikdir. O'quvchilar lokaydlikni yoqtirmaydilar, aksincha yaxshi niyat bilan oqilona qilingan talabchanlik ularning muallimga hurmatini oshiradi.

O'qituvchi avvalo o'ziga nisbatan talabchan bo'lmog'i kerak, shundagina uning bolaga nisbatan qo'yayotgan talablari o'rinni, samarali bo'ladi. Muallimning talabchanligi adolatlilik bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i zarur. Kuch adolat va haqiqatdadir. Adolat tushunchasining mazmunida haqiqat, poklik, to'g'rilik, kuch-qudrat mujassamd.

Adolatlilik, umuminsoniy va milliy axloqimizning muhim xislatlaridan hisoblanadi. Islom ta'limotida adolat, adolati bo'lish fazilati yuksak qadrlanadi. Adolat kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda odillik bilan ish tutishni taqozo qiladi. Adolatlilik kishida o'tkir aql, no'f mulohaza, oliyanoblik va martlik mavjudligini bildiradi. Adolati bo'lish o'z so'zida turish, qat'iylk demakdir. Adolati kishining dili pok, ko'ngli xotirjam, o'zi xavf-xatar, kulfatdan uzog, odamlarning ishonchiga sazovor bo'ladi.

O'qituvchi odobida adolatlilik fazilati pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'qituvchi odobida adolatlilik muallimning xolisligida, axloqiy tarbiyalanganlik darajasida, o'quvchilar xulqini, jamoat ishlariga munosabatini, bilimni baholashda ko'rinadi. Demak, adolatlilik bir tomondan muallimning axloqiy fazilati hisoblansa, ikkinchi tomondan o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sirini baholashning mezonini hisoblanadi. Muallimning o'quvchilarga va pedagogik jarayon qatnashchilariga bo'lgan munosabati mammanlikdan, noxolislik, o'zboshimchalikdan xoli bo'lishi lozim. Shundagina u adolati hisoblanadi. Muallimlik ishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u har kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, ularning bilimini, xulqini baholaydi. Yaxshi ishlarini rag'batlantiradi, nojo'ya xatti-harakatlari, sho'xliklari uchun tanbeh beradi. Albatta, muallimning fikr-mulohazalari, baholarida nisbiylik belgilari mavjud. U hamma bolalarga aynan birdek, juda to'g'ri munosabatda bo'la olmasligi mumkin. Lekin o'qituvchi hammaga nisbatan xolis niyatli, yaxshiilik qilishga intiluvchi, bolalarning kelajagi, taqdiri to'g'risida g'amxo'rlik qiluvchi, adolati kishi ekanligiga barcha o'quvchilarning ishonchi komil bo'lmog'i darkor. O'quvchilarda muallim «yoqtiradigan», «yoqtirmaydigan» bolalar bor degan fikr tug'ilmasligi kerak.

O'qituvchi bolaning mustaqil ijodiy fikrlarini, to'g'ri javoblarini ma'qullashi, qo'llab-quvvatlashi, rag'batlantirib borishi lozim. Bolaning javobi noto'g'ri, fikrlari chalkash, xato bo'lsa, muallim buni o'quvchiga yetarli asoslar bilan isbotlab ko'rsatishi kerak.

O'qituvchining ta'lim-tarbiya sohasidagi ijtimoiy qimmatli xatti-harakatlari adolat mezonini bilan baholanadi. Adolati muallim, odil ustoz degan nomga sazovor bo'lish har bir o'qituvchining shartli burchidir. Muallimning qandayligi ishchanlik va axloqiy fazilatlarida o'z ifodasini topadi. Adolatlilik boshqalarga yaxshiilik qilish fazilati

bilan chambarchas bog'liq.

Adolat bo'lmasa, yaxshilik bo'lmaydi. Shuningdek, yaxshiliksiz adolat ham bo'lmaydi. Pedagoglik odobi nuqtai nazaridan adolatlilik bu, ta'lim-tarbiya jarayoni me'yori amalga oshirishning sharti hamdir. Pedagoglik ishida adolati bo'lish, bu o'quvchining ishonchini ko'zga ko'rsatadi. Buning uchun esa bolaning qalbidagini, dilidagini bilmoq, tushunmoq kerak.

Bolaning bilimni baholashda muallimning adolatliligini o'quvchilar ham o'zlaricha muhokama qilib, baholab boradilar. Muallim yoki ota-onaning bolaga nisbatan adolatsiz hatti - harakati, munosabati bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir etib, nevrozga sabab bo'lishi ham mumkin. (Nevroz—markaziy asab tizimining buzilishi natijasida yuzaga keladigan va ichki organlar faoliyatini susaytiradigan kasallik.) Bola bilan bo'lgan muomala-munosabatlarda uning taqdiriga nisbatan loqaydlik, unga o'rinsiz baqirish, qo'rqtirish, jahl qilish kabilar shunga olib keladi.

Bilimdorlik, xalollik, rostgo'ylik — o'quvchining muhim axloqiy fazilati, ma'naviy boyligi hisoblanadi. Bu fazilatlari insoniy munosabatlarni go'zallashtiradi. Insonning moddiy ehtiyojlari cheklangan bo'ladi va to'la qondirilishi mumkin. Lekin ma'naviy ehtiyojlari ma'naviy boyliklar singari cheksizdir. Kishi insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklarni qanchalik ko'p o'zlashtirsa, uning shaxsi shunchalik barkamol bo'ladi.

O'quvchining ma'naviy boyligi, bilimdonligi xalq manfaatiga, yoshlarning baxti, istiqboli, kelajagiga qaratilishi, xizmat qilishi zarur. Mashhur mutafakkir aytganidek, agar kishi faqat o'zi uchungina ishlasa, uning mashhur olim, ulug' donishmand, ajoyib shoir bo'lishi mumkin, lekin u hech qachon haqiqiy, barkamol inson bo'la olmaydi. Buyuk kishi bo'lish uchun avvalo jamiyat taraqqiyoti yo'lida, insoniyatning buyuk orzu-istaqlarini ro'yobga chiqarish yo'lida xizmat qilmoq va buning uchun zarur bo'lsa, o'z hayotini ham qurbon qilishga tayyor turnoq kerak.

Muallimning bilimdon bo'lishi, insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklarni ko'paytirishi va uni yoshlarga aslovdil o'rgatishi, o'z ishtidan qanoat hosil qilishi, o'z kasbini, bolalarni didan sevir, berilib ishlashi bularning barchasi o'quvchi shaxsining shakllanishiga bebaho axloqiy ta'sir etadi.

Har tomonlama bilim va yuksak madaniyatga ega bo'lish o'quvchi o'qib o'qib talablaridan biridir.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat kishisining ideali insonning aqliy barkamol, ma'naviy boy, ishbilarmon, axloq-odoblilik, xalol, rostgo'y, o'zini tuta oladigan bo'lishini taqozo qiladi.

O'quvchilar bu idealga intiladilar. O'quvchiga axloqiy ta'sir o'tkazishning samarasi o'quvchining chuqur bilimlik, yuksak madaniyatli, barkamol inson bo'lishiga bog'liq. Muallim o'zi o'qitadigan fanni yaxshi bilishi va undan tuzukgina dars berishi bilangina bunga erisha olmaydi.

Haqiqiy ustoz o'z predmetini bilish bilangina cheklanib qolmay, juda ko'p narsalarni bilishga, tushunishga, his etishga intilishi lozim. Matkuraviy hayot, badiiy adabiyot, tasviriy san'at, teatr, kino, televidenie, musiqqa, arxitektura, sport muallim bularning barchasidan xabardor, ularni tushunadigan, qadrlaydigan bo'lishi talab etiladi. O'quvchi hamma narsani ko'ra oladigan bo'lishi zarur, lekin yuzaki xar joydan bir shingil emas, balki, avvalo, o'z ishini, o'zi o'qitadigan fanni puxta bilishi, shu bilan birga bilimlarning boshqa sohalariga ham qiziqishi, ulardan xabardor bo'lishi dardor.

O'quvchining ma'naviy qiyofasida xalollik, rostgo'ylik, axloqiy poklik, oddiylik va kamtarlik muhim fazilatlardan hisoblanadi. Bu fazilatlari kishiga ichki go'zallik, ma'naviy poklik bag'ishlaydi, kishining qad-qimmatini oshiradi. Halollik muallimning ichki va tashqi dunyosining birligini, so'zi bilan xatti-harakati to'g'ri kelishini, o'quvchilarga, xamkasblariga, ota-onalarga ochik ko'ngil va samimiy munosabatini ifodalovchi axloqiy fazilatdir. U inson xarakterining mohiyatidan kelib chiqadi. O'quvchining xalolligi o'z vazifasini vijdonan va ongli ravishda bajarishda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston maktablarida ta'lim-tarbiya ishlari, pedagogik faoliyatning samaradorligi, ta'sirchanligi o'quvchilar, ota-onalar jamoasi, oilada shakllangan axloqiy munosabatlarga, muomala o'qib o'qib bog'liq. Muallim ta'lim-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar bilan muomala bo'ladi. Barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan o'quvchilar, kasbdoshlari ota-onalar muallimning har bir harakati, barcha ishlarini inson sifatida kuzatib boradi, xis etadi, axloqiy jihatdan baholaydi, qabul qiladi yoki rad etadi.

Xullas, ta'lim-tarbiya ishlarining natijasi, o'quvchi faoliyatining

ta sirchanligi pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobiga, pedagogik jarayon ishtirokchilarining axloqiy-ruhiiy holati, kayfiyatiga bog'liqdir.

Axloqiy baholalar esa kishilarning xulqini, xatti-harakatlarini nazorat qiladi, tartibga soladi. Muomala-munosabatlar kishi o'z xulqi va faoliyatida axloqiy tamoyillar, qoidalar, talablar, an'analarga, urf-odatlariga qay darajada amal qilayotganiga qarab baholanadi. Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobida muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasi aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, o'quvchilarga, kasbdoshlariga, ota-onalarga muomalasini belgilovchi asosiy qoidalar, talablar mavjud.

Pedagogik jarayonda muomala odobi o'quvchining faoliyatida namoyon bo'ladi. O'quvchilik faoliyatiga qo'yiladigan axloqiy talablar o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi yosh avlodni umuminsoniy va milliy-ma'naviy, madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasida kun tartibiga qo'yayotgan vazifalarga bog'liq. Ular pedagogik jarayondagi muomala odobida, unda qatnashayotgan kishilarning xulqi, xatti-harakatlarida ifodalanadi. Bu xatti-harakatlar pedagogik jarayon qatnashchilarining ta'lim-tarbiya maqsadi, vazifalari, usul va vositalarni, axloqiy qadriyatlarni qay darajada qabul qilishlari shaklida namoyon bo'ladi.

Muomala odobining tuzilishi juda murakkabdir. U pedagogik faoliyatda sub'ekt-ob'ekt munosabatlarini shakllantiradi. Sub'ekt-ob'ekt munosabatlarini muallim o'zining kasbiy burchini bajarayotganida o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, jamoat tashkilotlarining vakillari bilan o'quvchi o'rtasidagi aloqalarda vujudga keladi. U o'zaro hurmat darajasi, ishonch, talabchanlik, xayrixohlik, tashabbuskorlik, o'zaro g'amxo'rlik, har birlarining inson sifatida qad-qimmatini e'zozlash kabilarida namoyon bo'ladi. Ular o'quvchining pedagogik faoliyatda boshqalar bilan muomalasining xarakterini baholashga xizmat qiladi. O'zaro ta'sirlar o'quv ishida, turmushda, dam olish paytlarida, oiladagi muomala-munosabatlarining xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Pedagogik etikada muomala odobining biror jihati, masalan, o'quvchining o'z kasbiga munosabati, burchi alohida tahlil etilishi mumkin. O'quvchilik kasbi kishiga ma'lum talablarni qo'yadi, lekin muallim bu talablarni qanday bajarayotgani bu talablarda hali aks etmaydi. O'quvchining pedagogik faoliyati natijalarini xalq ta'limi bo'limlari,

maktab ma'muriyati, metodik birlashma xodimlari baholaydi.

Pedagogik jarayonda o'quvchi axloqiy munosabatlarning sub'ekti hisoblanadi. U pedagogik jarayonning asosiy kishisi sifatida o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar bilan muomalada bo'ladi. Pedagogik muomala odobi tizimida o'quvchi asosiy figuradir. O'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, pedagoglar jamoasi va jamoat tashkilotlarining vakillari o'quvchi uchun pedagogik muomala-munosabatlarining ob'ekti hisoblanadi. Ular bilan bo'ladigan aloqalar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish vazifalarini bajarish jarayonida sodir bo'ladi. Bu muomala jarayonida ishtirok etadigan kishilar bir-birlariga nisbatan xayrixoh, ijobiy hissiyotda bo'lishlari, bir-birlarining fazilatlarini o'zaro baholashlari, kadrlashlarini nazarda tutadi.

Muomala odobida o'quvchining axloqiy ongi, axloqiy faoliyatining yetuklik darajasi, axloqiy ehtiyojlari va axloqiy yo'nalishlari, so'zi bilan ishining birlik darajasi, xullas, muallimning faol hayotiy nuqtai nazarini namoyon bo'ladi.

Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar yosh bolalar bilan mulqotida bo'ladi. Bolalar ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy axloq mezonlarini uzlastiradi. O'quvchi muomala odobini asosan o'quvchi timosolida anglab oladi. Sevimli muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qolishi xam mumkin.

Respublikamiz o'quvchilari orasida o'z ishining ustasi, Xalq o'quvchisi, Xizmat ko'rsatgan o'quvchi, yil o'quvchisi, deb tan olingan ota-onalar, yoshlar e'zozlab Ustoz deb ataydigan mo'tabar insonlar ko'plab topiladi. Ular pedagogik ishda fidoyilik ko'rsatib, muallimlik burchini yuksak darajada bajarib, bolalarga bilim berib, ular kalbiga xalollik, go'zallik, haqiqat, odob-axloq nurini singdira olganliklari, xushmuomala bo'lganlari uchun xam bunday obro' va hurmatga erishganlar.

Barkamol, ijodkor shaxsni shakllantirishga, tarbiyalashga doir axloqiy me'yorlar pedagogik etikada ifodalanagan. Tarbiyalanuvchiga ijobiy ta'sir o'tkazish shartlaridan biri bolaga bo'lgan ishonch bilan unga nisbatan qo'yilayotgan talablarning birligidir. Pedagogik jarayon, tarbiya jarayoni, odamlarning tabiati shu darajada murakkabki, muallim ba'zan istasa-istamasa qo'pollik qilishga «majbur» bo'ladi, o'quvchi muallimning o'rinli talablarini bajarayotgan paytlarida u

o'zini tutolmay qoladi. Muallim o'z talablarini, hatto qo'pollik holatini ham, bolaga yaxshilik qilyapman deb hisoblaydi, chunki bu ishini bolaga bilim berish, uni to'g'ri yo'lga solish, yaxshi odam qilib tarbiyalash uchun qilyotganiga ishonadi. Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asarining «Tarbiyaning ta'siri bayoni» bobidagi xikoyatlarda, Alisher Navoiyning «Maxsub ul-qulub» asaridagi «Mudarrislar to'g'risida», «Maktabdorlar to'g'risida»gi makolalarida bildirilgan mulohazalar bu fikrimizga hamohangdir.

Bunday holatlar ko'pincha tarbiyasi qiyin bola bilan muomalamunosabattar jarayonida sodir bo'ladi. Shuni ham unutmashlik lozimki, bunday bola odatda, nosog'lom oiladan chiqadi. Bola oiladagi yomon muhitning qurboni bo'lishi ham mumkin. Tajribali pedagoglar tarbiyasi qiyin bola bilan ishlash, muomala qilish murakkabligini, shu bilan birga ular insoniy mehrga zor, xushmuomalaga, e'tiborga muhtoj ekanligini, bundaylarga nisbatan bardoshli, sabr-toqatli, kechirimli bo'lish zarurligini ham ta'kidlaydilar.

Jismoniy jarohat olgan bolani o'qituvchi jazolamasligini hamma biladi. Jismoniy tarbiya muallimi oyog'i jarohatlangan boladan yugurish musobaqasida qatnashishni talab etmaydi. Bola ba'zan qalbi, ruhi jarohatlangan holda maktabga kelishi mumkin. Ta'lim jarayonida buni hamma o'qituvchilar e'tiborga oladimi? Afsuski yo'q. Bola javob berishni xohlamayapti, dars tayyorlashni istamagan, deb hisoblab hamma o'quvchilarga bir xil talab qo'yish, bir xil muomala qilish hollari ko'plab uchraydi. Ba'zan boladan hatto u bajara olmaydigan ishlar ham talab etiladi. Ayrim o'quvchilar bolaning oilasidagi, otasidagi nuqsonlari uchun ham uni ayblashga urinadilar.

O'quv ishining shunday o'ziga xos axloqiy jihatlar borki, ular muallim bilan o'quvchi o'rtasidagi muomalaga bevosita yoki bivosita ta'sir etadi. Masalan, ta'lim jarayonida ishonchning o'z o'rti bor: o'quvchi muallim berayotgan bilimlarning to'g'riligi, haqoniyligiga ishonadi, muallim bolaning bu ishonchiga munosib bo'lishi kerak. O'qituvchi ham bolalar uning aytganlarini hech ikkilanmay qabul qilyotganlariga ishonadi. Bu muomala o'qituvchi umumiy tamoyillaridan biridir.

Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro bir-birlariga ishonishlariga asoslanmog'i zarur. Muallim bilan o'quvchining muomala-munosabatlari ijodiy xarakterga ega. Ishonch yo'q joyda ijodkorlik ham bo'lmaydi.

Ishonch, hurmat, mehribonlik, xayrixohlik talabchanlikni inkor etmaydi, balki nazarda tutadi.

Muallimning qat'iqo'lligi va talabchanligi bolaga axloqiy ta'sir o'kazishning zarur shartlaridan biridir. Bolada hayotiy tajriba yo'qligi, irodaviy sifatlari yaxshi shakllanmaganligi tufayli ham muallim unga nisbatan talabchan bo'lmog'i darkor.

O'qituvchi bolaning imkoniyatlarini, qobiliyatini hisobga olgan ta'kididagina undagi kamchiliklarni bartaraf etib oladi, uning pedagogik talablarini bola bajarishi mumkin.

Muallimning talablari bolaning imkoniyat darajasidan past bo'lsa, undagi qobiliyatlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi; agar muallimning talablari bolaning qobiliyati va imkoniyatlaridan ortiq bo'lsa, bolada o'z kuchiga ishonmaslik, ishdan o'zini chetga olish hissiyotg'usini paydo qiladi. Muallimning qat'iqo'lligi va talabchanligi axloqiy tarbiyaning boshqa vositalari bilan birga olib borilishi kerak.

Bola harakat qiladigan hayotiy vaziyatlarni, kutilmagan holatlarni oldindan aniqlash juda qiyin. Bolalarni xatolardan mutlaqo saqlab qolish ham muammo. Muallimning vazifasi o'quvchiga o'z xatti-harakatlarining natijasini ko'z oldiga keltira bilishni va o'z xulqi uchun mas'ul ekanligini tushuntirish, anglatishdan iborat.

Axloqiy munosabattar tizimida muallimning o'quvchilar jamoasi, o'z-o'zini boshqarish organlari bilan muomalasi muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari bolalarni amaliy faoliyatga jalb etishning muhim yo'nalishidir.

Pedagogik dalillar va ularning tahlili shundan dalolat beradiki, muallim o'quvchilar bilan muomalada ma'lum axloqiy talablar, mezonlarga amal qilishi zarur. Bularidan eng muhimlari quyidagilar:

— pedagogik faoliyat jarayonida muallim har bir o'quvchining qadrigini inson sifatida hurmat qilish, o'quvchiga nisbatan ishonch;

— o'quvchining bilimi va xulqini baholashda talabchan, adolatlilik bo'lish. Muallimning bolaga pedagogik talablari real, uning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga mos bo'lishi, bolalarda o'z-o'ziga nisbatan talabchanlik va tanqidiy munosabatlarni o'rnatish;

— muallimning bolaga mehribon, g'amxo'r bo'lishi, bolaning shodligiga ham, tashvishlariga ham sherik bo'lish;

— bola mushkul vaziyatga tushib qolganda unga ko'maklashish. Muallimning yordami xolis, beg'araz, beminmat bo'lishi;

— pedagogik jarayonda sodir bo'lib turadigan ziddiyatlar, nizolarni ma'muriy yo'l bilan emas, balki axloqiy mezonlar asosida murosaga kelish yo'li bilan hal etish;

— sinf jamoasining fikr-mulohazalarini e'tiborga olish, ularga ishonch bilan qarash, bolaning xulqiga baho berganda uning sabablarini, motivlarini e'tiborga olish;

— sinfda muallim «yaxshi ko'radigan», «yomon ko'radigan» o'quvchilar bo'lmasiligi kerak;

o'quvchini biror xato xatti-harakati uchun yomon ko'rib qolmaslik; har bir bolaning yaxshi fazilatlarini aniqlash, o'stirish va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishda unga tayanish;

— o'quvchi o'zining butun hayoti va mehnat faoliyatida yomonlikka, adolatsizlikka, iopoklikka, xulqi buzuklikka nisbatan murosasiz ekanligini ko'rsatishi;

— bolaning ishonchini suiste'mol qilmaslik, uning kalb «sir»larini oshkor etmaslik, oldin yo'l qo'ygan xatolarini ta'na kilmasslik;

— muallim tarbiyachi sifatida, axloqan pok, tajribali inson sifatida o'quvchilarga axloqiy yo'l-yo'riklarni o'rgatishi, ularda xayriy voqealar va dalillarga ijobiy munosabatlarni, axloqsizlik dalillariga murosasiz bo'lish tuyg'usini o'stirish;

— bolalar bilan muomala va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondoshish, pedagogik taktni saqlash.

Uzlaksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi fakat o'quvchining tayyorgarligi, ma'naviy qiyofasi va o'z vazifasini qanday bajarishigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, balki bola yashaydigan muhit va oilaning ta'siriga xam bog'liqdir. Oila bolani axloqiy tarbiyalash, uning ma'naviy-axloqiy yo'nalishlarini shakllantirishning muhim omilidir.

Oila bola tarbiya oladigan eng birinchi jamoa bo'lib, bola unda axloqiy qoidalar, urf-odatlarini bilib oladi, dastlabki axloqiy tajriba ortiradi.

Tarbiyaning samaradorligi ko'pincha oila va uzluksiz ta'lim tizimining bolaga nisbatan bir xil talab qo'ya bilishiga bog'liq. Shuning uchun ham pedagogik axloqda o'quvchi bilan ota-onalarning o'zaro munosabatlari, muomalasiga katgga e'tibor beriladi, muallim oila bilan aloqa va hamkorlik qilmasdan turib, bolani axloqiy tarbiyalash vazifasini bajara olmaydi.

Chunki maktab oilada shakllangan axloqiy fazilatlarini mustaxkamlashi yoki illatlarni yo'qotishi lozim bo'ladi.

Ota yoki onadan ajralgan bola bilan muallimning o'zaro muomalasi jiddiy, nozik ish. Ota yoki onaning vafot etishi bola uchun og'ir qayg'u, iztirob keltiradi, bunday kulfatga ko'nikish qiyin kechadi. Bunday bolalar o'z dardi, o'z qayg'usi bilan ovora, atrofda sodir bo'layotgan voqealar, hodisalariga befarq qaraydigan bo'lib, yakkalanib qoladi. Muallim bunday bolaga g'amxo'r bo'lishi, yaxshi muomala qilishi uning ruhini ko'taradi. Bunday paytda muallimning o'ta rasmiy muomalasi yaxshi oqibatga olib kelmaydi, bolaning irodasini bo'shashtirib, qiyinchiliklarga bardosh berolmaydigan qilib qo'yadi. Yetim bolalar orasida shundaylari ham borki, bular otasi yoki onasi tashlab ketganlardir. Eng ishongan va yaxshi ko'rgan, eng yaqin odamidan ajralib qolgan bolaga qo'pol muomala qilish uni ranjitadi, kalbini jirohatlaydi. Kichkinagina haqsizlikka ham chiday olmaydigan, har bir narsadan xavfsiraydigan, kattalarning gapiga quloq solmaydigan, qo'rs, o'jar, o'zboshimcha bo'lib qoladi. Muallimning o'ta xushyorlik, e'tibor bilan to'g'ri muomala qilishi natijasidagina ularda kattalarga ishonch tuyg'usi qayta tiklanishi mumkin.

Har bir bolani yaxshi odam qilib tarbiyalashdan muallim ham, ota-onam ham manfaatdor. Maqsad birligi o'quvchini ota-onalar bilan bog'lab turadi. Bolani yoqtirsa ham, yoqtirmasa ham ota-onasi bilan aloqada bo'lish muallimning vazifasidir. Muallimning ota-onalar orasidagi obro'yi ko'pincha o'quvchining fikri, mulohazalari asosida shakllanadi. Vaholanki, bolaning fikri xato bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, muallimning ota-onalar to'g'risidagi fikri ham bolaning suvratini va siyratidan olgan taassurotlariga asoslanadi.

O'quvchi odobi muallimda ham, ota-onada ham xato fikr, noto'g'ri taassurot bo'lmasiligini taqozo qiladi. Bu tamoyilga avvalo muallim amal qilishi lozim, chunki u pedagog-tarbiyachi sifatida o'zini tutishi, mabodo ota-onalarning u haqidagi biror fikri xatoligini sezsa ham, mayda-chuyda o'tkinchi gaplarga berilib ketmasligi zarur. Muallimning ko'nglida kek saqlashi bola bilan muomalasida axloq qoidalarining buzilishiga sabab bo'ladi.

O'quvchining kundalik daftaridan muallim axloqiy tarbiyaning, bolaga ta'sir o'tkazishning muhim vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Albatta hamma o'quvchilarni muomala odobini buzishda

ayblab bo'lmaydi, ko'pincha muallimlar ota-onalar majlisidan tarbiya-ning vositasi sifatida o'rinni foydalanadilar. Maktab bilan oila o'rtasidagi muomala-munosabatlar jarayonida konfliktlar, nizolar sodir bo'lishi tabiiydir. Chunki bolalarning individual xususiyatlari, xarakteri juda xilma-xildir. Ular bilan muomalada hech kutilmagan hodisalarga duch kelinadi.

Bola tajribasizligi tufayli xato qilishi mumkin. Bunday paytlarda maktab rahbari va pedagoglar muomala odobi qonuniyatlariga qat'iy amal qilishlari talab etiladi.

Shunday vaziyatlar ham bo'ladiki, o'g'il yoki kiz bola uzluksiz ta'lim tizimida o'zboshimchalik qiladi, lekin oilada xushyor va gapga quloq soladi. Yoki aksincha. Oilada muomalasi qo'pol, o'zboshimcha, maktabda esa o'zini xushmuomala, intizomli tutadi. Buning sababi nimada? Bunday holatlarning hammasi uchun bir xil sabab va to'g'ri javobni topish amri mahol. Chunki har bir holatda uning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Demak, o'qituvchi va ota-onalarning maqsadlari bir xil bo'lsa ham ularning hankorligi, bir-birini tushunishi, muomala-munosabatlari qarama-qarshiliklarsiz bo'lmaydi. Shuning uchun ham bunday vaziyatlarda muallim ota-onalar bilan muomalada quyidagi odob mezonlariga amal qilmog'i lozim:

muallim ham, ota-ona ham bolada ro'y berayotgan o'zgarishlarga befarq qaramasligi; bolaning xulqida uchragan muqsonni yashimastiklari; maktab bilan oila orasidagi muomala samimiy bo'lishi; bolaning xulqi maktabda ham, uyda ham bir xil bo'lishiga erishish; muallim ham, ota-ona ham bola haqida ko'proq bilishga intilishlari; muallim ota-onalarning his-tuyg'ularini e'tiborga olishi, qadrgimatlarni e'zozlashi.

Muallim bolaning ota-onasiga yolg'on gapirish kerak-mi? Yo'q, albatta. Lekin xadislarda ta'kidlanganidek, foydali yolg'on joyi kelganda zararli haqgo'ylikdan afzaldir. Pedagogik jarayonda o'qituvchi bu muammoga bolani axloqiy tarbiyalash nuqtai nazaridan vaziyatga qarab yondoshmog'i lozim.

Shunday ota-onalar ham borki, bo'lar-bo'lmasga bolasini jazolay-veradi. Bunday vaziyatlarda muallim bolaning barcha xatolarini hadeb ota-onasiga aytaverishi shart emas. Shuningdek, hal etilgan mojarolar, ilgari bo'lib o'tgan voqealarni ham ota-onaga yetkazaverish to'g'rimas. Tarbiya masalasida muallimning va ota-onalarning fikrlari bir-biriga

to'g'ri kelmasa ham bu sohada ular birga bajargan yaxshi ishlarini yo'g'ga chiqarmaslik lozim. Pedagogik odob muallimdan ota-onalar bilan faqat ularning ko'magi zarur bo'lgan paytlardagina emas, balki muntazam ravishda aloqada, yaxshi muomalada bo'lib turishni talab etadi. Shu bilan birga ota-onalar jamoatchiligining yordami bilan muallim bolaning xulqiga, axloqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir etayotgan yoki maktab, muallimlar haqida nojo'ya so'zlarni aytib yuradigan ota-onalarga ta'sir etishi mumkin. Ayrim noqobil ota-onaning xatosini tanqid qilishga sinf ota-onalar

jamoasini jalb etish ham maqsadga muvofiq. Ayrim jamoatchi faollar ularga muallimdan ko'ra ko'proq ta'sir o'tkazishi mumkin.

Muallimning asosiy vazifasi, pedagogik odobning muhim talablaridan biri o'quvchiga ota-onasining yaxshi fazilatlarini aytib, bolada ota-onasiga nisbatan hurmat, muhabbat tuyg'usini o'stirish, mustaxkamlashdan iborat.

Pedagogik odobning muhim talablaridan biri muallim ham, ota-ona ham, maktab rahbarlari ham o'smir yoshidagi bolalar bilan muomala qilganda pedagogik taktini saqlashi, bolaning izzat-nafisiga tegmasligidir. Bu sohadagi xato, ba'zan, fojiaiga olib kelgan holatlar ham uchraydi.

Muallim ota-onalar orasida olib borayotgan targ'ibot muomala odobini kengroq yoyishga xizmat qilishi kerak. Muallimning bola haqidagi tanqidiy gaplari, bolasi qanday bo'lishidan qat'i nazar ota-onaning nafsoniyatiga tegadi. Muallim bilan ota-onalar o'rtasida nizolarga sabab bo'ladi. Shuning uchun muallim bolaning xatosini bo'rtirib ko'rsatmasligi kerak. Bunday paytlarda odob qoidalariga qat'iy rioya qilish, aql-idrok hissiyotdan ustun turishi zarur.

Ishchan pedagoglar jamoasining shakllanishi ko'p jihatdan uzluksiz ta'lim tizimi direktorining faoliyatiga bog'liq. Maktabda ahli, yagona jamoa tuzish uchun pedagoglarning o'zaro axloqiy munosabatlarini, maktabda mavjud bo'lgan an'analarni, o'qituvchilarning axloqiy darajasini o'rganish, bilish zarur. Yagona, ahil, ishchan pedagoglar jamoasining shakllanishi asta-sekinlik bilan amalga oshiriladi. Buni quyidagi mezonlar asosida aniqlash mumkin. Mustaqil O'zbekiston davlati kun tartibiga ko'yayotgan umumiy talablarni, maqsad, vazifalarni pedagoglar jamoasining barcha a'zolari axloqiy va ruhiy jihatdan qanday qabul qilishlari, pedagoglar jamoasining faoliyatida ijodkorlik darjasi; pedagoglar jamoasida o'zaro xayrixohlik, shuningdek, xolisona tanqid

va o'z-o'zini tanqid qilishning rivojlanganlik darajasi.

Uzlaksiz ta'lim tizimi rahbarining o'qituvchilar bilan muomala odobida pedagoglar jamoasidagi xayrixohlik va ijodkorlik vaziyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya ishlarini yuqori saviyaga ko'tarish avvalo, maktab rahbarining muomala odobiga, ahli, inoq pedagoglar jamoasini asta-sekin shakllantira borishga, jamoadagi o'zaro munosabatlarni o'qituvchi odobi me'yori, talablari asosida yo'naltirishga bog'liqdir. Jamoa shakllanishining dastlabki paytlarida bu jarayon umumiy va axloqiy me'yorlar va mavjud shart-sharoitlarni bilib olishdan boshlanadi. Bu davrda maktab rahbari va pedagoglarning xulqi, xatti-harakatlarida, o'zaro moslashish sodir bo'ladi. Uzlaksiz ta'lim tizimida har bir muallimning ijodkorligi, alohida xususiyatlarini, o'qituvchilarning bilim darajasini o'rganadi. Bu jarayonning tezlashuvi maktab direktorining rahbarlik uslubiga ko'prok bog'liq bo'ladi.

Pedagogik odob o'qituvchilar jamoasining o'zaro muomalasi yuksak axloqiy, madaniy darajada bo'lishni taqozo qiladi. Yuksak axloqiy madaniyat maktab rahbarining o'z ishini yaxshi bilishni, muallimlarga ishonch bilan qarashni, har bir o'qituvchining faoliyatida ijobiy jihatlarni ilgashi, xushmuomalikni, birgalashib ishlashni, ayrim o'qituvchilar tajribasizligi tufayli yoki bilmasdan yo'l qo'ygan xatolarga nisbatan bardoshi bo'lishni; shu bilan birga ishlarga beparvo qaravdigan, vijdonsiz kishilarga nisbatan murosasiz bo'lishni ham taqozo qiladi.

O'qituvchilarda pedagogik va axloqiy madaniyatni tarbiyalash har bir rahbarning muhim vazifasi bo'lib, bu ishini butun pedagoglar jamoasining ishtiroki va ko'llab-quvvatlashi bilanгина bajarish mumkin. Pedagogik mahorat tug'ma qobiliyat talab qiladigan alohida san'at emas, balki har bir kishi o'rganib, egallab olishi mumkin bo'lgan malakadir.

Kasbiy pedagogik axloq, shaxsning axloqiy ongi singari, axloqiy bilimlarni egallash asosida hosil bo'ladi. O'qituvchining kasb axloqi uning hissiy kechinmalari, axloqiy ideal va e'tiqod bilan uzviy birlikda yaxit holda shakllanadi. Pedagogik faoliyati va pedagogik ong bilan chambarchas bog'liq bo'lgan axloqiy bilimlar, axloqiy his tuyg'ular, axloqiy e'tiqod o'qituvchi odobining tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Axloqqa doir bilimlar jamoada odamlar xulqini tartibga soluvchi

axloqiy tushunchalar, tamoyillar, talablar, qoidalaridan iborat. Kishining axloqqa doir bilimlari to'la yoki chala bo'lishi mumkin. Axloqiy bilimlar o'zgaruvchidir. Ta'lim-tarbiya jarayonida, o'z-o'zini tarbiyalashda ayrim axloqiy tasavvurlar, qarashlar o'zgarib turadi.

Masalan, mustayllik tufayli O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar ta'sirida kishilarimizning axloqqa doir tushunchalari, qarashlarida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Qur'oni Karim, Xadislarning o'zbek tilida chop etilishi, O'rta Osiyolik muafakkirlar, davlat arboblarning asarlari keng ko'lamda nashr etilishi natijasida kishilarda, ayniqsa, yoshlarda umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida yangi axloqiy tushunchalar, axloqiy qarashlar, bilimlar shakllanmoqda.

O'qituvchining pedagogik odobga doir bilimlari to'laigi va barqarorligiga jihatidan bir-biridan farq qiladi. Muallimlik kasbini egallayotgan har bir yigit-qiz pedagogik axloqqa doir tushuncha, qoidalarini bilib oladi. Bu ta'lim-tarbiya, pedagogik amaliyot jarayonida sodir bo'ladi, O'qituvchilik ixtisosini egallash jarayonida bo'lajak muallim pedagogik axloqiy qadriyatlarini puxta o'zlashtiradi.

Ta'lim-tarbiya ishining, pedagogik faoliyatining axloqiy asoslarini tushunish, yaxshilik, adolat, mas'uliyat kabi axloqiy qadriyatlarini anglash O'zbekistonda ro'y berayotgan mafkuraviy o'zgarishlar, umuminsoniy va mil'iy-axloqiy talablarni o'zlashtirib olishga ko'maklashadi. Bu jarayonda pedagog o'quvchilarning axloqiy tarbiyachisi ekanligini anglaydi.

Bo'lajak o'qituvchi bolalarni axloqiy tarbiyalashning mazmuni, shakl va usullarini, bolaning axloqiy shakllanish qonuniyatlarini o'rganadi. Axloq muammolariga ilmiy yondashuvni egallaydi.

Pedagogik faoliyatida axloqiy talab va qonun-qoidalarini o'zlashtirish natijasida o'qituvchining axloqiy bilimlari yanada takomillashadi.

O'qituvchiga nisbatan ko'yiladigan axloqiy talablar jamiyatda ham mavjud bo'lgan axloqiy odatlarga, pedagogik burchiga mos kelishi lozim. Pedagogik odob qoidalarida o'qituvchining o'z kasbdoshlari, o'quvchilar, ota-onalarga munosabati, muomalasi, uning faoliyatiga doir yo'l-yo'riqlarda ifodalanadi.

O'qituvchi odobining talab va qoidalari muayyan bir vaziyatda amalga oshiriladi. Masalan, o'quvchiga bag'irish, do'q urish odobdan emasligini, subtdoshining so'zini o'rinsiz bo'lmisligi lozimligini hamma biladi. Lekin ayrim o'qituvchilar amalda ba'zan bu qoidani

buzadilar.

O'qituvchida axloqiy bilimlar hosil bo'lishining asosiy yo'llaridan biri umuminsoniy va milliy-axloqiy qadriyatlarini bilib, anglab olishdir. Vatandarparvarlik, insonparvarlik, baynalmilalchilik kabi asosiy tamoyillar pedagogik odobda o'qituvchining faoliyati bilan bog'liq tarzda axloqiy talablarga aylanadi va muallimning xulqini tartibga solib turadi.

Kishining borliqdagi narsa va hodisalardan, insonlarning xatti-harakatlaridan ta'sirlanishi natijasida axloqiy-ruhiy tuyg'u, axloqiy-hissiy kechinmalar hosil bo'ladi. Axloqiy his-tuyg'u har kimda turli darajada rivojlangan bo'lib, o'zgaruvchan xususiyatga ega. Ayrim odamlarda hissiyotga o'ta beriluvchanlik, o'zini tuta olmaslik odati mavjud. O'zini tiya bilish kishining axloqiy madaniyati yuksaligini ko'rsatadi. O'qituvchining odob madaniyati, his-tuyg'ulari o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning kuchli vositasidir. U bolalarda axloqiy e'tiqodni hosil qilish uchun ham juda zarur.

Ma'lumki, kishining xulqi, xatti-harakatlari ko'pincha bilimlardan ko'ra ham hissiyot ta'sirida sodir bo'ladi. Demak, pedagogik faoliyat uchun o'qituvchi o'z hissiyotini boshqara bilishi, hissiy tuyg'ularni tarbiyalashi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar va o'quvchilar jamoasida o'zaro bir-birlarini tushunish, o'zaro hurmat va ishonch vaziyati mavjud bo'lishi lozim. Bunday vaziyatni yaratish o'qituvchilar jamoasiga, har bir muallim ishbiroligiga bog'liq.

Xulqiy odatlar, axloqiy qatashlar kishining his-tuyg'usi bilan chambarchas musharakat, his-tuyg'ular xushyorlikni oshiradi, olibanob insoniy xatti-harakatlarni jonlantiradi va aksincha, muallimning loqaydligi, befarosatligi bolalarda ayrim illatlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Shuning uchun ham «tepsa, tebrannas», «dunyoni suv bossa, to'pig'iga kelmaydigan» hissiz kishilarni o'qituvchilik, tarbiyachilik ishiga ko'yish to'g'ri emas. Pedagogika o'quv yurtlariga abituriyent tanlashda ham xushyorlik his-tuyg'usi mavjudligini e'tiborga olish kerak.

O'qituvchining axloqiy his-tuyg'ulari kishi ma'naviy olamining muhim sohasini tashkil etadi.

O'qituvchining axloqiy his-tuyg'ulari uning o'z faoliyatiga, ta'lim-tarbiya ishiga, pedagogik jarayonning barcha ishtirokchilari: o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalarga nisbatan muayyan axloqiy nuqtai nazarini ifodalaydi.

O'qituvchining axloqiy his-tuyg'ulari shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi: birinchisi, muallimning pedagogik kasbiga, o'z ishiga munosabatidan hosil bo'ladigan his-tuyg'ular; ikkinchisi, muallimning o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalarga munosabatidan hosil bo'ladigan his-tuyg'ular.

O'z ishiga tanqidiy munosabatda bo'lish, undan g'ururlanish, zavqlanish, o'z qadr-qimmatini anglash kabi his-tuyg'ular o'qituvchining kasbiy-axloqiy qiyofasini ko'rsatadi. Bu ayniksa, muallimning jamiyatga, davlatga muno-sabati, O'zbekistonni sevisht, unda yashaydigan turli millat va elat vakillariga hurmat, miliy g'urur, pedagogik burchiga sadoqat kabi his-tuyg'ularida namoyon bo'ladi. O'qituvchining vatandarparvarlik his-tuyg'usi o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning o'z Vatani va xalqining taqdiri, kelajagi uchun qayg'urishi, jon kuydirishidan dalolat beradi. O'quvchilar muallimning har bir so'zi, xatti-harakatida O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratish uchun jon-dildan harakat qilayotganini his etishlari lozim.

O'qituvchida insonparvarlik, baynalmilalchilik his-tuyg'usi kuchli rivojlangan bo'lishi darkor.

Bu tuyg'u O'zbekistonning mustakillik mafkurasiga mos keladi. O'quvchilarda insonparvarlik, baynalmilalchilik hislarini tarbiyalab o'stirish orqali mamlakatimiz xalqlarining tinch, hamjihat bo'lib yashashi va mehnat qilishlariga mustahkam zamin yaratiladi. Bunday tuyg'u o'zbek xalqining qadimiy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining tarkibiy qismi hamdir.

O'qituvchining axloqiy nuqtai nazarini belgilaydigan muhim his-tuyg'ulardan yana biri o'qituvchilik burchini, mas'uliyatini his etishdir. Bu tuyg'u muallimni bolalarni sidqidildan, vijdonan sevishtga, o'qitish va tarbiyalash ishini halol va ijodiy bajarishga undaydi. Bunday tuyg'u inson shaxsini shakllantiruvchi barcha ijtimoiy-iqtisodiy, hayotiy shart-sharoitlar ta'sirida hosil bo'ladi. U badiiy asarlarni o'qish, o'rganish va muallimning shaxsiy namunasi ta'sirida o'quvchilik davrlaridayoq paydo bo'la boshlaydi. Bolalar «muallim-muallim», «maktab-maktab» o'ynab, o'qituvchiga taqlid qiladilar. Bu keyinchalik pedagogik kasbini tanlashga ham sabab bo'ladi. Pedagogika o'quv yurtlarining talabalari bilan o'tkazilgan suhbat va yozma ish natijalari bundan dalolat beradi. O'qituvchilik burchini yuksak darajada anglash tuyg'usi

muallimning xatti-harakatlarini tartibga solib, xulqini boshqarib turadi. Unda mas'uliyat hissi gancha yuqori bo'lsa, u ta'lim-tarbiya ishlarini bajarishga shunchalik ko'p kuch sarflaydi, jon kuydiradi, o'quvchilarning o'zlashtirishdagi yutuqlaridan quvonadi. Burch, mas'uliyat hissi pasaysa, so'nisa, o'qituvchining qo'li ishga bormaydi, o'qitish sifati pasayib ketadi.

Axloqiy his-tuyg'ular inson faoliyatining turli sohalarida turlicha namoyon bo'ladi. Pedagogik ishda muallim o'quvchilar bilan ko'proq mulqot qiladi. Ma'lumki, o'quvchi axloqiy tarbiyaning ob'ekti hisoblanadi. Pedagogning ularga munosabati bolalarni hurmatlash, sevisht; ularga nisbatan talabchan va adolatli, g'amxo'r va mehribon bo'lish; bolalar ulg'ayib, kelajakda yaxshi odam bo'lishiga ishonch kabi his-tuyg'ularda ko'zga tashlanadi.

Bo'lajak o'qituvchida pedagoglik kasbiga va bolalarga hurmat, muhabbat hissini tarbiyalash, ularni sevisht tuyg'usini o'stirish pedagogika o'quv yurtlarining muhim vazifasidir.

Kishi o'z faoliyati va xatti-harakatlarida qalb da'vatiga binoan qat'iy amal qiladigan, uning ongidan chukur o'rin egallagan axloqiy bilimlar va qarashlar majmui axloqiy e'tiqod hisoblanadi. Odam hamma vaqt ham o'z tasavvur va tushunchalari bilimlariga mos harakat qilavermaydi. Buning uchun ma'lum bir shart-sharoitlar, e'tiqod kerak. Agar axloqiy bilimlar kishining e'tiqodiga aylangan bo'lsagina, uning xatti-harakatlarini bosh-qaradi.

O'qituvchining axloqiy e'tiqodi — bu, uning axloqiy bilim va qarashlari jamiyatga, o'z kasbiga, o'quvchilar, kasbdoshlari va otionalarga munosabatida, ta'lim-tarbiya vazifalarini bajarishda xulqining qat'iy qonun-qoidasiga aylanishidir.

Pedagoglik kasbi o'qituvchidan faollikni talab etadi. U jamiyatda, tevarakat-rofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq qarab turlmaydi. O'z o'quvchilarini bu hodisalardan voqif qilishi, voqealarning mohiyati sabablarini tushuntirib, ularni to'g'ri yo'lga, shaxs va jamiyat uchun foydali ishlarga yo'naltirishi lozim. Buning uchun o'qituvchida axloqiy e'tiqod shakllangan bo'lishi zarur.

Axloqiy bilim va qarashlar amaliy faoliyat jarayonida ob'ektiv sharoitlar ta'sirida muallimning e'tiqodiga aylanadi. Bilimlar, qarashlar va e'tiqod bir zaminidan o'sib chiqadi, ular axloqiy baholash, axloqiy tamoyillar, talablar, qonun-qoidalar bilan uzviy bog'liqdir.

Bilim va qarashlar o'zgaruvchan bo'ladi. Axloqiy bilim va qarashlar his-tuyg'ular vositasida shaxsning ehtiyoj va manfaatlariga mos ravishda barqarorlashagina e'tiqodga aylanadi.

O'qituvchida axloqiy e'tiqodni hosil qilish shartlaridan biri unda pedagoglik kasbiga qiziqish va bolalar bilan mulqotda bo'lish ehtiyojining mavjudligidir.

Axloqsununos olimlar ikki xil e'tiqod borligini ta'kidlaydilar. Biri ko'r-ko'rona ishonishga asoslanadigan e'tiqod, bu ko'proq johil kishilarga, fanatikalarga xosdir. Ikkinchisi umuminsoniy va milliy-axloqiy idealning ijtimoiy qimmatini aql idrok bilan anglab yetishga asoslangan e'tiqoddir. O'qituvchi ongida barkaror shakllangan axloqiy e'tiqod bu kasbiy fazilatdir. E'tiqodli muallim ko'zlangan pedagogik magsadga erishish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar, to'siqlardan cho'chimaydi, ularni bartaraf etadi. Odatda bunday o'qituvchi pedagogik faoliyatda tashabbuskor va tashkilotchi bo'ladi.

Ayrim o'qituvchilarda salbiy, g'ayri ilmiy, xato e'tiqodlar ham bo'lishi mumkin. Bunday holat ko'pincha, ayrim axloqiy qoidalarining mohiyatini anglamay, yaxshirok o'yab ko'rmay o'zlashtirish, yoki «Men hamma narsani bilaman», deb boshqalarning fikr-mulohazalariga e'tibor bermaslik, o'zining so'zi va xatti-harakatlariga tanqidiy yondoshmaslik natijasida paydo bo'ladi. Bunday muallim o'quvchilar, otionalarga mehnatsevarlik yoki burch haqida ma'ruza qilaverishi, lekin o'zi darsga tayyorlanmay kelishi ham mumkin.

Ongli ravishda hosil qilingan, umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlariga mos keladigan va o'z-o'ziga nisbatan talabchanlikka asoslangan e'tiqodgina pedagogik odob jumlasiga kiradi.

Mustaqillik makurasiga sodiq, axloqiy e'tiqodli muallimgina O'zbekiston maktablarida yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalay oladi.

Kishida axloqiy e'tiqodni shakllantirish masalasi bilan nafaqat pedagoglar, balki faylasuflar va psixologlar ham shug'ullanadilar. Psixologiya fanining yutuqlari e'tiqodni shakllantirish muammosini chuqurroq anglashga imkon beradi. Psixologlarning fikricha, inson ongining faolligi, bilimlarining mukammallashtirish borishi tashqaridan qabul qilinadigan axborotlarning doimiy/ligiga bog'liq. Bu axborotlar kishi ongida qayta ishlanadi, ular hayot, jamiyat talablariga va ilgari shakllangan tasavvur, tushuncha va e'tiqodlarga mos bo'ladi. Hayotdagi

yangi hodisalar o'shalariga kiyosan baholanadi.

Axloqiy bilimlar va axloqiy qarashlar bu kishiing tashki muhitidan, jamiyaidan olgan va tartibga solingan axborotlardir. Axloqiy e'tiqod esa tartibga keltirilgan axborotlar bilan birga xatti-harakatning mo'ljalangan, nazarda tutilgan andazasi hamdir. Axloqiy e'tiqod axloqiy tajriba natijasida shakllanadi.

Axloqiy yo'l-yo'riqlarni belgilashning muhim omili bu tarbiyalanuvchilarga yaxshi xulqi-odatlarni amalda ko'rsatish va so'z orqali ta'sir etishdir. Tarbiyalanuvchiga eshinganlaridan ko'ra ko'rilgan va his etilgan narsalar ko'proq ta'sir o'tkazadi. Odatda, o'qituvchilar axloqiy tarbiyada ko'proq so'z bilan ta'sir etish vositasidan foydalanadilar. Bu esa hamma vaqt ham kutilgan natijani beravermaydi. Shuning uchun ham aytilayotgan gaplarni ko'rsatmali misollar bilan

to'ldirish lozim. Aytilayotgan so'zlar tarbiyachining bajarayotgan ishi va xulqiga mos kelishi kerak. O'qituvchilar va ota-onalar bolalarda mehnatsevarlik, halollik, o'z qadr-qimmatini his qilish kabi sifatlarni tarbiyalash uchun katta kuch sarflash lozimligini biladilar. Lekin amalda, bir marta bo'lsa ham, teskari namuna ko'rsatib, tarbiyaviy ta'sirlarini yo'qqa chiqarib qo'yadilar.

Amaliy ideal axloqiy e'tiqodning asosini tashkili etadi. O'qituvchi odobida axloqiy ideal o'qituvchi shaxsining yuksak axloqiy fazilatlari haqidagi g'oyalar tizimidan iborat bo'lib, muallimning ta'lim-tarbiya jarayonidagi xatti-harakatlarini pedagogik burchini anglash asosida tartibga soladi va yoshlarni axloqiy barkamol qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Axloqiy idealda jamiyatning o'qituvchiga qo'yadigan talablari aks etadi. Bu talablar pedagogik burchini samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan axloqiy fazilatlarni o'zida mujassamlantiradi. Axloqiy idealning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u muallim erishishi lozim bo'lgan maqsadni xam nazarda tutadi. Axloqiy ideal kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi, shu bilan birga u real borliqqa ham asoslanadi. Turmushdan ajralib qolgan, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va istiqbollarni e'tiborga olmaydigan ideallar insonning faoliyati uchun yo'llanma bo'la olmaydi, u xomxayol, fantaziya bo'lib qolaveradi.

X-BOB. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA KASBIY AXLOQNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

11.1. Kasbiy-pedagogik axloqni shakllantirishda tarbiya va o'yin texnologiyalari imkoniyatlari

Hozirgi zamon yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishga chanoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlashga, malakasini oshirib borishiga va ongni yanada rivojlantirishiga, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishi keragligiga asosiy motiv bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda pedagogika faniga, ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «Aktyor» emas, aksincha «Rejissor» bo'lishi keragligini anglashi lozim. U o'z o'quvchi-talabalarini fanga ijodkorlik nuqtai nazar bilan qarashlarini tashkili qilishi, ularni izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkili etishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Shu o'rinda uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning nutq boyligi, uquvligini oshirishimiz, badiiy va ilmiy adabiyotlarga qiziqishini rivojlantirishimiz, ularning dunyoviy va diniy ilmlardan qay darajada xabardorligini aniqlashimiz kerak bo'ladi. Chunki ko'p o'qigan va uqgan yoshlarni aldash, miliy g'oyamizga yot bo'lgan g'oyalar sari yetaqdash xalqimiz dushmanlari uchun uddalab bo'lmaydigan masalaga aylanadi.

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarffamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimni nazorat qilish hamda baholash

yangi hodisalar o'shalariga kiyosan baholanadi.

Axloqiy bilimlar va axloqiy qarashlar bu kishiing tashki muhitidan, jamiyaidan olgan va tartibga solingan axborotlardir. Axloqiy e'tiqod esa tartibga keltirilgan axborotlar bilan birga xatti-harakatning mo'ljalangani, nazarda tutilgan andazasi hamdir. Axloqiy e'tiqod axloqiy tajriba natijasida shakllanadi.

Axloqiy yo'l-yo'riqlarni belgilashning muhim omili bu tarbiyalanuvchilarga yaxshi xulqi-odatlarni amalda ko'rsatish va so'z orqali ta'sir etishdir. Tarbiyalanuvchiga eshinganlaridan ko'ra ko'rilgan va his etilgan narsalar ko'proq ta'sir o'tkazadi. Odatda, o'qituvchilar axloqiy tarbiyada ko'proq so'z bilan ta'sir etish vositasidan foydalanadilar. Bu esa hamma vaqt ham kutilgan natijani beravermaydi. Shuning uchun ham aytilayotgan gaplarni ko'rsatmali misollar bilan

to'ldirish lozim. Aytilayotgan so'zlar tarbiyachining bajarayotgan ishi va xulqiga mos kelishi kerak. O'qituvchilar va ota-onalar bolalarda mehnatsevarlik, halollik, o'z qadr-qimmatini his qilish kabi sifatlarni tarbiyalash uchun katta kuch sarflash lozimligini biladilar. Lekin amalda, bir marta bo'lsa ham, teskari namuna ko'rsatib, tarbiyaviy ta'sirlarini yo'qqa chiqarib qo'yadilar.

Amaliy ideal axloqiy e'tiqodning asosini tashkili etadi. O'qituvchi o'zida axloqiy ideal o'qituvchi shaxsining yuksak axloqiy fazilatlari haqidagi g'oyalar tizimidan iborat bo'lib, muallimning ta'lim-tarbiya jarayonidagi xatti-harakatlarini pedagogik burchini anglash asosida tartibga soladi va yoshlarni axloqiy barkamol qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Axloqiy idealda jamiyatning o'qituvchiga qo'yadigan talablari aks etadi. Bu talablar pedagogik burchini samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan axloqiy fazilatlarni o'zida mujassamlantiradi. Axloqiy idealning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u muallim erishishi lozim bo'lgan maqsadni xam nazarda tutadi. Axloqiy ideal kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi, shu bilan birga u real borliqqa ham asoslanadi. Turmushdan ajralib qolgan, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va istiqbollarni e'tiborga olmaydigan ideallar insonning faoliyati uchun yo'llanma bo'la olmaydi, u xomxayol, fantaziya bo'lib qolaveradi.

X-BOB. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA KASBIY AXLOQNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

11.1. Kasbiy-pedagogik axloqni shakllantirishda tarbiya va o'yin texnologiyalari imkoniyatlari

Hozirgi zamon yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o'rganishga chanoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta'lim mazmuniga talabchanligi, o'qituvchining o'z ustida ishlashga, malakasini oshirib borishiga va ongni yanada rivojlantirishiga, ta'lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo'lib borishi kerakligiga asosiy motiv bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda pedagogika faniga, ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «Aktyor» emas, aksincha «Rejissor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. U o'z o'quvchi-talabalarini fanga ijodkorlik nuqtai nazar bilan qarashlarini tashkili qilishi, ularni izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkili etishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Shu o'rinda uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning nutq boyligi, uquvligini oshirishimiz, badiiy va ilmiy adabiyotlarga qiziqishini rivojlantirishimiz, ularning dunyoviy va diniy ilmlardan qay darajada xabardorligini aniqlashimiz kerak bo'ladi. Chunki ko'p o'qigan va uqgan yoshlarni aldashi, miliy g'oyamizga yot bo'lgan g'oyalar sari yetaqdash xalqimiz dushmanlari uchun uddalab bo'lmaydigan masalaga aylanadi.

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarffamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimni nazorat qilish hamda baholash

o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi.

Bu borada o'qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim pedagogik vositalar:

ta'kidlovchi savollar bunda o'quvchining bergan savollarga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin. O'qituvchi a'lo'riativ, o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o'quvchilarda, fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. Interfaol metod va usullarni sanab o'tamiz: aqliy hujum, klasterlar, mustaqil xat, Venn diagrammasi, harakati ma'ruza, o'zaro ta'lim, muallifga savollar, «Bilaman, bilishni istayman, bilib oldim» (BBB), insert, baho-munozara, sinkveyn, qadriyatlar tizimi, debat, hamkorlikda izlanish, argumentlangan esse va boshqalar.

Bu usullar asosan basqichlarga ajratilgan dars jarayonida qo'llaniladi (chaqiruv, anglash, fikrlash) va har birida o'qituvchi o'quvchilarga tegishli topshiriqlar beradi. Bu metodlar va usullar o'quvchida kommunikativ qobiliyatining o'sishiga, o'quvchilar orasida hissiy aloqa o'rnatilishiga, muammoli vaziyatlar yechimiga, guruhda ishlashni, o'zgalarning fikrini tinglay olishni va o'z fikrini mustaqil bayon etishni o'rgatibgina qolmasdan, unda o'ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga, keng fikrlashga olib ketadi.

Davlatimiz Prezidentining «Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatining to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi va har qaysi inson alloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalo o'zi uchun, oilasi, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar to'liq taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas.»

Bu so'zlarni shunchaki kelitirmadik, chunki yoshlarimizni ma'naviy barkamol, aqliy salohiyati yuqori, mustaqil va erkin fikrlovchi, ijodkor bo'lib shakllanishida pedagogik innovatsiyalarni qo'llash, integrativ jarayonga asoslanish, interfaol metodlardan foydalanish kamlik qiladi. Biz o'quvchi shaxsining ichki olamini hisobga olishimiz kerak bo'ladi. Ya'ni uning shaxsiy fikri bilan hisoblashimiz, undagi qobi-

liyalarni payqanmog'imiz, uning so'z boyligini oshib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsata olishimiz zarur. Xo'sh, buning uchun nima qilish kerak degan savol o'z-o'zidan tug'ilishi muqarrar. Uzlaksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tomonidan darslarda qo'llanilayotgan qoidalar darsni samaradorligini ancha oshirishini ko'rsatadi. Quyida shu qoidalarni sanab o'tamiz.

Mashg'ulotning samaradorligini oshirish uchun amal qilish mumkin bo'lgan qoidalar:

- dars qoldirmaslik va kech qolmaslik;
- aniq maqsad qo'yish va unga erishish;
- vaqtdan unumli foydalanish;
- fikrni bo'lmaslik;
- eshita olish, savol berish madaniyatiga rioya qilish;
- o'zgalar fikrini hurmat qilish;
- o'zaro hurmat;
- ma'suliyati bo'lish;
- faollik, ijodkorlik va bunyodkorlik;
- kayfiyatni mo'tadil saqlash;
- tashkilotchi va tashabbuskor bo'lish;
- fikrini qisqa, aniq va ravon ifoda etish;
- o'zaro hurmat, hayrixohlik, hamdardlik, yordam ko'rsatish.

Bu qoidalar shaxsni yuqori ma'naviyati, keng fikrlovchi, ijodkor, bo'lib shakllanishiga yordam beradi, shuningdek o'zgalarni fikrini hurmat qilishga o'rgatadi. O'quvchi-talabalarimiz dars jarayonida shu qoidalariga amal qila olishsa o'z fikrlarini, g'oyalarini aytishdan cho'chishmasa, serg'ayrat, shijoati, qalb tuyg'ulari ilmda beorom bo'lsa, o'zgalarni fikrini hurmat qila olishsa darslar o'z samarasini berishi aniq. Hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda talabalarni o'z-o'zini tarbiyalaydigan, o'zi mustaqil izlanib, bilimlarni egallaydigan darajaga olib chiqish asosiy vazifa hisoblanadi.

Raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlovchi pedagogga qo'yiladigan zamon talabidir. Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashtirgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iboratdir:

- Ta'lim berish mahorati;
- Tarbiyalay olish mahorati;
- O'quv – tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiyat

fazilati;

• Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolissona baholay olish va nazorat qila bilish mahorati.

Umumlashtirilgan model doirasidagi malakaviy zamon talablari pedagog «Qiyofa»sini ifodalaydi. Kasbiy tayyorgarlik yo'nalishi bo'yicha har bir pedagog o'zining aniq ish rejasini va metodlarini belgilay olishi lozimdir.

Har qaysi ta'lim dargohida avvalo ma'naviy muhit ijodiy shakllangan va ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha olib borilayotgan tadbirlarning samarali bulishiga erishish lozimdir. Ma'naviyat va ma'rifat ishlari buyicha ma'sul shaxsning yillik ish rejasida quyidagi tadbirlarning mavjudligi ta'lim beruvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilarni to'g'ri yo'lga boshlash ularga kasbiy mahorat sirlarini anglatish kasb etikasi va psixologiyasini singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo har bir guruhga ma'sul bo'lgan guruh rahbarining tarbiyaviy ishlari buyicha yillik ish rejasini mavjud bo'lishi lozim. Har bir uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning bugungi davr bilan hamnafaslikda bo'lishlarini ta'minlaydi. «Vaqt budjetidan foydalanish» tadbirlarini joriy etish orqali vaqtning g'animat ekanligi va uning ahamiyatini tushuntirish mumkin. Kasbiy etikani shakllantirishga qaratilgan «Ustoz-shogird» tizimi orqali har bir o'quvchida ma'suliyat va kasbiy kunimlarni shakllantirish mumkin.

Bugun davr ma'naviy qiyofasi yuksak bo'lgan va o'zini ijodiy xislatlariga ega bo'lgan shaxslarga nisbat talabchandir. «Yuksak ma'naviy mezonlar» rukuni ostidagi tadbirlar orqali bo'lajak mutaxassisga ma'naviy qiyofasini shakllantirishga imkon beradi.

Zamon ildamlab bormoqda vatanimizning kelajagi yoshlar va yetuk mutaxassislar qo'lidadir. Shuni inobatga olgan holda «Zamonaviy o'zbek yoshlari va zamon talablari» mavzusidagi tadbirlarni doimiy o'tkazib borish orqali kasbiy sifatlarini shakllantirish har bir kasb egasining o'z kasbi bo'yicha rivojlanib borayotgan yangiliklardan xabardor bo'lishlarini ta'minlashga erisha olish mumkin. Kasb festivallari orqali «Bugun talaba ertaga mutaxassis» mavzusidagi turli kasb egalari bilan tashkil etiladigan uchrashuvlarning o'tkazilib borishi kasbga bo'lgan qiziqishni o'rtoq sabab bo'lishi mumkin. Kasbiy etika va estetik orqali axloqiy dunyog'arash va axloqiy burchni xis qilishga urg'atish mumkin. Chunki yillar davomida mehnat qilish fidoiy bo'lish

va o'z kasbiga bo'lgan sadoqati orqali insonlar jamiyatga o'z o'rni va mavqeyiga ega bo'lishi mumkin. Talabalar turar joyida «Ustozlik shartli kasb» mavzusida faxriylar bilan uchrashuvlar olib borish maqsadga muvofiq. O'quvchilar o'rtasida «Kasbim – faxrim mening» mavzusidagi insholar tanlovi va o'zi bilgan mashhur insonlar bilan intervyularni tashkil qilish musobaqalarini tashkil samarali natija beradi.

11.2. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarda kasbiy axloq me'yorlarini shakllantirishga qaratilgan o'quv tarbiyaviy ishlar mazmuni

O'quvchilik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy xarakterga ega. Pedagogik faoliyatning bunday xususiyati barcha fan o'quvchilariga, tarbiyachilar, sinf va maktab rahbarlariga birdek taalluqlidir. Barcha pedagogik xodimlarning har bir so'zi va amaliy xatti-harakatlari o'quvchilarga, tarbiyalanuvchilarga umuminsoniy va milliy axloqni singdirish maqsadiga xizmat qilishi lozim. Bu ish o'z navbatida muallim va o'quvchilardan axloq nazariyasi, axloqiy tasavvur va tushunchalar, o'quvchi odobiga doir bilimlarini muntazam ravishda oshirib borishni muvokama, mulohaza qilib, uning mohiyatini tushunish, mag'zini chaqishni talab etadi. Murakkab axloqiy hodisalarining mohiyatini o'quvchilarga tushuntirish mas'uliyati ish bo'lib, buning uchun muallim o'quvchilarning yoshi, saviyasiga mos, ular tushunadigan misollarni izlab topishi, tanlab olishi kerak.

Pedagogik faoliyat o'quvchidan axloqiy ma'rifati, yaxshi xulqi egasi bo'lishni; axloqiy tajribaga ega bo'lishni, o'z-o'zini muntazam ravishda axloqiy jihatdan tarbiyalab borishni talab etadi. Shu bilan birga muallim o'quvchilarga muntazam ravishda axloqdan saboq berib, ularni axloqiy bilimni qilishi; bolalarga yaxshi xulqiy odatlarni amalda bajartib, mashq qildirib, axloqiy tajriba o'rnatishlariga ko'maklashishi; o'quvchilarni ham o'z-o'zini tarbiyalab borishlariga erishishi zarur.

Axloqiy ma'rifat pedagogik faoliyatning takbiy qismi bo'lib, uning maqsadi umuminsoniy va milliy axloqning mohiyatini, qonuniyatlarini uning tamoyillari, talablari, qoidalariga doir bilimlarni, axloqning odamlar hayotidagi o'rni va rolini muallimning o'zi anglab olishi va tarbiyalanuvchilarga, o'quvchilarga singdirishdir. Pedagogik

xodimlarning hammasi, barcha fan o'quvchilarning faoliyati shu maqsadga qaratilishi za-rur.

O'zbekiston maktablarida «Tarbiya» o'quv predmeti sifatida o'qitilayotgani ham o'quvchilarni axloqiy ma'rifatli qilishdek muhim vazifani tuzukroq bajarishga, o'quvchilarning axloqiy tarbiyasini yaxshilashga da'vat etilgan.

O'quvchilarni axloqiy ma'rifatli qilish bu ularni axloqqa doir muammolar, axloqiy baho mezonlari bilan tanishtirish kishi biror ishini qilyotganida fikri, so'zi, xulqi, hatti-harakatlarida mas'uliyatini va erkinlik darajasini bilishi, har bir harakatining, xulqi-atvorining oqibatini ko'z oldiga keltirish lozimligini yoshlarga anglatishdan iborat. Shu tariqa o'quvchilar hayotning ma'nosi, yashashdan maqsad, baxt nima ekanligini anglab olishlari lozim.

Axloqiy ma'rifat shaxsni axloqiy tarbiyalashning birinchi bosqichi bo'lib, yoshlarni axloq to'g'risida falsafiy ta'limotlarning mazmuni va mohiyati, namunali axloqiy g'oyalar, tamoyillar, qoidalar bilan tanishtiradi. Kishi xulqiga bilimdan kura ham e'tiqod ko'proq turki bo'ladi. Axloqiy bilimlar hali e'tiqod degani emas. Ayrim o'quvchilar buning farqini ajrata olmay, axloqiy bilim berishni axloqiy tarbiya berish deb tushunadilar. Shuning uchun ham ular ko'pincha bolaga nasihat qilish, axloqqa doir mavzularda suhbatlar o'tkazish bilan cheklanib, bolalarga yaxshi ishlarni amalda bajaritishga, axloqiy ko'nikma va malakalar hosil qilishga kamroq e'tibor beradilar.

Maktablar tajribasini kuzatish shundan dalolat beradiki, o'quvchilar «Tarbiya» darslarida, shuningdek jamiyatshunoslik, gumanitar fanlarni o'qish jarayonida «axloq», «odob» so'zlarining ma'nosini bilib oladilar. Urtta Osiyo xalqlarining kadimiy urf-odatlari, axloq-odobi tarixini, Kur'oni Karim, Xadislarga doir bilimlarni o'rganadilar. Ona Vatan tarixi, Spitamen, malika To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi Vatan fidoyilarining jasoratlari bilan tanishadilar. Insoniy munosabatlar odobi salomlashish va xayrlashish qoidalari, so'zlashuv odobi qoidalarini bilib oladilar. Shuningdek, insoniy fazilatlar tozalik, ozo-dalik, poklik, soch-soqolni parvarish qilish, pardo-andoz odobi qoidalarini;

halol, xarom nimaligini, chekish, ichkiitkibozlik, g'yovvandlik kabi zararli odatlardan saqlanish haqidagi tushunchalarni oliaviy hayot odobi va psixologiyasiga doir bilimlarni o'rganadilar. Bularning barchasi

o'quvchilarni axloqiy jihatdan ma'rifatli qilishga qaratilgan.

Shu bilan birga ularda umuminsoniy va milliy axloq qoidalari, talablariga mos ravishda harakat qilish, ularga amal qilish istagi, ehtiyoj ham shakllangan bo'lishi zarur. Tarbiya mashg'ulotlarini hayot bilan bog'lash maqsadida sinfdagi o'quvchining biror nojo'ya xatti-harakatini hadeb misol tariqasida keltiraverish ham yaxshi natija beravermasligini unutmashlik dardkor.

O'quvchilarni axloqiy ma'rifatli qilish vositalaridan biri ularga pand nasihat berishdir.

Nasihatni albatta, o'rni bilan va me'yorida ishlatish lozim. Aks holda u nasihat bozlikka aylanib ketadi. «Keksalar sizdek paytida unday qilgan edilar, bunday qilgan edilar. Siz urush nimaligini, qiyinchilik nimaligini ko'rmagansiz, bashing qiyinasiz, tayyorga ayyorsiz» qabulida ta'na toshlarini o'tish, minnat qilish yoshlarning g'ashini keltirib, nafратini ko'zg'atishi mumkin. Keksalar haqida, ularning yaxshi an'analari, odatlari haqida gapirish bilan birga yoshlarning ham ibratli, yaxshi xulqini ma'qullash xolisona baholash dardkor. Shuni unutmashlik lozimki, jamiyat hamma vaqt olg'a qarab taraqqiy etadi. Yoshlar otalonalaridan ko'ra ilgariab ketadilar. Ular xulqida biror salbiy hodisa yoki odoabsizlik uchrasa, buning sabablarini aniqlash lozim. Ko'pincha bolaning yomon xatti-harakatiga ota-ona, kattalar sabab bo'lishi bu noto'g'ri tarbiya oqibati ekanligi ma'lum bo'ladi.

Muallim biror axloqiy qusurni o'quvchilar bilan tahlil etayotganida, iloji boricha, sinfda turgan o'quvchini misol tariqasida keltirmasligi yoki «o'quvchilardan qaysi biri bunga o'xshaydi» deb, darsni bo'shroq o'zlashtiradigan yoki sho'xroq bolaga ishora qilmasligi lozim. Bunday «axloqiy ma'rifat» bolani haqoratlashga aylanishi, yomon oqibatlariga olib kelishi ham mumkin.

Bolalarni axloqiy ma'rifatli qilish uchun muallim o'quvchilarning hissiyotiga ta'sir o'tkazadigan vositalardan foydalanishi kerak. Bunda badiiy adabiyot juda qo'l keladi.

Masalan, Xadislarning mazmunini ifodalagan she'rlar Alisher Navoiyning «Qirq xadis» Abdulla Oripovning «Xaj daftri» va boshqa kitoblardan foydalanish axloqiy saboq mashg'ulotlarini jonlantiradi, tarbiyaviy ta'sirini oshiradi.

O'quvchilarni axloqiy ma'rifatli qilishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muhim rol o'ynaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimlarida odob-axloq tarbiyasi buyicha bir nechta xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Muallimning axloqiy-ma'rifiy faoliyati samarali bo'lishi uchun u, o'quvchi yoki talabning axloqqa doir bilim darajasidan xabardor bo'lishi kerak. Bolalar bilan yakka-ma'yakka suhbatlar o'tkazish, savol-javob kechalari tashkil etish, mashg'ulotlar jarayonida axloqqa doir savollar berish kabilar bunda qo'l keladi. O'qituvchi bolalarni axloqiy ma'rifati qilish jarayonida shuni esda tutishi lozimki, «Hayotning ma'nosi nimadan iborat?», «Kimni baxtli deysiz mumkin?», «Baxtlikni «O'lgandigan toshu tarozi, mezonlar bormi?» kabi axloqiy masalalarga yoshlar hamma vaqt qiziqqanlar va qiziqadilar.

Shuningdek, oilaviy hayot, jinsiy odob muammolarining axloqiy jihatlari ham yoshlarni o'ziga jalb etadi. Bunday suhbatlar chog'ida sinfdagi biror bolaning salbiy xatti-harakati haqida gap ochilgan bo'lsa, juda ehtiyot bo'lish, bolaning shaxsiga tegmaslik, aksincha, muallim bola shaxsiga va uning qadr-qimmatiga inson sifatida qarashi, hurmat bilan yondoshishi zarur.

Muallim o'quvchilarni axloqiy ma'rifati qilishda «Otlar so'zi - aqlning ko'zi», «Ma'rifanomana» kabi teleko'rsatuv materiallaridan ham foydalanishi muhimdir. O'quvchilarga axloqiy saboq berishda kinofilm va telefilmlardan qo'l keladiganlarini tanlay bilish lozim.

Shu bilan birga teleekran, kinoekranlarda namoyish etilayotgan ayrim chet el filmlari xalqimizning tarixan qaror topgan milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, axloqiga to'g'ri kelmasligini ham o'quvchilarga tushuntirish darkor.

O'quvchilarda axloqiy tajriba hosil qilish pedagogik faoliyatining muhim jihatlardan biri bo'lib, u ijobiy axloqiy xatti-harakatlarni bajar-tirish, mashq qildirishdan iborat. Bu jarayonga o'qituvchilar va ot-onalar rahbarlik qiladilar. O'qituvchi bu ishga pedagogikdan bilimdon mutaxassis sifatida yondoshishi, bolaga axloqiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan barcha omillarni hisobga olishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilar pedagogika o'quv yurtida ta'lim olish jarayonida bu sohada katta imkoniyatlarga ega bo'lishadi. Chunki o'quv yurtidagi nazariy mashg'ulotlar bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik amaliyoti bilan birga amalga oshiriladi, talabalar o'quvchilarni axloqiy ma'rifati qilishga doir tadbirlarni, topshiriqlarni bajaradilar.

o'quvchilarga axloqiy mavzularda ma'ruzalar qilib, ular bilan suhbat, uchrashuv, anjumanlar o'tkazadilar; sayohatlarga birga borib, tarbiyasi qiyin bolalarga xomiylik qiladilar, o'quvchining oilasidagi ma'naviy-rubiy vaziyatni o'rganadilar. Bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilar bilan birga ijtimoiy-foyda mehnatda, yozgi dam olish oromgohlarida ishlash jarayonida ham o'quvchilarning axloqiy tajribasini tashkil etish, ularga yaxshi xulq-odatlarini mashq qildirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quvchilarni foydali mehnatning xilma-xil turlariga jalb etish axloqiy tajriba o'rnatishning muhim shartidir. Bolani axloqiy jihatdan tarbiyalashda mehnat faoliyatining ahamiyati katta.

Mehnat jarayonida tejamkorlik, hamkorlik, o'z-o'ziga va tengdosh-lariga talabchanlik, mehnatsevarlik, uddaburonlik kabi axloqiy fazilatlar shakllanadi.

Axloqiy mashqlarni bajartirish jarayonida uzluksiz ta'lim tizimi, oila, o'qituvchilar, ot-onalar bolaga nisbatan bir xil talab ko'ya bilishlari muhimdir. Ayrim oilalarda ot-onalar o'zlarini sezmaganda holda bolalari qalbiga qaysarlik, o'jarlik, o'zbochimchalik, ochko'zlik, kattalarga ishonmaslik urug'ini sepgan bo'ladi. Bunday bolalarga yaxshi ishlarni bajartirish, ezuq xulqlarni mashq qildirish ancha qiyin kechadi.

Bundaylar orasidan «Tarbiyasi qiyin» bolalar yetishib chiqadi. Qaysar bola ko'pincha kichikligida katta yoshdagi kishilarning yaxshi niyati, odilligiga ishonchini yo'qotgan bo'ladi. Bolaning mur'ak-qabida paydo bo'lgan bu ishonchsizlik asta-sekin dushmanlikka, shafqatsizlikka aylanadi va uni jo'rttaga oson ishlar qilishga undaydi. Bundaylarni gap, nasihat bilan tuzatish amri mahol, ularni amaliy ishlarga faol jalb etish lozim. Chunki illat bolaning qalbini, vujudini butunlay egallab oladi. Sinf rahbari, o'qituvchi bundan kech xabar topsa ham, bola qalbini bu illatdan tozalashni o'z burchi deb bilishi kerak, oiladagi jaholat asoratini insoniylik, adolat, xayrixohlik, xushyorlik bilan bartaraf etish zarur. O'z xulqidagi nuqsonni yo'qotishda bolaga amaliy yordam darkor.

Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchigina bola qalbiga yo'l topib, unga yaxshi ishlarni amalda bajartirib, mashq qildirib, undagi qaysarlikni bartaraf etishi mumkin. Badiiy adabiyotda, pedagogik amaliyotda bunday misollar ko'plab uchraydi.

O'qituvchining axloqiy qiyofasi, ibrat-namunasi bolaga har qanday

nasihatdan ko'ra kuchliroq ta'sir etadi. O'qituvchining fidoi ishlari, mehnati, yaxshi xatti-harakatlarini ko'rgan o'quvchi unga ergashadi. Muallimning bolalar bilan birga ishlashi, birga ovqatlanishi kabilar ham axloqiy ta'sir o'tkazishda muhimdir. O'qituvchi «muallimning aytganini kilu, qilganini qilma» qabilda ish tutishi aslo mumkin emas. Kishi o'ziga nimani ravo ko'rsa, boshqalardan ham o'shani talab etishi axloqiy ta'sir o'tkazishning samarali usulidir.

Axloqiy faoliyat jarayonida insonning o'zi ham, bilimlari, dunyog'arashi, e'tiqodi ham o'zgara boradi.

Ijodiy faoliyat jarayonida insonda o'z-o'zini boshqarish qobiliyati hosil bo'ladi, u o'z istaqlarini o'z irodasiga bo'ysundirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kishining o'z shaxsini axloqiy ideal, axloqiy bilimlar, e'tiqodlar asosida shakllantirish maqsadiga yo'naltirilgan faoliyati o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashdir. Bu jamiyada amalga oshirilayotgan axloqiy tarbiya jarayonining davomi, axloqiy faoliyat shakllaridan biridir.

Shaxsning axloqiy kamoloti jamoada, faol faoliyat natijasida sodir bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlarda jarayonida kishi o'zida ma'lum bir axloqiy qarashlarni hosil qiladi, bu qarashlar o'z navbatida uning xulqiga, xatti-harakatlariga ta'sir etadi. Kishining jamiyada egallagan holati, kasbi ham uning ongi va xulqiga ta'sir o'tkazadi. Axloqiy kamolotning bu qonuniyatlari o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash jarayoni ham ijtimoiy hayot talablari bilan uzviy bog'liq ekanligidan dalolat beradi. O'z-o'zini axloqiy tarbiyalashning mohiyati jamiyatning rivojlanishi, davlatning taraqqiyotiga yo'naltirilgan bo'lishi, unga xizmat qilishi lozim.

O'z-o'zini axloqiy tarbiyalash bu kishining ijtimoiy tajribada mavjud bo'lgan va shu jamiyat a'zolarining ongida mustahkamlanib qolgan axloqiy odatlar va sifatlarni egallab olishga yo'naltirilgan faoliyatidir. Demak, o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat talablari asosida belgilanadi.

O'z-o'zini axloqiy tarbiyalash har bir shaxsning mehnat jamoalari, ma'lum bir guruh, kasb egalarining mehnat faoliyatida qatnashishi jarayonida yuz beradi. Jamiyada axloqiy tarbiyaning va o'z-o'zini tarbiyalashning maqsadi va mazmuni bir xil bo'ladi. Bu maqsadga erishish axloqiy tarbiyaning natijasi va jamiyatni tarakkiy ettirishning sharti hamdir. Shuning uchun ham o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash

masalasi pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega.

O'rta Osiyoda o'tmishda yashab ijod etgan mutafakkirlar, donishmandlar Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Navoiy, Bobur va boshqalarning faoliyati shundan dalolat beradiki, ular o'z bilimlarini oshirish, shaxs sifatida kamolotga erishishlari uchun o'z-o'zini tarbiyalashga katta e'tibor berganlar va natijada insoniy kamolot, ilm-fanni rivojlantirish borasida yuksaklikka erishganlar.

O'z-o'zini axloqiy tarbiyalash ishini samarali amalga oshirish uchun o'quvchidan quyidagilar talab etiladi:

— axloqiy rivojlanish sohasida ergashish, taqdid qilish lozim bo'lgan namunani ko'z oldiga aniq keltirish. Pedagogning axloqiy qiyofasiga qo'yiladigan asosiy talablarnigina emas, pedagogik ish jarayonida muallimning xulqida namoyon bo'ladigan eng nozik axloqiy hislatlarni ham bilish;

— pedagogik burchini mukammal bajarish, obro' orttirish uchun zarur axloqiy sifatlarni aniqlash;

— pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiya ishi uchun zarur bo'ladigan axloqiy fazilatlarini shakllantirishga imkon beradigan faoliyat turlarini bajarishga faol kirishish va o'z axloqiy bilimlarini tizimli ravishda oshira borish zarurligini anglash;

— o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash sohasida pedagogika ilmidan va pedagogik amaliyotdan qaror topgan tarbiya shakllari va usullarini bilish. O'z-o'ziga o'z ishtiga tanqidiy munosabada bo'lish o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash jarayonida zarur axloqiy hislatlardan biridir. Bunday hislat o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash uchun kishiga o'z kamchiliklarini aniqlash, ularni bartaraf etish maqsadini o'z oldiga qo'yishga imkon yaratadi.

Kishi o'ziga, o'z xulqi, xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaramasa, o'z-o'zini tarbiyalab bo'lmaydi. Shuning uchun kishida bunday hislatni yoshlik chog'idan tarbiyalab o'stirish maqsadga muvofiq.

Kuzatishlar va o'qituvchilar bilan suhbat natijalari quyidagi xulosaga kelish uchun asos bo'la oladi muallimning o'z xatti-harakatlarining axloqiy qimmatini haqidagi tasavvuri, tushunchasi uning pedagogik mahorati darajasiga, pedagogik burchini sezish va bajara olish darajasiga bog'liq. Bu o'z navbatida muallimning pedagoglar jamoasidagi obro'yiga ta'sir etadi. Odatda, o'z ishining ustasi, mohir

o'qituvchilar o'z-o'ziga, o'z ishiga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan o'rtacharoq pedagog esa xotirjam yuraveradi, o'quvchining bilimi o'z bilimlarini muntazam oshirib borishga intiluvchan bo'ladi. Sayozligi muallimning pedagogik mahorati darajasiga bog'liq emas, deb hisoblaydi. Bunday o'qituvchi o'z bilimlarini oshirib, o'z-o'zini tarbiyalashga befarq qaraydi. Ko'pincha, o'quvchilar orasida ham, pedagoglar jamoasida ham katta obro' ortira olmaydi. Pedagogik kengashlar va boshqa yig'ilishlarda tanqidga uchrasa ham bunga yo e'tibor bermaydi, yoki o'zining kasbiy tayyorgarlik darajasini tanqidiy baholay olmaydi.

Demak, har kim o'z kuchi va imkoniyatlarini oqilona, ongli baholay olishi, yo'naltirishi, boshqara bilishi muallim uchun o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashning muhim shartidir. O'z-o'zini baholash deganda kishining qobiliyati va bilimlari, pedagoglar jamoasidagi mavkei, axloqiy, ruhiy sifatlari, odatlari, ko'nikma va malakalarini baholay olish nazarda tutiladi. Bu har bir kishi o'z fazilatlarini va kamchiliklarini tasavvur etib baholay olishi, okilona yo'l tutishi demakdir.

O'quvchilar nazarida muallim inson kamolotining ko'zgusi hisoblanadi. O'quvchilar muallim timsolida barcha yaxshi fazilatlarini mujassam ko'rishni istaydilar. Lekin, radio, televidenie, ommaviy axborot vositalari ko'paygan xozirgi davrda muallim o'quvchilar uchun axborot olishning yagona manbai emas. Endigi bolalar muallimning fazilatlarini va xislatlarini boshqalar bilan taqqoslash imkoniyatiga ko'proq egadirlar. Shuning uchun hozirgi davr o'qituvchilarining axloqiy qiyofasiga qo'yi-ladigan talablar juda yuksakdir. Bu esa o'z navbatida muallimdan o'z bilimlarini muntazam oshira borish va o'z-o'zini axloqiy tarbiyalab borishni talab etadi.

O'qituvchi o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashning mohiyati axloqiy ideal talablarga mos ravishda o'zining fazilatlarini, odatlari va xislatlarini takomillashtirib, o'zgartirib borishni ongli ravishda belgilab olishdan iborat. O'qituvchining ko'z o'ngida inson kamolotining yuksak timsoli bo'lish uchun muallim o'z bilimlarini muntazam to'ldira borish bilan birga kelajakka ishonch bilan qarashi, olijanoblik va odillik fazilatlarini o'zida mujassamlantirgan bo'lishi darkor. Bu maqsadga erishish muallimdan o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash borasida muntazam va astoydil harakatni talab etadi.

Muallimdan o'z axloqiy fazilatlarini takomillashtirishni talab

etuvchi omillardan yana biri bolalar orasida, pedagoglar jamoasi, ota-onalar jamoasida obro' o'ttirishga intilishdir. Bu xam muallimni o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashga da'vat etuvchi omillardandir. Muallimning obro'si esa uning pedagogik mahoratiga, ta'lim-tarbiya ishiga bo'lgan munosabatiga, mafkuraviy va nazariy tayyorgarligiga, faolligiga, o'quvchilar va ota-onalar bilan ishlash usullariga, oliadagi xulqiga, bilim saviyasiga, o'quvchilar va o'z kasbdoshlariga xayrixohligi, kabilarga bog'liq. Bu fazilatlarini o'qituvchi pedagogik faoliyat jarayonida egallaydi va o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash yo'li bilan takomillashtiradi.

O'quvchilarning muallimga izzat-hurmat bilan munosabatlarda bo'lishlari xam o'qituvchilarning ishiga turki bo'ladi. Muallim pedagogik mahoratini egallamasdan turib obro' o'ttirib bo'lmastigini anglasa, o'z bilimlarini o'ttirishga intiladi, darslarga puxta tayyorgarlik ko'radi. Ayrim o'qituvchilar o'quvchining xulqi va o'qishidagi nuqsонlarga beparvolik qilib, ayrimlari esa boshqa kasbdoshlari obro'sini yerga urish bilan o'quvchilar ol-dida obro' o'ttirishga intiladilar. Bu yo'llar bilan hech qachon haqiqiy obro'ga erishib bo'lmaydi.

Muallimni o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashga undovchi omillardan yana biri so'z va ishning birligiga intilish, tarbiyalanuvchilar uchun ibrat bo'lish istagidir. Shuningdek, o'qituvchining darsga kechikib kelishi bolalarning ham dars qoldirishlari va kechikishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quv yurtlari tajribasi shundan dalolat beradiki, o'z ishining mohir ustasi hisoblanadigan muallimlar o'z bilimlarini oshirish sohasida muntazam ishlaydigan kishilardir. Bundaylar, odatda bilishga qiziquvchan va o'zlari bilgan, boshdan kechirgan voqea, taassurotlarini, bilimlarini boshqalarga, o'quvchilarga berishga intiladilar. Muallimda bunday fazilat va ehtiyojning mavjudligi o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashga da'vat etuvchi omildir.

Muallimning o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash faoliyati samarali bo'lishi uchun u pedagogika, psixologiya va metodika sohasidagi yangiliklardan, ilmiy tadqiqotlardan muntazam xabardor bo'la borishi kerak. O'rta Osiyoda yashab ijod etgan donishmandlar, buyuk mutafakkirlarning falsafiy, adabiy pedagogik merosida o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash uchun qimmatli maslahatlar, yo'l-yo'riqlar mavjud.

O'z-o'zini axloqiy tarbiyalashning muhim vositalaridan biri muallimning o'z faoliyati, xatti-harakatlari, xarakteridagi xislatlarning

ijtimoiy qimmatini tahlil eta olishidadir, o'z-o'zini tahlil etish shaxs uchun o'zligini anglash yo'llaridan biridir. Bu muallimga o'z kam-uchliklarini bilib olishga ko'maklashadi. Shu asosda o'z-o'zini axloqiy tarbiyalash vazifalarini belgilashi mumkin. Buning uchun muallim o'z xatti-harakatlarini kuzata bilmog'i lozim. O'z-o'zini kuzatish jarayoni bu muallimning o'z xulqi, hissiyotini aniqlash va o'z oldiga qo'ygan maqsadlari nuktai nazaridan ularni baholay olish jarayonidir.

Muallimning o'z-o'zini kuzatib va nazorat qilib borishi mustazam bo'lmog'i shart. Bunday ish odatda ma'lum bir muddatga mo'ljallab amalga oshiriladi. Muallim o'zini nazorat qilish uchun o'quvchiga, kasbdoshlariga, ota-onalarga bergan va'dasini alohida daftarga yozib borishi mumkin. Buning natijasida o'quv yoki pedagogik faoliyat davomida axloqiy xarakterdagi juda ko'p pedagogik faktlar, materiallar to'planadi. Muallimning o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashi o'z oldiga aniq maqsad va vazifalar ko'ya bilishi, o'ziga nisbatan qo'yadigan talablari real bo'lishi va ularni asta-syokin murakkablashtira borishi demakdir.

Buyuk daholardan biri quyidagi qoidalariga amal qilishni o'z faoliyati uchun asos qilib olgan hovliqmaslik, ayniqsa, tasbiqaridan qaraganlar uchun xotirjam bo'lib ko'rinish so'zda va xatti-harakatlarida rostgo'y, dangal bo'lish; o'ylab ish qilish; jur'atli bo'lish; o'zi haqida kamroq gapirish; vaqtni befoya o'tkazmaslik; mo'ljallagan ishini albatta bajarish zarur va kerakli narsalargagina sarf-xarajat qilish, har kuni kechqurun yotish oldidan o'z xatti-harakatlari uchun o'ziga vijdonan hisob berish, biror qilgan yoki qilmogchi bo'lgan ishi haqida maqtamaslik kerak.

Muallim o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashga kirishishdan oldin o'zi uchun bunga o'xshash qoidalarni belgilab olishi mumkin. Maqsad yo'lida intilish, irodasini ishga solish o'z-o'zini axloqiy tarbiyalashning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatimiz fuqarolariga ilm olish xuquqini va ilm olish uchun zarur sharoitlar yaratishni kafolatlaydi. Davlatimiz bu siyosatni izchil amalga oshirdi. O'zbekiston Respublikasi o'quv yurtlarida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarining barchasi yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirishga yo'naltirilgan. Ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi, demokratikligi, tarbiyalanuvchilar, ta'lim oluvchilarni hurmatlash O'zbekistonda ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyil-

laridan hisoblanadi. Ta'lim to'g'risidagi Qonun hujjatlarida bolalarning qadr-qimmatini hurmatlash, bolada mehnatsevarlik, yaxshilik va munavvat tuyg'usini, Vatanga, yoshi ulug'larga, davlat tili va ona tiliga, oilaga, milliy tarixiy va madaniy qadriyatlarga nisbatan hurmat bilan munosabatta bo'lish tuyg'usini tarbiyalash mas'uliyati vazifa ekanligi ko'rsatilgan.

Bu vazifalarni asosan o'quv yurtlarining pedagogik jamoalari, professor-o'qituvchilari bajaradilar. Shuning uchun ham davlat hujjatlarida pedagog xodimlar o'z kasblarining sha'ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari; odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, bola, o'quvchi va talaba shaxsining qadr-qimmatini hurmatlashlari, ularni mehnatga, qonunlarga, ota-onalar va xotin-qizlarga hurmat, atrof-muhitiga ehtiyojkorlik bilan munosabatta bo'lish ruhida tarbiyalashlari; o'zlarining butun faoliyatlarini va shaxsiy namunalari bilan umuminsoniy axloq qoidalariga: haqiqat, vatanparvarlik, insonparvarlik, yaxshilik va boshqa xayrli xislatlarga nisbatan hurmatni qaror toptirishlari; o'sib-ulg'ayib kelayotgan avlodni bir-birini tushunish, xalqlar o'rtasida, shuningdek barcha elatlar, millatlar va diniy guruhlar o'rtasiga tinchlik, ahil-inoqlik ruhida tarbiyalashlari lozimligi qayd etilgan.

O'zbekiston fuqarosining ma'naviy qiyofasini belgilovchi fazilatlar, sifatlar vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g'urur, mehnatsevarlik, baynalminalchilik o'qituvchining faol ishtiroki ta'siri ostida shakllanadi. O'qituvchilik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy xarakterga ega.

Bo'lajak o'quvchilarning axloqiy sifatlarini kasbiy ma'naviy fazilat bo'lib, oliy maktabda amalga oshiriladigan pedagogik jarayonda shakllanadi. Bu jarayonda kasbiy tayyorgarlik bilan tarbiyaning barcha tarkibiy qismlari: aqliy ta'lim, mehnat, axloqiy, xuquqiy, iqtisodiy, ekologik, jismoniy va estetik tarbiya uzviy ravishda bog'langan holda o'sib rivojlanadi.

Ularning birini ikkinchisidan ajratgan holda rivojlantirib bo'lmaydi. Demak, bo'lajak o'qituvchining kasbiy-axloqiy sifatlarini umuminsoniy va milliy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida shakllana boradi.

XULOSALAR

Axloq-odob - bu jamiyatda, kishilar o'rtasida kundalik turmushda zarur bo'lgan xatti-harakatlar, urf-odatlar me'yori, qoidalaridir. Barcha me'yor va qoidalarini kishilar tomonidan ado etilishi-ni nazorat etish va tartibga solish ijtimoiy, yuridik asosda ta'minlanadi.

Axloq - odob qoidalari va me'yori har bir xalqning qadriyatlarida muhim urin egalaydi. Unda usha xalqning turmush tarzi madaniy saviyasi, an'analari guruh, dini ifodalanadi, aks etadi. Shuning uchun axloq-odob qoidalari va me'yori usha xalqning bitmas tugalmas ma'naviy boyligi hisoblanadi va millat darajasida shakllanganlik darajasi deb qaraladi.

Axloq-odob me'yor va qoidalari jamiyat taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'zgarib boradi. Bunda qardosh xalqlar, mintaqada yashovchi xalqlar, millatlar urf-odatdari bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Ilg'or, qulay urf-odatlar, an'analar, an'analar esa qadriyatlar darajasiga kutariladi.

Bugungi kunda yeshlarni yuksak ma'naviy g'oya va milliy urf odat, an'analar asosida tartibyalash dolzarb malalaga aylangan. Yuksak ma'naviy g'oya va urf-odatlar kulami nixoyatda keng va serqirra bo'lib, ulardan eng muhimlari: iymonlilik, vatanni sevis, insonparvarlik, do'stlik, o'rtoqlik, birodarlik, ongli intizom, ijtimoiy faollik, xalol mehnat, oila, davlat va jamiyat oldidagi burchni anglash, tinch totuv yashash uchun kurashish, hurfiylik kabilar.

Axloq-odobni bir birtidan ajratib bulmaydigan uch tartibiy qismi bo'lib, ular bir butunlikni tashkil etadi.

G'oyaviy - axloqiy ong - ijtimoiy xaetning shaxs tasavvurlari, qarashlari va e'tiqodlariga aks ettishi va ifodalanishidir. U shaxs faoliyatida qo'llaniladigan hayotiy tamoyillar bo'lib, u yoki bu muammoni hal etish, xatti-harakat xulqi qoidalarini tanlashda namoyon bo'ladi.

G'oyaviy - axloqiy qadr qimmat - shaxsning u yoki bu xatti-harakat va urf-odatlariga munosabati va ularni yaxshi yomonga ajratib baholashda ifodalanadi. Bunda shaxsning butun hayoti davomida intilishlar, hayot mazmunini belgilab beradigan ideallari muhim rol o'ynaydi.

Axloqiy hissiyotlar esa shaxsning o'ziga, boshqalarga ijtimoiy ho-disalarga munosabatida ifodalanadi. Shaxsning axloqiy hissiyotlari

g'ururi, or-nomus, vijod, uyat, nafrat, xudbinlik, mag'rurlik kabi shakllarda namoyon buladi.

Vatanparvarlik va baynalminallik axloqiy tarbiyada alohida o'rin tutadi. Xadisu Sharifda Vatanni sevmog iymondandir, deb bejiz aytilmagan.

Tarbiyasi va o'quvchi bolalarda Vatanga muhabbat, faxrlanish, xalq va mamlakat yutuqlaridan quvonish, uni dushmanlariga nafrat tuyg'ularini tarbiyalaydi. Bolalarni Vatan ravnaqi yo'lida va fidokorona mehnat qilishga tayyorlaydi.

Baynalminallik axloqiy qoida sifatida vatanparvarlikni boytiadi, o'z milliy qobig'iga urallib qolishga yo'l bermaydi. Barcha xalqlar bilan do'st bo'lib, tinchlik va taraqqiyot uchun kurashga chorlaydi.

O'quvchilarni vatanparvarlik va baynalminallik ruhida tarbiyalash ularda insonparvarlik hissini ulg'aytiradi, turli millat va elatlar bilan dust-inog yashashga o'rgatadi.

Mehnatda axloqiy munosabatni tarbiyalash - shaxsning butun ma'naviy yunalishini belgilaydi, chunki ishlamay, kurashmay yashash mumkin emas. Mehnat - yashash manbai. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va jamoa mehnatiga tayyorlik, mehnatni hurmat qilish va mehnatsevarlikda ifodalanadi.

O'quvchilar mehnat jabhalarida ishtirok etishlari orqali o'zaro yordam, muvaffaqiyatdan quvonish, o'zi va o'rtog'i mehnatini adolati baholash fazilatlarini shakllantiradi.

Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat-shaxsning jamoatchilik, kupchilik manfaatidan ustun qo'yishdir.

Jamoatchilik o'quchida insonparvarlik, mehnatga munosabat, ongli intizomni shakllantirishda yordam beradi.

Shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashni - bu o'quvchini o'z-o'zini ongli intizom ruhida tarbiyalashga o'rgatishdan iboradur. Intizom axloqiy me'yor bo'lib, shaxsning fuqarolik qiyofasini belgilaydi.

Maktab o'quvchilarini quyidagi intizom me'yoriyotlariga kuniktirish kerak:

1. Qabul qilingan intizom qoidalariga ukishda, mehnatda, bush vaqtlarida rioya qilishga extivoj sezishi;
2. O'z-o'zini nazorat qilish va o'z xulqini idora qilish;

3. Jamoada tartib buzayotgan, intizomsizlik qilayotgan bolalarga qarshi faol kurashish.

Intizom asosida ong yetadi, uni iroda boshqaradi. Ongli intizomni ta'minlaydigan qat'iylik, tashabbuskorlik, mustakillik, o'zini tuta bilish, uyushqoqlik irodaviy sifatlardir. Ongli intizom vijdon va rostguylik bilan bog'liq.

Axloqiy munosabatlar dastavval oilada shakllanadi. Sung oiladagi munosabatlar yasli va bolalar bogchalarida, maktab va oliy o'quv yurtlarida, jamoa joylarida takomillashadi. ...

Tarbiyani, - deydi Abdulla Avloniy - tug'ilgan kundan boshlash, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlandirmoq, axloqimizni go'zallantirmoq, zehnimizni ravshandirmoq lozim ekan.

Tarbiyani kimlar qilur? Qanday qilinur? Bu savolga "Birinchi uy tarbiyasi" deb javob bermoq lozim". Demak, adib ham oila tarbiyasiga ahamiyat beriyapti.

Maktabda axloqiy tarbiya berishga xilma-xil usullar qo'llaniladi. Quyida shu usullardan namunalar keltiramiz:

1. Axloqiy tarbiya o'qitish jarayoni bilan qo'shib olib boriladi. Buyuk nemis pedagogi A.V.Dsterverg aytganidek, yaxshi o'qita bilgan o'qituvchi yaxshi tarbiyalaydi ham.

2. Axloqiy tarbiya jarayonining muvaffakiyati o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasining saviyasiga bog'liq. Buning uchun jamoa ahil va inoq bolalar intizomli bo'lishi kerak.

3. Tarbiyaviy ishlarning rejali bo'lishi va xamjihatlik bilan amalga oshirilishi axloqiy tarbiyaning muvoffaqiyatini ta'minlaydi. A.S.Makarenkoning "10 ta yuqori malakali, o'z holicha ishlaydigan o'qituvchidan malakasi past, bir yozadan bosh chiqaradigan 5 ta o'qituvchi afzal" deganini unitmaslik kerak.

4. Maktabda ijobiy emosional shart-sharoit yaratish axloqiy tarbiya jarayoniga foydali ta'sir etadi. Masalan: Respublika mustaqilligi kuni, "Navruz" bayrami..kabitlar.

5. Barcha o'quvchilarning maktabdagi umumiy va yagona tartib qoidaga rioya qilishlariga erishish;

6. Axloqiy tarbiyada ongni, tushunchalarini shakllantirishda tushuntirish, uqtirish, suhbat, munozara, lektsiya, rag'batlantirish, jazolash usullaridan foydalanish;

7. Axloqiy odobni shakllantirishda mashq, bolalarni turli faoliyatini

uyushtirish;

8. Tarbiyaviy darslarini saviyasini oshirish;

9. Mehnat ilg'ori, ilm-fan xodimlari, mehnat va urush faxriylari, ko'p bolalali onalar, iymonli qariyalar, xojilar bilan o'quvchilar uchrashuvlarini uyushtrib borish;

10. Maktabda turli-tuman tadbirlar, adabiy kechalar, bayram, olimpiada, festival, musobaqalar utkazish, kinoteatr, televidenie kursativlaridan, jumladan, "O'talar so'uzi-aqlining ko'zi", "Ma'rifanoma" eshittirishlaridan yangi tashkil etilgan "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi tavsifalaridan foydalanish;

11. Dars jarayoni, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda Sharq qadriyatleri va milliy an'analari aks etgan Qur'oni Karim, Xadis, "Xatamnoma", "Tarbiya", "Xikmatnoma", "Bozornoma", Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u Bilig", Nosir Xisravning "Saodatnoma", Ibn Simoning "Donishnoma", Saddiyning "Guliston", "Buston", A.Navoiyning "Maxbub-ul qulub", Boburning "Boburnoma", A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq", shuningdek, Xamza, Fitrat, M.Ismolliy, X.Tuxtaboev asarlarini o'qib o'rganish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axloq odobga oid xadis namunalari Toshkent. fan. 1990 y.
2. Ajdodlar o'g'iti. B. Axmedov. Toshkent. Chulpon 1991 y.
3. Abu Nasr Farobiy «Fozil odamlar shaxri» 1993 y.
4. A. Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» T. 1992 y.
5. Amir Temur ugartari. T. Navruz 1992 y.
6. Axloq odobga oid xadis namunalari Toshkent. fan. 1990 y.
7. Abu Nasr Farobiy «Fozil odamlar shaxri» 1993 y.
8. A. Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» T. 1992 y.
9. Buriyev O. «Ma'naviyat sultoni» T. O'qituvchi. 1997 y.
10. Zyazyun I. A. va boshqa «Pedagogik mahorat asoslari (rus) Mos. 1989 y.
11. Ibraximov A. va boshqalar «Vatan tuyg'usi» T. 1998 yil.
12. Kaykovus «Kobusnoma» T. O'qituvchi. 1991 y.
13. Kaykovus, Unsuriy Maoliy. Qobusnoma. — T.: Istiqol, 1994. — 173 b.
14. Kadsin L. M. Muzikalnoye iskusstvo i tvorchestvo slushatelya. — M.: «Visshaya shkola», 1990.
15. Kadirov R. Muzikalnaya pedagogika. — T.: MUSIQ, 2009. — 504 s.
16. Karamatova B. M. Pedagogicheskiye osnovi ispolzovaniya muzikalnogo naslediya misliately Srednego Vostoka v uchebno — vospitatelnom protsesse shkoli (na primere urokov muziki): — Avtoref. diss. ... kand. ped. nauk. — T.: 2000 — 19 s.
17. Kratkiy psixologicheskiy slovar. (Sost. L. A. Karpenko) — M.: «Politizdat», 1985.
18. Muzikalniy ensiklopedicheskiy slovar. (Gl. red. G. V. Keldish) — M.: «Sovetskaya ensiklopediya», 1991.
19. Muzikalnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye. / avtor sost. Kadirov G., — T.: Muzika, 2005. — 80 c.
20. Muzikalnoye vospitaniye v shcole. Vip. 19.: Sb. statey. / Sostav. O. Apraksina. M.: Muzika, 1987. — 110 s.
21. Nazarov A. F. Klassicheskaya teoriya Iyk' (Ucheniye o muzikalnom ritme Farabi i Ibn Sini): — Avtoref. diss. ... dokt. iskust. — T.: 1996 — 32 s.
22. Oripov Z. Sharq musiqiy manbashustligi (X-XI asrlar). — T.: Fan va texnologiya, 2008. — 160 b.
23. Oripova R. O'smirlarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish (maktabdan tashqari muassasalardagi musiqiy to'g'araqlar misolidagi). T., 2007, — 76 bet.
24. Ochilov M. «Muallim kalb me'mori» T. Ukit. 2001 y.
25. Ochilov M. Ochilova N. «O'qituvchi odob» T. 1997 y.
26. Pedagogika / A. Q. Munavvarovning umum. tahr. ostida. — T.: O'qituvchi, 1996. — 200 b.
27. Petrushin V. I. Muzikalnaya psixologiya. — M., 2000
28. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi quvvchi shaxsini shakllantirish. P. f. n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgandiss. (13.00.01.), 2006 y., — 198 b.
29. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi shakllantirish. — T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y., — 84 bet.
30. Soipova D. Musiqiy o'qitish nazariyasi va metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. — T.: O'zbekiston davlat konservatoriyasi, 2009.
31. Protsess obucheniye // <http://ppsy.ru>
32. Protsess obucheniye // www.pedagog.uz.
33. Protsess obucheniye // www.ziyou.net uz
34. Qudratov T. Nutk madaniyati asoslari I. o'qituvchi. 1993 y.
35. G'oziyev E. T. Muomala psixologiyasi T. 2001 y.
36. G'oziyev E. T. Muomala mazmuni va uslubiyati Xalq ta'limi 2000 yil № 6
37. Fozilov I., Sultonov R., Saidov X. O'qituvchi ma'naviyatini shakllantirish T. 2000 y.
38. U. Tolipov, M. Usmonboyeva «Pedagogik texnologiya» nazariya va amaliyot Tosh. «Fan» 2005 y.
39. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Toshkent, «O'qituvchi», 1995, 39—46 bet

— 38742 —



Ernazarova Gulnora Oblaqulovna

YOSHLARNI MA'NAVİY TARBIYALASHDA MUSIQIY PEDAGOGIKANING AHAMIYATI

Monografiya

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musabih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 29.11.2022.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Times New Roman"
garnituras. Hisob-nashr tabog'i. 11,5.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 142.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzili: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.